

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSİYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

***"MILLIY G'OYA: O'ZBEKİSTONNING İJTİMOİY-IQTISODİY  
RIVOJLANİSH STRATEGİYASI" KURSIDAN  
MA'RÜZALAR MATNI***

## KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda barcha sohalarida katta yutuqlarga erishdik. Jumladan, bu borada oliv ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning ham o'ziga xos o'mni bor. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab na faqat oliv ta'lim tizimini shuning bilan birga uning mazmunini boyitishga qaratilgan islohotlarning xuquqiy bazasining ishlab chiqilganligi va uning real hayotga tadbiq etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarning dasturlari qayta ishlandi, ularni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari ishlab chiqilib o'quv jarayonlariga tadbiq etildi va mamlakatimiz taraqqiyoti, jadal o'zgarayotgan zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifalaridan kelib chiqib, birinchi blokka bir qator yangi fanlar va kurslar joriy etildi. Xususan, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining oliv ta'lim tizimiga kiritilganligi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, bu fanda talabalarimiz Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishning nazariy asoslari, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda barqaror taraqqiyotga erishishda yoshlarmizda fidoiylik, turli siyosiy kuchlar va g'oyalar mazmun, mohiyati hamda ulardan himoyalanish bo'yicha tegishli bilimlarni olmoqdalar. Aytish mumkinki, talabalarning bu fanga qiziqishi yildan yilga oshib bormoqda.

Ammo, bu fanni o'qitishda bakalavr va magistratura bosqichlarida takrorlanishlar mavjud edi. SHuning bilan birga, ana shu ikki bosqichni birini ikkinchisi bilan uzyyligini ta'minlaydigan, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichiga kirib borayotgani munosabati bilan ham "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kursini takomillashtirishga ham ehtiyoj yuzaga kelgan edi. Ana shularni hisobga olgan holda 2013-2014 o'quv yilidan boshlab oliv ta'limning magistratura bosqichiga "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursi o'qitish uchun kiritildi. Unda bakalavr bosqichida o'qitilayotgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" kursida ko'tarilgan masalalarni takrorlamaslik, davlatimiz rahbarining asarlari asosida mamlakatimizda shakllanayotgan yangicha tafakkur va dunyoqarashning ma'no-mazmunini xalqimizning istiqlolga erishish jarayoni, O'zbekiston tanlab olgan milliy taraqqiyot modelining mohiyati, uni bosqichma-bosqich amalga oshirilish jarayoniga xos qonuniyatlar, uning xususiyatlari, bozor munosabatlariga, asoslangan demokratik jamiyatga o'tishning turli modellari va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari, "O'zbek modeli" kontseptsiyasini ishlab chiqishda asosiy negiz bo'lgan masalalar, uning real amaliyotda namoyon bo'lish xususiyatlarini, global inqirozlar, bunday sharoitda O'zbekistonda amalga oshirilgan choratadbirlarning va "demokratiyan i ko'chirish" g'oyasining va uni tanqidining ma'no-mazmunlarini chuqur siyosiy-falsafiya tahlil qilish, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyalarini, Vatanga muhabbat, sadoqat mustaqillik yillarda erishilgan yutuqlardan g'ururlanish va istiqboldagi vazifalarni amalga oshirishda fidoiylik ko'rsatish kabi tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

**Mazkur kursni o'qitishning vazifasi O'zbekiston bиринчи Prezidenti I.A.Karimov asarlari asosida istiqlolga erishishning dastlabki yillarda va mustaqillik yillarda amalga oshirilgan strategik vazifalarni milliy g'oya kontekstida siyosiy-falsafiy anglash, bu jarayonning tarkibiy qismi O'zbekistonning taraqqiyot yo'li va rivojlanish strategiyasini mazmun-mohiyatini chuqr o'rgatish va uning jamiyat hamda xalqimiz hayotidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.**

**Mazkur kurs** “Milliy istiqlol g'oya”sining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi va ayni paytda undan quyidagi o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi:

**Birinchidan**, “milliy g'oya” mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish, uni mustahkamlashning nazariy asosi hisoblanadi. Bu kursda esa mamlakatimizda bozor munosabatlariiga o'tishning modellari uning O'zbekistonga xos bo'lgan modelining ishlab chiqilishida asos bo'lgan omillar, ularning amaliyotda namoyon bo'lish xususiyatlarini o'ziga qamrab olgan;

**Ikkinchidan** – “Milliy g'oya” fanida talabalar o'rganishi nazarda tutilmagan “nazariya va amaliyot”, “strategiya”, “ijtimoiy-siyosiy sohaning g'oyaviy asoslar”, “global ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz” va boshqa bir qator tushunchalarning mazmun-mohiyati bu kursda o'rganilgan va siyosiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Ayni paytda bu kursni yaxshi o'zlashtirish uchun bakalavriyat bosqichida o'qitilayotgan “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanini chuqr o'zlashtirish zarur bo'ladi. Chunki, bu kurs aynan ana shu fanning mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi.

Kursni chuqr o'zlashtirish talabalarimizda mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida amalga oshirilayotgan hamda oshirilishi lozim bo'lgan masalalar haqida tegishli bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishga, shuning bilan birga, bugungi kunda insoniyatning istiqboliga xavf solayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar haqida ham tegishli bilimlarni xizmat qiladi. Ayni paytda mazkur kursni o'rganish talabalarimizda vatanparvarlik, xalqparvarlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarga nisbatan sadoqatini yanada mustahkamlaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, kursning talabalar tomonidan mukammal o'rganilishi nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu uslubiy qo'llanma f.f.d.,prof.S.Otamuratov, s.f.n.,dots. O.Sirojov, s.f.n.,dots.H.YOrqulov, f.f.n. D.Ismatullaevlar tomonidan 2013 yilda “Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” kursidan tayyorlangan tajribaviy ma'ruzalar asosida, ularni to'ldirgan va yangilagan holatda tuzilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlari magistrлari uchun mo'ljalangan.

# **1-MAVZU: “MILLIY G’OYA: O’ZBEKISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI” KURSINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

## **Reja:**

1. “Milliy g’oya: O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” kursining predmeti.
2. Kursning umumnazariy asoslari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Kursni o’qitishning maqsadi va vazifalari.
4. O’zbekistonda yuksak ma’naviyatli shaxslarni tarbiyalashda kursning ahamiyati.

**1-masala.** Xalqlar, millatlar va davlatlar taraqqiyotida g’oya va mafkuralar muhim o’rin tutadi. Ayniqsa, rivojlanish maqsadlarini va taraqqiyot yo’lini belgilab beruvchi strategik g’oyalalar qanday ekanligi xalqlar, millatlar, davlatlar taqdirini belgilab beradi. O’z navbatida insoniyat va jamiyat ehtiyojlari uzlusiz o’sib boradi. Bu jarayon o’z navbatida ehtiyojlarni qondirish borasida yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni hal qilishga qaratilgan g’oyalarning shakllanishiga olib keladi. SHu ma’noda ham g’oya o’sib kelayotgan ehtiyojlarining in’ikosi va uni qondirish borasidagi muammolar va vazifalar tizimini o’zida ifoda ettiradi, deyish mumkin. Bu yo’nalishda mazkur kurs istiqbolga xizmat qiluvchi qarashlar, xulosalar va maqsadlar tizimi sifatida namoyon bo’ladi. Bu jarayonlar millatlar, xalqlarni taraqqiyotga olib chiquvchi ularning strategiyasi rivojlanish yo’lini, maqsadlarini ifodalovchi milliy g’oyalarning shakllanishiga olib keladi.

Ammo, maqsadlar va manfaatlarning turli tumanligi, ularning ayrimlari taraqqiyotga xizmat qilsa, ayrimlari tor doiradagi maqsadlar va manfaatlarga xizmat qilib taraqqiyotga zid harakterga ham ega bo’lishi mumkin. Bunday g’oya millat, jamiyat va umuminsoniyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir o’tkazadi va rivojlanishga qarshi bo’lgan qora kuchlar va to’siqlar yuzaga kelishiga olib keladi. SHu ma’noda ham g’oya haqida fikr yuritganda, uning yo’nalishi, maqsadi nimaga va kimlarga qaratilganligini aniqlash, mohiyat-mazmunini bilishni, uni baholashning asosiy sifatida qarash mumkin.

G’oyalarning maqsad va manfaatlari yo’nalishiga qarab turli shakllarda namoyon bo’ladi. Jumladan, milliy g’oya, milliy istiqlol g’oyasi, ilmiy g’oya, diniy g’oya, milliy rivojlanish g’oyasi, umuminsoniy g’oya, bunyodkor g’oya, yovuzlik g’oyasi, siyosiy g’oya va boshqa bir qator shakllarda g’oyalalar namoyon bo’ladi. Ular ma’lum ehtiyojlarining in’ikosi sifatida shakllanadilar va ularni qondirish maqsadlarini o’zlarida ifoda ettiradilar.

Milliy g’oya tizimida milliy mustaqillik g’oyasi va milliy rivojlanish g’oyalari muhim o’rinni egallaydi. Milliy g’oya, millat real sub’ekt sifatida mavjud bo’lgan har bir davr uchun o’z ahamiyatini saqlab qolaveradi. Milliy

tarraqqiyotning ma'lum bosqichlaridagi vazifalari yo'nalishlariga mos ravishda yangi g'oyalar yuzaga kelishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Milliy g'oya, deganda etnik birlikni o'zida namoyon etuvchi milliy ongini uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetiga "qiyofa" baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g'urur-iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi tafakkur majmuasini tushunish mumkin.

Milliy g'oyaning ta'sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, u millatning o'ziga xos ligini saqlab turish, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtirish, uyushtirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash kabilarga o'zining ta'sirini o'tkazib turadi.

Milliy g'oya milliy rivojlanish g'oyasi bilan chambarchas bog'liqidir. "Milliy g'oya millatning "menligi"ni, uning ma'naviy-ruhiy va intellektual salohiyati darajasini ko'rsatuvchi omili bo'lsa, milliy rivojlanish g'oyasi millatni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yuksaklikka yo'naltiruvchi ilmiy asoslangan kontseptsiyalar va nazariy fikrlar tizimi hisoblanadi""<sup>1</sup>.

Milliy rivojlanish g'oyasi ma'lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichida millat oldida turgan vazifalarni hal qilishga yo'nalganligi bilan harakterlanadi. Ularni amalga oshirish millatni mavjud darajadan yuqori pog'onaga erishishini ta'minlaydi. SHu ma'noda ham milliy rivojlanish g'oyasi millat ehtiyojlarining in'kiysi sifatida taraqqiyot bosqichlarida yuzaga keladigan vazifalarning mazmuni va ko'lamiga qarab o'zgarib va takomillashib boradi.

Millat mavjudligi sharoitida milliy g'oyani reallikka aylanishini, millatni taraqqiyot sari yo'naltirishni milliy rivojlanish g'oyasi amalga oshiradi. Milliy rivojlanish g'oyasi ma'no-mazmuni yo'nalishi millat taraqqiyotining barcha bosqichlarida unga yo'naltiruvchi manba bo'lib turadi va bu vazifa uning uchun o'zgarmas bo'lib qolaveradi.

Millat o'z taraqqiyotida turli bosqichlarni bosib o'tishi mumkin. Jumladan, shakllanish, rivojlanish yoxud qaramlik, yuksalish va takomillashuv kabi jarayonlarni o'z boshidan kechirishi mumkin. Ana shu jarayonlarni yuzaga kelishiga qarab millat oldida echish zarur bo'lgan vazifalar ham yuzaga keladi.

Dunyodagi aksariyat mamlakatlar, xalqlar, ana shu bosqichlarni bosib o'tdilar, bugun bu jarayon davom etmoqda. Ayniqsa, xalqlarning boshqalarga qaram bo'lib qolishi va undan ozod bo'lishiga qaratilgan harakatlar hamda bu yo'lida ko'rilgan og'ir talofatlar milliy istiqlol g'oyasining o'sha sharoit uchun katta rol o'ynaganligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. U millat vakillarini ozodlik yo'lida birlashtirish va umumiy dushmanga qarshi kurashning g'oyaviy asosi vazifasini bajargan. Aynan shunday sharoitda milliy istiqlol g'oyasi milliy g'oyaning ajralmas qismi sifatida ustuvorlik darajasiga ko'tarilgan.

Millatning qaramlik holatidagi asosiy maqsad va vazifasi milliy rivojlanish emas, balki, mustaqillikni qo'lga kiritish hisoblanadi. Bu maqsad va vazifani amalga oshuvigina milliy rivojlanishga imkon beradi. SHuning bilan bir qatorda

<sup>1</sup> Otarmuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. - T.: "Akademiya". 2005.-81- bet.

mustaqillikni qo'lga kiritishdan pirovard maqsad rivojlanish va barcha sohalarda yuksalishga erishish hisoblanadi.

Milliy g'oya millatning "qiyofasi", uning "maqomi" bo'lsa, milliy istiqlol g'oyasi uni qaramlikdan qutilish, mustaqillikka erishishi hamda rivojlanish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish holatining g'oyasidir. Milliy rivojlanish g'oyasi esa millat rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan holda millatni ana shu maqsad va vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, milliy rivojlanish g'oyasi millat hayoti bilan bog'liq g'oyalar tizimida o'zining ustuvorligini namoyon etib turadi. SHuning bilan bir qatorda milliy rivojlanish g'oyasi ham millat taraqqiyoti jarayonida doimiy ravishda takomillaшиб boradi. U yuzaga keladigan muammolar, vazifalar va ularning echimlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayoniga qarab rivojlanadi va takomillaшиб boradi. SHU ma'noda ham milliy g'oya, hamda milliy istiqlol g'oyasi milliy rivojlanish g'oyasining tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Aslini olganda, millat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan g'oyalarni birini ikkinchisidan ajratib qarash to'g'ri bo'lmaydi. CHunki, ularning hammasi ham millat maqsad va manfaatlariга xizmat qiladi. Ammo, ularning millat taraqqiyotining tarixiy bosqichlarida bajaradigan vazifalariga qarab o'rni va ahamiyatini farqlash lozim bo'ladi. Aks holda, ana shu bosqichlardagi vazifa va maqsadlarning xususiyatlariga qarab millatni yo'naltirib, unga kuch-qudrat va ilhom bag'ishlash zaruriyati o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lur edi.

SHU ma'noda ham bizning millatimiz uchun milliy g'oya uning "qiyofasi", "maqomi"ni bildiruvchi omil bo'lsa, milliy istiqlol g'oyasi uning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish, uni mustahkamlash va taraqqiyot uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish bosqichining g'oyaviy asosi bo'ladi. Bugun ularni qo'lga kiritdik, mustaqilligimiz reallikka aylandi va moddiy kuch aholimizning dunyoqarashi va kundalik xatti-harakatlarining yo'nalishini tashkil qilmoqda. Endi millatimiz oldidagi assosiy vazifa dunyodagi rivojlangan xalqlar darajasiga ko'tarilishi va farovon turmush sharotlарini yaratish hisoblanadi. Bu maqsadni "milliy rivojlanish g'oyasi" o'zida mujassamlantirib xalqimizni ana shu maqsad sari yo'naltirishga xizmat qilmoqda.

Milliy rivojlanish g'oyasi har bir millat rivojlanishi uchun xos bo'lgan omil hisoblanadi. Lekin, uni ko'p millatli mamlakat sharotida millatlar manfaatlari va maqsadlarini uyg'unlashtiruvchi omil sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. CHunki, milliy rivojlanish g'oyasini tor ma'noda qo'llash umumiy taraqqiyot manfaatlariга zid bo'lgan holat hisoblanadi. SHU ma'noda ham uni O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlar manfaatlarini o'zida ifoda ettiruvchi O'zbekiston xalqining milliy rivojlanish g'oyasi sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi.

"Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" **kursining ob'ekti** O'zbekiston jamiyatni hayoti sohalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning g'oyaviy masfkuraviy sohalari.

"Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursida O'zbekistonning rivojlanish yo'li, uning asosiy g'oyalari, nazarialiysi va kontseptsiyalari o'rganiladi. Ushbu *kursning predmetini* o'zbek xalqining mustaqillik sharoitidagi taraqqiyoti va yuksalishi jarayoni, ya'ni, mustaqillikka erishish va mustaqillikni mustahkamlash, rivojlanishning o'zbek modeli, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish strategiyalari tashkil etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mafkuraviy jihatdan asosanib, tayyorlanayotgan kadrlar g'oyaviy qurollantiriladi, mamlakat kelajak taraqqiyotiga ishonch e'tiqodi tarbiyalanadi.

**Kurs uslublari:** tajriba, qiyosiy tahlil, emperik-sotsiologik va ilm-fanning boshqqa zamonaviy uslublari.

SHu o'rinda savol tug'iladi: - strategiya nima? - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, deganda nimani tushunish kerak?

"*Strategiya*" so'zi - yunon tilidan olingen bo'lib qo'mondonlik sa'nati deb tarjiima qilinadi. U dastlab harbiy tushuncha sifatida ishlatilgan, keyinchalik boshqa sohalarni ham boshqarishda uzoq muddatga mo'ljallangan reja, asosiy maqsad va unga olib boradigan dastur ma'nolarida ishlatilib kelingan. SHuning uchun uzoqni ko'zlab rejalar tuzuvchi va uni mohirona amalga oshiruvchi siyosatchilar strateg, deb ataladi. *Strategyaning davlat strategiyasi, harbiy strategiya, iqtisodiy strategiya, ijtimoiy strategiya va boshqa ko'rinishlari bor.*

Aslida, davlat strategiyasi ma'lum bir tarixiy rivojlanish bosqichida biror ijtimoiy qatlarning mamlakat rivojlanish yo'lini belgilashidir.

Davlatning strategik vazifalariga jamoat tartibini saqlash, fuqarolar faoliyatini belgilash va shaxsiy tashabbus rivoji uchun sharoit yaratish, xavfsizlikni ta'minlash, har kimga huquqiy erkinlik va mulkka egalik qilishni ta'minlash, jamiatyada axloqiy qarashlarni rivojlanтирish va boshqalar kiradi.

Agar davlat strategiyasi xalqlarni rivojlanishga, farovonlikka olib kelsa, u milliy strategiya deyiladi, aks holda, aksilmilliy harakterga ega bo'ladi.

*Iqtisodiy strategiya* - davlat tomonidan iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va vositalarini aniqlanishi, hamda *siyosiy strategiyani* amalga oshirish maqsadida *iqtisodiyotga aralashuvi* hisoblanadi. U davlat faoliyati yo'nalishining harakterini belgilaydi va uzoq muddatga mo'lljallangan tamoyillarini umumiyl ma'noda amalga oshiradi. Davlatning ma'lum bir muddatda amalga oshiradigan strategik vazifasi uchun iqtisodiyotga aralashish tamoyillari iqtisodiy siyosatda namoyon bo'ladi.

**Davlat strategiyasi iqtisodiy jihatdan quyidagicha tasniflanadi:**

- *Korporativ strategiya* hukumron ijtimoiy qatlam (korporativ guruhlar) ning fuqarolar turmush farovonligining pasayishi hisobiga egoistik manfaatlarini amalga oshirishi.

- *Ijtimoiy samarali strategiya* – tayyor mahsulot barqaror o'sib borishi optimal tizimi fuqarolar uchun xizmat qilishi, yalpi bandlikning ta'minlanishi, infliyatsiyaning yo'qligi va milliy daromadning adolatli taqsimoti.

- *Liberal strategiya* davlat iqtisodiyoti tovarlar va kapital mablag'farning erkin harakati uchun ochiqligini bildiradi.

- *Boshqariluvchi strategiya* tovar va kapital mablag'lar harakatiga davlat nazorati o'matilganligini ifodalaydi.

- *Safarbar etuvchi strategiya* davlatning yashovchanligini oshirish uchun talab etiladi, u ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalarga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvlar paytida kuchayadi.

Shu ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini quyidagicha tafsiflash mumkin: ijtimoiy va iqtisodiy resurslarni mamlakat taraqqiyotiga yo'naltirish nazariysi va amaliyoti hisoblanib, u mamlakat taraqqiyotini rejalashtirish, uni siyosiy usul va vositalar bilan amalgalashish masalalarini o'z ichiga oladi. Jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qiladi, strategik maqsadlarni belgilab, unga erishish usullarini hamda yo'llarini ishlab chiqadi. Davlat organlari, tibbiyot, ta'lif, nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalarning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi kuchlarni strategik yo'nalishlar bo'yicha uyshtiradi yoki taqsimlaydi.

Mamlakatlar rivoji va xalqlarning farovonlikka erishishida o'z vaqtida to'g'ri tanlangan strategiyalar muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Albatta, tanlab olinagan strategiyaning amalga oshishida taktika ham muhim rol o'yndaydi.

Taktika bu - belgilangan maqsadga erishish uchun ishlataladigan vosita va usullar majmuasi hisoblanadi. Taktika strategiyani amalgalashishda bir oraliq vazifa bo'lib, strategiyadagi asosiy maqsadga bo'yindirilgan bo'ladi. YA'ni, strategiya asosiy maqsadga oraliq taktik vazifalarni bajarish orqali erishadi, bu vosita, maqsad ko'rinishida bo'ladi.

Masalan, O'zbek modelining "Bilimga tayangan innovatsion jamiyat" ga o'tish strategik maqsadini takrik jihatdan sohalar bo'yicha quyidagicha ifodalash mumkin:

\*O'zbek iqtisod modeli (kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik).

\*O'zbek ilm-fan va ta'lif modeli. (Bilimga tayangan innovatsion jamiyat).

\*O'zbek sog'liqni saqlash modeli (ona va bola salomatligini muhofaza qilish, ovqatlanish masalalariga katta e'tibor qaratish).

\*O'zbek oila modeli (intelektual salohiyatlari odamlarni yaratish)

\*O'zbek mahalla modeli (o'zini o'zi boshqarish jamiyatiga o'tish).

Bu kompleks modellar (ilm fan asosida) uzoq "industrial" va "postindustrial" davrlar isz to'g'ridan to'g'ri "Bilimga tayangan innovatsion jamiyat" ga o'tishga katta imkoniyat yaratadi.

"Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursining asosiy qonuniyatları mavjud bo'lib, ular O'zbekistonning strategik maqsad va manfaatlari, taraqqiy qilishi va rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishish jarayonlari bilan bog'liq. Jumladan, ularda milliy manfaatlarning ustuvorligi, har bir mamlakatning milliy taraqqiyot g'oyasida umumxalq manfaatlari mujassam bo'lish zaruriyati, taraqqiyotning strategik yo'nalishi milliy zaminlarga asoslanishi, milliy taraqqiyotda jahon mamlakatlari va ularning xalqlari erishgan yutuqlar tajribalaridan foydalananish, taraqqiyotning strategik vazifalarini belgilash, amalgalashishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga

*amal qilish, millatlararo totuvlik, siyosiy barqarorlikka erishish, mamlakatda yashovchi barcha millatlar va elatlar taraqqiyoti uchun teng imkoniyatlarni yuzaga kelzirish, tinchlik va demokratiya tamoyiliga amal qilish va boshqa bir qator qonuniyatlardir. Ular milliy rivojlanish g'oyasining amalga oshishi uchun zarur bo'lgan qonuniyatlardir. Ularga amal qilmaslik esa, mamlakat va uning xalqi belgilagan rmaqsad va manfaatlarining samarasiz yakunlanishiga olib keladi.*

**2-masala.** “Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi“ kursining umumnazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimovning asarları va rma'ruzaları, mamlakatımızdagi etakchi ijtimoiy va iqtisodiy fan sohalari olimlarining O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga doir asarları tashkil qiladi.

Ma'lumki, barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar bir-birlari bilan o'zaro aloqada bo'ladilar. Xuddi shuningdek, “Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi“ kursi ham boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liq. Fanlar biri chiqargan xulosadan boshqa fanlar foydalananadi va uni ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shamdi.

“Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi“ kursi falsaфа, psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot nazariyasi, politologiya, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kabi fanlar bilan bog'liq. Ularning dunyoqarash, inson, millat va xalq ruhiyati, ijtimoiy hayot, iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy hokimiyat, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish borasida erishgan yutuqlari va galdeg'i vazifalari to'g'risidagi xulosalaridan foydalaniň ularga tayanadi.

Ayniqsa, u bugun O'zbekiston ta'limgiz tizimida o'qitilayotgan “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” faniining mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlar ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirish, sadoqatilik, vatanparvarlik, fidoiylik, ogohlilik, hamjihatlik, millatparvarlik, xalqparvarlik, kabi ruhiyatlarini shakllantirish borasi idagi tajribalariga tayanadi.

Mustaqillikni mustahkamlash yillarda amalga oshirgan vazifalarni davom ettiradi, uni mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotining yangi bosqichida: **mamlakatimizda mustaqillikni ta'mintanganligi**, uning suvereniteti jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida o'zining tashqi va ichki siyosatini mustaqil olib boradi. Mustaqillikka xavf solayotgan har qanday yovuz kuchlarga zarba bera oladigan qudratga erishgan, jahon demokratiya qadriyatlari tizimiga kirib borayotgan, o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy, ma'rifiy sohalardagi strategik vazifalarini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishdag'i tajribasi bilan mustaqil modeligi ega. Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish vazifalarini belgilash va uni amalga oshirish jarayonida amaliyotga keng tadbiq qiladi.

“Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” faniining ta'limgiz tizimiga kiritilishi mamlakatimizning o'tish davrining boshlang'ich davri uchun muhimdir.

Birinchidan quyidagi vazifalarni amalga oshishining muhim omiliga aylandi. Kommunistik g'oya va maskuraning barbod bo'lishi, mustaqillik va taraqkiyot g'oyasining shakllanishi oralig'ida yuzaga kelgan bo'shliqning o'mini to'lg'azish g'oyasiga aylandi;

Ikkinchidan, mustaqillik yillarda « Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani mustaqillik, suverenitet, ozodlik, erkinlik, tenglik, barqarorlik va tinchlik kabi tuyg'ularning qadr-qimmatini yoshlarimiz dunyoqarashining ajralmas qismiga aylanishida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi;

Uchinchidan, xalqimizni mustaqillikni mustahkamlash jarayoniga keng safarbar etdi;

To'rtinchidan, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni tiklash va ularni xalqimiz ongiga singdirishda katta rol o'yndi;

Beshinchidan, mamlakatimizda millatlararo hamjihatlik, dirlararo bag'rikenglik tuyg'ularining shakllanishiga va rivojlanishiga ijobiy ta'sir o'tkazdi;

Oltinchidan, mamlakatimizning jahondagi nufuzining oshib borishida mustaqil ilmiy nazariya sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashning ilmiy-nazariy omili vazifasini bajardi.

"Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursi esa O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining rnazmuni mohiyati nimadan iborat ekanligini tushuntirish, strategik maqsadlarga erishish yo'lida yoshlarni uyuştirish, safarbar qilish kabi maqsadlarga yo'naltirilgan. Uning o'qitilishi mamlakatimiz mustaqilligining real moddiy va ma'naviy kuchga aylangan sharoitida uni taraqqiy qildirish, yuksaltirish va jahonning rivojlangan davlatlari darajasiga ko'tarish vazifalari bilan bog'liqdir.

Milliy g'oyaning ta'lim tizimida o'qitimishida "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" va "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kurslarining uzviy davomidir. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kursi ta'limning bakanlavriat bosqichida o'qitsa, "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursi esa magistratura bosqichida o'qitiladi.

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga ega bo'limgan, uni amalga oshirishga qodir bo'limgan xalq mustaqilligini saqlab qololmaydi. Ana shu ma'noda ham milliy mustaqillikka erishilgandan keyin mustaqillikni mustahkamlashda har bir davlat o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi va ommani shu strategiyani amalga oshirishga safarbar etishi zarur bo'ladi. Bu milliy mustaqillik g'oyasining milliy rivojlanish g'oyasi bilan o'zaro bog'lanib ketishini bildiradi. Shu ma'noda ham tabiiy ravishda, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kursida mavjud bo'lgan mavzular "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strate-giyasi" kursida takrorlanmaydi. Unga hamohang ravishda taraqqiyotning navbatda hal etilishi bilan bog'liq bo'lgan mavzular kiritiladi.

Xuddi ana shu yangi mavzular ikkala kursning bir tomonidan farqlanishini bildirsa, ikkinchi tomonidan, milliy rivojlanishning davomiyligi va uzlusizligini ham anglatadi. YA'ni, qaramlikdan qutilish, mustaqillikni qo'lga kiritish, uni moddiy va ma'naviy kuchga aylantirish bir bosqich bo'lsa, uni davomi sifatida milliy rivojlanishni yangi imkoniyatlar yuzaga kelgan sharoitda yuksak darajada ko'tarishni amalga oshirish navbatdagi bosqichning vazifalariga aylanadi.

YUqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursi, "Milliy istiqol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kursi bilan o'zaro uyg'undir. SHuning bilan birga u mustaqil hamdir. Uning uyg'unligi "Milliy istiqol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kursida ilgari surilgan g'oyalardan o'zida ijodiy foydalanadi, ularni mustahkamlashga ijobjiy ta'sir o'tkazadi. SHuning bilan birga, mamlakat mustaqilligi sharoitida, uni rivojlantirishning navbatdagi vazifalaridan kelib chiqqan holda yangi mavzularni o'zida mujassamlashtiradi.

Milliy g'oyaning shakllanishi negizlari va rivojlanishini ifodalaydi, uning umumxalq harakteri, g'oyaviy va mafkuraviy kurashning kuchayishida milliy g'oya rolining ortib boradi. O'zbekiston mustaqilligining g'oyaviy negizlari, o'zbek modeling o'ziga xos xususiyatlari va uni amalga oshirish demokratik jamiyat qurish va iqtisodiy islohotlar bosqichlari hamda undan ko'zlangan maqsadlar. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi – milliy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi ekani, milliy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari, globallashuv jarayonida O'zbekistonning jahonga chiqishi va boshqalar "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursining mavzularini tashkil qildi. SHuningdek o'z mohiyati, yo'nalishi va unda ilgari surilayotgan kontseptual g'oyalar mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi va kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarini o'zida mujassamlashtiradi.

Muhimi, o'rganilishi belgilangan mavzular aynan o'qitilayotgan boshqa fanlarda takrorlanmaydi. Bundan tashqari, mavzularning nomlanishi va ularda qo'yilgan har bir masalada nazariya va amaliyot uyg'unligi bor.

**3-masala.** Har bir kishi o'zi yashayotgan jamiyat, mamlakat yoki davlatning maqsadini, uni ifoda etadigan g'oyalarini bilishi, o'ziga aniq tasavvur etishi kerak. SHundagina bu maqsadlar uning ong va tafakkuridan joy oladi. Unga nisbatan ishonch, e'tiqod paydo bo'ladi. Ishonch, e'tiqod shundayki, usiz inson o'z yo'lini, maqsad va manfaatlarini ko'ra olmaydi. U qancha mustkahkam bo'lsa, bu g'oya yoki maqsad yo'lida o'zini bag'ishlaydi, faoliyatini unga mos tarzda quradi, undan chekinish hollarini esa, qabul qila olmaydi. G'oya, maqsadlar har bir inson hatti-harakati, faoliyati bilan mushtarak tarzda uyg'unlashib boradi. Jamiyatning o'z-o'zini tashkil etishga, insonlarni, jamiyat a'zolarini, millatni, xalqni birlashtirishga, uyuştirishga xizmat qiladi. Aniq maqsadlar sari yo'naltiradi. Milliy g'oya odamlarning o'zaro hamkor va hamjihatliligini ta'minlaydi. Kuchli ma'naviy ruhiy omilga aylanib taraqqiyotga xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ma'naviy ozodlik, inson takomili, adolatli jamiyat qurishning birdan-bir sharti odamlarni ezgu-g'oyaviy jihatdan

voyaga etkazish deb **bilgan** va bu haqda shunday deb yozgan: “Inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo’lsa, -yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g’oya va xohishiga aylantirmagan bo’lsa, unga nisbatan ozgina bo’lsa-da, shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo’rinlidir”<sup>1</sup>.

Milliy g’oya O’zbekistonda ana shunday ezgu maqsad yo’lida xizmat qiladigan yoki shunga undaydi gan, safarbar etuvchi kuchga ega bo’lgan g’oyalar, maqsadlarni o’zida mujassam etgan ruhiy, ma’naviy kuch-quvvat manbaidir. Milliy g’oya milliy-ma’naviy va umumbashariy negizga ega bo’lib, undan oziqlanadi. U avvalo, milliy-ma’naviy hodisa sifatida har bir xalq, millatning ma’naviy-ruhiy, tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotidagi xususiyatlari bilan bog’liq bo’lgan ma’naviy vogelikdir. O’zbekistonning milliy g’oyaci, o’zbek xalqining o’ziga xos xususiyatlari, maqsad va manfaatlarini o’zida ifoda etadi. Uning milliy-madaniy merosi asosiy tayanch negizidir. Milliy g’oya ana shu negizga tayangan holda mamlakatda yashaydigan turli xalqlar va millatlarning ham xususiyatlarini, maqsad va manfaatlari bilan o’zaro mushtarakligini ta’minlaydi, o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. O’zbekiston xalqini mamlakat oldida turgan maqsadlar yo’lida jipslashdiradi, shunga undaydi.

Milliy g’oya dunyo xalqlari tajribasi va yutuqlarini hisobga olgan holda O’zbekistonning milliy rivojlanish yangi yo’nalishi modelining milliy-nazariy asoslaridir. Negaki, O’zbekiston xalqining o’ziga xos shunday milliy-madaniy merosi va qadriyatları mavjudki, ular mamlakatda yashayotgan har bir inson, oila hayotining barcha jaohalarida chuqur o’rin olishi muhim. Ular orqali shu xalq, millatning “o’zliginti”, “borlig’ini” boshqa xalqlar yoki millatlardan farqini anglab olish mumkin. SHu xususiyatlarni saqlab qolgan holda “O’zbekiston o’ziga xos va mos taraqqiyot yo’llidan rivoj lanishi mumkin”. Buning uchun uning o’z milliy g’oyasi jamiyat hayoti sohalari bilan o’zaro uyg’unlashmog’i muhim ahamiyatga ega. Ana shunday ishonch, e’tiqod, milliy g’ururlanish, o’zligini namoyon etish va qadrlash tuyg’ulari milliy g’oyani xalqning ishonch va e’tiqodiga aylanganligini ko’rsatuvchi muhim mezondir. “Milliy g’oya: O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” kursining maqsadi O’zbekistonning o’ziga xos va mos taraqqiyot yo’lini yoritish va yoshlarda ana shu taraqqiyotning kafolati bo’lgan ishonch va e’tiqodni shakllantirishdir.

YUqorida keltirilgan maqsadlardan kelib chiqib “Milliy g’oya: O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” kursining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O’zbekistonning mustaqillikka erishishi arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz holati, bu inqiroz holatidan chiqishda qo’llanilgan usul va vositalarni tahlil qilish.
2. Mustaqillikka erishishning mashaqqatli yo’lini va mustaqillik o’zbek xalqiga qanday huquq va imkoniyatlar bergenligini yoritib berish. Mustaqillik o’zbek

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: “Xalq merosi”, 1993.- 188 -bet.

xalqi uchun buyuk qadriyat ekanligini yoshlar ongiga singdirish va shu orqali mustaqillikni mustahkamlashga yoshami safarbar etish.

3. Bugun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan rivojlanishning o'zbek modelini o'ziga xos xususiyatlarini yoritish va shu orqali O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining mazmun mohiyatini yoshlar ongiga singdirish. Ularda mamlakatimiz rivojlanish yo'li va oldimizga qo'yilgan maqsadlarga ishonch e'tiqodni tarbiyalash.

4. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ustuvor yo'nalishlar nimalardan iborat ekanligini tushuntirish orqali kelajakda buyuk davlatni barpo etishga yoshlarni safarbar qilish, strategik maqsadlarni amalga oshirishda ularni yusushtirish, ma'naviy ruhiy jihatdan rag'batlantrish.

5. YOshlar qalbida mustaqillik yillarda mamlakatimizda erishilgan yutuqlardan faxrlanish, g'ururlanishni shakllantirish. O'zbekiston qanday rivojlanish imkoniyatlarga ega ekanligini tushuntirish.

6. Mamlakatimiz taraqqiyotida tinchlik, xavfsizlik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashning shartlari nimalardan iborat ekanligini tushuntirish, yurt tinchligiga har bir fuqaroning mas'ullik tuyg'usini shakllantirish.

7. O'zbekiston taraqqiyotida inson omili asosiy omil ekanligini, inson omili mamlakatning haqiqiy lakomativiga aylanishida kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati faqatgina zamонавиy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashga xizmat qilibgina qolmasdan, yoshlarni ma'naviy etuk shaxslar qilib, vatanparvarlik, tinchlikparvarlik, ijtimoiy hamjihatlik g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilishini targ'ib qilish.

8. Demokratik tuzum, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning haqiqiy harakatlantruvchi kuchi bo'lgan erkin fuqaroni tarbiyalashga xizmat qilish. Bu borada yoshlarda demokratik qadriyatlarni, fuqaro erkinligi va jamiyat, davlat, kelgusi avlod oldidagi mas'ulligi tuyg'ularini shakllantirish.

9. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini qanday yo'nalishlarga ega ekanligi, bunda O'zbekiston manfaatlari nimalardan iborat ekanligini yoshlar ongiga singdirish va shu orqali milliy manfaatlar ustuvorligini ijtimoiy qo'llab quvvatlanishiga erishish.

**4-masala.** Mamlakatimizning mustaqilligi reallikka aylangan bugungi kunda milliy rivojlanish g'oyasini yoshlarimiz ongiga singdirish orqali ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlari sari safarbar etish dolzarb vazifa hisoblanadi. CHunki, unda xalqimizning moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotga yo'naltirish maqsadlari mujassamlashgan.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini yoshlarimiz ongiga singdirish, ular tomonidan taktik vazifalarini to'g'ri bajarilishiga ko'mak beradi. Albatta, bunda tayyorlanayotgan kadrlarda ta'lif tizimi orqali qanday shaxsiy va ijtimoiy sifatlar shakllantirilganligi muhim rol o'yaydi. Bu borada kursning ahamiyati quyidagalarda o'z ifodasini topadi:

1. Faqatgina mustaqillik xalqlar ozodligi, erkin va farovon yashashi uchun imkoniyat yaratib beradi. SHu ma'noda kursning o'qitilishi mustaqillikni

mustahkamlash bir yoki bir necha kishining sa'y-harakati bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan ish emasligini, balki, mustaqillik bu butun bir xalq harakati bilan, shu xalq vakillarining yillar davomida turli sohalardagi mehnati bilan mustahkamlanishini anglab etishiga yordam beradi. Bu esa, tayyorlanayotgan kadrlarda o'z kasbiga nisbatan fidokorlik bilan yondashishiga g'oyaviy omil bo'lib xizmat qiladi.

2. Yoshlarni milliy ma'naviy merosni asrash, bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlardan ogoh qilishi orqali milliy qadriyatlarimizni saqlab qolib, jahon xalqlari tomonidan erishilgan ilm-fan, texnika texnologiya yituqlarini o'zlashtirishni targ'ib qilish muhim vazifa hisoblanadi. CHunki, bu o'ziga xos milliy qiyofani saqlab qolgan holda jahon xalqlari tomonidan yaratilgan ilg'or yituqlarni o'zlashtirish, taraqqiyotga erishish hisoblanadi.

3. Mamlakatimizda bozor munosabatlari jadal shakllanishi sharoitida yoshlarimiz ongida unga mos iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bugun muammo yoshlarimizning moddiy boylikka ega bo'lismiga intilishlarida « noma'rifiy » yo'llarini tanlashga moyillik kuchliligi sezilmoida. YA'ni, amaldagi qonunlarni paymol qilib bo'lsa, ham, pul topishga intilish mavjud. Bu mamlakatimiz iqtisodiy yuksalishi yo'lidagi jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Soliq, boj to'lash kabilalar bilan bog'liqidir. Bu masalani hal qilish uchun ularda ma'rifatlashgan bozor tafakkurini shakllantirish zarurdir.

4. Yoshlarmiz ongida xozirgi zamon fani texnika va texnologiyasi yituqlarini egallah zarurligini shakllantirish ham dolzarb vazifa. Mamlakat istiqbolining asosiy kuchi hisoblanadi, mamlakat esa yuksak rivojlangan fan, texnika va texnologiya asosida taraqqiy qiladi.

5. Demokratik qadriyatlarini yoshlarimiz ongiga singdirish ham amaliy ahamiyatga molikdir. Demokratik qadriyatlarini egallah, ularni mustaqil fikrleshga, jamiyatda o'z o'mini mustahkam bo'lishiga, o'z-o'zini anglash va erkin faoliyat ko'rsatishlariga imkon beradi.

6. Vatanparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik va umuminso-niylik kabi tuyg'ularni yoshlarimiz ongiga singdirish ham bugungi kunimizning dolzarb vazifalari qatorida turibdi.

Bugun ularning zarurliga haqida juda ko'p yozilmoqda va ko'p gapirilmoqda. Bu bejiz emas, albatta, CHunki, ana shu tuyg'ularning yoshlarimiz ongida mavjud bo'lishi va amaliy faoliyatlarida namoyon bo'lishi, nafaqat, mamlakatimizning istiqboli bilan, shuningdek, uning jahon hamjamiyatidagi nufuzining mustahkamlanishi bilan ham bog'liq.

7. Fidoiylik tuyg'usining yoshlarimiz ongida mustahkam bo'lishi milliy rivojlanishimiz uchun zarur bo'lgan omil hisoblanadi. Fidoiylik faqatgina mehnat qilish faoliyati emas, shuningdek, u moddiy va ma'naviy boyliklarni asrab-avaylab, ularni keyingi avlodlarga meros qoldirilishiga g'amxo'rlik qilish bilan ham bog'liqidir. Bu tuyg'u milliy mustaqillikning abadiyligi, uning istiqboli uchun muhim ahamiyatga egadir. Milliy rivojlanish g'oyasining reallikka aylanishi yoshlarimiz ongida mamlakat taraqqiyoti uchun zarur

bo'lgan vazifalarning mujassamlashganligi va ularning kundalik xattisharakatlarida namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir.

### **Taqrorlash uchun savollar:**

1. "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursining ob'ektiv va predmeti nimadan iborat?
2. "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursining umumnazariy asoslari, o'rganish usul va uslublari harnda boshqa fanlar bilan aloqadorligi nimadan iborat?
3. "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursini o'rganishning zarurati va ahamiyati nimadan iborat?
4. "Strategiya" tushunchasining g'oyaviy- ijtimoiy mazmuni nimadan iborat? Strategiya turlarini aytib bering.

## **II-MAVZU: O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNING MILLIY G'OYA NAZARIYASI VA AMALIYOTI BILAN UYG'UNLIGI**

### **Reja:**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning g'oyaviy mafkuraviy soha bilan bog'liqligi.
2. O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish nazariyasining ishlab chiqishi va uning amaliyotga tadbiq etilish jarayoni.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada erishgan yutuqlar - nazariya va amaliyot uyg'unligi ifodasi.

**1 – masala.** Mamlakatlarning vujudga kelishi va taraqqiy qilish tarixidan ma'lumki, ularning barchasi o'ziga xos nazariy manbalarga tayangan. Nazariyalarda mamlakatlarning taraqqlyot darajasi, unda yashayotgan xalqning yillar davomida shakllangan urf-odati, an'ana, qadriyatlari va mentaliteti hisobga olingan bo'lsagina, o'zining samarasini berishi mamlakatlarning rivojlanish tajribalarida o'z ifodasini topgan.

Albatta, mamlakatlarning buguni, kelajagi va istiqboli bilan bog'liq nazariyalar, g'oyalari va qarashlar milliy g'oyaga aylanib, uni aholining barcha tabaqlarini tomonidan qo'llab-quvvatlansagina, amaliyotga aylanib boradi va moddiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu ikki ormil juda murakkab bo'lib, ularning yuzaga kelishi va amalda namoyon bo'lishi juda katta ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, turli to'siqlar girdobida kechadi. Hatto, ayrim holatlarda mamlakatlarda fuqarolar urushlarining yuzaga kelayotganligi ham tajribada o'zining isbotini topmoqda.

Bu borada O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan kontseptsiya o'zining to'g'ri ekanligini, taraqqiyot tajribasida isbotini to'pganligini alohida ta'kidlash mumkin. Mamlakatda islohotlarni o'tkazish, bozor munosabatlarni shakllantirish va demokratik qadriyatlar qaror toptirishga asos bo'lувчи kontseptual nazariyani ishlab chiqishdagi O'zbekistonning yutug'i shu bo'ldiki, unda mustaqillikning dastlabki yillarda, uni mustahkamlash va rivojlantirish bosqichlarida amalga oshiriladigan barcha vazifalar o'zining ifodasini topdi. Islohotlar uchun bunday izchillik nazariyaning amaliyotga aylanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yana bir muhim ormil shunda bo'ldiki, O'zbekiston islohotlarning dastlabki bosqichidayoq nazariyadagi evolyutsion o'tish g'oyasiga og'ishmay amal qilindi. Bu tamoyillilik har qanday ikkilanishlarning oldini olish imkonini berdi. Bu masalaga asosiy e'tibor berayotganimizning sababi shundaki, ba'zan, ayrim mamlakatlarda ishlab chiqilgan g'oyalari va nazariyalarga amal qilmaslik, ularni asosiz ravishda o'zgartirish kabi holatlar ham sodir bo'lmoqda. Bu o'z navbatida nafaqat islohotlarning borishiga, shuningdek, mamlakat aholisi o'tasida ham ishonchsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Xo'sh nazariya nima? Nazariya – amaliyot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, ma'lum bir tizimga kiritilgan ilmiy qarashlar majmui: ... nazariya faqat g'oyalari tizimi emas, balki, g'oyalarning yig'indisi hamdir.

Amaliyot esa faoliyat, insonning turli sohalardagi faoliyati hisoblanadi. Amaliyotning o'ziga xos asosiy belgilari shundan iboratki, u birinchidan, faqatgina insonga xos, ikkinchidan u moddiy-hissiy, uchinchidan, u o'zgartiruvchi, qayta quruvchi, to'tinchedan, muayyan maqsadga qaratilgan faoliyatidir<sup>1</sup>

Bu ikkala tushunchani mamlakatda amalga oshiriladigan islohotlar nuqtai nazaridan qaraganda islohot nazariysi va uni amalga oshirishdagi faoliyat, deb hisoblash mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayoni g'oya va mafkura bilan bog'liqdir. CHunki, har qanday vogelikda kechganidek ijtimoiy-iqtisodiy hayotda amalga oshiriladigan har qanday islohotlar ham ma'lum tizimga solingen ilmiy qarashlar va g'oyalarga tayanadi. Ularning ana shu asosi bo'lmasa, islohotlar quruq safsataga aylanadi, u hech qanday samara bermaydi, ilmiy g'oya va qarashlar o'z navbatida mafkura vositasida amaliyotga aylanishidagi faoliyatining ifodasi shaklida namoyon bo'ladi. Ulardagi o'zarо uyg'unlikni yuzaga keltirishi esa o'ta murakkab muammo hisoblanadi. Ularning negizida esa jamiyatda mavjud bo'ladigan turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar va ularning manfaatlarining turli-tumanligi kiradi. Ularni o'zarо muvozanatga keltirishda milliy g'oya asosiy omil hisoblanadi. CHunki, Milliy g'oya da mamlakatda yashovchi millati, tili, urf-odati, diniy e'tiqodi, jinsi va

<sup>1</sup> Falsafa: qomusiy lug'at.- T.: "SHarq", 2004. -294 bet.

<sup>2</sup> O'sha manba 23-bet.

yashash joyidan qat'i nazar barcha insonlarning manfaatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Milliy g'oyaning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: a)mamlakat aholisining maqsad va manfaatlарини о'зидаги ifoda ettiradi; b)mamlakat aholisini ana shu maqsad va manfaatlар atrofida birlashtiradi; v) ularni maqsad va manfaatlарни amalga oshirishга undaydi. Mamlakatda amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish aholining maqsad va manfaatlарини о'зидаги mujassamlash-tirgani bois ham ular Milliy g'oyaning mazmun hamda mohiyatida о'з ifodасини topadi va xalqning harakat dasturiga aylanadi. "Milliy g'oya, milliy iftihor kundalik mashaqqatli ishlаримизда va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishchonch bag'ishlab, ruhimizni baland, belimizni baquvvat qilishi ga ishonaman".<sup>1</sup>

***O'zbekistonning strategik magsadi*** – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotga asoslangan erkin jamiyat barpo etishdir. Tanlab olingen yo'l va unga xos milliy istiqlol g'oyasining strategik maqsadлari jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor bo'lgan quyidagi vazifalами amalga oshirishni taqozo etadi:

**Siyosiy sohada:**

***Birinchidan*** – mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish.

***Ikkinchidan*** – jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlар, qaramaqarshi kuchlar va harakatlar o'rтasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantrish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nодаги ko'ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish.

***Uchinchidan*** - demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyatning konstitutsyaiviy bo'linishi tamoyiliga qat'iy amal qilish, jamiya a'zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni ishga solishni taqozo etadi.

***To'rtinchidan*** – mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqich ma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilimalarining huquq va mavqeini oshirishni ko'zda tutadigan "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" kontseptsiyasini hayotga joriy qilish.

***Beshinchidan*** - davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida, xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlарига mos holda amalga oshiradigan istedodli, izlanuvchan, chuqr bilimli va yuksak malakali kadrlami tayyorlash.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin.-T.: "O'zbekiston", 1998. -15-bet.

**Iqtisodiy sohada:**

**Birinchidan** – iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng muhim davlatning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash.

**Ikkinchidan** –xususiy lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda amalda mulkdorlar sinfini shukllantrish, bu jarayonga tarmoqlar asosini tashkil qiluvchi yirik korxonalarни jaib etish.

**Uchinchidan** - iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish

**To'rtinchidan** – mamlakat eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatlari shartlar asosida ishtirot etishi, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizmiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish

**Beshinchidan** - iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish (boy tabiiy zaxiralarimiz, intellektual hamda ilmiy-teknikaviy salohiyatdan to'liq foydalanio', mukammila texnik jarayonni o'z chiga oladigan quvvatlarni ko'paytirish, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish va h.k.)

**Ijtimoiy sohada:**

**Birinchidan** – xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich va izchil oshirib borishini ta'minlash.yu aholini ijtimoiy himoyalashning aniq yo'naltirilgan mexanizmlarini yanada takomillashtirish

**Ikkinchidan** – oila, onalar va ayollarimizning jamiyatdagi o'mi va mavqeini oshirish ishlarinini izchil davom ettirish

**Uchinchidan** - fuqarolarning huquqiy tengligi va qonun ustuvorlig, jamiyat manfaatlari va aholi xavfsizligini yanada samarali kayolatlovchi davlat tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish

**To'rtinchidan** – komil insonni tarbiyalash borasidagi ishlarni istiqbolda ham davlat siyosati darajasida kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish.

**Ma'naviy sohada:**

**Birinchidan** – yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish

**Ikkinchidan** – turl qarash va fmkriga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar – Vatan ravnaci, yurt tinchligi, xalq farovonligi-barcha uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish

**Uchinchidan**-ota-boblarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish

**To'rtinchidan** – Kadrler tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lrim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish

**Beshinchidan** - O'zbekistonda yashayotgna barcha millat va elatlarning qadriyatları, tili, madaniyatı, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantiriga ko'maklashish.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinish turibdiki: a) har qanday taraqqiyot ma'lum ilmiy-nazariyalar asosida rivojlanadi; b) milliy g'oya ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam ishlab chiqilgan bo'lsa, u millat va xalq rivojlanishining nazariy asosi sifatida harakat dasturiga aylanadi va kutilgan samarani beradi; v) milliy g'oya millat va xalqni rivojlanishiga etaklovchi qarashlarning ma'lum tizimga keltirilgan nazariyasi asosi bo'lsa, amaliyot ulami real hayotga aylantiruvchi faoliyatning ko'rinishi hisoblanadi; g) bugun O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi milliy g'oyamizda o'z ifodasini topgan, hamda u ilmiy asoslangan nazariya sifatida xalqimiz maqsad va manfaatlarini o'zida ifoda ettirib, uning amaliy faoliyati orqali taraqqiy qilishimizga xizmat qilib kelmoqda. Bu jarayondagi eng muhim jihat ishlab chiqilgan milliy g'oyamiz nazariyasi bilan uning amaliyotda namoyon bo'lishi o'rtasida o'zaro uyg'unlikning mavjudligidadir. Ammo, unga erishish oson bo'limganligini ham nazarda tutmog'imiz lozim bo'ladi. Bu jarayonni navbatdagi masalada ko'ramiz.

**2-masala.** Bir ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichidan ikkinchi-siga o'tish oson kechadigan jarayon emas. Undagi asosiy muammo o'tish davri va unga xos bo'lgan "model"ni ishlab chiqish bilan bog'liq. O'tish davri barcha davlatlar taraqqiyoti jarayonida sodir bo'ladi. Oraliq hisoblanadi. U har qanday davlat uchun umumiyl qonuniyatdir. CHunki, davlatlar vujudga kelishi bilanoq yuksak taraqqiyot darajasiga birdan ko'tarila olmaydi, balki u avvalo shakllanadi va ma'lum taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazdilar.

Har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajasiga ko'tarilish jarayonlari olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda o'rganish davom etmoqda.

Ammo, o'tish davri o'zi nima, nima uchun o'tish davri deb aytildi? degan savollarga javob ilmiy adabiyotlarimizda juda kam o'rganilgan.

O'tish davri nazariyasi deganda mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'lgan oraliq bosqich, uni o'rganish, tadqiq qilish natijasida shakllangan ilmiy asoslangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Fikrimizcha, bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy to'zumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladi. "o'tish davri" yoki aniqrog'i "oraliq" bosqichining muxlati ana shu yangi yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy to'zum o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarib barqaror taraqqiy qilish jarayoni yuzaga kelishi bilan tugaydi.

Bu erdag'i kontseptual g'oya shundaki, insoniyat faqat "o'tish davri" bilan yashamaydi, balki uning boshlanishi bo'lganidek poyoni ham mavjuddir. Xuddi ana shu "poyoni" taraqqiyot darajalarini yoki to'zumlarning birini ikkinchisi bilan farqlash imkonini beradi. "Poyoni" yoki o'tish davrinining oxiri yangi to'zumning normal ishslash ta'minlanganligi sharoiti yuzaga kelishi bilan tugaydi.

Bunday sharoitda zamonning ehtiyoji va rivojlanish darajalarida yangi vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy to'zumming turli sohalarida mavjud bo'ladijan mexanizmlarining barqaror ishlashimni amalga oshiradi. Yana ham aniqrog'i, zamon nuqtai nazaridan davlat hayotida barqaror taraqqiy qilish jarayoni sodir bo'ladi.

SHu nuqtai nazaridan ham L.Levitining o'tish davri "zamonaviylashtirish" mezoni sifatida qaraganligi haqidagi fikriga qo'shilish mumkin. Uning: "Bunday zamonaviylashtirish muayyan yakun topguncha, ya'ni mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlik darajalariga erishguncha bo'lgan davr "o'tish davri", deb ataladi" - degan ta'rifiga faqat zamon nuqtai nazaridan qaralsagina to'g'ri bo'ladi.

"O'tish davri"ga faqat ana shunday qaralsagina insoniyat va jamiyatlar rivojlanish jarayonlariga to'g'ri baho berish mumkin bo'ladi. Zero, insonlar ehtiyojlarining to'la ta'minlanishi va jamiyat taraqqiyotining yuksak darajaga ko'tarilishi fuqarolik jamiyatini qurilgandagina amalga oshadi. Ammo, fuqarolik jamiyatini insoniyat ehtiyojlarini qondira oladigan, jamiyatning eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan va uning bundan keyin rivojlanishiga ehtiyoji bo'lmaydigan "ohirgi manzil" sifatida qarash ham ilmiy nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lmaydi.

CHunki, faqat ehtiyojning yuzaga kelishigina taraqqiyot zaruriyatini keltirib chiqaradi. U to'xtagan daqiqadan boshlab taraqqiyot ham to'xtaydi. Ammo, insoniyatning hali to'la ma'nodagi fuqarolik jamiyatni sharoitida yashayotgan makonni aytish qiyin. SHu ma'noda ham bugun uni insoniyat o'zinining ideali sifatida qaramoqda va uni qurish uchun faoliyk ko'rsatmoqda.

"O'tish davri" haqida fikr yuritganimizda shuni alohida ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatigacha bo'lgan barcha tuzumlarning insonlar manfaatlari va ehtiyojlarini to'la qondira olmasligi bois ularning birinchisidan ikkinchisiga ob'ektiv ravishda o'tishi uchun extiyojni yuzaga keltirib turadi. Bu o'z navbatida yangi to'zumga o'tish davrini boshlab beradi.

O'tish davri yuksak darajadagi moddiy imkoniyatlarning yuzaga kelishi bilan tugamaydi, balki ularning xalq farovonligini ta'minlashga qaysi darajada qaratilganligi insonlarning erkinliklarining ta'minlangan-ligi bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ular nafaqat mamlakatlarga bog'liq shu bilan birga ularda yashayotgan aholiga, ularning jarayonlar bilan hamohang bora bilishlariga ham bog'liq bo'ladi. Bularning hammasi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida shakllanib va rivojlanib keladi.

**"O'tish davri" va "model"ning dolzarbliji va murakkabligi** shundaki, **birinchidan**, "o'tish davri" tushunchasi, uning nimadan boshlanib, muxlat nuqtai nazaridan poyoniga etishi haqidagi masalalar siyosat falsafasi o'rganadigan o'ta dolzarb muammolar hisoblanadi. Uning dolzarbliji shundaki, birinchidan, bu o'ta murakkab bosqich bo'lib, uni bosib o'tmay turib bironta mamlakat barqaror taraqqiyotga erisha olmaydi. CHunki, bu bosqichda barcha sohalarda barqaror taraqqiyot uchun zarur zamin vujudga keltiriladi. Ular esa o'z-o'zidan yuzaga kelmay, balki, buning uchun eng avval mamlakat taraqqiyoti darajalari, xalqning

o'ziga xosligi va mentalitetidan kelib chiqqan holda o'tishning maqbul nazariy asosini ishlab chiqish va real hayotga tatbiq qilishi talab etiladi.

**Ikkinchidan**, o'tish davri boshlangandan keyin, uni to'xtatishning yoki orqaga qaytarishning imkoniyati qolmaydi, hatto bu yo'lni tanlash mamlkat hayotida katta fojealarga olib kelishi mumkin. CHunki, barqaror taraqqiyotga (demokratik jamiyatga) o'tish – bu jarayon, jarayon esa har doim ob'ektiv qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi. SHuning uchun ham uni to'xtatishga yoki orqaga qaytarishga qaratilgan har qanday sub'ektiv kuchlarning aralashuvni mamlakatning boshi berk ko'chaga kirib qolishiga sabab bo'ladi.

**Uchinchidan**, o'tish davriga xos yana bir muammo borki, u ham bo'lsa, ishlab chiqilgan model real hayotni o'zida ifoda ettiradimi yoki yo'qmi, uning amaliyotga tatbiq qilinishi natija berish yoki bermasligining noaniqligida o'z ifodasini topadi. CHunki, har bir mamlakat qanchalik o'ziga maqbul bo'lgan modelni tanlamasini, baribir uni real hayotga tatbiq qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ichki hayotda ob'ektiv va sub'ektiv ornillar va ularning ta'sirida kutilmagan muammolar sodir bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Agar ular salbiy jarayonlarning yuzaga kelishiga xizmat qilsa, ishlab chiqilgan "model" ijobjiy natija bermaydi va mamlakatda xaos sodir bo'lib, boshlangan islohot qarama-qarshiliklarni kuchaytirish omiliga aylanishi mumkin. SHuning uchun ham modelni real hayotga tatbiq qilishda o'ta xushyorlik talab etiladi va islohotlar boshida turgan siyosiy kuchlarning mamlkat ichki hayotidagi "ob-havo"ning qaysi darajada o'zgarishini sergaklik bilan anglab borishi zarur bo'ladi. Xuddi ana shu omil "model"ning ijobjiy natijalar berish yo'nalishida borishini ta'minlaydi. Ammo, bunday salohiyat islohotlar boshida turgan barcha siyosiy kuchlarda xam etarli darajada bo'lavermaydi. Uning bo'lmasligi esa oxir-oqibatda modelning ishlamasligiga olib keladi va uning natijasiz barbob bo'lishiga sabab bo'ladi.

**To'rtinchidan**, o'tish davrining barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan andazasi yo'q, bo'lishi ham mumkin emas, zero Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobjiy natija beradi".

Turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy bosqichlardan demokratik jamiyatga o'tish o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Uning murakkabligi, ungacha sodir bo'lgan taraqqiyot bosqichlari ob'ektiv ehtiyoj sifatida birining ichida ikkinchisi shakllanib kelgan, davlat va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shaklan o'zgargan bo'lsa ham, mazmunan u, baribir, ommani itoatda ushlab turishga, uning ustidan hukmronlik qilishga qaratilganligicha qolavergan. Ular yana bir xususiyat omma davlat uchun, degan tamoyilning amal qilganligi bilan ham harakterlanadi.

Demokratik jamiyatda esa, eng avvalo, siyosiy to'zum tubdan o'zgarib, xalqning hokimiyati bevosita yoki bilvosita ishtirokida boshqaruvi amalgaga oshadi va omma davlat uchun emas, aksincha, davlat omma uchun, degan tamoyilning ustuvorligi asosida davlat boshqaruvi amalgaga oshadi.

SHu ma'noda, ham demokratik jamiyatga o'tish jarayoni davlatlarning barcha sohalarida tub o'zgarish ishlarining amalga oshirilishi natijasi sifatida sodir bo'ladi.

Demokratik jamiyatga o'tishda siyosiy sohada, davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi, uning o'rniqa qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob bera oladigan mexanizmlari shakllantirilib boriladi, iqtisodiy sohada bozor munosabatlari qoror topadi, taraqqiyot ommaning o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi, ma'naviy-ma'rifiy sohada inson omili, uning qadr-qimmati yuksak qadriyat darajasiga ko'tariladi, jamiyat yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi reallikka aylanadi.

Ana shuning uchun ham bugungi kunda insoniyat demokratik jamiyatga o'z ideali sifatida qaramoqda va uni vujudga keltirish uchun faoliik ko'rsatmoqda. Ammo demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan aniq andozalari, yana ham aniqrog'i, "model"lari yo'q va u bo'lishi mumkin emas. CHunki har bir mamlakatning nafaqat o'z to'zilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual imkoniyatlari biri ikkinchisidan farqlanadi, xuddi shuningdek o'z xalqining mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatları bilan ham farq qiladilar. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi, bunga harakat qilish hech qanday samara bermaydi, balki og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajriba tasdiqladi.

SHuning bilan birga, demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatları ham mavjud. Jumladan, siyosiy tizimni isloq qilish, bozor munosabatlari shakllantirish, insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash va boshqa bir qator qonuniyatlar barcha demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi.

O'tishning tayyor "modeli" bo'limgani bois u yoki bu davlat uchun uning samarali andazasini (modelini) ishlab chiqish va real hayotga tatbiq qilish jarayoni silliq amalga oshmaydi, balki, turli ichki ziddiyatlar yuzaga keladi, hatto ularning o'z vaqtida uddaburonlik bilan oldini ololmaslik oqibatida aholi noroziliginining kuchayishi katta kuchga aylanadi va u fuqarolar urushlarining sodir bo'lismiga olib kelishi mumkin.

Bu holat, ayniqsa, sobiq qaram bo'lgan, vaqtি etib o'z mustaqilligini qo'llga kiritib, o'zi tanlagan taraqqiyot yo'liga kirib borayotgan mamlakatlar uchun o'ta xatarli hisoblanadi. CHunki, tayyor "emish"dan mahrum bo'lgan sobiq zo'ravon mamlakatlar xuddi ana shu yuzaga kelgan ichki ziddiyatlardan uddaburonlik bilan foydalanib, mustaqil taraqqiyot qiladilar. Demak, "o'tish davri" barcha mamlakatlarda murakkab kechadigan jarayon hisoblanadi. Boz ustiga davrning jadal o'zgarishi, uning mamlakatlar oldiga yangi-yangi muammolarni qo'yayotganligi "o'tish davri" kontseptsiyasini ishlab chiqishda ulami hisobga olgan holda takomillashtirib borishni kun tartibiga qo'ymoqda.

O'zbekistonda o'tish davri mamlakat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lган muammolarni hal qilish borasidagi yutuqlarga O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "Besh tamoyil" asos bo'lib xizmat qiladi. Eng avvalo, bu tamoyillarning real hayotda o'z samarasini berishiga zamin bo'lган muhim omillarga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. CHunki, MDH davlatlarining aksariyat ko'pchiligidagi beqarorlikning asosiy sabablaridan biri ham, o'tish davrida amal qilishi zarur bo'lgan "model"larning negizida nimalar turishi kerak? – degan savol qo'yilmaganligidir. Hozirda bu masalalarga yuzaki qaralganligi qanday oqibatlarga olib kelganligining guvohi bo'lib turibmiz. O'zbekistonda esa Prezidentimiz tomonidan bu o'ta murakkab masalaga birinchi darajadagi vazifa si fatida qaraldi. O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishiga asoslandi.

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analarini va urf-odatlaridan kellib chiqadi. CHuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoaviylik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom – xalqimizga xos fazilatdir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog'ida islom dinini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Odamlaming turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, islomga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinlashish istagida ham shu omil namoyon bo'lmoqda.

Mazkur mintaqarining qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan SHarq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalarini ham bu erda yashayotgan odamlari turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Islom dini o'tmishdagi allomalarning ma'naviy-ruhiy ongini hamda turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikadagi o'ziga xos demokratik vaziyat – g'oyat muhim xususiyatlardan biridir. Jumhuriyatimizda aholi va mehnat resurslari har yili yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi va asosan dehqonchilik bilan shug'ullandi. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'i bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar. Ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga bog'langanlik, ko'chib yurishga moyillikning yo'qligi xalqimizga xos xususiyatdir.

Yurtimizning yana bir xususiyati – milliy tarkibining o'ziga xosligidir. SHu bilan bir vaqtida respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini angash va ma'naviy qayta

tiklanishining kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

O'zbekiston *qulay geostrategik mavgega ega*. Tarixan hozirgi O'zbekistonning hududi shunday joy bo'lganki, bu erda juda ko'hna savdo yo'llari (mashhur Buyuk Ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishi jarayoni kechgan. Hozirgi kunda O'zbekiston o'zining mustaqil energetika va suv tizimlariga ega bo'lgan sobiq sovet O'rta Osiyosining markazida turibdi, ko'pgina masalalarda mamlakatlar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilmoqda va xorij bilan munosabatlarni rivojlantirishda tobora faol rol o'yamoqda.

O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirish yo'llari va yondashuvlarini *tanlashiga tabiiy-iqlim sharoitlarining o'ziga xosligi* belgilovchi ta'sir o'tkazmoqda. Respublika qishloq xo'jaligi aksariyat qismi sun'iy sug'orishga va sug'orma dehqonchilikka asoslanadi. O'zining suv imkoniyatlari juda cheklangan. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, butun xalq xo'jaligi tarkibida paxtachilik etakchi o'rinn tutadi. O'zbekiston mustaqil O'rta Osiyo respublikalari orasida g'oyat katta eksport imkoniyatiga ega bo'lgan juda muhim strategik xom ashyo — paxta va undan tayyorlangan mahsulotni etishtiruvchi hamda etkazib beruvchi asosiy respublikadir. Iqlim sharoitlari meva-sabzavot mahsulotlari, pilla va boshqa g'oyat qimmatli qishloq xo'jalik xom ashysini nafaqat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, balki, boshqa mamlakatlarga etkazib berish uchun ham zarur miqdorda etishtirishni ta'minlaydi.

*O'zbekiston Respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan etarli potentialga ega*. Er ostining g'oyat qimmatli mineral xom ashylarga boyligi chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni amalg'a oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. SHu jihatdan xalq xo'jaligining asosan xom ashyo etishtirishga yo'naltirilganligini bartaraf etish va shu sababli iqtisodiyot tuzilmalari haddan tashqari bir tomonlama rivojlanganligiga, sobiq markaz o'tkazib kelgan yakkahokimlik siyosatining natijasi bo'lmish qaramlikka, ya'ni, texnologiya va resurs jihatdan boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolishga barham berish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilaming muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e'tiborga olmaslik mumkin emas. Bir tomonidan, bu ijtimoiy tenglikka, kafolatlangan mehnat qilish huquqiga, yalpi bepul ta'lim va tibbiy xizmatga qat'iy tarafdarlikka intilishida namoyon bo'lmoqda. Ikkinchisi tomonidan esa, yakkahokimlikdan iborat ma'muriy-buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonni mulkka egalikdan va xo'jayinlik tuyg'usidan begonalashtirganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati yuzaga keltirilganligida ko'rinoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. —T.: "O'zbekiston", 1992.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'ziga xos yo'li quyidagi negizlarga asoslanadi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik;

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analamli qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir.

**Insonparvarlik<sup>1</sup>** – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. SHafqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi – madaniyat, ilm-fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o'g'il-qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'yini ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushirolmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir.

O'zbekistonning rivojlanish yo'lining tanlab olinishida mamlakatimizning taraqqiyot darajasi, uning imkoniyatlari, davr nuqtai nazaridan mavjud xolati va xalqimizning o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyat va mentalitetini hisobga olib belgilanishiga muhim masala deb qaraldi. Masalaning bunday qo'yilishi ilgari surilayotgan g'oyalarni amalga oshirish masalalarini aniq tushunish va tasavvur etish bilan bog'liq edi. Bu borada Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" Kontseptsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur kontseptsiyada quyidagi to'rt asosiy negizga asoslanishini belgilab berildi.

**O'zbekistonning mustaqilligi, uning dunyo ko'z o'ngidagi ochiqligi shunday** bir serunum tuproqki, bizning ma'naviy imkoniyatlarimiz unda tobora tezroq unadi, davlatlargina emas, balki, jamoatchilikning ham muttasil kengayib borayotgan xalqaro aloqalariga suyanadi. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi.

<sup>1</sup> Tulenova G. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanidan atamalar izohli lug'ati.- T.: TATU, 2016.

**Inson huquqlari va demokratiya** singari umumbashariy qadriyatlar respublikamizning milliy-davlatchilik manfaatlariga, xalqimizning o'ziga xosligiga, uning an'analariga to'la mos keladi. Inson huquqlari bizning jamiyatimizda qonunlar bilangina emas, balki, xalqning o'z ongi, uning axloqiy tajribasi, mehr-shafqati va sezgirligi bilan ham mustahkamlanadi.

**Insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri** – bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdir. Bu huquqni amalga oshirish – davlat va demokratlashtirishning eng muhim shartidir.

Mustaqil davlatda, **tinchlik va osoyishtalikda**, g'oyaviy chalkashliklar va "temir parda"dan xalos bo'lib, biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadam-baqadam bahramand bo'lmoqdamiz. Ayni shu hol taraqqiyot yo'lidan dadil borishimiz va butun Insoniyat bilan birligimizning eng mustahkam kafolatidir.

**Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish** – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'laning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina quadrati kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasni ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'limganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi. Bizning keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy niyatlarimiz xalqimizning mehnatsevarligidan kelib chiqadi. Har bir fuqaroning mustaqil davlat bilan mag'rurlanishi uning o'z davlatining mustahkamlanishi va gullab-yashnashi uchun shaxsiy hissa qo'shishga tayyorligidadir. Faqat mana shundagina fuqaro davlatning ishonchli tayanchiga aylanadi.

SHaxs imkoniyatlari bizda juda chuqur irsiy asoslarga egadir. Respublikamizda jahon fani va texnikasi, falsafa va huquq yutuqlarini egallab olgan va shu bilan birga o'z xalqiga yaqinlikni saqlab qolgan kishilar juda ko'pdir. Bunday kishilar O'zbekistonning XXI asr sari tashlagan qadamida bizlarning kashshoflarimizdir. Aynan o'shalar jamiyatning tashabbuskor negizini tashkil etadi, butun xalqqa ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning o'z kuchiga ishonch kasb etadi.

O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi<sup>1</sup> – bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'ichi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning eri, tabiatiga, bu erda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish, davlatning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi.

Xalqning vatanparvarlik his-tuyg'ulari, uning ozodlikka va baxt-saodatga intilishi har bir o'zbekistonlik uchun muqaddas mazmun kasb etayotgan mustaqil O'zbekistonning yangi davlat ramzlarida o'z ifodasini topmoqda.

Davlatimiz ramzlari – bayrog, gerb, madhiya O'zbekiston xalqining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan fahrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi.

O'z oilasi, nasl-nasabi bilan fahrlanish vatanparvarlik tuyg'usiga hamohangdir. Bu eng avvalo, oilaviy an'analarini avaylab saqlash va boyitish, otababolarning muborak nomlariga dog' tushirmslikka intilish, mehnati, bilimlari bilan nasl-nasab obro'sini mustahkamlash, odamlarning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lish istagidir.

Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o'zining qudratli ildizlari bilan o'z oilasining, avlod-ajdodlarining or-nomusiga, o'z vijdoniga, burchga va o'z so'ziga sodiqlikka borib taqaladi. Kishilarimizning vatanparvarligi hamma vaqt sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmati, madaniyati va an'analariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda o'z ifodasini topib keldi. O'zbek xalqning yuksak milliy qadr-qimmati va sof vijdonliligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O'zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo'lgan boshqa barcha millatlar bilan birodarlikka intilamiz.

Milliy tuyg'u<sup>2</sup> inson uchun tabiiydir, chunki, u ota-onalardan meros bo'lib, bola o'z ota-onasiga, dunvoga aytgan birinchi so'zidayoq ifodalananadi. O'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, xalqini, millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas. Vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligi – barpo etilayotgan yosh va mustaqil O'zbekiston davlati negizidir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni engib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishda yordam beradi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Tulenova G. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariysi va amaliyoti" fanidan atamalar izohli lug'ati.- T.: TATU, 2016.

<sup>2</sup> O'sha asar.

<sup>3</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.- T.: "O'zbekiston", 1992.

I.Karimov tomonidan ilgari surilgan ana shu kontseptual g'oyaning ahamiyati shunda ediki, ular bir tomondan milliy shakllanishimizni, millatimiz va xalqimizning o'zligini anglashda katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi, tomonidan uning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash va uchinchi, tomonidan har bir insonning erkinligi, uning o'zining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun yangi shart-sharoitlar mayjudligini ular ongiga singdirish uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, ongni o'zgartirmasdan turib, na faqat eski tuzum asoratlardan qutilish, shu bilan birga qurilayotgan jarniyat uchun fidoyilik ko'rsatish ruhiyatini ham shakllantirib bo'lmaydi. Ana shu jihatdan bu kontseptsiya nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. I.Karimov tomonidan belgilangan ana shu vazifalar "Besh tamoyil"ga zamin bo'ldi va uning samarali ishlashiga olib keldi. "Besh tamoyil" O'zbekiston xalqining o'ziga xos jihatlarini o'zida ifoda ettirganligi uchun ham real hayotda o'z ifodasini topdi. O'zbekistonning islohotlar o'tkazish kontseptsiyasining o'ziga xosligi, uning o'zgalarnikiga o'xshamasligi jahonning ko'pgina siyosatchilari, davlat arboblari va olimlari tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Jumladan, taniqli olim Leonid Levitin shunday ta'kidlaydi: "O'zbekistonning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'li alohida o'ziga xosdir, bu yo'l deyarli barcha sobiq sho'ro davlatlarida borayotgan yo'llardan farq qiladi. Uning ko'zga tashlarini turgan yutuqlari ko'pchilikda o'zi va boshqalar uchun bu mo'jizaning mohiyatini oydinlashtirish ehtiyojini uyg'otmoqda. O'zbekiston Prezidenti o'z iqtisodiy dasturining narmunasini kimdan "ko'chirma" qilganligi ustida ham bosh qotirmoqdalar."<sup>1</sup>

O'zbekistonning demokratik jamiyat qurish va bozor munosabatlariiga o'tish modeli puxta ishlab chiqilganligi va unda xalqimizning o'ziga xos jihatlari o'z ifodasini topganligi uchun ham aholimiz tomonidan qo'llab-quvvatlandi hamda barqaror taraqqiyotning nazariy asosi sifatida o'zining samarasini bormoqda.

**3-masala.** Taraqqiyotining milliy g'oya nazariy asosiga aylangan kontseptsiyasining amaliyotga tadbiq etilishi. Erishilgan yutuqlar ko'lami niyoyatda katta bo'ldi. Prezident I.Karimov bu haqida birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchisi sessiyasidagi ma'rurasida (1999 yil, 14 aprel) quyidagilami ko'rsatib bergen edi.

Nisbatan qisqa vaqt mobaynida O'zbekistonni mustaqil rivojlantirish borasida biz nimalarga erishdik?

1.Avvalambor, biz mustaqillik va istiqlolimizni qo'lga kiritib, o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash, barcha tabiiy, mineral-xom ashyo boyliklarimizdan, mamlakatimizning butun salohiyatidan o'z xalqimiz va uning kelajagi manfaatlari yo'lida foydalanish huquqiga ega bo'ldik. Dunyo haritasida jahon harnjamiyati tomonidan tan olingan yangi davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

<sup>1</sup> Levitin L., Karlay D. Islom Karimov – yangi O'zbekistonning prezidenti.—T.: "O'zbekiston", 1996. - 47-bet.

2. Mamlakatda soxta g'oya, ma'muriy-buyruqbozlik asosiga qurilgan, sobiq Ittifoqning mustabid tizimiga barham berildi. Ma'lumki, avval zikr etilganidek, bu tizimda O'zbekiston faqatgina xom ashyo bazasi, boshqacha aytganda, yarim mustamlaka o'lka edi.

3. Erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning konstitutsion, huquqiy va amaliy asoslarini yaratishga muvaffaq bo'ldik.

4. Ana shu asosda davlat va jamiyatni, iqtisodiyotni, moliya va pul muomalasini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish hamda boshqarishning yangi tizimini barpo etishga erishdik. Jamiyatda yangi ma'naviy va ahloqiy qadriyatlamining ustuvorligi ta'minlandi.

5. Mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nufuzi va o'mi oshishiga xizmat qiladigan, uning manfaatlariga xos keladigan tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarning mustaqil yo'li shakllandi va izchil amalga oshirilmoqda.

6. Mamlakatimizning sarhadlari va suverennitetini himoya qilishga qodir bo'lgan yangi milliy armiya tuzildi. Davlatda xavfsizlik va jamoat tartibini ta'min etuvchi mutlaqo yangi asosdagи tizim yaratildi.

7. Tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'mi va ahamiyati qayta tiklandi.

8. Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug'imiz – bu umumiyo xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz tafakkurida bu qadriyatning beqiyos ahamiyatini anglab etish tuyg'usi yuksalib bormoqda.

9. SHahar va qishloqlarimizning qiyofasi kundan-kunga o'zgarmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatda shaxsiy mulk va mulkdorlarning, tadbirkorlarning mavqeい va o'rni mustahkamlanmoqda.

Yirik inshootlar, korxonalar, zavod va fabrikalarning qurilgani, yoqilgi va g'alla mustaqilligiga erishilgani, iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari, makroiqtisodiy barqarorlik, odamlarning moddiy va ijtimoiy hayotidagi sezilarli ijobjiy o'zgarishlar – bularning bari biz tanlagan taraqqiyot modelining to'g'riliгинi tasdiqlovchi dalillardir va bugungi kunda bu haqiqatni hhech kim inkor eta olmaydi.

10. Odamlarimizning tafakkuri va hayotga munosabati o'zgarmoqda. O'tmish qoliplaridan voz kechgan jamiyatniz a'zolari hayotdagi o'z mini yangicha tasavvur etmoqda, o'z kuchiga ishonchi ortib bormoqda. Kishilarimiz ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda. Bu yillar davomida biz erishgan eng katta va eng muhim yutuq – bu aholining faolligi oshayotgani, hayotimizni isloh etish va yangilash zarurligiga bo'lgan qat'iy ishonchdir.

O'tgan davr mobaynida erishilgan yutuqlarning mana shu oddiy ro'yhati zamirida, avvalo o'tish davrining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish borasida amalga oshirilgan katta ishlar, bugungi va kelajagini o'z

qo'li bilan bunyod etayotgan millionlab vatanparvarlarimizning irodasi, aql-zakovati va fidokorona mehnati yotibdi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining milliy g'oya nazariysi va amaliyoti real hayot uyg'unligida kechdi. Bugungi kunda nazariy jihatdan ishlab chiqilgan barcha vazifalarning zaminlari va imkoniyatlari hisobga olinganligi asosiy omil bo'ldi. Tarixan qisqa davr ichida erishgan yutuqlarimiz O'zbekiston taraqqiyotining keyingi bosqichlari uchun zamin bo'ldi.

### **Taqrorlash uchun savollar:**

1.O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish nazariyasining ishlab chiqilishi va uning amaliyetga tatbiq etilishi jarayoni haqida nimalar bilasiz?

2.Milliy taraqqiyotning "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon haet" bosh g'oyasining neqizlari nimadan iborat?

3.O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlar-ning g'oyaviy-mafkuraviy manbalari qanday?

4 O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bozor munosabatlарining shakllantirilishi, jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashtirish, milliy-ma'naviy tiklanish, tinchlik, barkarorlikni ta'minlashning milliy va xalqaro ahamiyati qanday asoslangan?

### **III-MAVZU: O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIKKA ERISHISHI VA TARAQQIYOT YO'LINING BELGILAB OLISHI**

#### **Reja:**

1.O'zbekistonda XX asrning 80-yillari oxirlaridagi inqirozli holat.

2.Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi chora-tadbirlar.

3.O'zbekistonning mustaqillikka erishish strategiyasi.

4.Mustaqil taraqqiyot yo'lining belgilab olinishi.

**1-masala.** Sobiq Sovet Ittifoqi va uning totalitar rejimi XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib inqirozga yuz tuta boshladи. Buning sabablari quyidagilar edi: yillar davomida iqtisodiyot ekstensiv yo'ldan rivojlantirildi, Sovet Ittifoqi izolyatsiyalab qo'yilganligi tufayli texnik texnologik yangiliklar kirib kelishini qisqartirib yubordi, ishlab chiqarish uskunalari yangilanmaganligi sababli sanoat tovarlariga jahon bozorida talab qisqardi.

Neft va gazni eksport qilishdan tushgan mablag'ning deyarli hammasi harbiy maqsadlarga ishlataldi. Afg'onistonga qo'shin kiritilishi (1979 y.) xalqaro

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: "O'zbekiston", 1999. 8-10-betlar.

keskinlikni yanada kuchaytirdi va katta harajatlarga olib keldi. 1985 yilda hokimiyat tepasiga kelgan M.Gorbachyov va uning tarafdarlari boshlagan “qayta qurish” siyosati iqtisodiy jihatdan muvofaqiyatsizlikka uchradi, berilgan oshkoraliq va demokratiya tufayli xalqning siyosiy faolligi oshdi, ommaviy, milliy harakat va tashkilotlar tuzildi. Lekin, yuqorida turib sovet tuzumini isloh qilish uchun qilingan palapartish urinishlar mamlakatdagi tanglikni chuqurlashtirdi. Milliy nizolar kuchaydi, iqtisodiy ahvol og’irlashdi.

Ayniqsa, qayta qurish siyosati tufayli sobiq Ittifoq hududida demokratik jarayonlaming chuqurlashishi, aniqroq qilib aytganda, “demokratiya o’yin”larining avj olishi butun mamlakat hududida siyosiy jarayonlarni faollashtirgan bo’lsa, muayyan guruhlarning manfaatlari, ayrim shaxslarning siyosiy mavqe uchun intilishlari beqaror siyosiy muhitni vujudga keltirdi. Xalq deputatlari s’ezdlari va kommunistik partiyaning nufuzli yig’ilishlarida siyosiy mojarolar, o’zaro tortishuvlar, shaxsiy adovat va manfaatning keskinlashuv holatlari yuzaga keldi. O’zaro to’qnashuvlar avj olib, mamlakat oliy rahbariyati o’tasida parokandalik, o’zaro kelishmovchiliklar, tarafkashlik va guruhbozlik kuchaydi, siyosiy mavqeini yo’qotayotgan rahbar shaxslar o’tasidagi kurashlar mamlakatni fojiali oqibatlar girdobiga torta boshladi.

Butun sovet Ittifoqi hududida kommunistik partiya va uning mafkurasi obro’sizlana boshladi. Umum davlat manfaatiga xizmat qiladigan g’oyalar atrofida aholini zo’rlab birlashtirish uchun endi avvalgi qudratli tazyiq mashinasi ish bermay qo’yan edi.

Sobiq Ittifoqdagi bunday umumiyl holat O’zbekistonda ham mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarda o’ta og’ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni vujudga keltirdi.

O’zbekistonning mustaqillikka erishishi va kelajak taqdiri ana shu davning o’tkir muammolarini tezlik bilan hal qilishga bog’liq edi. Bu borada O’zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O’zbekistan mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida o’sha davning haqiqiy manzarasi batafsil bayon etilib, respublikada uzoq yillar davomida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ziddiyat va keskinliklarning haqiqiy sabablari har tomonlarma ochib berilgan. Bunday og’ir ahvolning sabablari:

-o’tgan asrning 30-yillari boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma’muriy-buyruqbozlik usullariga zo’r berilib, O’zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga joriy etilgan yaroqsiz yondashuvlaming tobora kuchayib borishi;

-respublikaga, asosan, xom ashyo bazasi, sobiq Markazdagi vazirlik va idoralarning mo’may xom ashyo manbai sifatida qarab kelinishi;

-o’lkanning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariiga ba’zan etarlicha, ba’zan mutlaqo baho berilmagani, ba’zan esa bu xususiyatlarning pisand ham qilinmagani;

-iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonning mavqeい va o'mini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmagani va boshqalar.

Ana shunday salbiy holatlар oqibatida O'zbekistonda ko'plab o'ta keskin va jiddiy muammolar yuzaga kelib, ular mamlakatimizda ijtimoiy portlash, tinchlik va osoyishtalikni izdan chiqarish, parokandalikka duchor etish xavfini vujudga keltirdi.

XX asming 80-yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot murakkablashib borganligini ko'rish mumkin. Bu milliy manfaatlarni qat'iy turib himoya qila olmagan respublika rahbariyati bilan bog'liq edi. Ulaming ojizligi orqasida respublika partiya va davlat rahbarlik lavozimlariga Markaz tomonidan ko'plab kadrlar yuborildi.

"Kadrlar to'dasi" deb nom olgan 400ga yaqin Markazdan jo'natilgan kadrlar O'zbekistoni o'z bilganlaricha boshqara boshladilar. O'zbekiston Kompartiyasi va Respublika Ministrlar Kengashi amalda ular tomonidan boshqarildi. Birinchi lavozimda o'tirgan mahalliy kadrlar ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoldilar. O'zbekiston Kompartiyasi MQda Moskva vakillari Mogilnichenko, Bessarabov, Ponomaryov uya qurib olgan edi. O'sha yillarda tez-tez bo'lib turadigan plenumlar va yig'ilishlar O'zbekistonda doimiy ishlash uchun yuborilgan "Kadrlar to'dasi"ning boshliqlari — Anishev, Ogarek, Satin va ularning hamtovoqlari nazorati ostiga olingan edi. O'zbekistonda "o'zbeklar ishi", "paxta ishi" deb atalgan jinoiy ishlar to'qib chiqarildi. Moskvadan yuborilgan Gdlyan va Ivanov guruhi O'zbekistonning boshiga tushgan kulfat bo'ldi. Guruh a'zolari hech kim bilan hisoblashib o'tirmay odamlarni qamash bilan shug'ullandi. Oddiy dehqondan tortib O'zbekiston Kompartiyasi MQ kotiblari va hukumat a'zolarigacha bo'lgan xodimlarni qamash uchun birovlardan zo'r lab yozdirib olingen bir parcha qog'ozning o'zi kifoya edi. Bu qatog'onlardan 24 ming kishi jabr ko'rdi.

Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin, bu illatlarni o'zbek xalqi emas, balki, sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o'lkaning o'ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilihni istamagan kelgindilar, ularga lagabardorlik qilgan ayrim mahalliy amaldorlar xalqning urf-odatlari, an'analarini oyoqosti qildilar. Xalqimizning boy madaniyati va ma'naviy qadriyatları kamsitildi. Ona tilimizning qo'llanish doirasini sun'iy tarzda yanada cheklab qo'yildi. Hatto milliy libos kiyib yurish ham qoralandi. Milliy an'analar bo'yicha to'y qilgan yoki vafot etgan qarindosh-urug'larni milliy, diniy qadriyatlar asosida dafn qilganlar tanqid ostiga olindi, shafqatsiz jazolandı. Bunday vaziyat xalqni ranjitdi, hafsalasini pir qildi, siyosiy loqaydlikni kuchaytirdi.

Siyosiy va maskuraviy zug'umlarga qaramasdan ijtimoiy ong o'zgara boshladi. Ziyoliylar va omaviy axborot vositalari faolligi tufayli o'tmish va hozirgi zamон muammolari to'g'risida munozaralar, turli qarashlar, nuqtayi nazarlar

bildiriladigan bo'lib bordi. Norasmiy guruhlar va tashkilotlar paydo bo'la boshladi. 1989 yilda tashkil topgan "Birlik" xalq harakati respublikadagi dastlabki norasmiy harakat edi. SHuningdek, "O'zbekiston erkin yoshlar ittifoqi", xotin-qizlarning "To'maris" nomli tashkiloti, rusiyabzon ziyolilaming "Intersoyuz" deb atalgan harakati tuzildi. Bu harakatlar dastlabki paytlarda xalqning ma'naviy qadriyatlarini tiklash, Orol fojiasining oldini olish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan voz kechish kabi dolzarb masalalarni ko'tardilar. Biroq bu harakatlar g'oyaviy, siyosiy, tashkiliy jihatdan etarli darajada uyusha olmadni. "Birlik" xalq harakati rahbarlari mamlakat manfaatlardidan kelib chiqadigan dasturlar ishlab chiqish va aniq maqsadlarni amalga oshirish yo'lida siyosiy kurash olib borish o'rniqa namoyishlar va mitinglar uyuştirish, ko'cha va maydonlarda to'plangan olomonda ehtiroslarni avj oldirish bilan shug'ullandi. Oqibatda "Birlik" bo'linib ketdi. 1990 yil boshlarida "Birlik" harakati faollarining Muhammad Solih (Saloy Madaminov) boshliq bir guruhi "Erk" nomli siyosiy partiya tuzdi.

Biroq, "Erk" partiyasi rahbarlari ham jamiyatni yangilash uchun bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish zaruriyatini, qanday islohotlar o'tkazish kerakligini va uning mazmun-mohiyatini, odamlar ongi va ruhiyatini o'zgartirish lozimligini, buning uchun mashaqqatli o'tish davrini bosib o'tish lozimligini anglab, tushunib etolmadilar. Ehtiroslarga berilish, jamiyatni yangilash borasida keskin chora-tadbirlar ko'rish talablari bilan chiqa boshladi.

Iqtisodiy muammolardan eng asosiyisi — mamlakatning amalda ocharchilik ostonasiga kelib qolgani edi. SSSR parchalanib ketganidan keyin sobiq sovet hududida juda keskin va tahlikali vaziyat yuzaga keldi. Bu esa, boshboshoqlikning oldini olish, huquq-tartibotni saqlash va aholining eng zarur, birinchi galda, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bo'yicha zudlik bilan tegishli choralar ko'rishni talab etdi.

SHunday muammolardan yana bittasi — respublikada demografik vaziyatning murakkabligi edi. Statistik ma'lumotlar tahlili aholi ro'yxatga olingan davr oralig'ida, ya'ni, 1979-1989 yillar davomida respublikada jami aholi soni **15379,4 ming kishidan** **19810,0 ming kishiga yoki 28,8 foizga** ko'payganini ko'rsatadi. Bu davrda aholining o'ttacha yillik o'sish sur'ati 2,8 foizni tashkil qilgan. 1991 yilga kelib mamlakatimizda aholi soni 20,7 million kishidan ortib, 1990 yilga nisbatan 386 ming kishiga o'sgan.

Bu esa, O'zbekistonda aholining o'sish sur'atlari Ittifoq sur'atlari qaraganda uch barobardan ziyyod yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, achinarli tomoni shundaki, aholining bunday o'sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining yomonlashuvi, ishsizlar sonining kupayishi, ijtimoiy mehnat unumдорligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi.

O'zbekiston tabiiy gaz, Neft va gaz kondensata bo'yicha aniqlangan ulkan sanoat zahiralariga ega bo'lganiga qaramasdan, ilgari iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojini qondirish uchun yiliqa 6-7 million tonna Neft va neft mahsulotlarini chetdan keltirish va buning uchun katta miqdordagi valyuta resurslarini sarflashga majbur bo'lar edi. SHuning uchun mustaqillikning dastlabki yillardayoq yurtimizda yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

O'zbekiston sobiq SSSR va sotsialistik lagerga mansub mamlakatlar uchun asosan paxta xom ashyosi tayyorlar, g'alla va un mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojimizning 80 foizdan ortig'i esa, chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobidan qoplanar edi. Natijada mustaqillikning dastlabki kunlarida Sobiq Ittifoqdosh respublikalar bilan iqtisodiy aloqalar qisqarishi tufayli aholini non va non mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha ham o'ta og'ir qiyinchilik va muammolar paydo bo'lди. SHuning uchun mustaqillikning dastlabki yillardayoq g'alla mustaqilligiga erishish strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

O'zbekiston sobiq Ittifoq tarkibida uzoq yillar davomida hukm surgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi ta'sirida faqat xom ashyo etkazib beradigan qoloq o'lkaza aylantirildi. O'sha yillarda etishtirilgan paxta xom ashyosining 7 foizigina mamlakatimizning o'zida qayta ishlanar, qolgan qismi suvtekin narxda chetga chiqarilar edi. Bu, respublika aholisi daromadlari va turmush darajasiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada respublika barcha asosiy iqtisodiy-iijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, Ittifoqda oxirgi o'rnlardan biriga tushib qoldi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi, asosiy turdag'i mahsulotlami iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rnlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan.

Aholining daromadlari kam bo'lgani tufayli uning asosiy qismi iste'mol harajatlariga sarflangan sarflari tarkibining deyarli 60 foizini oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etgan. O'sha davrda kun kechirish uchun oyiga o'rta hisobda kamida 85 so'm zarur bo'lgani holda, 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi Ittifoq bo'yicha 12 foizdan sal ko'prok, bo'lsa, O'zbekistonda 45 foizga etgan, ya'ni, 8 million 800 ming kishini tashkil etgan.

Qishloq aholisining atigi 50 foizi normal ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi. Qishloqlarda yashovchi 240 ming oilaning tomorqa eri yo'q, har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foiz xonadonlarda sigir, yarmisida qo'y boqilmas edi.

Maktab va maorif ishlarini isloh qilish va o'rta maxsus ta'limni qayta qurish borasidagi sa'y-harakatlar ham behuda ketdi. Respublikadagi 9000 ga yaqin

maktablarning atigi 40 foizi mактаб uчун mo'ljallab qurilgan binolarda, qolganlari esa moslashtirilgan binolarda ishlardi, ko'plari avariya holatida edi, o'quvchilarning katta qismi ikkinchi yoki uchinchi smenada o'qir edi. O'quvchilarning yiliغا 2-3 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jaib etilishi o'quv ishlarini izdan chiqargan edi. O'quvchilar bilimi sayozlashib bordi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari ham mutaxassislar tayyorlash sifati pasayib ketgan edi.

Oliy o'quv yurtlari yuqori malakali professor o'qituvchilar bilan, zamonaviy texnika vositalari bilan etarli darajada ta'minlanmagan edi. Kadrlar tayyorlashda son ketidan quvishga yo'l qo'yildi.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muammolar to'planib bordi, ularni ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan hal qilishga urinishlar hech qanday natija bermadi. Xalq orasida pinhona o'sib borayotgan ishonchszilik, loqaydlik kayfiyatları asta-sekin yuzaga chiqqa boshladı. Ruxsat etilmagan mitinglar, namoyishlar o'tkazish hollari, hatto noxush voqealar ham sodir bo'la boshladı.

1989 yilning may-iyun oylarida Farg'onada fojiali voqealar sodir bo'ldi. Farg'ona fojiasining sabablari, uni harakatga keltirgan kuchlar kimlar edi? O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1989 yil 23 iyunda bo'lgan XIV plenumida Farg'ona fojiasi bilan bog'liq masalalarni o'rganish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya axboroti O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1989 yil 29 iyulda bo'lgan XV plenumi tomonidan ma'qullandi. Farg'ona viloyati, shahar, tuman partiya va sovet tashkilotlarining, huquqni himoya qilish organlarining tashkilotchilik, siyosiy ishidagi jiddiy xatolar fojiali voqealarga sabab bo'ldi. Ular viloyatdagi keskin ijtimoiy, siyosiy vaziyatning kuchayish xavfiga etarli baho bermadilar, millatlararo adovatni keltirib chiqarishga uringan ekstremistlarga, poraga sotilganlarga o'z vaqtida zarba bermadilar.

Farg'ona viloyatida o'n yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy keskinlik ortib bordi. Xo'jalik strukturasi izdan chiqqan, tarmoqlar xomashyo etishtirish, yarim fabrikatlar ishlab chiqarishga moslashib qolgan edi, ishsizlar soni tobora oshib borar, odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash tadbirleri ko'rilmasdi. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish ishlari buzilgan, poraxo'rlik, xizmat mavqeini suiste' mol qilish avj olgan edi. Ana shunday keskinlikdan, respublikada ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishdan manfaatdor siyosiy kuchlar, ekstremistlar foydalandilar. Ular allaqachon ishlab chiqilgan, puxta tayyorgarlik ko'rgan reja asosida ig'vogarona harakat qildilar, olomonga oldindan tayyorlangan varaqalar tarqatdilar. Farg'onada sodir bo'lgan siyosiy ig'vogarlik Tbilisi, Tog'li Qorabog', Bokuda tashkil etilgan ig'vogarliklardan biri edi. Keyinchalik Bo'ka, Parkent, O'sh, Andijonda ham shunday urinishlar bo'ldi. YOvuz kuchlar bostirildi, ig'vogarlar o'z maqsadiga erisha olmadilar. O'zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida keskinlik bartaraf qilindi.

Mustaqillik arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy muhit taxlikali va ziddiyatlari tus olganligini quyidagicha umurnlashtirish mumkin:

**Birinchidan**, "paxta ishi" va "o'zbeklar ishi" degan ayblovlardan yangi qatag'on davri boshlandi. Ko'zga ko'ringan tajribali rahbarlarning asosiy kismi

jinoiy javobgarlikka tortildi. Oqibatda butun mamlakatda parokandalik, loqaydlik va ishonchszilik kayfiyati chuqlashdi.

**Ikkinchidan**, G'arb demokratiyasiga taqlid qilib, unga ko'r-ko'rona ergashgan soxta demokratlar ijtimoiy fikrni chalg'itib xalqni maydonlarga chorlay boshladilar. Minglab odamlarni o'zlariga ergashtirib norozilik mitinglarini uyuştirdilar. Fuqarolik urushi xavfi yuzaga keldi.

**Uchinchidan**, respublikada norozilikni kuchaytirish, odamlarni chalg'itish, millatni bo'lib tashlash maqsadida tumanlar, viloyatlar va turli vazirliklar qo'shib yuborildi. Tuman va viloyatlarning qo'shib yuborilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga keskin zarba berish bilan birga odamlar kayfiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

**To'rtinchidan**, aholi tig'iz joylashgan, ijtimoiy muammolar keskinlashgan, moddiy jihatdan qynalib qolgan mintaqalarda millatlararo nizolarni keltirib chiqarishdi va shu yo'l bilan aholini mustaqillikka erishishdan iborat asosiy maqsad va yo'nalishlardan chalg'itishga intildilar. Natijada Farg'ona, Andijon, Guliston, Bo'ka, Parkentda qonli to'qnashuvlar vujudga keldi.

**Beshinchidan**, kommunistik mafkuraning « din - af'yundir » degan daxriylik shiori odamlar qalbini jarohatladi. Jamiatda yuz bergen parokandalik va tartibsizlik paytida islam dinidan o'z manfaati yo'lida foydalananvchi aqidaparastlar paydo bo'lib, diniy partiyalar atrofida birlashib, hokimiyat uchun kurashni avj oldirdilar.

**2-masala.** 1989 yil 23 iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MQning XIV plenumida Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi etib saylandi. I.A.Karimov boshliq O'zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi kuchayib borayotganligiga e'tibor qaratildi. Xalqning shon-shuhrat, qadr-qimmatini himoya qilish, milliy mustaqillikka erishish tomon yo'l tutildi.

Respublikadagi barcha sohalardagi me'yornarning buzulish holatini tartibga tushirish, axloqiy-me'yoriy muvozanatni qaror toptirish, ma'naviy bo'shlig, ijtimoiy hayotdagи parokandalikni bartaraf etish zarur edi. Ma'muriy tizimning bo'shligi, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining sustlashganligi, tartibsizlikning avj olganligi kabi jamiyat va odamlar hayotida xavf tug'diruvchi holatni bartaraf etish lozim edi. Islom Karimov respublika rahbari sifatida faoliyat ko'rsata boshlagan dastlabki kunlaridan o'zbek xalqi manfaatlari, sha'ni va g'ururini himoya qilishga kirishdi. I.Karimov Farg'ona voqealari tufayli o'zbeklar sha'niga yog'dirilgan bo'htonlarga javoban: "O'zbek xalqining vijdoni pok, Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lindi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta o'ziningadolatli hukmini chiqaradi. Baynalminalchilik, mehmono'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilatlar bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lмаган. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan

isbotlangan"<sup>1</sup>, degan nuqtai nazarni qat'iyat bilan ilgari surdi va mavjud tasavvurlar mazmunini o'zgartira oldi.

Respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini xolisona tahlil etish, baholash va ko'tarishga qaratilgan dastlabki sa'y-harakatlar qilindi. Yurtimizda 1989 yil 17 avgustda Islom Karimov boshchiligidagi respublika hukumatining Toshkentda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida "Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida"gi Qaror qabul qilindi. Qarorda qishloqda yashovchi har bir oilaga o'rtacha 25 sotixdan er ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi. Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989-1990 yillarda bir yarim milliondan ko'proq oilaga ko'shimcha er ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa erlari berildi.<sup>2</sup>

I.Karimov qishloq joylarda aholi uchun tomorqa erlar ajratishni kengaytirish masalasiga ancha keng qarab, ushbu tadbir orqali ko'plab muhim masalalarni hal etishni, jumladan, oziq-ovqat dasturini bajarishni ko'zda tutgan edi. SHaxsiy xo'jalikdagagi erving bir gektari jamoat sektoridagiga nisbatan to'rt barobar ko'p samara berardi. SHaxsiy yordamchi xo'jalikning bir gektaridan olinayotgan samara 12,5 ming so'mni, ijtimoiy sektorda esa atigi salkam uch ming so'mni tashkil etardi.

Respublikamizda haydaladigan erlarning atigi 5 foizi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga berilgan, ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining to'rtadan bir qismini etishtiromoqda edi. Qishloq xo'jaligi mahsulotining 26 foizi, shu jumladan, go'shtning 49 foizi, sutning 65 foizi, junning 66 foizi va sabzavotning 43 foizi shaxsiy tomorqalar hissasiga to'g'ri kelardi. 1990 yilda yakka xo'jaliklarda etishtilrilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining umumiy hajmi 300 million so'mdan oshganining o'zi er masalasidagi qarorining ahamiyatini yaqqol namoyon etdi.

Ikkinchidan, bu qaror uy-joy dasturini hal etishga yordam berdi. YAKKA tartibda uy-joy qurish o'z salmog'iga ko'ra, uy-joy dasturida 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etib, o'sha davrda bu ko'rsatkich 89-90 foiz atrofida bajarilgan. Aholiga er uchaskalari, ssudalar va zarur kurilish materiallari ajratib berish **mazkur jarayonni ancha tezlashtirdi**.

Uchinchidan, mazkur qaror ishsizlik muammosini hal etishda juda qo'l keladi. Masalan, Farg'ona viloyatidagi mavjud 149 ta jamoa va davlat xo'jaligining har birida aholi bilan shartnomaga asosida uy-joy quradigan 50-60 kishilik qurilish brigadasining tuzilishi evaziga 7,5 ming kishini ish bilan ta'minlash imkonini tug'ildi. Xorazm viloyati xo'jaliklarida g'isht, duradgorlik buyumlari va boshqa narsalar tayyorlaydigan yordamchi korxonalarining bunyod etilishi qurilish materiallari taqchilligini bartaraf etish bilan birga uch yil mobaynida ishlab chiqarishga qo'shimcha tarzda 2,5 ming kishini jaib etish

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston", 2011.- 51-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba, 12- bet.

imkonini berdi. Bu odamlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalg etishning birdpan bir to'g'ri yo'li edi.

Turinchidan, ayollarning ish bilan bandligi muammosini hal etish imkonini tug'ildi. Ayollar ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'limgan aholining anchagini qismini tashkil etib, ko'p bolali oilalarda ular bolalar tarbiyasi, ro'zg'or yumushi bilan band edi. Ayollarning o'z tomorqalarida xo'jalik bilan rasmiylashtirilgan shartnoma, mehnat staji hisoblash va keyinchalik pensiya tayinlash asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishi ularning oilalari manfaatiga mos keladigan ish bo'ldi.

Beshinchidan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik masalasi hal etildi. Ma'lumki, *ishsizlik*, bekorchilik *jamiyat* uchun zararli xatti-harakatlarga, jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'ladi. SHunga ko'ra, aksariyatining *kasb-hunari* yo'q, mehnat qilish ko'nikrmasiga ega bo'limgan yoshlarga er uchastkalarining ajratib berilishi ularni mehnat qilishga rag'batlantirdi, yoshlarda erga egalik hissi, mehnat ko'nikmalari shakllandi. O'sha davrda respublikamiz qishloqlaridagi har besh xonadonning birida birorta ham chorva moli, 37 foizida sigir, yarmida qo'y boqilmagani mazkur muammoning o'sha davrda naqadar dolzarb bo'lganini ko'rsatadi.

Bugun juda ishonich bilan aytish mumkinki, bu murakkab masalaga **ana shunday oqilonqa yondashuv tufayli** O'zbekiston bo'yicha yuz minglab odamlar uy-joyli, ishli bo'ldi, bozorlarda mahsulot ko'payib, nark-navo arzonlashdi, **eng muhim, ijtimoiy keskinlikning** oldini olishga erishildi.

Bundan tashqari, yuz minglab gektar sug'oriladigan er texnik ekinlar oborotidan chiqarildi, paxta etishtirish rejasiga 700 ming tonnaga kamaytirildi. **Bu - paxta yakkoxokimligini** bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo, o'ta muhim amaliy qadam edi.

Respublika jamoatchiliqi tomonidan allaqachon o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi ko'tarilgan edi. O'zbekistonning sobiq rahbariyati bu masalaga avvallari millatchilik, mahalliychilik deb qaradi, keyinchalik o'zbek va rus tilini teng mavqega ko'tarishga urindi, shu yo'sinda ikki tillilik haqidagi qonun loyihasini o'tkazishga **harakat** qilindi. Respublikaning yangi rahbari jamoatchilik fikrini inobatga oldi, masalani bosiqlik bilan hal qilish yo'lini tanladi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1989 yil 21 oktyabrda bo'lgan o'n birinchi sessiyasida "O'zbekiston SSRning davlat tili haqida" Qonun qabul qilindi. Qonunda O'zbekistonning davlat tili o'zbek tilidir, o'zbek tili respublikaning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladi, deb belgilab qo'yildi. 1990 yil 19 fevralda "Davlat tili to'g'risida" gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilindi. Qonun va davlat dasturiga binoan mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, korxonalar va davlat muassasalarida ish yuritish rus tilidan o'zbek tiliga o'tkazila boshlandi. Bu qonuning qabul qilinishi va uning amalga oshirilishi respublika ijtimoiy hayotida katta tarixiy voqealbo'lib, mustaqillik sari tashlangan muhim qadam bo'ldi.

**Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirishning yangi kontseptsiyalari ishlab chiqildi.** Islom dinining ma'naviy, ma'rifiy va tarbiyaviy g'oyalariga, umuman dingga munosabat o'zgartirildi.

Respublikada kadrlami tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash masalalarida milliy manfaatlar ustuvorligi ta'minlandi. Markazdan yuborilgan "kadrlar to'dasi" o'z mavqeyini yo'qotdi. Anishchev, Ogaryok, Satin va boshqa "kazo-kazolar" respublikadan chiqarib yuborildi. Mahalliy kadrlar rahbarlik lavozimlariga ko'tarildi. Kadrlar siyosatidagi jiddiy ijobji o'zgarish shundan iborat bo'ldiki, endi O'zbekistonda partiya, sovet, davlat, huquqni himoya qilish organlarining boshliqlarini Moskva orqali hal qilish, Moskva belgilagan xodimlarni ko'tarish amaliyotiga chek qo'yildi, bu masalalarni hal qilishni respublika rahbariyati o'z qo'liga oldi. Bu vaziyatni teran anglagan rahbarning jasorati bo'lib, juda katta siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi, ya'ni, O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon yo'l tutishi siyosiy mutelikdan qutulish tomon tashlangan qadam bo'ldi. O'zbekistondaadolatni tiklash chora-tadbirlari ko'rildi, to'qib chiqarilgan "o'zbek ishi", "paxta ishi" ning tamomila sharmandasini chiqdi. Bu bilan bog'liq ishlar qayta ko'rildi, aybsiz qamalgan o'n minglab kishilar oqlandi, o'z oilasiga qaytarildi, adolat tiklandi. Viloyatlar, tumanlar ma'muriy-iqtisodiy hududlari qaytadan ko'rib chiqildi.

Islom Karimov o'zbek xalqi uchun faqat bitta yo'l — mustaqillik yo'li bor, degan ishonch bilan qat'iy harakat qildi. Xalqimiz uchun ikkinchi yo'l qaramlik va mutelik ekanligini anglash zarurligini ijtimoiy siyosat darajasiga ko'tardi. Ana shu siyosiy kat'iyat, kuchli g'oyaviy e'tiqod va shaxsiy iroda kuchi jarga qulayotgan respublikani asrab, uni muqarrar ijtimoiy falokat va halokatdan saqladi. Jamiatda asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich barqaror ma'naviy-ruhiy, siyosiy-ijtimoiy muhit vujudga kela boshladи.

**3- masala.** 1990 yil 24-31 mart kunlari Toshkentda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. 24 mart kuni sessiya Moskvaning tazyiqiga qaramasdan, respublikalar orasida birinchi bo'lib «O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risida» qonun qabul qildi. **1990 yil 24 mart kuni Oliy Kengashda yashirin ovoz berish yo'li bilan Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.** Mazkur sessiyada **I.Karimov n utq so'zlab o'zining asosiy vazifalari deb quyidagilarni qayd etdi:**

1. O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi hayotiy mazmun bilan boyitish.

2. Respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga va o'zini o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishini ta'minlash.

3. **Mehnatkashlarning, abolining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab-ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez suratlar bilan rivojlantirish.**

4. **Xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonning axloqiy va jismoniy takomili.**

**5. Demokratiyani, huquqqa asoslangan davlat qurilishini rivojlan-tirish, tartib va intizomni mustahkamlash va respublikaning milliy-ijtimoiy taraqqiyoti yo'lida barcha sog'lom kuchlarni birlashtiri.**

Hali SSSR va markaziy hokimiyat mayjud bo'lgan sharoida O'zbekistonda o'z Prezidentining saylanishi muhim voqeа, mamlakatimiz mustaqilligiga erishish sari tashlangan yana bir dadil qadam bo'ldi. Vaholanki, sobiq Ittifoqda o'n kun oldin M.Gorbachyov Prezident etib saylangan, SSSR tarkibiga kiruvchi bironqa respublikada Prezidentlik lavozimi joriy etilmagan edi. O'zbekistonda Prezidentlik joriy etilishida davlat mustaqil bo'lish uchun davlat boshlig'i mustaqil bo'lishi kerak, degan tamoilga amal qilinganligini ko'rish mumkin.

Respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi 1990 yil 20-iyun kuni "O'zbekiston SSR Mustaqilligi to'g'risida Deklaratsiya" qabul qildi. Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidан kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariга, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya tamoyillariga asoslanib, O'zbekiston SSRning Davlat suverenitetini e'lon qildi. Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, quyidagilar bayon etilgan: O'zbekiston SSR Davlat suvereniteti O'zbekiston SSR demokratik davlatining o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir.

O'zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiغا qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas. SSSR Oliy Kengashi qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston hududida kuchga kiradi. O'zbekiston SSR davlat hokimiysi vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi va hokazo.<sup>1</sup> O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya muhim tarixiy hujjat bo'lib, mamlakatimizning o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida yana bir muhim yangi qadam bo'ldi.

O'zbekiston siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritishga tomon tutilgan yo'l iqtisodiy mustaqillik masalasi bilan qo'shib olib borildi. "Prezident boshqaruvinining muhim vazifalaridan biri, - deb ta'kidlagan edi I.Karimov, - respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilish va o'zini o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishni hal qilishdir".<sup>2</sup> O'zbekiston rahbariyati xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish yo'lini mustaqil belgilashga kirishdi. Siyosiy muxolifat va ayrim OAV vakillari Islom Karimovni konservatorlikda, mamlakat mustaqilligini taminlay olmayotganlikda ayblardi. Vaqt niroyatda tig'iz, lekin shoshma-shosharlik, o'ylamasdan olib borilgan siyosat o'nglab bo'lmas vaziyatni keltirib chiqarishi, og'ir asoratlar qoldirishi mumkin edi. 1990 yil 16 iyun kuni I.A.Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida respublikaning iqtisodiy mustaqilliKKa va bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalari yuzasidan qilgan

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston", 2011. -224-226-betlar.

<sup>2</sup> O'sha manba. 148-bet.

ma'rzasida shunday deydi: "Bugungi kunda, eng avvalo, bir daqiqani ham boy bermasdan iqtisodiy masalalarni hal etish kerak. Biz uchun asosiy yo'nalish, barcha vazifalarni hal etish kaliti – O'zbekistonning real siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdir"<sup>1</sup>. Mazkur ma'ruzada O'zbekiston hududida joylashgan, lekin Ittifoq qaromog'iadi barcha korxonalar va tashkilotlarni respublika tasarrufiga o'tkazish orqali respublikaning xo'jalik mustaqilligini ta'minlash haqida gap borar edi.

SHu maqsadda "*O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish kontseptsiyasi*" ishlab chiqildi. Kontseptsiyada O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari belgilab berildi. Mazkur masala yuzasidan hukumat dasturi 1990 yil oktyabrida O'zbekiston Oliy Kengashining IV sessiyasida muhokama qilindi va ma'qullandi. Sessiya respublika hukumatiga O'zbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlashni topshirdi.

O'zbekistonning mustaqillik sari intilayotgani uning yangi Ittifoq shartnomasini ishlab chiqish jarayoniga respublika manfaati nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, qat'iylik bilan yondashayotganida yaqqol namoyon bo'ldi. Sobiq Ittifoqqa kiruvchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritsa-da, amalda qaram edilar. Ular o'z erlari, suvlari, o'rmonlari va er osti boyliklariga, ko'pdan ko'p korxonalariga o'zlar egalik qilolmas edilar. O'tgan ars 80-yillardning oxirlari, 90-yillardning boshlarida ko'pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o'zgartirish talablarini ilgari sura boshlardilar. O'zbekiston Respublikasining rahbari I.A.Karimov 1989 yil 20 sentyabrda Moskvada bo'lib o'tgan KPSS MQsining plenumida so'zlagan nutqida respublikalar bilan Ittifoq o'rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo'yishni ko'zda tutadigan yangi shartnomasi ishlab chiqish zarurligi to'g'risida o'z fikrini bildirib: "Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafborimiz", - degan edi. Biroq markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berish haqidagi talab-takliflarni e'tiborga olishni istamas, to'g'rirog'i ularga erkinlik berishni xohlamas edi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoatchiligining ta'siri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi. 1990-yil bahorida Boltiqbo'yidagi Latviya, Litva, Estoniya Respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon Respublikalari Ittifoq tarkibidan chiqqanligini e'lon qildilar.

1991 yil avgust oyida SSSR Prezidenti M.Gorbachyov Foros (Qrim)da dam olayotganligidan foydalanib, markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillikni bermaslik payida yurganlar davlat to'ntarishini uyushtirishga urinib ko'rishadi. Asosiy maqsad markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalar

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston", 2011.-227-bet.

jilovini o'z qo'lida ushlab qolishga urinish edi. Fitnachilar 1991 yil 18 avgust kuni tayyorlangan va 19 avgustda matbuotda e'lon qilingan "Sovet rahbariyatining Bayonoti"da M.Gorbachyovning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo'q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitse-prezident G.YAnaevga o'tkazilganligi e'lon qilindi. Aslida esa, Prezident M.Gorbachyov sog'-salomat edi, ammo, u o'zini himoya qila olmadi. Fitnachilar uni mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha aloqa vositalarini uzib, 72 soat qamal qilib qo'ygan edi.

Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun quyidagi tarkibda SSSRda favqulodda holat davlat qo'mitasiga (FXDQ) tuzildi: O. D. Baklanov — SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o'rinnbosari, V.Kryuchkov — SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasining raisi, V.Pavlov — SSSR Bosh vaziri, B.Pugo — ichki ishlar vaziri, V.Starodubsev — SSSR dehqonlar uyushmasi raisi, I.Tizyakov — SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasining Prezidenti, D.YAzov — SSSR mudofaa vaziri, G.YAnaev — SSSR Prezidenti vazifasini bajaruvchi. SHu tariqa fitnachilar M.Gorbachyovni noqonuniy yo'l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o'zлari hokimiyatni egallab oldilar. Mazkur qo'mita sovet rahbariyatining Bayonoti, sovet xalqiga murojaatnomasi, davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e'lon qildi.

Butunittifoq doirasida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar. Qaltis vaziyatda 1991 yil 19-avgustda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi.

1991 yil 20 avgust kuni Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi rayosati va O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalp'iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib Bayonot qabul qildi. Bayonotda O'zbekiston Respublikasi tinch vaqtida kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta'kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston davlat mustaqiligi to'g'risidagi Deklaratsiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi, deb ko'rsatildi.

O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov 1991 yil 20 avgust kuni respublika aholisiga o'zining murojaatini e'lon qildi, jumladan unda shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon birovning gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir

respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadlarimizdan qaytganimiz yo'q", - deb murojaat qildi. Xalqni og'ir sinovlardan o'tayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo'lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jipslashishga chaqirdi.<sup>1</sup>

1991 yil 21 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruvi idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarining qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so'zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo'ydi. Farmonda SSSR da favqulodda holat davlat qo'mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo'yildi. Fitnachilarining qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991 yil 19-21 avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdag'i Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnani uyuştiruvchilar qamoqqa olindi. M.Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdag'i siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib qoldi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi.

I.Karimov favqulodda holat davlat qo'mitasini faoliyatiga o'z munosabatini bildirmagan qo'rroq va tamoyilsiz mavqedaga turgan KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosi va Kotibiysi yuz minglab kommunistlarning sha'ni va qadr-qimmatini zarba ostiga qo'yanini qoraladi. Buning ustiga respublika kommunistlarini chalg'itishga va davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlashga majbur qilishga urinish bo'lganini oshkora aytdi. I.Karimov bundan keyin KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosining tarkibida qola olmasligi to'g'risida bayonot berdi. Mazkur Bayonotni O'zbekiston Kompartiyasi MQ byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi rayosati ma'qulladi.

1991 yil 25 avgust kuni O'zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi.

Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizligi qo'mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay holi qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oly Kengash rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston". 2011.-355-359- betlar.

tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi.

Respublika Oliy Kengashining rayosati 1991 yil 26 avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida farmoyish chiqardi. 1991 yil 28 avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining rayosati "Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasini 1991 yil 31 avgust kuni chaqirish haqida qaror" qabul qildi va sessiyada O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi haqidagi masalani muhokama qilish belgilab qo'yildi.

1991 yil 28 avgust kuni O'zbekiston Kompartiyasi MQ va Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda birinchi Prezident I.Karimovning mamlakatda 19-21 avgust kunlari sodir bo'lgan voqealar va respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika Kompartiyasini KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga antikonstitutsiyaviy urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz taqdiriga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. I.Karimov o'zining strategik maqsadini aniq va ravshan o'rtaqa tashladi: "Mamlakat katta falokat yokasiga, jar yoqasiga kelib qolganini ko'rib turibmiz. Xalq o'zining ertangi kuniga ishonchini kundan-kunga yo'qotyapti. Odamlar o'zlarining, oilasining, bola-chaqasining tinchligiga kafolat istaydi. To'kis, xotirjam hayot talab qilyapti. Bu istaklar, bu talablar safsabozlik va va'dabozlik ostida ko'milib ketyapti..."

O'zbekiston rahbariyati hech qachon, qanday ittifoq bo'lmasin, kim bilan ittifoq bo'lmasin, qanday sharoit bo'lmasin, ikkinchi darajali rolga rozi bo'lmaydi, bunga yo'l ham qo'ymaydi. Tenglar ichida teng bo'lish – xalqimizning asriy orzusidir".

**I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.** Sessiyada "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti", "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi qarori, "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

**4-masala. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonuni 17 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Qonunning birinchi**

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: "O'zbekiston",2011-39 1-392- betlar.

moddasida: “O’zbekiston Respublikasi o’z tarkibidagi Qoraqalpog’iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir”, - deb qonunlashtirib qo’yildi.

Qonunda O’zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o’z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi, deb belgilab qo’yildi.

“Mustaqillik asoslari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunida O’zbekiston Respublikasi to’la davlat hokimiyatiga ega, o’zining milliy davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, davlat chegarasi, hududi daxlsiz va bo’linmas bo’lib, uning xalqi o’z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o’zgartirilishi mumkin emas, deb qat’iy mustaxkamlanib qo’yildi.

Mazkur qonunda respublika hududidagi er, er osti boyliklari, suv va o’rmonlar, o’simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma’naviy boyliklari O’zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb belgilab berildi.

O’zbekiston Respublikasi o’z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o’z oltin zahirasini yaratadi, deyiladi bu qonunda.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasi 1991 yil 30 sentyabr kuni “O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to’g’risida”gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qildi. Qurorda O’zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalarini mazkur qonunga zid kelgan hollarda “O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to’g’risida”gi Qonunning moddalariga amal qilinsin, deb belgilab qo’yildi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil noyabrda bo’lgan VIII sessiyasi davlat mustaqilligi masalasi bo'yicha referendum o'tkazish haqidagi masalani ko'rib chiqdi. Oliy Kengash sessiyasi 1991 yil 18 noyabr kuni “O’zbekiston Respublikasi referendumini o’tkazish to’g’risida” qaror qabul qildi. Qurorda 1991 yil 29 dekabr, yakshanba kuni O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to’g’risidagi masala bo'yicha referendum o'tkazish belgilandi. “O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ma’qullaysizmi?”

Referendumda saylov ro’yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi referendumda qo’yilgan savolga “Ha”, ya’ni, O’zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma’qullaymiz, deb ovoz berdi.

1991 yil 29 dekabrdagi birinchi marta umumxalq saylovi asosida Prezidentlikka saylov bo’lib o’tdi va saylov natijasida Islom Karimov O’zbekiston Prezidentligiga saylandi. I.A. Karimov siyosatining asosiy yo’nalishlari Prezidentlikka saylov arafasida O’zbekiston fuqarolariga murojaatida va O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasidagi

ma'rurasida o'z ifodasini topdi. Bu yo'nalishlar O'zbekistonning rivojlanish yo'lini ifodalagan quyidagi **strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlar** edi:

-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;

-tinchlik, totuvlik, osoyishtalikni saqlash, odam o'ldirish, talon-torojlik, o'g'rilik, poraxo'rlik, chayqovchilikning har qanday ko'rinishiga barham berish, qat'iy intizomni o'matish;

-fuqarolar va millatlararo tinchlikni saqlash;

-tadbirkorlikka, korxona va xo'jaliklarga iqtisodiy erkinlik berish;

-ma'naviyatni yuksaltirish, matbuot erkinligi, tarixiy merosni asrash;

-ta'lim va tarbiya ga alohida e'tibor berish, ta'limi davlat qaramog'ida

saqlash;

-xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-ko'ppartiyaviyilik tizimiga o'tish;

-yangi boshqaruv tizimini barpo etish, qonun ustuvorligini ta'minlash;

-davlat siyosatida xalq noiblariga suyanish.

#### **Taqrorlash uchun savollar:**

1.O'zbekistonning mustaqillikka erishish strategiyasi nimadan iborat edi?

2. Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobida qanday milliy davlatchilik rivojlanishining bosqichlari ko'rsatilgan?

3.O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy qilinishi hamda mustaqillik uchun qo'yilgan qadamlarda muxim strategik qarashlarning qabul qilinishi qanday amalga oshirilgan?

#### **IV-MAVZU: O'ZBEKISTONNING BOZOR IQTISODIYOTIGA OTISHINING O'ZIGA XOS YO'LI. TARAQQIYOTNING "O'ZBEK MODELI".**

##### **Reja:**

1.Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va O'zbek modeli tushunchalarining mazmun-mohiyati.

2.Bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli yo'llari va ularning o'ziga xos jihatlari.

3."Demokratiyaning universal modeli" haqidagi qarashlar va ularning tanqidi.

4.Jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida "O'zbek modeli"ning namoyon bo'lish jarayoni.

**1-masala.** O'zbek modeli tushunchasining aniq tizimga keltirilgan ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ta'rifi hozirgacha e'lon qilingan ta'riflar orasida uchramaydi. Ammo, uning o'ziga xos barcha jihatlari Prezidentimizning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" va boshqa asarlarda ko'rsatib berilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan. Xususan, "O'zbek modeli", ishlab chiqishda asos bo'lgan asosiy omillar va "model"ning mohiyati ochib berilgan. Ularga asoslanib, "O'zbek modeli"ga quyidagicha ta'rif berish mumkin. "O'zbek" modeli deganda, o'zbek millatining o'ziga xos mentaliteti, urf-odatlari, an'nalari, qadriyatlari uning demokratik jarayonlari, aholining milliy tarkibi O'zbekistonning qulay geostrategik holati, uning mavjud siyosiy, iqtisodiy potentsiali va shakllangan ijtimoiy ongi kabi omillarni hisobga olishga asoslangan demokratik bozor munosabatlariiga o'tishning ilmiy asoslangan va bir tizimni o'zida mujassamlashtirgan shakli tushuniladi.<sup>1</sup>

Albatta, bu ta'rif ko'rinishdan sodda bo'lsa, ham, eng asosiysi unda ishlab chiqilgan "O'zbek modeli"ning o'ziga xos jihatlari umumlashtirilgan va aniq tizimga keltirilgan.

Bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritganda yana bir tushunchaning mazmuni ya'ni, "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor" - tushunchasiga ham e'tibor qaratish zarur bo'ladi. CHunki, bozor munosabatlari amal qilganida u "ijtimoiy yo'naltirilishi" mumkinmi – degan savol yuzaga keladi. Aslida bozoming "oltin" qonuni amal qiladi, ya'ni, unda iqtisodiy erkinliklar amal qiladi va har kim ulardan foydalangan xolda o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solib farovonlikki erishadi, davlat esa har bir fuqaroga sharoit yaratadi hamda bozor munosabatlarning amal qilishi bilan bog'liq qonunlarning "ishlashi" ustidan nazorat qiladi.

Bozor iqtisodiyotining muhim xususiyatlari haqida fikr yuritganda unda: a)erkin raqobatning amal qilishini va buning natijasida mahsulot-ning sifatining oshib borishini hamda mahsulot tan narxining pasaytirishga intilishining etakchi tamoyil ekanini; b) bozorda ishtiroy etadigan sub'ektlarning erkin faoliyat olib borishi, ya'ni, ularning o'zini o'zi foyda ko'rish maqsadida faollashtirishga intilishi kabilarning mavjudligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Bunday harakatlar natijasida butun aholining farovonligi oshib boradi hamda davlat iqtisodiy jihatdan mustahkamlanadi.

Ayni paytda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarda davlatning etakchilik roli alohida ajralib turadi. Bunda davlat jamiyatda adolat tamoyilining amal qilishda, ya'ni, jamiyatning keskak tabaqlanib ketishining oldini olishda ishtiroy qiladi. Bu o'z navbatida jamiyatda ziddiyatlarning oldini olishga va uning barqaror taraqqiyot tomon borishiga zamin bo'ladi.

Ijtimoiy muammolami hal etishda, aholini ijtimoiy himoyalashning samarali va aniq-ravshan tizimini vujudga keltirishda davlat kaita o'rinn tutadi. Sog'lom

<sup>1</sup> Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi.- T.: "Akademiya", 2005.- 241-bet.

atrof-muhit sharoitida insonning yashash huquqini ta'minlash uchun ko'p jihatdan davlat ma'suldir.

SHunday qilib, "O'zbek modeli"ning eng muhim jihat, unda ijtimoiy yo'naltirilgan bozorni shakllantirishni bosh maqsad qilib olinganida o'z ifodasini topadi.

**2-masala.** Jahon mamlakatlarining bozor munosabatlariiga o'tishi bo'yicha tajribalaridan ma'lumki, ular turli yo'llarni ishlab chiqqanlar va ularni amalga oshirganlar. Prezidentimiz Islom Karimov ulami tahlil qilib tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan:

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o'tishning boshlang'ich shartlariga ko'ra, bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi uch xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin.

1.Bozor munosabatlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish, uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan rivojlangan mamlakatlarda aralash iqtisodiyotni shakllantirishdir.

2.Rivojlanayotgan mamlakatlarning eng oddiy va bozor patriarchal-feodal munosabatlari ko'rinishlariga ega bo'lgan an'anaviy iqtisodiyotini madaniy bozor munosabatlariiga aylantirishdir.

3.Sobiq sotsialistik mamlakatlarning yakkahokimlik tartibidan, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv va markazlashtirilgan rahbarlik usulidagi rejalashtirishdan bozor munosabatlariiga, demokratik jamiyatga o'tishdir.

Sotsialistik iqtisodiyotning Xitoycha yo'lida o'z aksini topgan sotsializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish bilan qo'shib olib borishga urinish ham mavjud.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga revolyutsion yo'l bilan, ya'ni, jadal usulda yoki evolyutsion yo'l bilan, ya'ni, bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirish talab etiladi. Bunisi "falaj qilib davolash usuli" ("shokovaya terapiya") deb ataladi. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariiga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko'rsatadi, evolyutsion yo'l kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir.

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarigina emas, balki, uning andozalari ham xilma-xildir. Eng avvalo, ular shunday bozor iqtisodiyoti vujudga keltirilayotgan va amal qilib turgan mamlakatlarining milliy xususiyatlari va an'analari bilan farq qiladi. SHu boisdan bozor iqtisodiyotining ma'lum andozalari ularni amalga oshiruvchi muayyan mamlakatga mansubligiga qarab ajratiladi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Argentina, Polsha andozalari va hokazo.

Bozor iqtisodiyoti va islohotlarning negizini tashkil qiluvchi yo'llarining g'oyat xilma-xilligi erkin bozor raqobatchiligi iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi bilan qay darajada qo'shib olib borilishi, ulaming ijtimoiy

yo'nalishi, hal qilinayotgan katta iqtisodiy muammolarining ustuvorligi bilan bog'liqdir.

"Amerikacha andoza"da erkin bozor munosabatlari ayniqsa kuchli rol o'ynaydi, "yapon" va "frantsuz" andozalarida esa xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda davlatning ishtiroki anchagina kattadir. "Nernis" va "shved" andozalarida ijtimoiy yo'nalish niroyatda ustuvordir. Xalqaro moliya tashkilotlari (Xalqaro Valyuta fondi, Jahon banki, Evropa qayta tiklash va taraqqiyot banki hamda boshqalar) ning faol qatnashuvi bilan ishlab chiqilayotgan Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlarining andozalarida asosiy e'tibor iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, ilk bosqichda narx-navoni erkin qo'yib, keyinchalik tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga qaratiladi. SHarqiy Evropa mamlakatlari ham xuddi shunday usulda, armmo "falaj" ("shok") holatida bozor sari bormoqdalar.

Janubi-SHariqiy Osiyoning sanoati rivojlangan yangi mamlakatlari Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan va Gonkongning andozalarini o'z natijalari bilan katta taasurot qoldirmoqda. Ularda asosiy e'tibor import mollar o'mniga o'zlariga mahsulot ishlab chiqarish strategiyasini tashqi dunyoga mo'ljallangan eksportni rag'batlantirish strategiyasi ila almashtirish bilan bog'liq ichki muammolarni hal qilishga qaratilgan. Ijtimoiy sohada va eksportni rag'batlantirishda etakchi rol o'ynaydigan kuchli davlatni saqlab qolingandagina bozor iqtisodiyotining andozasi o'zining yorqin ifodasini topadi.

Biz boshqqa davlatlarning rivojlanish jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobjiy tajribalardan foydalanish imkoniyatini istisno qilmaymiz. Ayni chog'da biron-bir andozadan, hatto u muayyan mamlakatda ijobjiy natijalarga olib kelgani bo'lsa, ham, ko'rko'rona nusxa ko'chirish mutlaqo nomaqbuldir. SHunisi aniq-ravshanki, muayyan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, ular o'sha mamlakatga xos bo'lgan alohida sharoitdagina ijobjiy samara berishi mumkin. Aksincha, jozibador bo'lishiga qaramay, aslida begona, yet andozalar sun'iy ravishda tifqishtirilgan joylarda iqtisodiy islohotlar muqarrar ravishda barbod bo'laveradi.

SHu sababli, bizning qat'iy nuqtai nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingan jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olishdan iboratdir. Bu - o'tgan yillar yakunlarini idrok etishning, yangilangan jamiyat iqtisodiy poydevorini barpo etishga tahlil qilishning qonuniy natijasidir. Bu - tarkib topgan ijtimoiy voqelikka amalda to'g'ri baho berish hamdir. SHuningdek, O'zbekiston xalqining ijtimoiy taraqqiyotga, munosib turmush sharoitiga intilishining e'tiborga olinishi hamdir.

Etilgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning jiddiyligi, ularning o'ziga xos xususiyati shu muammolami hal etishga alohida-alohida yondashuvlarni belgilab olish zaruratiniga taqozo qiladi. Hayot sharoiti va musulmoncha turmush tarzining milliy xususiyatlari. SHarq madaniy olamiga mansublik ham shuni talab qiladi. O'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlash murakkab, tarixiy ahamiyatga molik va mas'uliyatli palladir. Hozir yashayotgan o'zbekistonliklarninggina emas, balki, ularning bir qancha kelajak avlodlarining ham taqdiri ana shu yo'l nechog'lik

to'g'ri tanlab olinishiga bog'liqdir. Respublika tanglik holatlarini qanchalik tez bartaraf etishi, yakkahokimlik tiziminining illatlaridan qutulishi, rivojlangan m'a rifatli mamlakatlar darajasiga chiqib olishi shu bilan belgilanadi. O'zbekiston uchun o'zi tanlab oлган yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning mansaftalariga, shart-sharoitlari va xususiyatlari eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.

Respublikada sifat jihatidan yangi mavqega o'tishning puxta o'ylangan dasturi ishlab chiqilgan. Tanlab olingen taraqqiyotyo'li Konstitutsiyaga asoslaongan bo'lib, bu o'zgarmas yo'ldir, chunki, tanlangan yo'lning to'g'riligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Bu O'zbekistonni milliy-davlatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan kamolotga muqarrar olib boradigan yo'ldir.

*O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish asosiy qoidalarining mohiyati:*

**birinchidan**, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror maskuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosи shuki, iqtisodiy siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni maskuradan holi qilish zarur;

**ikkinchidan**, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, joholatparastlar (retrogradlar) va koservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shar;

**uchinchidan**, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosи shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istismosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim;

**to'rtinchidan**, aholining demografik tarkibini hisobga oлган bolda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtда aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'riliishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi;

**beshinchidan**, bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga oлган holda, o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar" siz, ya'ni, evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Bu qoidalar o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga aos qilib olingen bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozir bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimni, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi.

Birinchi navbatda iqtisodiy negizni (bazisni) barpo etish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yangi jamiyat qurishning eng muhim shartidir. Bunda iqtisodiy o'zgartirishlar strategiyasi maskuradan butunlay xoli etilishi, ya'ni, siyosiy maqsadlarga erishish vositali bo'lib xizmat qilmasligi kerak.

Iqtisodiyot masjuraviy tazyiqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi lozim. Masjuraviy aqidalarini bartaraf etish xo'jalik yuritishning turli

ijtimoiy shakllariga nisbatan xayrixoh bo'lgan ijtimoiy fikrning qaror topishiga, bozor munosabatlariga mos bo'lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishiga ko'maklashadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgartirishlarning pirovard maqsadini aniq belgilab olish isloh qilishning zamонави стратегиясининг бoshlanQich nuqtasidir. Umumiyy strategiya bo'lmasa, pirovard maqsadni ko'ra bilmay turib, iqtisodiy islohotning ta'sirchan choralarini belgilab bo'lmaydi.

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor - davlat tomonidan tartibga solib turiladigan bozordir. Uning turli andozalari davlat va raqobatchilik tomonidan tartibga solish darajasining nisbati bilangina farq qiladi.

Totalitar tuzumning ko'p vazifalari bekor qilingan, yangi bozor munosabatlari hali shakllanmagari o'tish davrida davlatning roli ayniqsa muhimdir. Hozircha vujudga kelganlari ham mustahkamlanib olmagan, siyosiy hokimiyat barcha umumimilliy muammolarni hal qilishni zimmasiga olishga qodir emas. Bunday davrda iqtisodiyotni boshqarishni qo'dan chiqarib yuborish, uning taraqqiyotini o'z holiga tashlab qo'yish ehtimoli vujudga keladi. SHu sababli davlatning hukmdorligini saqlab qolish kerak. O'tish davrida iqtisodiyotni davlat o'z qo'liga olishining yuqori darajada bo'lishi ham shuni taqozo etadi.

Ayni paytda davlatning vazifasi himoya qilish bilangina cheklanib qolmaydi. Bozor munosabatlarning qaror topishi davrida davlat islohot jarayonida faol ishtirot etishi, uning tashabbuskor bo'lishi va islohotni izchillik va qat'iylik bilan amalga oshirishi shart.

Bozor munosabatlari yo'liga o'tgan ko'p mamlakatlarning tajribasi davlat hamisha aholini ham, ishbilarmonlami ham islohotlarga tayyorlaganini ko'rsatadi. Davlat ularni yangicha yashashga yo'llagan va rag'batlantirgan. SHu bilan bozor iqtisodiyotiga tezroq va qiyinchilik-larsiz o'tishga yordam bergen. Davlatning islohotchilik vazifasi iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini va bozorga o'tish yo'llarini ishlab chiqishda tashabbuskor bo'lishdan iborat.

Respublikada haqiqatan vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat, oilalar ko'pchiligining turmush darjasini pastligi O'zbekiston uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishda "falaj qilib davolash" usulining ma'qul emasligini ko'rsatadi. Bu usul amalda aholi uchun "davolarnay falaj qilish"ga aylanadi, ya'ni, mavjud barcha tuzilmalar, normalar, aloqalarning tezda barbob bo'lishiga, boshqacha qilib aytganda, to'la vayron bo'lishiga olib keladi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish andozasiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan o'tish asos qilib olingan. Bozor iqtisodiyoti tomon sakrashlarsiz, inqilobi o'zgartirishlar yo'l bilan emas, balki, izchillik bilan bosqichma-bosqich borish kerak. O'zbekistonning bozorga o'tish yo'lining o'ziga xos xususiyati ham shunda. Bir bosqichni tugallab, zarur shart-sharoitni yaratib, shundan keyingina yangi bosqichga o'tiladi.

Bozor munosabatlari - o'zini o'zi boshqaradigan tizimdir. U qaytma aloqaga asoslangan hamda boshboshoqlikka va haddan oshishlarga, bozor g'oyasining o'zini obro'sizlantirishga yo'l qo'ymaydigan muayyan qoidalarga bo'ysunadi.

Bozor qoidalari ming yillar mobaynida yaratilgandir. Ular taraqqiy etgan barcha mamlakatlarning fuqarolik qonunchiligiga va sud amaliyotiga asos bo'lgan.

Turli mamlakatlar qonunchiligidagi qabul qilingan huquqiy shakllar, vosita va uslublar xilma-xil bo'lgani holda, bozor munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liq ravishda qonun va yuridik amaliyotga muttasil o'zgartirishlar kiritilgani holda umumiyligi qoidalari o'zgarishsiz qoladi, chunki, bozor talablari ob'ektiv ravishda shuni taqozo etadi.

Jahon xo'jalik aloqalariga qo'shilishning asosiy sharti sifatida umum qabul qilingan norma va qoidalarga ko'proq yaqinlashishga intilgan holda, respublikaning o'z huquqiy asoslarini ishlab chiqishda uning ijtimoiy-iqtisodiy va milliy o'ziga xos xususiyatlari iloji boricha to'la hisobga olinishi kerak. SHu bilan birga, yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida aholining kundalik turmushiga singib ketgan xalq an'analari, urf-odatlari, shaxslararo va millatlararo muornala hamda diniy e'tiqodlarning asriy tarixidan meros qilib olingan, umuminsoniy qadriyatlariga, odamlarning huquq va erkinliklariga zid bo'lmagan axloqiy normalar albatta aks ettirilishi kerak.

Qonunchilik tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, qonunlarni hayotga izchil joriy qilish, barcha xo'jalik sub'ektlarining yuridik normalari va qoidalalariga qat'iy amal qilishlarini ta'minlash madaniy-ma'rifiy bozomi shakllantirishning majburiy shartidir.

SHu sababli qonunga bo'y sunish bozor munosabatlariga o'tishning barcha amal qilishi kerak bo'lgan etakchi tamoyillaridan biridir. Har qanday huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratdir.

Qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Iqtisodiy faoliyatning, tadbirkorlik va mehnatning davlat tomonidan kafolatlangan erkinligi, mulkchilikning barcha shakllarining teng huquqliligi va huquqiy himoyalanganligi qonunchilik va huquq-tartibot tantanasining eng muhim omilidir.

Qonunning ustuvorligi - huquqiy davlatning asosiy tamoyilidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'yan hukmonligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdar shaxs, hech bir kishi qonunga bo'y sunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohotlar - iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijodiy va ma'naviy imkoniyatlarini ro'yoga chiqarishni ta'minlaydigan munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat. SHu sababli jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlar barbos bo'ladigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi elkasiga tushadigan andoza maqbul emas. Davlatning faol islohotchilik mavqeida butun diqqat-e'tibomi iqtisodiyotni sog'lomlashtirish muammolarini birinchi navbatda hal etishga, qonuniylik va huquq-tartibotga rioya qilishga, eski iqtisodiy munosabatlarni bozor

munosabatlariga aylantirishga qaratish ijtimoiy barqarorlik uchun mustahkam negizni vujudga keltiradi.

O'z navbatida, aholining eng kambag'al, muhtoj tabaqalariga vaqtida madad berish, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash islohotlarni muvaffaqiyatlil o'tkazish uchun kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Bozor munosabatlariga o'tishni jadallashtirish davrida faol ijtimoiy siyosatni kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar qatoriga qo'yish bir qancha omillar bilan bog'liq.

Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni juda noqulay ijtimoiy sharoitda boshlandi. O'zbekiston boshqa mustaqil respublika-lardan farqli ravishda, tub iqtisodiy islohotlarni aholining turmush darajasi juda past bo'lgan sharoitda o'tkazishga majbur bo'lmoqda. Respublika aholi jon boshiga to'g'ri keladigan haqiqiy daromad, o'rtacha oylik ish haqi va pensiyalar miqdori jihatidan, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa buyumlar bilan ta'minlanish, pulli xizmat, uyyoy maydoni, ijtimoiy-madaniy muassasalar tarmog'i jihatidan eng so'nggi o'rnlardan birida edi. Aholining mutlaq ko'pchiligi qashshoqlikda kun kechirayotgan edi. Aholining demografik tarkibi boqimandalarning soni ko'p bo'lishini oldindan belgilab qo'ygan edi. Respublika aholisining deyarli to'rtdan uch qismi o'zining eng zaruriy ehtiyojlarini ham qondirishga qodir emasdi, davlatning madadiga muhtoj edi. Bularning hammasi birgalikda islohot yo'lidagi har bir qadamni aholi qanday kutib olishini nazarda tutishni, zarur hollarda esa, ana shunday qadamni qo'yishdan oldin, aholining qashshoq tabaqalarini hamda ma'lum miqdorda daromad oladigan shaxslarni oldindan himoyalash yuzasidan samarali chora-tadbirlari ko'rishi talab qilar edi. Bunday sharoitda kuchli ijtimoiy kafolatni vujudga keltirmay turib o'tkazilgan islohot barbob bo'lishi muqarrar edi.

**3-masala.** Insoniyat ming yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarni to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim shartidir. Umumiylar tarzda demokratiya deganda **hammanning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyyati** va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi. Batafsil tahlil qilinganda esa, demokratiya - xalqning o'z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o'zboshimchilik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish shakli ham ekanligi ayon bo'ladi.

Demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki, uning qanchalik realligi, haqiqiyligi, yashashga qobilligi muhimdir. Binobarin, biz o'z istagimizdagli demokratiyaga qanday mazmun baxsh etmaylik, agar u hayotimizning har bir soniyasiga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta'riflar yo mazmunsiz baqir-chaqir, yoki hech narsani anglatmaydigan so'z o'yini bo'lib qolaveradi. Bundan tashqari, bizningcha, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan tayyor bo'limgan

zaminda demokratiyaning barcha tamoyillariga - erkin saylovga, so'z erkinligi, uyushmalar, yig'ilishlar erkinligi va shu kabilarga "yashil yo'l" ochib bersak, haqiqiy demokratiyani bo'g'ib qo'yish xavfi yuzaga kelishi ham mumkin.

Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular - xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo'lmas ekan, demokratiya haqidagi hamma gap-so'zlar yo'nalishda qilish, yoki oddiy siyosiy o'yin bo'lib qolaveradi. Bunday siljishlar esa bir kunda bo'ladigan ish emas.

Iqtisodiy, siyosiy va, eng avvalo, huquqiy makon tegishlicha bosqichma-bosqich ta'minlab borilmas ekan, insonning barcha huquqlari - davlat ishlari yuritishda qatnashishi, e'tiqod erkinligi, yig'ilishlar, uyushmalar erkinligi va shu kabi huquqlar havoda muallaq bo'lib qolaveradi. Aniq yo'lga qo'yilgan qonun tizimi bo'lmas ekan, demokratiya ham bo'lmaydi. SHu bilan birga qonunlarning o'zini qabul qilish, hukumat va beistisno hamma mansabdor shaxslarning amaliy sa'y-harakatlari aynan shu demokratik mezonlar orqali o'tishi lozim. Bu juda muhim, chunki, demokratiya huquqiy davlatning asosiy tarkibiy qismidir. Huquqiy davlat esa shunchaki rasmiy qonuniylikni bildirmaydi, u inson shaxsini eng olyi qadriyat sifatida e'tirof etishga va to'la-to'kis qabul qilishga asoslangan yaxlit amal qiluvchi tizimdir.

O'z-o'zidan ravshanki, siyosiy tuzum to'la-to'kis amal qilishini va uning yanada erkinlashuvini ta'minlash uchun uni tashkil etuvchi hamma tuzilmalar, ya'ni, mavjud sub'ektlar - shaxs, siyosiy institutlar, aholining ijtimoiy guruhlari hamda qatlamlari va hozazolar to'laqoni faoliyat ko'rsatishiga erishish zarur. SHu sababli, bunda ushbu jarayonning barqarorligini ta'minlash zarurligi nazarda tutiladigan bo'lsa, siyosiy tuzumni erkinlashtirish usullarini, uning mexanizmini va sur'atlarini ishlab chiqish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy tuzumning har bir bo'lagi, har bir darajasi rivojlanish va erkinlashtirish strategiyasini ishlab chiqishda alohida yondashuvni talab qiladi. Siyosiy hayotni erkinlashtirishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yish, muntazamlilik bo'lmasligi oldindan ayтиб bo'lmaydigan xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bir ijtimoiy tuzurmdan ikkinchisiga o'tish muqarrar ravishda shu paytgacha misli ko'rilmagan siyosiy faollik sharoitida yuz beradi. Bu hol tabiiyidir. SHu paytga kelib karaxtlik holatidan xalos bo'lgan jamiyat to'planib qolgan jami ijtimoiy ziddiyatlarni bir zumda yuzaga chiqaradi. Ana shu lahzada aholining siyosiy faolligi, siyosiy manfaatlari va ehtiroslari qaysi yo'nalishga, qanday qilib va kim tomonidan burib yuborilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Hammaga ma'lumki, qurishdan ko'ra buzish osonroq. Bunda "islohotchi", "demokrat" degan siyosiy obro' orttirish osonroq. "Hammasini tag-tubigacha buzamiz, shundan keyin esa...", -degan mashhur shiorni odat yuzasidan "demokratiya"ning ko'plab etakchilari ko'tarib chiqqandilar. Lekin, afsuski, ularning ko'pchiligi bu mashhur shiorning birinch i qismi nigunga amaliga oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekistonda demokratiyaga borishning boshqa yo'li tanlab olindi. Biz mustaqil huquqiy davlatni barpo etishning asosiy maqsad va vazifalarini belgilar ekanmiz, O'zbekistonning tsivilizatsiya va taraqqiyotning yuksak, yorqin cho'qqilariga erishishiда madaniy va tarixiy meroсing, xalqning insonparvarlik an'analarining yuksak marralarini egallagan, umurminsoniy qadriyatlar va me'yirlarga sadiq bo'lgan ozod va har tomonlarma uyg'un kamol topgan shaxs asosiy tayanch bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaganimiz.

Umumiy ijtimoiy havoyilik va inqilobiy vayron qiluvchilik kayfiyati hukm surgan o'sha davrdayoq, O'zbekistonda barcha tuzilmalarni farqlamagan holda parchalab tashlash mustaqil davlatchiligimizning taqdiri uchun xavflidir, degan qat'iy ishonch paydo bo'ldi. Bizning maqsadimiz - bir necha avlod mehnati bilan yaratilgan narsalarni yo'qotmaslik, ularning eng yaxshilarini saqlab qolish, demokratik me'yirlarga, milliy manfaatlarimizga, mustaqilligimizga mos kelmaydiganlarini qayta tashkil etishdan, mazkur tuzilmalarni yangi mazmun bilan boyitishdan iboratdir. O'zbek xalqining boy madaniyati, ta'lif, maorif tizimi, fan totalitarizmdari qolgan meros deb parchalab tashlanishi mumkin emas edi. Biz tan lab olgan yo'l o'zbek xalqining asriy an'analariga, odatlariga, madaniyati va tiliga, shuningdek, jahon tsivilizatsiyasi yutuqlariga asoslangan holda mazkur tuzilmalami yangi rafskuraviy negizga o'tkazish, moslashtirishdan iborat edi. SHuni yana ta'kidlab o'tamizki, ma'naviyat odamlar qalbi va ongiga kelajakka ishonch tuyg'usini olib kirishi, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mardlik va sabot-matonat, adolat hissini tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan ko'p mamlakatlarning qanchadan-qancha korxonalarini Ittifoq parchalanishidan keyin og'ir ahvolga tushib qolganligini, amalda ishslashidan to'xtaganligini vatanparvarlik, sabot-matonat etishmaganligi bilan izohlash mumkin.

Albatta, buning butunlay boshqa sabablari ham bor. Ular hozircha yangi sharoitlarga moslasha olmayotir, o'z mahsulotlarini sota olmayotir, ularda ishlab chiqarishni saqlab turish va rivojlantirish uchun mablag' yo'q.

Ko'riniб turibdiki, gap bu aloqalar uzilib qolganligida emas. Iqtisodiyotni tezroq isloh qilish, hisob-kitob mexanizmlarini takomillashtirish, har bir korxonada zarur ma'rifiy tartib-intizom o'rnatish lozim.

Uchinchi, "chuqur integratsiya" mualliflari bir dalilga ayniqsa ko'proq murojaat etadilar - butun dunyoda integratsiya er yuzining ko'pgina mintaqalarini uchun xos bo'lgan jarayon deb tushunilar emish. Bunda ko'proq Evropa Ittifoqini tashkil etish tajribasini dalil qilib keltiradilar.

Tarixiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida barcha davlatlar bir-birlariga bog'liq va o'zaro aloqada yashaydi. Dunyo haritasidan hozirgi kunda boshqalardan, birinchi navbatda, o'zini o'rab turgan mamlakatlardan mutlaqo ajralib qolgan davlatni topib bo'lmasa kerak. Evropa Ittifoqida integratsiya va ham korlik asosiy tamoyillar hisoblanadi.

Biroq, Evropa Ittifoqida integratsiya jarayonlariga yondashuvlar integratsiyalashayotgan davlatning batamom suverenligi, ixtiyorilik va ularning huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

Evropa Ittifoqini tashkil etishga asos bo'lgan tamoyillar MDH mamlakatlari uchun jozibali bo'lishi mumkin. Buni hech kim inkor etmaydi. Lekin, bir qator holatlar borki, ular Evropa Ittifoqini sovetlardan keyingi makondagi vaziyatdan keskin ajratib turadi.

*Birinchidan*, Evropa Ittifoqini shakllantirish bir necha o'n yilliklami o'z ichiga oladigan uzoq tarixga ega, Maastricht bitimlari esa - davlatlar, ularning rahbarlarini bosib o'tgan katta yo'lning natijasidir.

*Ikkinchidan*, Evropa Ittifoqiga barqaror, mustahkam demokratik ijtimoiy davlat tuzilmalariga ega bo'lgan, puxta bozor va huquqiy qonunchilik normalarini, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari va infrastruktururasini shakllantirgan mamlakatlar birlashgan.

*Uchinchidan*, demokratik tartiblar va qadriyatlar bu mamlakatlar aholisi mutlaq ko'pchiligining ijtimoiy ongida mustahkam o'mashib qolgan.

*To'rtinchidan*, Evropa Ittifoqidagi mamlakatlarning ko'pchiligi taxminan teng, ancha yuqori iqtisodiy imkoniyatlarga ega. O'zining rivojlanishi jihatidan yaqqol afzalliklarga ega davlatlar yo'q.

*Beshinchidan*, agar bizning texnikaviy va iqtisodiy qoloqligimizni, g'oyat eskirgan, raqobatga dosh berolmaydigan texnologiya va asosiy fondlarimizni hisobga olsak, sobiq SSSR chegaralarida allaqanday Ittifoqlarga bekiniib olish - bunday siyosat o'tmishning turli maskuraviy andozalarini o'ylab, o'zimizni jahon iqtisodiyoti nazaridan chetda qashshoq hayot kechirishga mahkum etishdan boshqa narsa emas.

Ayni chog'da shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, barcha ishtirokchi mamlakatlar tomonidan tanlangan va vujudga keltirilgan umumiyl boshqaruvchi tuzilmalari faoliyat olib borayotgan Evropa Ittifoqi bilan bir qatorda, Janubi-SHariq Osiyo (ASEAN) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (ATES) mamlakatlari tajribasi ham mavjud. Biroq ularda milliy davlatlardan yuqori turuvchi parlamentlar, Vazirlar Kengashlari va boshqa birlashtiruvchi tuzilmalar yo'q.

Markaziy Osiyo mamlakatlari darajasidagi integratsiyaga kelsak, u o'zining alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu integratsiya o'z mohiyatiga ko'ra hamisha xalq integratsiyasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Butun tarix davomida bu mintaqqa xalqlari ajnabiy bosqinchilar hukmronligiga qarshi elkama-elka turib kurashib kelganlar. Bu xalqlarning vakillarini mustaqillikni qo'lga kiritish va mustaqil davlatlar tuzish g'oyalari birlashtirgan. Bu xalqlar Turkiston, deb nom olgan ulkan hududda asrlar davomida yashab kelganlar.

Bir qarashda ushbu fikrlar an'anaviy bo'lib ko'rinishi mumkin. Xalqimizning ming yillar davomida qaror topib kelgan va biz saqlab qolishga intilayotgan an'anaviy sharqona madaniyati g'arb madaniyatidan ko'p jihatdan farq qiladi. Bunda asosiy masala - an'anaviy madaniyat hozirgi vaqtida qanchalar ochiq, boshqa qadriyatlarni qabul qilishga qanchalar qodir ekanligidadir. Faqat

o'ziga xos madaniyatlarga emas, balki, birinchi navbatda, bir-birini boyitadigan madaniyatlarga yashashga qodirdir.

An'anaviy madaniyat bilan qotib qolgan madaniyatni chaikashtirib yubormaslik kerak. An'anaviy madaniyat ikkita o'zaro qarama-qarshi bo'lган, lekin bir-birini to'ldiradigan tamoyilni - ma'lum darajada mahdudlikni, tashqaridan bo'ladigan engil ta'sirlarga qarshilik ko'rsatishni, shu bilan birga, ma'lum darajada ochiqlikni o'zida uyg'unlashtirib, kelajakda rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga egadir. O'zbek madaniyatining, jahon xalqlari madaniyatining rivojlanish xususiyatlarini chuqur bilish, yosh davlatni ma'naviy jihatdan qayta tiklash sohasidagi butun siyosatning asosi bo'lmog'i lozim. CHunonchi, milliy davlatchilikni qaror toptirishning dastlabki yillardayoq biz O'zbekiston tanlab olgan yangilanish va taraqqiyot yo'lida o'zbek xalqini ma'naviy qayta tiklash jarayonlarining xususiyatlarini muqarrar hisobga oldik. Demokratiyaning umume'tirof etilgan me'yorlariga sodiq ekanligimizni qat'iy ma'lum qildik.

Haqiqatan ham demokratiya - faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlari hamdir. Demokratiya g'oyalarini bayon qilish mumkin. Siyosatda demokratiyani yuqorida "tushirish" mumkin. Lekin bu bilan demokratiya sizu bizning amaliy hayotimizga singmaydi. Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir. Ba'zi davlatlarda bunga erishguncha ko'plab avlodlar yashab o'tgan.

O'zbekiston ana shunday demokratik rivojlanish an'alariga ega. SHu sababli demokratiyaga bosqichma-bosqich, mumkin qadar qisqa muddatda o'tish g'oyasining strategik ahamiyati, bizningcha, faqat jamiyatda barqarorlikni saqlab qolishdangina iborat emas. U fuqarolik jamiyatining hayotbaxsh kurtaklarini avaylab saqlash, o'stirishdan ham iboratdir. SHu bilan birga, biz an'anaviy madaniyatimiz va xalqimizning xususiyatlari, uning ahvol-ruhiyati va ijtimoiy tashkil bo'lish shart-sharoitlari O'zbekiston Respublikasida demokratiyanı shakllantirishning, fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning eng samarali omillari bo'lishini chuqur tushunamiz.

YAna bir jihatga to'xtalib o'tmoqchiman. Hatto, demokratiya barqaror bo'lган mamlakatlarda ham individualizmning ba'zi bir salbiy oqibatlari ancha qattiq sezilmoqda. O'zbekistonda ham bu hodisaning ahamiyatini kamsitish yaramaydi.

Individualizm har bir kishining psixologiyasiga kirib boradi, bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson tabiatidagi ongli va ongsiz xatti-harakatlarning hammasidan foydalananadi. YOshlarning ayrim qismi o'qishga, yuksak kasb mahoratini egallashga intilish o'rniga engil-elpi hayotni izlashga, bozorda savdo-sotiq qilib, mo'may daromad orqasidan quvib, bozor munosabatlarining ibtidoiy yo'llaridan

foydalaniб, mol-dunyo orttirishga intilayotganligi tasodifiy emas. Nigilizm, shafqatsizlik darajasiga borib etayotgan xудбинлик hollari yuz berayotganligi ham tasodifiy emas. Bularning barchasi, bizning nazarimizda, yana o'sha individualizmning buzilgan ko'rinishi, tarbiyatagi nuqsonlar va atrof muhit ta'siridan boshqa narsa emas.

SHuningdek, bugungi kunda Sobiq ittifoq hududida amal qilayotgan milliy siyosat modelini tahlil qiladigan bo'lsak, bir tomonдан, muayyan vaqtida yuzaga kelgan vaziyatlarni bartaraf qilishning oqilona yo'lini topa olmaslik natijasi o'laroq namoyon bo'layotgan konfliktlarning yangidan avj olishiga sharoit yaratayotgan, ikkinchi tomondan, ko'pchilikni tashkil etadigan boshqa millatlar vakillarini "yumshoqroq" shaklda, har xil huquqiy aktlarni qabul qilish, turli sun'iy qiyinchiliklarni keltirib chiqarish orqali siquv ostiga olishiga asoslanayotgan amaliyotni yaqqol kuzatishimiz mumkin<sup>1</sup>.

SHu ma'noda aytish mumkinki, bugungi kunda bizning mamlakatimizga zo'r lab tiqishtirishga urinilayotgan demokratiyaning universal modellari ham yuqoridagi sobiq Ittifoqning ayrim hududlarida amalga oshirilayotgan modellarda ko'zlangan maqsaddan boshqa narsa emas. Binobarin, har qanday ijtimoiy tizim elementlarining o'zaro munosabatlari va pirovard natijada ularning individual rivojlanishi muayyan qonunlar hamda qonuniyatlar asosida amalga oshadi. "Demokratik jarayonlar, - deb yozgan edi I.Karimov, - o'z ob'ektiv qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Ularni o'rGANIB borish, ularga amal qilish talab etiladi"<sup>2</sup>. SHu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy vogelikka har xil modellarni zo'r lab tiqishtirish mumkin emas. CHunki, demokratiya har bir davlatning turmush darajasidan kelib chiqib, aql-idrokka tayanimog'i lozim.

Qolaversa, demokratiyaning ma'lum bir me'yordi bo'lsa-da, u har bir xalqning tafakkur tarzi, voqeа-hodisalarga munosabati, uni baholash mezoni, o'zining tarixiy kelib chiqishi, qadimiy an'analar asosda shakllangan turmush tarzi va tabiat bilan belgilanadi. Demak, demokratiya qandaydir tiqishtirilgan modellar asosida emas, balki, o'zimizga xos bo'lgan, biz qurayotgan davlat va jamiyat bilan birga shakllanmog'i lozim.

Demokratiyaning universial modeli mavjud bo'linasligi haqidagi nazariya milliy g'oyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Demokratiyani anglash – shaxsnинг barcha fuqarolar uchun zarur bo'lgan qonunlarga to'la riyoa etish, aniq tartib-intizomga tayanib yashash salohiyati, insон haq-huquqlarini, manfaatlarini himoya qiladigan qonunlarga itoat etishni taqozo qiladi. Bilamizki, buning aksi bo'lgan ijtimoiy tizimda boshboshoqlik, parokandalik va tanazzul avj oladi. Natijada kishilaming to'laqloni hayoti va faoliyatni uchun etarlicha shart-sharoitlar mavjud bo'lmaydi. Bundan o'z manfaati yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan salbiy kuchlar demokratiyaning mahalliy xalq turmushi tarziga to'g'ri kelmaydigan modelini tiqishtirishga harakat qiladilar. "Misol uchun, hozir huddi Iroqda bo'layotganidek,

<sup>1</sup> Ochildev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - T.: "O'zbekiston", 2004, 65-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Demokratiya – bosh yo'limiz// Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. -3-Jild. T.: "O'zbekiston", 1996, 8-bet.

ya'ni, ma'lum bir mamlakatda, aytaylik, "demokratiya taqchilligi" mavjud, ushbu mamlakat xalqiga ana shu taqchillikdan xalos bo'lishga yordam berish kerak deb hisoblanadi. Buning uchun katta mablag'lar ajratilib, tegishli kuchlar yo'naltiriladi. Va bundan ko'zlangan maqsad – to'ntarish yushtirish va ana shunday "taqchillik"ni vujudga keltirgan va avj oldirgan rahbariyatni yo'qtishdan iborat. Mana shunday holatlarda "baxmal o'zgarishlar" texnologiyalari ishga tushadi: avvalgi hokimiyat nisbatan tinch yo'l bilan, qurbanlarsiz ketishi, uning o'rniqa boshqa, mazkur texnologiyalar manfaatlariga javob beradigan kuchlar egallashi ko'zda tutiladi<sup>1</sup>. Oqibatda ularning hayoti tahlika va ijtimoiy buhronlar ostida qolib ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar izdan chiqadi. Buni yon-atrofimizdagi mamlakatlarda yuz berayotgan "demokratiya bayrog'i" ostidagi noxush voqealar misolida ham ko'rish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'satmoqdaki, tarixda tori ma'nodagi demokratik tamoyillarga va uning elementlariga to'la rioya qilgan davlatlar mavjud bo'limgan. Demokratiya sof, universal model sifatida hech qachon mavjud bo'limgan va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki, demokratiyanı bunday tushunish uning ichki mohiyati va mantig'iga ziddir. Buyuk yunon faylasufi Aristotel ta'kidlaganidek: "Sof demokratiya bu axlokratiyadir, o'z navbatida, axlokratiya esa jamiyatni halokatga olib boruvchi yo'llidir". Demokratiya haqida gap ketar ekan, taraqqiyot amaliyotida sinalgan bu tuzum jamiyat va inson ehtiyojlarini qondirishning eng maqbul usuli bo'lishi bilan birga, ma'lum kamchiliklarga ham ega. Xususan, amerikalik olim S.Xantington bu tuzumga shunday baho beradi: "Ko'pincha xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashini yoqlab gapirilgan gaplar qulqqa chalinib turadi. Buning ma'nosи, har bir guruh o'zi xohlagan yo'ldan borishi mumkin, deganidir. Ammo bu, bosh-boshdoqlikning kuchayishi, jamiyat va davlatning parchalanib ketishiga olib kelishi mumkin. Boz ustiga, demokratiya bunday muammolarni hal etishga unchalik moslanmagan. Demokratiyalash va demokratiyaning amal qilish jarayoni jamiyatning etnik, diniy va boshqa guruhlari o'rtaсидаги munosabatlarni murakkablashtirib yuborishi mumkin"<sup>2</sup>.

Demokratiya ham mavjud muammolami to'liq hal etish imkoniyatiga qodir bo'lgan jarayon emas. Mutlaq demokratiyaning bo'lishi ham aslo mukin emas. Chunki, mutlaq erkinlik ham jamiyat barqarorligiga, shaxs qadr-qrimmatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Darhaqiqat, demokratiya mavjud jarayonlarni izga solib turadigan universal vosita emas, shuning barobarida insoniyat shaxs va jamiyat, shaxs va davlat o'rtaсидаги munosabatlarning mukammalroq tizimini ham kashf eta olgani yo'q. Binobarin, yangitan mustaqillikka erishgan yoki demokratiya yo'liga o'tayotgan mamlakatlar uchun taraqqiyotning yagona kontseptsiyasi yoki andozasining o'zi

<sup>1</sup> Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. // O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-Jild.- T.: "O'zbekiston", 2005, 136-bet.

<sup>2</sup> Хантингтон С. Неуправляемость демократии? Демократия 90-х// "Глобальные проблемы переходного периода" специальный выпуск, 1993. стр.16

yo'q. Demak mintaqalardagi jarayonlarga baho berishda G'arb mezonalardan emas, ularga ijodiy yondashgan holda mavjud muammolar va sharoitlarning o'zidan kelib chiqish kerak bo'ladi<sup>1</sup>.

Bugun hech kimga sir emaski, G'arb ilgari surayotgan "ilg'or demokratiya" umuminsoniy qadriyatlar bilan ham murosa qila olmayapti, ba'zi paytlarda hatto uni inkor qilmoqda. Ayniqsa, bu masala tabiiy resurslar va geopolitik manfaatlar to'qnashganda yanada ochiq namoyon bo'lmoqda. Qolaversa, bugun hech kimga yangilik emaski, adolatli, deb e'tirof etilgan G'arb demokratik jamiyati o'z uyida ham o'z kuchini yo'qotmoqda, aks holda, NATO kuchlarining suveren YUgoslaviyaga yurishi, keyin esa, mustaqil Iroqning vayron qilinishi, Afg'onistonidagi tinch aholining qurban qilinishiga yo'l qo'yagan, Arab mamlakatlari (suriya, Liviya, Yemen, Misr) va uning oqibatlari yoki Livandagi minglab tinch insonlarning halok bo'lishini oldini olgan bo'lardi.

AQSH tomonidan asosan demokratiya "eksport" qilinayotgan mintaqadavlatlari – Iroq, Gruziya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Ukraina, Belorussiya, O'zbekiston (mash'um "Andijon voqealari") davlatlari AQSH manfaatlarini qondirish mumkin bo'lgan yuqoridagi sifatlarga ega ekanligini hisobga olsak, demokratiyanı "eksport" qilishdan maqsad inson huquqlarini himoya qilish emas, balki, bu fenomendan niqob sifatida foydalanib mazkur davlatlar potensialidan milliy manfaatlar uchun foydalanish ekanligini ko'rish mumkin. Qolaversa, demokratiya "eksportlari" inqilobiylar tarzda davlat tuzumini o'zgartirish doimo salbiy oqibatlarga, beqarorlikka olib kelishi muqarrarligini juda yaxshi bilishadi. (Sotsializmni inqilobiylar usulda "taxtga kelganini" G'arb davlatlari doimo qoralagan). Ammo, nimagadir ular o'zlarini qoralagan (G'arb davlatlarida bu usul tanqid qilingan minglab ilmiy asarlar yozilgan) bu usulni yangitdan shakllanayotgan davlatlarga insbatan tadbiq etishmoqda. Albatta, bu erda maqsad inson huquqlarini kafolatlash haqida emas, balki, o'z milliy manfaatlariga javob izlash haqida bormoqda.

YUqoridagi misollar va G'arb davlatlarning boshqa mamlakatlarga nisbatan qo'llayotgan jazo va sanktsiyalarning avj olishi, beixtiyor dunyodagi hukmron mafkura bo'lmissa demokratiyaga nisbatan shubha tuyg'ularini keltirib chiqarmoqda. Rivojlanib kelayotgan davlatlar G'arb davlatlarining xatti-harakatlarini to'g'ridan-to'g'ri tahdid sifatida qabul qilmoqda. Masalan, 2006 yil sentyabrda Kubada bo'lib o'tgan rivojlanayotgan davlatlarning "Qo'shilmaslik harakati" sammitida ham AQSH boshchiligidagi G'arbning ikki tomonlama siyosati tanqid qilindi.

Masalaga yanada yaqinroq yondashadigan bo'lsak, biz xohlaymizmi yoki yo'qmi, bizning ko'z oldimizga global miyosda keng front gavdalanoqda. Bu frontning bir tomonida G'arb o'zining "mutlaq ozodlik va demokratiya" mafkurusasi bilan va unga qarama-qarshi ikkinchi tarafda asta-sekin ittifoqqa uyushayotgan davlatlar. Aynan o'sha ikkinchi tarafdag'i davlatlar o'z falsafasi, tarixi, hayot-tarzi

<sup>1</sup> Nizom F. Yangilish an'anasi. -T.: "Ma'naviyat". 1998, 42-bet.

va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda demokratiya haqida yangicha qarashlar va tushunchalar bilan g'arbiy demokratiya mutlaq bo'la olmasligi izhor qilmogdalar.

Natijada, g'arbiy mutlaq demokratiyaning muqobil shakli sifatida "suveren demokratiya" tezisi ilgari surilmoqda. Amaliy siyosatshunoslik nuqtai nazaridan, bu tezisning asosiyligi g'oyasi quyidagicha: har bir davlat G'arb tavsiya etayotgan "mutlaq demokratiya" doktrinasini rad etgan holda, o'z tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lini himoya qilishga haqqi bor.

Tahqirlangan davlatlar ta'biricha, AQSH va G'arb asl demokratik qadriyatlarni atribut sifatida ishlamoqda va hatto geopolitik siyosatining eng asosiy instrumenti sifatida foydalanmoqda. Ularning nazarida, demokratiya shiori ostida dunyodagi eng muhim tabiiy zahiralarga yo'l ochish mumkin.

Ana shunday murakkab jarayonlar Markaziy Osiyoda ham sodir bo'lmoqda. Bugun Markaziy Osiyo haqiqiy "jang frontiga" aylandi va hamon demokratik va geopolitik bosim ostidagi "engil to'qnashuv" davom etmoqda. Gruziya, Ukraina va Qirg'izistonndagi muvaffaqiyatli "rangli inqiloblardan" so'ng G'arbning "mutlaq demokratiya" g'oyasi O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon va Belarusiyada mag'lubiyatga uchradи. Nega aynan Markaziy Osiyo? Keling faqatgina bir misolni keltiraylik. Ma'lumotlarga qaraganda, 2015 yilga borib, Kaspiy dengizi havzasidan kuniga 4 million berrel neft olinishi mumkin ekan, ya'ni, bugun Quvayt va Irog'birgalikda berayotgan neft hajmidan ham ko'p.

G'arb o'z manfaatlariiga erishish uchun aksariyat hollarda nodavlat tashkilotlardan keng foydalanadi. Masalan, Qirg'izistonda 7 mingga yaqin nodavlat tashkilotlari mavjud. 2006 yilda AQSH chet elda demokratiyani qo'llab-quvvatlash loyihasi uchun 3 mlrd. dollar, keyinchalik yana qo'shimcha ravishda 4,6 mlrd. dollar pul ajratgan. Faqatgina Qirg'izistonning o'zi uchun 30 ga yaqin turli xildagi xalqaro tashkilotlar mavjud va 200dan ortiq loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu tashkilotlarning eng ko'zga ko'rninganlari – AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID), Milliy demokratik institut (NDI), "Soros-Kirg'iston" fondi, "Fridom Xaus", "Kaunterpart Konsortsium", "Tinchlik Korpusi". O'zini jahon miqyosida inson huquqlari himoyachisi sifatida ko'rsatishga harakat qilayotgan AQSH bu yo'lida (aslida milliy manfaatlarni qondirish uchun) inson huquqlari uning uchun amalda ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatdi. "Jorj Bush ma'muriyatining na itti foqchilar va na BMTni ogohlantirmay Iroqqa bostirib kirgani; u erda ommaviy qirg'in qurollari bor, deb jahon jamoatchiligin chalg'itgani; harbiy asirlarni xalqaro huquq me'yorlariga xilof ravishda qiyonoqqa solgan hamda ularni Kubadagi Guantanamo harbiy bazasi va Evropadagi ba'zi qamoqxonalariiga tashlangandan so'ng etakchi ommaviy axborot vositalarida ma'lum cheklolvar joriy etgani; terrorizmga qarshi kurash bahonasida fuqarolarning shaxsiy hayotiga daxl qilib, ularning telefonda so'zlashuvlarini noqonuniy eshitib, internetdagи yozishmalarini o'qiy boshlagani"<sup>1</sup> asl maqsad inson huquqlarini himoya qilish emasligini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Nizom F. Manfaat va hotislik // "Tafakkur", 2009, 3-son, 19-bet.

Masalani oydinlashtirish uchun quyidagi savolni qo'yaylik: nima uchun demokratiyani "ulashish" siyosati Afrika qit'asining qoloq davlatlariga yoki Okeaniyadagi xalqaro munosabatlarda deyarli ko'zga ko'rinnmaydigan mitti davlatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bu davlatlarda ham demokratiya "taqchilligi" mavjudku? Bu savolga lo'ndagina qilib shunday javob berish mumkin: bu davlatlar demokratiya "homiyalar" manfaatlariga unchalik ham javob bermaydi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari barqaroro taraqqiyotning eng samarali yo'llarini hayotga tadbiq etish va keskin ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarsiz rivojlanish yo'llarini qidirmoqda. Ammo, mana shunday davrda G'arb tomonidan talab qilinayotgan chora-tadbirlar va mahalliy shart-sharoitlar bilan to'la mos kelmaydigan G'arb talqinidagi demokratik islohotlar hamisha ham Markaziy Osiyo davlatlarining milliy manfaatlariga va tamoyillariga mos kelavermaydi. Ba'zi holatlarda, G'arbning "mutlaq demokratiya" g'oyasi Markaziy Osiyo davlatlarining an'anaviy hayot-tarzi, falsafiy diniy va ijtimoiy qarashlariga zid keladi.

Hammaga ma'lum, G'arb davlatlaridagi demokratik jamiyat qurilishi jarayoni bir necha yuz yillar davomida rivojlandi. AQSH da XIX asr o'talaridan, Angliyada XVIII asr, Frantsiyada XVIII asrlardan boshlandi va shubhasizki ular bosib o'tgan yo'l hamisha to'g'ri va bir maromda bo'limgan, ma'lum vaqtarda, ularda qiyinchiliklar va xatolar mayjud bo'lgan.

SHuni ham e'tirof etish lozimki, demokratiya insoniyat tsivilizatsiyasining fenomeni sifatida vujudga kelgan. Biroq, hatto eng boy demokratik tajriba biron bir davlat yoki xalqaro munosabatlар sub'ektiga umumlashgan va mutloq demokratik tuzumni boshqalar ustidan o'matish xuquqini bermaydi.

G'arbdagi siyosatchilar, strateglar va "yangi tartib" arxitektorlari juda yaxshi bilishadi, hech qanday sof demokratik namuna mayjud emas, negaki, demokratiya bu doimiy rivojlanish va o'zgarishni talab etuvchi ijtimoiy-tashkiliy jarayon. Bu jarayon davlatlarning milliy xususiyati, manfaati va siyosiy madaniyat saviyasini inobatga olishi darkor.

4-masala. Mustaqillik yillarda ishlab chiqilgan "O'zbek modeli"ning real hayotda namoyon bo'layotganligini ko'rsatuvchi bir qator aniq xulosalarni keltirish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

Ma'lumki, SSSR parchalanib ketganidan keyin sobiq sovet hududida juda keskin va tahlikali vaziyat yuzaga keldi. Bu esa boshboshoqlikning oldini olish, huquq-tartibotni saqlash va aholining eng zarur, birinchi galda, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bo'yicha zudlik bilan tegishli choralar ko'rishni talab etdi.

Dastlabki yillardayoq biz uchun yangilik bo'lgan bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor munosabatlarining mexanizmi ishga tushirildi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan boshlang'ich bosqichda, iqtisodiyotni va butun jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o'tish davri kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va aholini himoya qilishning o'xshashi bo'limgan, samarali mexanizmi

ishlab chiqilib, muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ko'makka muhtoj oilalarga moddiy yordam berishda asosan o'zini o'zi boshqarishning noyob tuzilmasi bo'lmish mahalla instituti imkoniyatlardan foydalanish o'zini to'la oqlaydi.

Bu davrda amalga oshirgan ishlarniz qatorida mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, uning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda Qurolli Kuchlarimizning shakllantirilishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Sobiq SSSR parchalanganidan keyin yuzaga kelgan sharoita, qurolli kuchlarda boshqaruvi, intizom va tartib amalda yo'qotilgan, mamlakat xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlar kundan-kunga kuchayib borayotgan bir vaziyatda Mudofaa vazirligini, uning organlari va joylardagi qo'mondonlik tuzilmalarini shakllantirish o'z vaqtida qabul qilingan yakkayu yagona to'g'ri qaror bo'ldi.

Tariximizning ana shu o'tgan davrini sarhisob qilar ekanmiz, tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarga to'xtamasdan o'tolmaymiz.

O'z-o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhidha tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni xal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim tamoyilial va hal qiluvchi ahamiyatga ega. YUrtimizda o'z Vatanining taqdiri, uning buguni va kelajagi uchun ma'suliyatni chuqrur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan kadrlarga ehtiyojni, qondirish vazifasi biz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardanoq o'ta muhim va hal qiluvchi masalaga aylangan edi.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1997 yili 2009 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz. O'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan ushbu dastur 12 yillik ta'limga o'tishni, uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Dastur umumta'lim maktablaridagi to'qqiz yillik o'rta ta'limni, akademik litsey va kollejlardagi uch yillik maxsus kasbga tayyorlash tizimini o'z ichiga oladi.

O'tgan yillar mobaynida zamonaviy, har tomonlama jihozlangan o'quv yurtlarini barpo etish uchun 5 milliard dollardan ortiq byudjet va byudjetdan **tashqari mablag'lar yo'naltirildi**.

Biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsad-muddaolarga erishishda, barqarorlikni ta'minlash va mamlakatni yangilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni joriy etishda mustaqillikning dastlabki kunlardan boshlab ulkan ishlarni amalga oshirib kelayotanimiz barchangizga yaxshi ma'lum.

Bu borada ayniqsa yurtimizda millatlar va dinlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash<sup>1</sup>, ma'naviy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish, tarixiy ildizlarimizga, milliy o'zligimizga qaytish, aholining siyosiy ongi va huquqiy

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Tu'lenova G. Istiqlol va millatlararo munosabatlar taraqqiyoti.-T.: "Aloqachi", 2006

madaniyatini oshirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarimiz muhim ahamiyat kasb etganini ta'kidlash joiz<sup>1</sup>.

Bugungi kunda xalqimizga azaldan xos bo'lgan hamjihatlik va bag'rikenglik, mehr-oqibat, mehmono'stlik va saxovat kabi insoniy fazilatlar yanada yorqin namoyon bo'lmoqda va bunday ma'naviy muhit odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. YA'ni, kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shlid dan foydalani b, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak.

Bunday uzoqni ko'zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo'lgan turli xuruj va g'arazli intilishlar, xalqaro markazlar tomonidan katta kuch va mablag' sarflanayotgan harakatlар va bu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo'lismiz darkor. Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi.

Eng muhimi, aholining ongu tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda, odamlarning o'zi o'zgardi.

Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlami mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni bilan bog'liq holda ko'radian yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda.

Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni ortga qaytarib bo'Imasligi, islohotlar muqarrarligining ishonchli kafolatidir.

Muxtasar aytganda, Vatanimiz va xalqimiz tarixida muhim o'ren tutgan ushbu davrda tom ma'noda tub o'zgarishlar amalga oshirildi, xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ektiga aylangan, jahon hamjamiyatida o'zining munosib va mustahkam o'miga ega bo'lgan – O'zbekiston deb atalgan yangi demokratik davlat barpo etildi. Bugun ana shu mustahkam poydevor asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda.

"Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda sivosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi

<sup>1</sup> Tulenova G. Ma'naviy etuklikdan ijtimoiy faoliy sari.- T.: "Aloqachi", 2008

konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi, hech shubhasiz, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasida asosiy va hal etuvchi rol o'ynaydi.

Hozirgi sharoitda siyosiy partiylar fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining ayniqsa saylov jarayonlarida xohish-irodasi va fikrini ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta'sir o'tkazuvchi vositasiga aylanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

SHU o'rinda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal o'sib borayotgani iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga asoslanganini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. O'tgan yillar davomida iqtisodiyotni isloh qilishning har bir bosqichida ustuvor vazifalarini aniq belgilashga alohida e'tibor qaratilib, ularni hal etish uchun zarur moliyaviy, moddiy va insoniy resurslar jalb etilmoqda.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini erkinligini va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, keng tarmoqli bozor infratuzilmasini shakllantirish, davlatning nazorat va boshqaruv vakolatini keskin kamaytirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga aralashuvini cheklash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish – bularning barchasini islohotlarni chuqurlashtirishning hal qiluvchi yo'nalishi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Buning negizini mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va jahon bozoridagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar tayyorlashga asoslangan sanoat tarmoqlarining etakchi o'ringa chiqishi va xizmat ko'satish sohalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi tashkil qiladi.

O'tgan davrda qo'lga kiritgan salmoqli yutuq va natijalarimiz xalqimizning daromadlari va farovonligini izchil ravishda oshirib borishni ta'minlash, keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatlari amalga oshirish imkonini berdi.

Mamlakatimiz aholisi, avvalo qishloq joylardagi odamlarning turmush sharoiti izchil tarzda yaxshilanmoqda.

O'zbekistonimizning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan o'rion olishiga erishish borasida zarur shart-sharoit va mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

"Hamma narsa inson uchun, uning kelajagi uchun" degan ezgu tamoyilni to'liq amalga oshirish biz uchun doim eng muhim ustuvor vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

### Taqrorlash uchun savollar:

1. "Demokratianing universal modeli" haqidagi qarashlarga qanday qaraysiz?

2. O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston - bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'lli" asarida milliy taraqqiet strategiyasining kontseptual jihatdan qanday asoslangan?

- 3.Bozor iqtisodieti munosabatlarida milliy va umuminsoniy tamoyillarning uyg'unligini ta'minlash zarurati nimadan iborat?
- 4.O'zbekistonning o'ziga xos milliy taraqqiet strategiyasini amalga oshirishning iqtisodiy, siyosiy mexanizmlari nimadan iborat?

## **V-MAVZU: IJTIMOIY-SIYOSIY SOHANING G'OYAVIY ASOSLARINING O'ZGARISHI VA RIVOJLANISH STRATEGIYASI**

**Reja:**

- 1.Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
- 2.Davlatchilikning g'oyaviy-huquqiy asoslarining yaratilishi.
- 3.O'zbekistonda yangi siyosiy tizim va davlat tuzilishi borasidagi islohotlar.
- 4.Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish kontseptsiyasining amaliyoti.

**1-masala.** O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. CHunki, sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat mansaftalariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotni normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi.

SHuning uchun davlat va jamiyat qurilishi borasida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilish strategik maqsad qilib olindi. O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafo'latlari" asarida "islohotlarning dastlabki bosqichida davlatning faol roli asosiy vakolatlar davlatning va eng avvalo, ijro etuvchi hokimiyatning ixtiyorida bo'lishini taqozo etdi. Demokratik o'zgarishlarning hozirgi bosqichi siyosiy, iqtisoiy va ijtimoiy taraqqiyotning uzoq vaqtga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bunda davlatning roli demokratik taraqqiyotimizning pirovard maqsadi - fuqarolik jamiyatni barpo etish maqsadiga asoslangan holda tubdan o'zgarishi darkor<sup>1</sup>, - deb hisoblab, ko'pgina masalalarni asta-sekin davlat hokimiyatidan jamoat tashkilotlariga va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga topshirilishi kerakligini ta'kidlagan edi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafo'latlari. -T.: "O'zbekiston". 1997.- 159-160-betlar.

Bu strategik maqsadning mazmun mohiyatini tushinish uchun avvalo demokratik davlat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati tushunchalari-ning mazmun-mohiyatlari bilan tanishib olishimiz kerak bo'ladi. "Demokratik davlat" tushunchasining o'zagida "demokratiya" tushunchasi turadi. "Demokratiya" so'zi yunoncha "demos" – "xalq" va "kratos" – "hokimiyat" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "xalq hokimiyati" degan ma'noni bildiradi.

Demokratik davlat fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishdagi huquqlarini amalda ta'minlaydi, ana shunday ishtirok etishga sharoit yaratadi, shaxsning huquq va erkinliklari to'la ro'yobga chiqarilishini kafolatlaydi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun bilan taqilganmagan faoliyatni amalga oshirishga ruxsat etiladi. Demokratik davlat - davlatning tamomila yangi tarixiy shaklidir. U ijtimoiy adolat tamoyillariga, huquqqa, qonunga, qonuniylikka asoslanadigan davlatadir. Demokratik davlat xalq uchun xizmat qiladigan, uning manfaatlari va huquqlarini ta'minlaydigan davlatadir. Demokratik jamiyat qurish jarayoni kuchli fuqarolik jamiyati yaratilishini taqozo qiladi.

Xalqimiz demokratik davlat qurishni maqsad qilib olgan. Demokratik davlat - bu xalq hokimiyatchiligiga asoslangan davlatadir. Demokratik davlatda xalq hokimiyati o'rnatiladi. Zero, xalq - davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Bu O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan (7-modda, 1-qism). Buni davlat hokimiyati markaziy organlarining xalqimiz xohish-irodasi asosida tashkil etilayotgani misolida ko'rishimiz mumkin. Xususan, Prezident saylovilar, Oliy Majlisga bo'lib o'tgan saylovlar buning yorqin dalilidir.

Xalqimiz huquqiy davlat qurish borasida ulkan ishlarni amalga oshirmoqda. Huquqiy davlat - bu Konstitutsiyaga, qonunlarga, huquqqa asoslangan davlat bo'lib, unda barcha masalalar qonunlar negizida va qonunlarga asoslanib hal etiladi. Bu qonunlar ustuvorligi ta'minlanishining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Huquqiy davlat qurish fuqarolarning huquqiy savodxon bo'lislari orqali kechadigan jarayondir. SHunday ekan, mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z huquq va erkinliklarini to'g'ri anglab olishi, konstitutsiyaviy burchini tushunishi lozim.

Fuqarolik jamiyati to'g'risida ham qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Agar "jamiyat" tushunchasini makonu zamonda mavjud, turmush tarzi va manfaatlari mushtarak bo'lgan insonlarning o'zaro aloqadorligini ifodalovchi birlik deb tushunsak, fuqarolik jamiyati esa ana shunday jamiyatning rivojlanishida ma'lum sharoitlarda qaror topadigan uning yuqori bosqichidir.

Jamiyat insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlari majmuidir. Fuqarolik jamiyati - bu yuksak fazilatlarga ega bo'lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati - bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, maskura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolaming o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeいi yuksak bo'ladi. Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik institutlari faoliyatida keng

ishtirok etish va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolaming *jamoatchilik nazorati* o'rnatiladi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi.

Prezident Islom Karimov fuqarolik jamiyatni haqida shunday degan edi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi".<sup>1</sup>

Eng avvalo aytish kerakki rivojlangan fuqarolik jamiyatni huquq-tartibot va huquqiy davlatchilik mavjud bo'lischening kafolatidir. Fuqarolik jamiyati o'z shaxsiy maqsadlarini ko'zda tutuvchi insonning mustaqil faoliyot sohasi. Bunda ijtimoiy mulqotning barcha qatnashchilari o'z shaxsiy manfaatlarini amalga oshiruvchi, himoya qiluvchi erkin va rasman teng sub'ektlar sifatida namoyon bo'ladi.

Sen-Simon jamiyat o'zi birdek nafratlanadigan ikkita dushmanga ega, bu — boshboshoqlik va istibdod, deb o'z vaqtida ta'kidlagandi. Fuqarolik jamiyati ana shu boshboshoqlik va istibdodni cheklab turadi.

#### Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiq:

*iqtisodiy sohada* — nodavlat tashkilotlar, shirkatlar, ijara jamoalari, aktsiyadorlik jamiyatlar, uyushmalar, korporatsiyalarning mavjudligidir;

*ijtimoiy sohada* — oila, partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar, ish va yashash joylaridagi o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashning tartibotlari, ijtimoiy ixtiologlarni kuch ishlatsadan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir;

*ma'naviy sohada* — so'z, vijdon va fikrlar erkinligi, o'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari, ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta'minlanganligidir.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi degani davlatning roli kamayadi degani emas. Hatto eng demokratik va hukuqiy davlat ham kuchli davlat bo'lib qolishi darkor. Uning zaif bo'lismiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki, umummilliy vazifalar bo'lgan mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolar xavfsizligi, tashqi siyosat, valyuta-moliya hamda soliq tizimlarini, qonunlar qabul qili va uning ustuvorligini ta'minlash borasidagi boshqaruv hamda nazoratni ta'minlash davlat va uning siyosiy hokimiyyati zimmasida qolishi kerak bo'ladi.

SHunday qilib, fugarolik jamiyatini shakllantirishning strategik yo'li:

a) siyosiy plyuralizmni rivojlanirishga;

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari –T.: "O'zbekiston", 1997.- 173-bet.

- b) davlatning ijtimoiy rolini kuchaytirishga;
- v) shaxsning mustaqilligini ta'minlashga;
- g) davlatning iqtisodiyotdagi rolini o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'lishi darkor.

**2-masala.** Jahonda barcha mamlakatlarga mos keladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsija etish lozim bo'lgan tayyor andozalar hech qachon bo'lman. SHuning uchun O'zbekistonda yangi davlat tizimini yaratish va jamiyatni yangilashda milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zimizning va jahon xalqlarining ilg'or tajribalaridan unumli foydalaniildi.

Davlatchilikni shakllantirishda o'tish davrining muammolarini hal etishning eng muhim omili, bu kuchli davlatni barpo etishdir deb qaraldi. Bunday davlatsiz (bu esa jahondagi ko'pgina mamlakatlar tajribasida tasdiqlangan) davlatning bosh islohotchi bo'lishi, kuchli ijtimoiy himoya siyosatini olib borishi, mavjud ijtimoiy imkoniyatlarni safarbar etishi, o'rta qatlarni shakllantirishi, xalqaro munosabatlarda muvaffaqiyatlarga erishish mumkin emas edi. SHU sababli o'tish davri va milliy davlatchilikni barpo etish sharoitida ob'ektiv zarurat bo'lgan kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o'tishga erishish ushbu davrda davlat tizimini isloh etishning asosiy va hal qiluvchi vazifasi bo'lishi darkor edi.

I.Karimov taraqqiyotning O'zbekiston uchun maqbul yo'lini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga e'tibor berib, O'zbekistonda bonyod etiladigan jamiyat barcha « izm » lardan holi va u qanday nomlanishidan qat'i nazaradolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim, ya'ni, mamlakatimizdagi davlat va jamiyat qurilishi, siyosiy, sud-huquq sohasidagi islohotlar **huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan bo'lishi kerakligini uqtirgan edi.**

SHuning uchun ham, mustaqillik yillarda mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada mustaqil O'zbekistonda yangi,adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. "Respublikada sobitqadamlilik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bonyod etish — bosh vazifadir", - deb uqtirar edi I.Karimov. Bu boradagi fikrini davom ettirib u "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu — mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu — insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir"<sup>1</sup>, — degan qoidani ilgari surdi. Bu mustaqillikning bir yilligi arafasidayoq jamiyatni yangilash, davlatni tubdan isloh qilish haqida qat'iy qilib o'rtaga tashlangan fikr edi. I.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida davlatchilik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdi.

Jumladan, **davlatchilik sohasida:**

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. - T.: "O'zbekiston", 1996, 44-bet.

-davlatning yalpi islohotlar o'tkazishda tashabbuskorligi, aholi **bunyodkorlik** va yaratuvchanlik faoliyatlarining rag'batlantirilishi;

-huquqiy demokratik davlat qurishda milliy va umuminsoniy tamoyillarning uyg'unlashtirilishi;

-qonun oldida aholi barcha qatlamlari tengligining ta'minlanishi, qonun ustuvorligi tamoyillarining umumjamiyat tomonidan qabul qilingan voqelikka aylantirilishi;

-jamiat a'zolari moddiy, ma'naviy va ijtimoiy imkoniyatlarining mamlakatni ozod va obod o'lkaza aylantirish g'oyalariga safarbar etilishi;

-aholining mulkdorlar qatlamini shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlar, aholi turli tabaqalari turmush tarzida haddan tashqari farqlar yuzaga kelib qolishining oldini olish;

-xalqaro iqtisodiy hamkorlikning yanada takomillashtirilishi, bir mamlakat bilan yaqinlashuv boshqa davlatlar bilan uzoqlashuv holatiga olib kelmasligi tamoyilining izchil amalga oshuvi.

#### Siyosiy sohadá bu:

-xalq, ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq ishtirot etishi lozimligini;

-hokimiyat bo'linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijo etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyanı chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;

-jamiatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni;

-barcha fuqarolarning qonun oldidagi huqukiy tengligini va qonunning ustunligini ta'minlashni;

-bir mafkuraning, bir dunyokarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

-demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni shakllantirishni;

-O'zbekistonda tug'ilib, uning zaminida yashayotgan, mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e'tiqodidan qat'iy nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo'lishga erishishni bildiradi.

#### Iqtisodiy sohadá:

-milliy boylikning ko'payishini ta'minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish;

-ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish;

-mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror topshirish;

-iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmsandan korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechish;

### **Ijtimoiy va ma'naviy sohada:**

-insonparvarlik g'oyalalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmati, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishi;  
-ma'naviyatni qayta tiklashni;  
-o'zbek tilini rivojlantirishni;  
-xurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni;  
-ijtimoiy adolat qoidalarini ruyobga chiqarish, aholining eng nochor katlamlari — keksalar, nogironlar, etim-esirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatlari huquqlarini ta'minlashni;

<sup>1</sup>-odamlarning iste'dod qobiliyatlarini narnoyon etish uchun shart-sharoit yaratish va boshqalar.<sup>1</sup>

I.Karimov yangilanayotgan jamiyat mazmun-mohiyatini ko'rsatish bilan birga dolzarb vazifa qilib, eng avvalo bozor iqtisodiga o'tish masalasini qo'ydi. Faqat iqtisodiy **baquvvat davlatgina kuchli bo'ladi** va u har **qanday islohotlarga qodir bo'ladi** degan g'oyani ilgari surdi.

SHuning uchun ham I.A.Karimov "O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lli" asarida « O'zbekiston o'zi uchun tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.

Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinlik larinn kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma'naviy axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin»<sup>2</sup>, - deb kat'iy ko'rsatib bergen edi. Milliy davlatchilikning shakllanishi jarayonlari mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari bilan birga qo'shib olib borildi, siyosiy islohotlar iqtisodiy islohotlar kabi bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O'zbekistonning yangi jamiyat qurish borasidagi islohotlari bosqichma-bosqich olib borilishi bir tomondan, avvaldan meros bo'lib qolgan barcha ijobilari tajribalarni chiqur o'zlashtirish imkonini berdi, ikkinchi tomondan esa islo qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratib berdi. Bu bosqichlarning har biri uchun konkret maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishga sharoit yaratdi. Aniqrog'i, bu tamoyil "**yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik**" haqidagi xalqning dono fikriga asoslanganini ko'rsatadi.

Mustaqil davlatning huquqiy asosi ikki marta qayta muhokama qilingandan keyin 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi bo'ldi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilar edi:

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: "O'zbekiston", 1998.- 15-20-betlar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -T.: "O'zbekiston". 1994.- 28-bet.

**Birinchidan**, Konstitutsiyaning ishlab chiqilishida ko'pgina jahon davlatlari konstitutsiyon tajribasi yantuqlaridan foydalanildi va o'zbek xalqi madaniyati va milliy an'analarining chuqur ildizlariga tayanildi.

**Ikkinchidan**, ushbu xujjat, O'zbekiston Respublikasidagi avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy, davlat siyosiy tizimini amalda boshqa tizimga aylanganini, tubdan yangilanish ro'y berganini huquqiy jihatdan rasmiy-lashtirdi. Masalan "sotsialistik" o'tmishdan, ayni vaqtida sovet namunasidagi tizimdan ham voz kechgan holda "umum xalq mulkchiligini" ijtimoiy taraqqiyotga to'g'anoq sifatida inkor etib, xususiy mulkni, iqtisodiy erkinlik va yakka tartibdagi tadbirdorlikni tan oldi. Unda davlatimizning ijtimoiy-siyosiy xususiyati, uni rivojlantirishning asosiy g'oyalari, respublika ichki va tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi. Konstitutsiya jahoning siyosiy haritasida yangi suveren davlat — O'zbekiston Respublikasi paydo bo'lganligini qonuniy tasdiqlab berdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilinishida ustuvorlikka ega. Boshqa qonunlarning hammasi u yoki bu tarzda Konstitutsiyaviy me'yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi va ro'yogha chiqaradi. Uning asosida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qudratli axloqiy kuchga egadir. Unda avvalo insonparvarlik, adolat, g'oyalari mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning "insonga qaratilganligi" xususiyatini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Konstitutsiya maqsadining cho'qisisida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlari turadi. "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy kddriyat hisoblanadi"<sup>1</sup>, - deb bayon etilgan.

Davlat suverenitetata tamoyili — respublikada davlat hokimiyatini tashkil etishning muhim tamoyilidir. Hokimiyat suverenitetining mazmuni shundaki bunda hokimiyat bir tomondan mamlakat ichida ustunlik va mustaqillikka ega bo'lsa, ikkinchi tomondan tashqi siyosat, boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatda ustunlik qiladi, o'zi erkin, mustaqil ish ko'radi. Davlat suverenitetining ichki jihatlari mazmuni Konstitutsiyaning I-bobida juda aniq ochib berilgan. CHunonchi, "O'zbekiston suveren demokratik respublika"<sup>2</sup> ekanligi bayon etilgan. Davlat o'z hududi va milliy boyliklariga nisbatan eng oliy huquqqa egadir. "O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir"<sup>3</sup>, (3-modda). O'zbekiston Respublikasi mustaqil ravishda o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyatni va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini mustaqil amalga oshiradi.

Davlat suverenitetining beitsino barcha ijtimoiy hokimiyat vakolatlari faqat konstitutsiyaga binoan tuzilib, amalda bo'lgan davlat institutlaridagiga to'la va

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2014.- 5-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba, 4-bet.

<sup>3</sup> O'sha joyda.

so'zsiz jamlanishini taqozo qiladi. Ana shu nuqtai nazardan 10-modda mantiqan juda katta ahamiyatga ega. "O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin"<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini faqatgina O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida vakolat berilgan idoralar amalga oshirishi ham nazarda tutilgan. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi tizimlarini yaratish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi (7-modda).<sup>2</sup>

Konstitutsiya O'zbekiston davlati xalqaro munosabatlарining teng huquqli sub'ekti ekanligini ta'minlaydi.

Ushbu Konstitutsiyada xalq azaldan orzu qilgan, o'z taqdirini o'zi belgilashi koidasi mukammal tarzda o'r'in olgan. SHu bois Konstitutsiya xalq hokimiyati tamoyiliga asoslanadi va uni mustahkamlaydi. Xalq hokimiyati degan ibora butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqni ekanligini anglatadi. Xalq hokimiyati o'z vazifalarini ham bevosita, ham o'zi saylagan davlat organlari orqali xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradi. Konstitutsyaning 7-moddasiga muvofiq "xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir"<sup>3</sup>.

Asosiy Qonunda xalq hokimiyatining real omillari ko'rsatib berilgan. Xalq saylov yo'li bilan vakillik hokimiyati organlarini tuzadi, mamlakat Prezidentini saylaydi, umumxalq muhokamasi va referendumni orqali jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, qarorlar (qonunlar) qabul qilinishida ishtirok etadi (9-modda)<sup>4</sup>. SHu tarzda xalqning suveren xohish-irodasi, uning o'z davlat hokimiyatini ruyobga chiqarish usullari konstitutsiyaviy yo'l bilan mustahkamlab qo'yilgan. Yana shuni xam alohida ta'kidlash joizki demokratizm — yangi Konstitutsyaning asosiy tamoyili hisoblanadi. CHunki, haqiqiy demokratiya tamoyillarini qaror toptirish yangi demokratik, adolatli jamiyat qurishda o'ta muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'ligan vazifadir.

SHuningdek, Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyili ham asoslab berilgan. YA'ni, Konstitutsiyada qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatining o'zaro hamjihatligi va mustaqil ravishda amal qilishining o'ta maqbul mexanizmlari mustahkamlab berilgan.

Hokimiyatning uchta tarmog'i o'tasida muvozanat saqlashning oqilona tizimi yaratilgan. CHunonchi, qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlis tomonidan, ijroiya hokimiyati esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning rahbarligi ostida Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Sud hokimiyati — Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda respublikaning yagona sud tizimini

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2014.- 5-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba, 4-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba, 45-bet.

<sup>4</sup> O'sha manba, 5-bet.

tashkil etadi. Oliy Majlis tarkibida uning normal faoliyatini tartibga soladigan, hal etib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud u bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilsa, Prezident Konstitutsiyaviy sud bilan kelishgan holda qabul qilgan o'z qarori bilan Oliy Majlisni tarqatib yuborishi mumkin (95-modda)<sup>1</sup>. Konstitutsion sud respublika qonunlari va Prezidentning Farmonlari Konstitutsiyaga qanchalik mos kelishini aniqlaydi. Uning Konstitutsiyada o'ziga berilgan vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari uzil-kesil hisoblanadi va bu qarorlarning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Mustaqillik yillarda Konstitutsiya va qonunchilik joylardagi davlat hokimiyati organlari o'zini-o'zi boshqarish tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan mahalliy hokimiyatning boshlig'i bo'lgan hokim tartiboti joriy etildi. Tegishli huquqlarga ega mahalliy vakillik hokimiyati — xalq Kengashlariga, shuningdek ijroiya hokimiyatiga viloyat, tuman, shahar hokimlari boshchilik qiladigan bo'ldi.

Hokim o'z vakolatlarini yakka boshchilik asosida amalga oshiradi va o'zi rahbarlik qilayotgan idoralaming qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda mahalliy hokimiyat o'z-o'zini boshqarish jamoat organlari shaklida amalga oshiriladi. Fuqarolarning yig'inlari bunday o'zini-o'zi boshqarishning organlari hisoblanadi. Fuqarolar ikki yarim yil muddatga rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylaydilar. O'zini-o'zi boshqarishning bunday shakli shahardagi mahallalar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarda ham amalga oshiriladi.

SHunday qilib, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dastavval mustakillikning g'oyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. Mamlakatning istiqlol Konstitutsiyasi qabul qilindi. Milliy davlat tizimi an'anaviy davlatchilik g'oyalari va jahon davlatchiliqi ilg'or tajribalarining sintezi shaklida barpo etildi. Har qanday demokratik tizim negizida yotgan — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud-huquq tarmoqlarining vazifa va vakolatlari aniq belgilab qo'yilgan, ularning manfaatlar muvozanatini va bir-birini tiyib turishini ta'minlovchi tizim shakkantirildi.

**3-masala.** 1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga muvofiq Prezidentga favqulodda keng vakolatlar berilganligini ko'rish mumkin. Davlat boshlig'i – Prezidentga keng vakolatlar berilishi mohiyatini tushunish uchun Respublika boshqaruva shaklining parlamentar respublika va Prezidentlik respublikalarining farqini biliish kerak bo'ladi.

Boshqaruvning parlamentar respublika usulida Prezident parlament yig'ilishida, uning a'zolari tomonidan saylanadi. Prezidentlik respublika boshqaruvida esa u umumxalq saylovi yo'li bilan barcha fuqarolarning ovoz berishi asosida saylanadi. Bunda Prezident o'z va- kolatini parlamentning sanoqli a'zolaridan emas, balki, keng xalq ommasidan oladi. Qolaversa, buning siyosiy, huquqiy, ma'naviy va demokratik mazmuni kengroq ekanligi ko'pgina

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston". 2014.-27-28-betlar.

siyosatshunos olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Prezidentlik respublikasida prezidentning mamlakat boshqaruvda vakolatlari kengroq bo'ladi, u davlat boshlig'i bo'lish bilan birga, ijroiya hokimiyat boshlig'i ham bo'lib, ichki va tashqi siyosatda asosiy rolni bajaradi. Parlamentar respublikada esa parlamentda eng ko'p ovoz to'plagan partiya etakchisi bosh vazirlikka saylanishi va mamlakatda ichki va tashqi siyosatni olib borishi mumkin. SHu orqali Parlamentning qonun chiqarishda va uni ijro etishda ta'siri kuchli bo'ladi.

Konstitutsiyada O'zbekiston boshqaruv shakliga ko'ra Prezidentlik Respublika ekanligi qanday namoyon bo'lgan edi? Aytish kerakki, Konstitutsiyada kuchli va layoqatli ijroiya hokimiyati rivojlantirilgan. Bir tizimdan boshqa tizimga o'tish davrida kuchli ijroiya hokimiyati zarurdir. Uni mustahkamlash qonun chiqaruvchi hokimiyat mavqeini pasaytirish hisobiga yuz berishi kerak emasligiga e'tibor berilgan.

1992 yildagi Konstitutsiyaga muvofiq Prezident O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'i va ijroiya hokimiyatning boshlig'i, Vazirlar Mahkamasining Raisi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafili, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va huquqiy yaxlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi, mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda respublika nomidan ish ko'radi, muzokaralar olib boradi. Respublikaning shartnomaga va bitumlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Prezident davlat boshlig'i sifatida hokimiyat va davlat boshqaruvi oliv organlarining hamjihatligini ta'minlaydi. U ijroiya hokimiyati devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, vazirliklami, davlat qo'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doyir farmonlarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi. Bosh Vazir, uning birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlarini, Vazirlar Mahkamasasi a'zolarini lavozimiga tayinlaydi va ulami lavozimididan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi. Prezident viloyat, tuman, shahar va xo'jalik sudlarining Sudyalarini lavozimiga tayinlash va lavozimididan ozod etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinnbosarlari Prezident Farmoni bilan lavozimiga tayinlanadi va lavozimididan ozod qilinadi, bu masala Oliy Majlis tasdig'iga kiritiladi. Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi. Basharti, mamlakatga hujum qilingan taqdirda urush holati e'lon qilib, bu qarorini uch kecha-kunduz ichida Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi.

Bu vakolatlar Prezidentlik lavozimida to'planishi, Prezidentga katta ma'suliyat ham yuklaydi. Jahon davlatchiligi tarixi ijtimoiy tuzurnining bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi kabi inqilobiy o'zgarishlar jarayonini ko'p ko'rgan. Ana shunday murakkab sharoitda turli davlatlar turlicha yo'l tutishgan. Biroq, tajriba shuni ko'rsatadiki, tub burilishlar paytida kuchli ijro hokimiyatini vujudga keltirish, kat'iy tartibotlar, xuquqiy boshqaruv tizginini mahkam tutish o'ta

zarurdir. O'zbekiston sharoitida Prezident bunday kuchli ijroiya hokimiyatni shakllantirsa oldi.

Davlat boshqaruvining Prezidentlik respublika shaklida diktatura chiqurlashadi, totalitarizmga keng yo'l ochiladi, degan nuqtai nazar asosan davlat boshqaruvi bilan siyosiy rejim o'rtasidagi farqni ajrata bilmaslik oqibatida yuzaga kelgandir. CHunki, bir qator mamlakatlarda boshqaruv turlicha bo'lgani bilan siyosiy tartibot bir xilligicha qolishi mumkin. O'zbekistonda ham davlat boshqaruvining qaysi usuli amal kilmas, pirovard maqsad va intilishlarimiz xalq hokimiyati asosidagi fuqarolik jamiyatni qurish ekan, demokratik rejim hayot tarziga aylanishi hayot taqozosidir.

Umuminsoniy tamoyillar ustuvorligini tan olmaydigan, pirovard maqsadlari mavhum, jamoatchilik fikrini chalg'itadigan, siyosiy kuchlar o'rtasida kelishtirib bo'lmaydigan g'oyalari va qarashlar amal qiladigan davlat tuzumi hech qachon uzoqqa bora olmaydi. Siyosiy yo'nalishlari va tamoyillari tez-tez o'zgarib turadigan, aniq pozitsiyaga ega bo'Imagan boshqaruv tizimida parokandalik yuz beradi. Buni YUgoslaviya, Indoneziya, Filippin, Ukraina va MDH tarkibidagi ko'pgina mamlakatlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'tish davrida boshqaruv jarayonlariga yondashuv o'zgacha bo'lishi, uning tartibsi holatlarda kechishiga yo'l ko'ymaslik muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz Prezidenti ma'lum muddat Vazirlar Mahkamasining Raisi sifatida ijroiya tuzilmalari faoliyatlarini muvofiqlashtirish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga olib keldi. 2007 yilga kelib esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, ya'ni, Vazirlar Mahkamasining raisi ekanini belgilaydigan norma chiqarib tashlandi. Vazirlar Mahkamasasi raisi lavozimi tugatildi. Ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasasi Raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasasi faoliyatini tashkil etadi, balki, unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasasi Majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi<sup>1</sup>.

2011 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)"gi Qonun davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Mazkur Qonun Prezident — Davlat boshlig'i bilan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib konstitutsiyaviy vakolatlar taqsimotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda, shuningdek, Bosh vazirga ishonchszilik votumi bildirish instituti joriy etilgan, ayrim vakolatlar Prezidentdan Senatga — Parlamentimizning yuqori palatasiga va mamlakatimiz Vazirlar Mahkamasiga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 1998, 29-bet.

berildi, mahalliy kengashlarning vakolatlari sezilarli ravishda kengaytirildi. Bu o'zgarishlar davlat qurilishini erkinlashtirish va hokimiyatning bo'linish tamoyillarida o'zaro tiyilib turish muvozanatini ham bildiradi.

Davlat hokimiyatining bo'linish tamoyiliga ko'ra, qonun chiqaruvchi hokimiyat - *parlament* davlat hokimiyatining uch asosiy tarmog'idan biri sanaladi. Parlament davlatning oliv vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalgga oshiradi. Parlamentarizm tajribasi shuni ko'rsatadiki, parlament bir palatali va ikki palatali bo'lishi mumkin. Ma'lumki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. Hozirgi zamonda ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendentsiyasiga aylandi.

*Parlament islohotlari uzoqni ko'zlab bosqichma-bosqich olib borildi.*

- 1990-1994 yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash deb atalib, bir palatali edi va o'z tarkibida 150 deputatni birlashtirgan edi.

- 1995 yildan boshlab Oliy Majlis deb atalib, parlament a'zolari soni 250 deputatdan iborat deb belgilandi.

- 2005 yildan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palata Qonunchilik palatasi (quyi palata) 120 ta deputat va Senat (yuqori palata) 100 ta a'zodan iborat qilib shakllantirildi.

- 2009 yildan ikki palatali Oliy Majlisning quyi palatasi — Qonunchilik palatasi 150 deputatdan, yuqori palatasi - Senat esa 100 ta a'zodan iborat bo'ldi, jami bo'lib parlamentda 250 ta a'zo faoliyat yuritadi.

*Mamlakat parlamentining ikki palatali qilib tashkil etilishidan quyidagi maqsadlar ko'zlandi:*

- parlament o'z vakolatlarini samarali amalgga oshirishi;

- har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimi yaratilishi;

- Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borilishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish;

- Senat asosan mahalliy kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umum davlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish;

- aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroti ko'laminani yanada kengaytirish;

- mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili o'zining hayotiy ifodasini topishi.

Sudlar mamlakatimizda alohida hokimiyat tizimi sifatida shakllantirildi, ya'ni, na Prezident, na davlat boshqaruvingin boshqa organlari sudlarning harakatdagi faoliyatlariga aralashmaydi. “O'zbekistonning sud hokimiyati, qonun

chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi”<sup>1</sup>.

Mustaqillik yillarda sud-huquq tizimidagi islohotlar ham bosqichma-bosqich izchillik bilan olib borilmoqda. Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma yig'ilishida sud tizimini tubdan isloh qilish yo'llarini ko'rsatib, jumladan, sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish uchun prokuratura organlarining sud jarayonlariga aralashuvini cheklash, shaxsni ushlab turish, hibsga olish huquqini sud tizimiga o'tkazish kabi yo'nalishlarni belgilab bergan edi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda sud jazolovchi organdan oddiy odamlaming huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylandi.

2010 yilga kelib, Prezidentimiz va parlamentimiz sa'y-harakatlari bilan uchinchini hokimiyat — sud tizimi sohasida quyidagi islohotlarni amalga oshirishga erishildi:

— jinoiy jazoga sanktsiya berish huquqi prokuratura organlaridan sud tizimiga o'tkazildi. Sud hokimiyating mustaqiligini ta'minlashga katta e'tibor berildi;

— advokatlar (oqlovchilar)ning mavqeい va roli oshirildi; advokatura instituti isloh qilindi;

— jinoiy jazo tizimi liberallashtirilib, o'lim jazosi Jinoiy kodeksdan (2008 yilning 1 yanvaridan boshlab) olib tashlandi va uning o'rниga uzoq muddatli, umrbod qamoq jazosi belgilash tartibi o'matildi;

— prokuratura faoliyati takomillashtirildi;

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shaklantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqr isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi kontseptsiya hayotta tatbiq qilindi, natijada:

• sudlar ixtisoslashtirildi;

• fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi;

• sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'limgan vazifalardan ozod qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarda dalat boshqaruvi borasidagi islohotlar natijasida hokimiyatning uchga taqsimlanishida muvozanat vujudga keltirildi. Bir palatali parlamentdan ikki palatali - Professional parlamentga o'tildi. Ko'п partiyaviylik tizimi tarkib topishiga keng sharoit yaratildi. Jamiyat hayotida sog'lom demokratik jarayonlar muhitini vujudga keldi va chuqlashdi. Inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy asoslari vujudga kelmokda. Sud hokimiyati mustaqillik mohiyati va hozirgi zamon xalqaro huquq tarmoyillari negizida tubdan isloh qilindi.

**4-masala.** Fuqarolik jamiyatini qurish islohotlar, fuqarolik jamiyatni tashkiloti va institutlarini shakllantirish, ijtimoiy va siyosiy sohalarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish orqali ro'y beradi. Mamlakatimizda erkin fuqarolik

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston". 2014. 32-bet.

jamiyatini shakllantirish borasida « Kuchli davlatdan kuchli fukarolik jamiyati sari» dasturi asosida davlatning ayrim vakoletlarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish jarayoni kechmoqda. Islom Karimov ta'kidlaganidek, « biz bunda kuchli markaziy davlat hokimiyati o'zining kuch-g'ayratlarini asosiy, umummilliy vazifalarga, chunonchi, mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolar xavfsizligi, tashqi siyosat, valyuta-moliya hamda soliq tizimlarini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va taraqqiyotning boshqa strategik vazifalariga qaratadigan davlat ijtimoiy qurilish tizimini barpo etishimiz lozim. Boshqa masalalarni hal qilish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamaot tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga topshirilmog'i kerak<sup>1</sup>. Buning uchun jamiyatni yangilash, turli sohalarni erkinlashtirish kerak edi.

SHuning uchun 1999 yil 14 apreldagi birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 14-sessiyasida Prezident Islom Karimov XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarda mamlakatimizning rivojanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatning mazmun-mohiyati nimalardan iborat bo'lishi kerakligi haqida to'xtalib, “Birinchi ustuvor yo'nalish — mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish<sup>2</sup>”, - deb ko'rsatib o'tgandi.

SHu o'rinda avvalo erkinlashtirish nima, degan savolga, keyin esa erkinlashtirishda qaysi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi, degan savolga to'xtalamiz.

“Erkinlashtirish” atamasi “liberalizatsiya” atamasining tarjimasi hisoblanadi. “Liberalizatsiya” so'zi lotinchcha “liberalis” — “erkin, erkinlikka oid” so'zidan kelib chiqqan. Biroq to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi ushbu so'z mazmunini to'liq ochib bera olmaydi.

“Aslida bu atama shunchaki erkinlikni emas, balki, kishining erkin fikrlash, inson faoliyatining turli sohalari to'g'risida hukm yuritish, mavjud siyosiy tizimni, uni amaliy tanqid qilishdan voz kechmagan holda, atto muxolifat (albatta konstruktiv muxolifat) sifatida chiqib, baholashni anglatadi.

Ba'zan bu atama liberal oqim, liberal mafkura vakillarining turlichayashlari va g'oyalariga sabr-toqat bilan, xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish ma'nosida ham ishlataladi<sup>3</sup>.

Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishda qaysi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi?

<sup>1</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-Jild. –T.: “O'zbekiston”, 1998, 142-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. 7- Jild. - T.: “O'zbekiston”, 1999, 379-bet.

<sup>3</sup> Islomov Z. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. –T.: “O'zbekiston”, 2005.-87-bet.

Siyosiy sohani erkinlashtirishda: aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish.

Demokratiyaning eng muhim tamoyili — odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ruyobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy- huquqiy zamin yaratib berish.

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirishda hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirish.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirishda — birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqeい va huquqlarini mustahkamlash<sup>1</sup>.

Bu vazifalarning bajarilishi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ulkan qadam bo'ldi. O'zbekiston Prezidentining 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rurasida diqqat-e'tiborni hokimiyat vakolatlarining bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga berish borasidagi mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish, ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni, mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining ahamiyati va mavqeini amalda kuchaytirish masalalariga qaratdi. 2005-2010 yillarda bu borada katta amaliy ishlar qilindi. Mustaqillik yillarda mahalla institutiga faqatgina o'zini o'zi boshqarish instituti deb qaralmasdan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan va rivojlantiradigan, shu bilan birga, keljak avlodlar qanday bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i, hayot maktabi deb ham qaralmoqda. SHuning uchun O'zbekiston sharotiida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng muhim bo'g'ini mahalla faoliyatini takomillashtirishdir.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan yana biri — bu nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdir. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larining soni 6000 dan ortiqdir. Agar bu ko'rsatkichni 2000 yildagi holat bilan qiyoslasak, ularning soni uch barobarga ko'payganini ko'ramiz. Fuqarolarning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga erkin uyushishi bu tashkilotlarining muhim shartidir.

Fuqarolik jamiyatida ommaviy axborot vositalarining roli ham nihoyatda katta. Keyingi 10 yil ichida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan OAV ning soni

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: "O'zbekiston", 1999.- 16-17-betlar.

1,5 barobar, elektron OAV ning soni esa 7 barobar ko'payib, ularning umumiy soni qariyb 1200 taga etdi. Mayjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat OAV hisoblanadi. OAV O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tiliда faoliyat olib boradi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, yangi jamiyat, ayniqsa, fuqarolik jamiyatni qurish juda og'ir, ziddiyatli va uzoq muddatli jarayon. Unda maqsadlar puxta o'ylangan va mufassal ishlab chiqilgan dasturilmal asosida aniq va muayyan tarzda belgilangan bo'lishi kerak. Mamlakatimiz oldida turgan navbatdagi vazifalar Prezident I.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 12 noyabrdagi Qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiysi" nomli nutqida bat afsil bayon etilgan. Davlat qurilishi, sud-huquq sohasida, matbuot va so'z erkinligi, siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda oldimizda turgan vazifalarni o'rganish magistr talabalarga mamlakatimiz kelajagida nimalarga e'tibor berish zarur ekanligini ang lab olishlariga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, demokratlashtirish va liberallashtirish, O'zbekiston uchun tamoyilial jihatdan mutlaqo yangi bo'lgan davlatni shakllantirishdir. Bu esa bir-ikki yilda hal etiladigan vazifa emas, balki, muayyan muddat bilan chegaralanib qolmaydigan uzoq va uzuksiz jarayondir. Bu borada "Mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiysi" o'zgarish va yangilanishlar, davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va mustaqil davlatchilikni rivojlantirish uchun strategik dastur bo'lib xizmat qiladi.

### Taqrirlash uchun savollar:

- 1.O'zbekistonda ijtimoiy –siyosiy soha g'oyaviy asoslarining o'zgarishi va rivojlanishi strategiyasining yo'nalishlari nimadan iborat?
- 2.O'zbekistonda yangi siyosiy tizim va davlat tuzilishi asoslarining shakllantirish jarayonlari qanday amalga oshirilgan?
- 3.Kuchli fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va tamoyillarini aytib bering.
- 4.Davlat va jamiyat boshkaruvida OAV va jamoatchilik fikri rolining oshirish mexanizmlari haqida nimalar bilasiz?

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiysi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruba. 2010 yil 12 noyabrib). - T.: "O'zbekiston", 2010.-30-bet.

## **VI-MAVZU: TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI VA KADRLAR TA'YYORLASHNING MILLIY MODELI**

**Reja:**

1. YUksak taraqqiyotni ta'minlashda “Kadrlash tayyorlash milliy dasturi”ning o'mi va ahamiyati.
- 2.“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tamoyillari, ulardan ko'zlangan maqsadlar va amalga oshirish bosqichlari.
- 3.“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida uzuksiz ta'lif tizimining hayotga tadbiq etilishi.
- 4.“Portlash effekti” tushunchasi va mohiyati.

**I-masala.** Bugungi kunda, fan texnikaning jadal taraqqiyoti shiroitida har bir davlat o'zining istiqlol rejalarini belgilarni ekan, kelajakda ushbu rejalarini amalga oshiruvchi yosh avlod qobiliyatlarini ravojlantirishga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ma'naviyatini boyitishga alohida e'tibor berishi davr talabidir. SHu sababli O'zbekiston Prezidenti Respublika mustaqilligining bиринчи kunларидан boshlab mamlakatning istiqboldagi taqdiri kadrlarga bog'liq ekaniga alohida e'tibor berib kelmoqda. Jumladan, “Biz o'tgan yillarda davomida: to'plagan tajriba va bilimlardan foydalanib, ma'lum marraga etib keldik. Islohotlarni amalga oshirish borasidagi bundan buyog'iga olg'a siljishlarimiz tobora qiyin muammolarga borib taqalishi mumkin: u ham bo'lsa, yuksak malakali xodimlarning etishmasligidir. SHuni yaxshi anglashimiz kerakkki, endi paypaslab yurib olg'a siljish mumkin emas, yangi bilimlarni egallamasdan turib bundan buyog'iga harakatlana olmaymiz”, - deb uqturgandi.

SHunday qilib mamlakatda rivojlanishning dastlabki yillarda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ishlab chiqildi. Bu dastur asosida kadrlar tayyorlash masalasi va uni hal qilish borasida o'tkazilgan har qanday siyosat mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy mudofaa – muhofaza va boshqa sohalarini uyg'un va mustaqil faoliyatini ta'minlab olib borildi.

Kadrlar tayyorlash tizimining asosiy vazifalaridan biri hozirgi zamон fani va ishlab chiqarishning yuqori malakali ishchilar hamda mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida qondirishdir. YUqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bevosita mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan aniqlanadi va ma'lum bir davrga mo'ljallangan asosiy strategik maqsadlarga, bиринчи navbatda, ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirishga oid vazifalarga bog'liqidir.

Mutaxassislar tayyorlash va ishlab chiqarish bilan o'quv yurtlari o'rta sidagi mayjud o'zaro aloqadorlik ahvolining tahlili o'quv yurtlarini bitiruvchilar mutaxassislik muammolarini mustaqil echa olish tajribasiga asoslangan kasbiy malaka va ko'nikmalarga etarli darajada ega emasligini ko'rsatdi. Oliy o'quv

yurtlari nazariy tayyorgarlikni yuqori darajada ta'minlasa-da, lekin talabalarda tashkilotchilik, tarbiyaviy va jamoatchilik faoliyatini takomillashtirish hamda zamonaviylashtirishga astoydil qiziqishni namoyon qilmaydilar.

Iqtisodiyot, fan va texnika rivojlanishining hozirgi bosqichi oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash darajasiga, oliy o'quv yurtlari bilan ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligiga doimiy o'sib boruvchi talablarni qo'yemoqda. Ana shu hamkorlikni amalga oshirish uchun, birinchidan, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tadbiq etish uchun hamkorlikda ishlashga qulay sharoit yaratib berish maqsadida korxona va tashkilotlardagi alohida kafedra bo'linmalari yoki ularning majmualarini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>1</sup>.

Kadrlarni tayyorlash tarbiyalash va ulardan foydalanishning ilmiy nazariy va uslubiy jihatlari puxta va aniq rivojlantirildi. Mustaqilgacha bo'lgan davrda yagona mafkura hukmronligi ostidagi pedagogik tizim sharoitida yashadik, faoliyatimizni sobiq markazdan yuborilgan tavsiyalar asosida tashkil etdik. Kelajakda shaxs manfaatlari va ularning ma'naviy ehtiyojlari maktab devorlari ortida qoldi. Amalda maktab bitta yo'nalishga kommunistik mafkurani mustahkamlashga xizmat qildi. Pedagogik ijod ona tili, Vatan tarixi, geografiyasi, tabiat, milliy urf-odatlari an'analarini ma'naviyat va qadriyatlarini o'z o'quvchilarga o'rgatishdan deyarli mahrum etilgan edi. O'qituvchi unga buyurilganlarnigina o'rgatuvchiga aylandi.

Ta'lim-tarbiya ishlarining 70 yil davomida shakllanib qolgan ana shu illatlardan xalos qilish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning tub mohiyatini tashkil qildi. "Agar haqiqatan ham qashshoqlik va qoloqlik kishanlaridan qutulmoqchi bo'lsak, yoshlarni tayyorlash bilan juda jiddiy ravishda shug'ullanishimiz, zamonaviy kasbni egallashda ularga yordam berishimiz kerak. Bu sohada xasislik yaramaydi"<sup>2</sup>. SHundan so'ng ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiyalash maqsadida davlat tomonidan keng qamrovli chora-tadbirlar izchil amalga oshirila boshladi. Bu jarayonda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini muntazam oshirib borish bilan birgalikda talabalaming ta'limdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarida ixtisoslik va mutaxassisliklariga mos ish o'rinaliga ega bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi va milliy kadrlar tayyorlashning maxsus dasturida quyidagilarga urg'u berildi:

-umumiylarida dars berish sifatini oshirish (o'qituvchilarini, metodlarni qo'shinchalik ravishda moddiy rag'batlantirish, maxsus sinfonalar barpo etish, oliy o'quv yurtlarining maktablarni otaliqqa olishni yo'lga qo'yish;

-eng iste'dodli bolalar uchun maktablarni ochishni;

-korxonalar bilan maktablarni o'tasida sifat jihatlaridan yangi munosabatlarni joriy etishni;

<sup>1</sup> Bu haqida qarang: Tulenova G. Barkamol yosh avlod – istiqlo'l tayanchi.-T.: "Fan va texnologiyalar", 2005.

<sup>2</sup> Barkamol avlod orzuasi. - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2000, 82-83-betlar.

-hunar –texnika bilim yurtlarida xo’jalik hisobini joriy etishni va shu asosda ommaviy kasb kadrlarini tayyorlash sifatini keskin oshirishni;

-oliy o’quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashning buyurtma berish usulini joriy etishni o’z ichiga olish kerak”<sup>1</sup>.

Keyinchalik bu dastur Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kuni “YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishining eng muhim sharti” mavzuida o’tkazilgan xalqaro konferentsiyada ham O’zbekiston Prezidenti Islom Karimov rahbarligida ta’lim tizimini isloh qilishga oid tamoyil va yondashuvlar qatorida ta’limni yoshlarning kelajakdagи amaliy mehnat faoliyatini bilan ahamiyati ham to’liq qo’llab-quvvatlandi<sup>2</sup>. Haqiqatdan ham bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da erkinlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, yaratuvchilik muhitini vujudga keltirish ko’zda tutilgan bo’lib, unda barcha mutaxassis kadrlarni professional ko’nikmalarni egallashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishga mo’ljallanganligi bilan muhimdir. Mustaqil davlatimiz rahbariyati eng avvalo, ishni ta’lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yaratib berishdan boshladi. Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar ichida birinchilardan bo’lib, O’zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1992 yil 2 iyulda “Ta’lim to’g’risidagi” Qonunini tasdiqladi. Bu dasturda ta’lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning haq-huquqlari, burch va ma’suliyatlari aniq belgilab berildi.

Mustaqillikgacha bo’lgan davrda bizning ta’lim tizimimiz jahoning ilg’or tsivilizatsiyasi yutuqlaridan, o’z xalqimizning tarixiy ildizlaridan ajralib qolgan edi. Mustaqillik bunday holatni tubdan o’zgartirdi. Istiqlol davrida jamiyat ijtimoiy hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida ta’lim ham o’zgarmog’i, yangilangan jamiyatning manfaatlari yo’lida xizmat qilmog’i nuqtai nazaridan yondashildi.

SHuningdek, asosiy qonun O’zbekiston Konstitutsiyasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning huquqiy va me’yoriy jihatlarini o’zida aks ettirdi. Jurnladan, uning 41-moddasila: “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolathlanadi. Maktab ishlari nazoratidadir”<sup>3</sup>.

O’zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov 1997 yilga kelib, ta’lim-tarbiya tizimidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish va bu sohani tubdan isloh etish bo’yicha muhim dasturiy hujjatlar qabul qilish lozimligini kun tartibiga qo’ydi. “Kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy dastur tuzishda” quyidagilar nazarida tutildi.

- Butun ta’lim tizimni tubdan isloh qilish ishlab turgan o’quv yurtlarini yangi yo’nalishga solish hamda yangi sharoitlar va zamonaviy texnologiyalarda ishay

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi. - T.: “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 2000, 83-bet.

<sup>2</sup> “YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzuidagi xalqaro konferentsiyaning yakuniy hujjati – rezolyutsiyasi.// “Ma’rifat”, 2012 yil 22 fevral.

<sup>3</sup> O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - T.: “O’zbekiston”. 2014.- 9-bet.

oladigan mutaxassislar tayyorlash uchun yangi o'quv yurti, eng avvalo texnik kollejlar, biznes maktablari va maxsus o'quv yurtlari tashkil etish yo'li bilan tuzilma yangilanishlarini amalga oshirish;

- o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish;

- o'quv yurtlari tuzilmalarini takomillashtirish, xususan to'qqizinchisi sinfni bitiruvchilar uchun tadbirdorlik faoliyatasi asoslari, iqtisodiy va huquqiy bilimlar darslari kiritilgan maxsus ta'lim muassasalarini barpo etish va ularning tarmog'ini kengaytirish;

- yoshlarga milliy uyg'onish va umuminsoniy qadriyatlarini idrok etish masfurasi asosida, vatanga mehr-muhabbat, mustaqililik ideallariga sadoqat ruhida ta'lim-tarbiya berish;

- ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangi o'quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar va kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash<sup>1</sup> lozimligi belgilab olindi. Shu sababdan, I.Karimov tashabbusi bilan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limni axborotlashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar, Internet tarmog'ining xizmatidan keng foydalanish ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizning Oliy o'quv yurtlarida ana shu yo'nalishda ko'pgina ijobjiy ishlar qilinmoqda. Kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tizimi masofaviy o'qitishning asosiy qismini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida masofaviy ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish so'nggi yillar davomida ta'lim olish xizmatiga bo'lgan talabning keskin ravishda oshishi hamda masofaviy ta'limning yuqori ijtimoiy ahamiyati tufayli yuzaga keldi.

Masofaviy texnologiyalar bozor iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlash tizimini yaratishda uzoq muddatli maqsadlarini ta'minlovchi yo'nalish sifatida baholanmoqda. Evropa Hamkorligi komissiyasi, turli xalqaro rivojlanish va qo'llab-quvvatlash jamg'armalari O'zbekistonda masofaviy ta'limning rivojlanishiga qiziqish bildirib, bunday loyihalarni moliyalashtirishga eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida qarashmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish jahon tendentsiyasi O'zbekistonning xalqaro pedagogik jamiyatni tomonidan ham tan olna boshlandi. Masofaviy ta'limni rivojlanishiga bo'yicha bir necha dasturlar ishlab chiqilmoqda.<sup>2</sup>

Dasturdan ko'zlangan asosiy maqsadimiz biz barpo etayotgan erkin, demokratik jamiyatda kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'i-harakatlarimiz kutilgan natijani bermaydi, ma'nnaviy hayotimiz o'zgarishi qiyin kechadi. Bunda zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimni isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizni bosh yo'nalishi bo'lmos'i darkor.

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2000.- 93-94-betlar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasida masofaviy ta'lim tizimini yaratish va rivojlanish kontseptsiyasi(loyiha)// "Xabar", 2004 yil 20 fevral.

Ana shunda yoshlariimizda kerakli darajada mustaqil fikrlashni shakllantiramiz va ular har qanday olomonlarga ergashib ketavermaydi. “Ta’lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanimiz, uning mazmunini lo’nda qilib ifoda etish mumkin; bizga bitiruvchilar emas, məktəb ta’lini va tarbiyasini ko’rgan shaxslar kerak”<sup>1</sup>, tabiiyki, bunday murakkab vazifalarni amalga oshirishda davlat **va** jamiyatning ma’suliyati alohida kasb etadi.

Davlat **va** jamiyat kadrlar tayyorlash tizimini uzuksiz rivojlantirish va takomillashtirish kafili bo’lishi zarur. Ular yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirishi lozim.

**2-masala.** Mamlakatimizda ta'lim istiqbollarini qayta ko'rib davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qayta ko'rib chiqildi **va** ular quyidagi tamoyillarda o'z ifodasini topdi:

-ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterda ekan;

-umumi o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning yo'nalishi akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyorligi;

-ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekan;

-davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

-ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqaqlashtirilgan yondashuv;

-bilimli bo'lishri va iste'dodni rag'batlantirish;

-ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvni uyg'unlashtirish<sup>2</sup>.

SHuningdek, uzuksiz ta'limni tashkil etish **va** rivojlantirishning quyidagi tamoyillari asos qilib olindi:

-ta'limning ustuvorligi;

-ta'limning demokratlashuvni;

-ta'limning insonparvarlashuvni;

-ta'limning ijtimoiylashuvni;

-ta'limning milliy yo'naltirilgani;

-ta'lim tarbiyaning uziyi bog'liqligi;

-iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental **va** maxsus bilim olish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab mamlakatimizda ta'lim quyidagi maqsadlarni ko'zda tutdi:

-mustaqilligimizni, istiqlolimizni his eta biladigan, o'zligini anglab etgan insonlarni tarbiyalashga qaratildi;

-mamlakatimizni aql-zakovat va ilm borasidagi salohiyati rivojlantirildi;

-oila, jamiyat, davlat oldidagi ma'suliyatni anglaydigan har jihatdan barkamol shaxs shakllantirib borildi;

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi. – T.: “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 2000.- 97-bet.

<sup>2</sup> Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. –T.: “Sharq”, 2001.- 3-4-betlar.

-ahloqiy pok, jismoniy baquvvat, vatan tuyg'usi bilan yashaydigan fidoiy inson, izlanuvchan, tashabbuskor sog'lom avlodni shakllantirishga e'tibor qaratildi;

-faqat ma'lumot olish, savod o'rghanish bilan chegaralanib qolmaydigan, o'rganganlarini hayotga tatbiq eta biladigan shaxs tarbiyasiga e'tibor berildi;

-yangi jamiyatni qurish, unda yashash, ishlashni biladigan yoshlar tarbiyasi asosiy masala qilib qo'yildi.

Hammarniza ma'lumki, hayotimizning barcha sohalarida islohotlarni o'tkazish, o'zbek modeli deb nom olgan islohotlar siyosatining asoslari bo'lishi besh tamoyilning birida islohotlarini bosqichma-bosqich o'tkazish vazifasi qo'yilgan. SHuning uchun ta'lim-tarbiya sohasida ham belgilanayotgan islohotlarni hayotga tatbiq qilishda ana shu tamoyil islohotlarini bosqichma-bosqich o'tkazish tamoyili belgilandi.

**Birinchi bosqich** – o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda ya'ni, 4 yil davomida joriy etildi. Bunda kadrlar tayyorlash tizimi salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Bu bosqichda asosan quyidagi vazifalar bajarildi.

Milliy dastumi amalga oshirishning boshlanishi; yangi talablarga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash; o'quv standartlarni yaratish va yangi o'quv programmalari ustida ishslash; umumta'lim maktablarini tuzilishi jihatdan qayta qurish; 3 yillik ta'lim – o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari (kasb kolleji va akademik litsey) tizimiga zamin tayyorlash; uzuksiz ta'lim-tarbiya tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish; ijtimoiy-himoyani kafolatlash kabi masalalarni echish bosqichi. Bu bosqich kadrlar tayyorlash dasturining **moddiy-teknik bazasini** yaratish davri deb nomlanadi.

**Ikkinchи bosqich** – 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi bunda milliy dasturni keng miqyosida to'liq amalga oshirishga erishildi. Tabiiyki, tizim faoliyatini sarnaradorligini mehnat bozorini inobatga olib ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgartirishlar kiritildi. Bu bosqich kadrlar tayyorlash dasturining **sifat bosqichi**, deb nom oldi.

**Uchinchi bosqich** – 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalami tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlanirish zarur. Bu bosqich kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosi yakuniga etkazilib, erishilgan natijalar to'plangan tajribalar umumlashtirilib tahlil etilmoqda hamda shu asosida yurtinizda yangi ta'lim tizimi yanada takomillashtirilmoqda. SHu boisdan bu bosqich ta'lim tizimini **modernizatsiya**lash davri, deb atalmoqda.

Milliy dastur asosiy maqsaddan og'ishmasdan, izchillik bilan amalga oshirilmoqda. SHuningdek, u farzandlarimizni jamiyatda o'z munosib o'mini topishga xizmat qilmoqda. Ularning kasbiy va ta'limiy dasturlarini ongli ravishda tanlash va egallashlari uchun huquqiy me'yorlarini, tashkiliy, ruhiy – pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashmoqda. Yigit-qizlarimizni jamiyat,

davlat, oila oldida o'z ma'suliyatini chuqur anglab etuk shaxslar bo'lib etishishlariga zamin bo'lmoqda.

**3-masala.** Ma'lumki, xalq ta'limining asosiy bo'g'inini uzlusiz ta'lim tizimi tashkil etadi. SHu sababli "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da bu masalaga alohida diqqat-e'tibor qaratilgan va quyidagicha tuzilgan.

**Birinchi.** Maktabgacha ta'lim. Uch yoshdan boshlanib, olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishidan qat'iy nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

**Ikkinci.** Boshlang'ich ta'lim. 1-4 sinflarni o'z ichiga oladi va bunda o'qish olti-etti yoshdan boshlanadi.

**Uchinchi.** Umumiylar ta'lim. Bunda o'quvchilarga 1-9 sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi.

Alovida ta'kidlab o'tishimiz kerak: umumta'lim maktabi barchamiz uchun majburiy bo'lib, ularda bolalarimiz umumiylar bilim asoslarini chuqur o'rganishimiz kerak.

**To'rtinchi.** O'rta maxsus bilim va kasb-hunar ta'lim. O'qish muddati 3 yildan kam bo'limgani akademik litseylari va kasb-hunar kollejlari.

**Beshinchi.** Oliy mutaxassislik ta'limi odatda o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshdan boshlanib, to'rt yildan kam bo'limgan muddatda davom etadi. Oliy mutaxassislik ta'limi bakalavrilar harrida magistrlarga bo'linadi.

**Bakalavrlik** – yo'nalishlaridan biri bo'lib, bazaviy oliy ta'lim berish demakdir. Unda o'qish kamida 4 yil davom etib, oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi.

**Magistratura** aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi. Undagi tahsil yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan niyoyasiga etkaziladi.

Dastlabki tuzilmada magistraturadan so'ng aspirantura bosqichi o'tilar edi. Hozirda yakunlovchi bosqich doktorantura qolgan.

**Doktorantura** fan nomzodi ilmiy darajasi negizida yoki magistratura negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya himoya qilish bilan yakunlanadi. YAKUNIGA ko'ra, tanланган mutaxassislik bo'yicha "fan doktori" ilmiy darajasi beriladi.

Bulardan tashqari, yangi tizimda qo'shimcha kasbiy ta'lim-qayta tayyorlash va malaka oshirish malakasiga ham katta e'tibor berilgan<sup>1</sup>.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining o'ziga xos eng muhim xususiyati yangi turdag'i 3 yillik o'rta maxsus, kasb-xunar, akademik litsey ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa bo'ldi. Zamonaviy o'quv va ishlab chiqarish uskunalarini bilan jihozlangan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta'lim standartlari va axborot texnologiyalari, interaktiv usullar o'quv jarayoniga tatbiq etildi.

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi. — T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2000.- 100-101-betlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 28 fevraldag'i "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida"gi 77-qarori natijasida keyinchalik mamlakatlarimizda 712 ta kasbi o'z ichiga oladigan 268 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Yurtimizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 2009 yildan boshlab majburiy xususiyatga ega bo'ldi. O'quvchilar ixtiyoriy ravishda, o'z qiziqishlari va qobiliyatidan kelib chiqqan holda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega.

Barkamol avlodni shakllantirish jarayonida oliy ta'lim tizimining o'mi beqiyos. O'zbekistondagi oliy ta'lim tizimidagi islohotlar mustaqillikning dastlabki yillarda boshlandi. Oliy ta'limni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi:

- universitet ta'limining ustuvorligi;
- oliy ta'lim muassasalarini bo'lish va ixtisoslashtirish;
- oliy ta'limni hududiylashtirish.

Oliy ta'limda bakalavriat va magistratura tizimi joriy qilindi. Juhon standartlariga xos bu tizim oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov shunday degan edi: "Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g'ayrat-shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatimizning chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatning ulkan ma'naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkin".

1996 yilda Oliy ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi ishlab chiqildi va jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokida keng muhokama qilishi uchun ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi. Ushbu kontseptsiyaning ustuvor yo'nalishlari quyidagicha:

- oliy ta'limning ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura o'tish;
- oliy ta'lim tizimini moliyalashning yangi tizimiga o'tish (davlat grantlari shaklida byudjet mablag'lari va shaxsiy manbalar hisobidan moliyalash, ya'ni, talabalarni oliy o'quv yurtiga to'lov-shartnoma asosida qabul qilish);

-talabalarni mamlakatning barcha xududida bir kunda va bir vaqtida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkaziladigan kirish test sinovlari orqali qabul qilishga (avvalgi og'zaki va yozma imtihonlar o'rniga) to'liq o'tildi.

O'tgan yillar davomida yurtimizda jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin xamkorlik aloqalari o'matildi. Buning natijasida Toshkentda Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestministr universiteti ish boshladi. I.Gubin nomidagi Rossiya Neft va gaz davlat universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, INXA universiteti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi.

Mamlakatimizning nufuzli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlari asosida yangi zamonaviy yo'nalişlар bo'yicha kadrlari tayyorlash ishlari boshlangani ham e'tiborga sazovordir. Yurtimiz va xorijdagi o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olmoqda va u o'z malakasini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda nufuzli xalqaro tashkilotlar, chet elliq eksport va mutaxassislar, tahlilchi va kuzatuvchilar ishtirokida ta'lim sifatini oshirishga doir ko'plab simpoziumlar, konferentsiya va seminarlar o'tkazilmoqda.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi barcha sa'i-harakatlarimizning dastlabki quvonchli mevasi sifatida bir necha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yangi mutaxassislar avlodini ko'rganda, hech shubhasiz, yurtimizdagi har bir ota-onas, ustoz-murabbiyning, ezgu niyatli har qaysi insonning qalbi g'urur-iftixon tuyg'ulariga to'ladi.

4-masala. Ishonchim komil: agar bu islohotni muvaffaqiyatl ravishda amalga oshira olsak, tez orada biz hayotimizda ijobi ma'nodagi "portlash effekti"ni, ya'ni, uning samarasiga erishamiz.

Bu nima degani? Kadrlar tayyorlash milliy dasturimizda ju jumladan xali biz tilga olgan ikki xujjatda nazarda tutilgan vazifalar to'liq amalga oshgan taqdirda ular, **birinchidan**, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobi y ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud rruhit butunlay o'zgaradi.

**Ikkinchidan**, ta'limg'ing yangi modeli ishga tushgach insonning hayotdan o'z o'mini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida endigina voyaga etib kelayotgan davrd a jamiyatdan munosib o'mini topishi kerak.

Biz joriy etayotgan modeli orqali ana shu vaziyatning oldini olamiz. Qolaversa, yoshlarni muayyan bir ixtisosga ega qilib, hayotga yo'llanma beramiz. Dunyoga umid bilan qadam qo'yib kelayotgan navnihol inson hayotdan munosib o'mini topsa, turmushidan, **taqdiridan**, vatanidan rozi bo'lib yashaydi, umr bo'yib bunyodkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi. Bu g'oyat muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir".

"...Ta'limg'ing yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin SHaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iyomi butun, hayotda aniq rmaqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. **Ana** shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. SHunda odam olomon bo'lib, har Lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha - o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni o'zları aql idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalg'itib ham bo'lmaydi".

<sup>1</sup> Barkamol avlod orzusi. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2000. -108-bet.

“Ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro’yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar ichki quvvatning to’liq yuzaga chiqishi uchuchni zarur bo’lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo’ladi. Va har qaysi inson Olloh taolo atc etgan noyeb qobiliyatni avvalo o’zi uchun, oilasining millati va xalqining davlatning farovonligi baxt-saodati manfaati uchun to’liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur’at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a’zosi qo’shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo’lishi muqarrar.

Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil “izmlar” dan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo’lgan insonlargina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo’ladi.

Bu modeldan ko’zlangan yana bir maqsad bor. Uning vositasida biz dunyodan munosib o’rin olishga, o’zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishamiz. Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki, intellektual salohiyat aql-idrok, fikr, ilg’or texnologiyalar xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amir Temur bobomizning “Kuch – adolatda” degan mashxur ta’birni bugungi kunga gisbatan qo’llab aytadigan bo’lsak, men unga qo’shimcha qilib, “Kuch – bilim va taffkkurda” degan bo’lardim<sup>1</sup>.

Kelgusi asrda bu tamoyil yanada kuchayadi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi. Binobarin, xalqaro maydonda biz boshqa mamlakatlar bilan sog’lom fikr musobaqasiga, ijodiy raqobatga kirishmog’imiz lozim bo’ladi. Bizning kelajagimiz mana shu musobaqa va raqobatga qay darajada bardosh bera olishimizga bog’liq.

#### Taqrirlash uchun savollar:

1. Milliy ta’limni rivojlantirishda jahon tajribasini inobatga olish ahamiyati nimadan iborat?
2. Kadrler tayerlash milliy dasturi doirasida maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturining qabul qilinishi va uning amaliyotga joriy etilishi haqida nimalar bilasiz?
3. Mustakillik yillarida ta’lim sohasida erishilgan yutuklar hamda uning jahon mamlakatlaridagi e’tirofi haqida nimalar ayta olasiz?

## MAVZU: IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA INSON OMILI, ERKINLIGI VA MANFAATLARNING USTUVORLIGI

**Reja:**

- 1.Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda inson omilining ahamiyati.
- 2.Inson erkinligi va manfaatlarining ustuvorligi.
- 3.Komil inson g'oyasining maqsadi.
- 4.Inson ongi va tafakkuridagi ma'naviy o'zgarishlar.
- 5.Milliy istiqlol mafkurasi - yoshlar tarbiyasining g'oyaviy asosi.

**1-masala.** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategisidagi o'zgarishlar va ularning mohiyati shubhasiz inson omiliga bog'liqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda inson erkinligi va manfaatlari ustuvorligini ta'minlash bugungi kunda davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy negizini tashkil qiladi. SHuning uchun ham islohotlar islohot uchun emas, inson uchun degan g'oya ilk mustaqillik kunlaridan o'rtaqa tashlandi. Inson ongi va tafakkuridagi o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ustuvorligi uning jamiyat hayotidagi tutgan o'mida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Mamlakatning barqaror rivojlanishi milliy va va umuminsoniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Zero, mustaqillik g'oyalalarini rivojlantirishda, dunyoqarashni shakllantirishda, ma'naviyatni yuksaltirishda ajodolarimiz tomonidan yaratilgan bebaho qadriyatlar va milliy meroslar juda katta ahamiyat kasb etadi. SHu bois bugungi kunda jahon tsvilizatsiyasi yutuqlaridan har tomonlama keng foydalanish, uni chuqur o'rganib, milliy zaminlarimizdan ajralmasdan hayotga tabbiq etish jamiyat yuksalishining asosi bo'lib qoldi.

**Inson** – o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariiga ovqatlanish, himoyalanish, surriyod qoldirish, sharoitga moslashishlar xos. Inson boshaq mavjudotlardan sotsial xususiyatlari bilan ajralib turadi. CHunonchi, til, muomala, ramziy belgilari, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu(taqiqlash) shular jumlasidandir. Insonning psixik xususiyatlariiga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iztirob, zavqlanish, kayfiyat kabilari kiradi. Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta'minlaydi<sup>1</sup>. Inson axloq-odob, go'zallik, boylik va xususiy harakterga ega. SHuningdek, inson uchun katta boylik – uning sog'lig'idi, deb yozadi mashhur nemis faylasufi A.SHopengauer<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Falsafa. Qisqacha izohli lug'at.-“SHarq”, 2004.- 161-bet.

<sup>2</sup> G'arb falsafasi.- T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat”, 2004.- 513-bet

**SHaxs** – o’zida ijtimoiy fazilatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo’lib tug’ilmaydi, balki, jamiyatdagina shaxs bo’lib shakllanadi va rivojlanadi. CHunki, insonga xos ijtimoiy fazilatlar avloddan-avlodga irlsiy yo’l bilan o’tmaydi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, omma viy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo’ladi<sup>1</sup>.

**Ijtimoiylashuv** – (lotin. Socialis - ijtimoiylashuv) jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo’lgan psixologik mexanizm, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni individ tornonidan o’zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni, birlar bilan muloqotda bo’lishlarini ifodalaydi<sup>2</sup>.

“Inson o’z timsolida ham moddiy, ham ma’naviy xususiyat va alomatlami mujassam etgan noyob xilqat, YAratganning buyuk va sirli mo’jizasidir. SHuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o’zi o’ta murakkab bir masala. Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro’yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy olamni barnisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o’ylaymanki, o’rinli bo’ladi. Qachonki ana shu ikki omil uyg’unlashsa, tom ma’nodagi qo’sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o’sish-o’zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo’ladi”<sup>3</sup>, - deb yozgan edi I.Karimov o’zining “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida. Darhaqiqat, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda inson omilining ahamiyati ushbu misolda o’zining konkret ifodasini topgan.

Insonning haqiqiy inson sifatida yuksalishida ma’naviyat olamining ta’sir va ahamiyati asosiy rol o’ynaydi. Biz bugun dunyoda kechayotgan voqealarni ko’rib, bilib va ularni tahlil etar ekanmiz, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday xavf ortida insonning qalbi va ongini egallash maqsadi turganini ko’ramiz. Demak, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday xurujlarning real xavfini bartaraf etishda bor kuch va imkoniyatlarimizni ishga solishimiz shart. SHu boisdan ham bugun har bir yurtdoshimiz o’zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug’ ajdodlarimiz merosini chuqurroq o’zlashtirishi, bugungi shiddat bilan o’zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrashi va diyorimizdag‘i barcha o’zgarishlarga daxldorlik tuyg’usi bilan yashashi zarurdir.

“Avvalo, inson omili o’zi nima, deb so’rassa, men kishilik tarixida, jumladan, Vatanimiz tarixida barcha moddiy, madaniy boyliklarning bunyodkori, taraqqiyotning etakchi kuchi sifatida namoyon bo’ladigan insonning, xalqimizning kuch-qudrati, aql-zakovati, bilim va tajribasi, salohiyatiga alohida e’tibor qaratgan bo’lardim. Haqiqatan ham, tarixda xalqning, Vatanning istiqboli, iqobi qanday bo’lishi haqida chuqur o’ylab, bu masalaning turli tomonlarini o’ziga tasavvur

<sup>1</sup> Falsafa asoslari.- T.: “O’zbekiston”, 2005.- 170-bet.

<sup>2</sup> Falsafa. Entsiklopedik lug’at. -T.: “O’zbekiston Milliy entsiklopediyasi”, 2010.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yüksak ma’naviyat – engilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat”, 2008.- 65-bet.

qilib, to'g'ri qaror qabul qilishda, avvalambor, inson hal qiluvchi kuch bo'lgan. Bu fikrning zamrida juda chuqur ma'no bor", - deb ta'kidlagan edi I.Karimov.

Darhaqiqat, insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'mi falsafiy muammolar tizimida ham muhim o'rinn tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. SHunday bo'lishi ham tabiiy edi. CHunki, inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq angalshga, insoniy mohiyatni ro'yobga chiqarishga intilaveradi. Zero, buyuk mutafakkir Suqrotning "O'zligingni bil" degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etaveradi.

**2-masala.** Inson mavjud ekan, uning shaxsiy manfaatlari ham albatta, mavjud bo'ladi. Har bir inson jamiyatdagi boshqa odamlar bilan birga umumiy manfaatlarga egadir va ayni zamonda uning o'ta shaxsiy, faqat o'zigagina xos bo'lgan talab istaklari, qiziqishlari ham bo'ladi. Insonning qiziqishlari, talab va ehtiyojlari, shaxsiy manfaatlarni zaruriy ravishda e'tiborga olmasdan ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'rmasdan turib, odamlarning kuch-qudrati va imkoniyatlaridan unumli, oqilona foydalananib bo'lmaydi.

**Erkinlik** – insonning intelektual-ma'naviy kamolotga erishuvining zarur sharti, anglanganligidir. Erkinlik tufayligina inson yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy mas'uliyat va insoniy burchini to'la his etadi<sup>1</sup>. Inson va uning manfaatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida yoshlarmizda quyidagi fazilatlar shakllantirib borilishi muxim ahamiyat kasb etadi: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o'ziga xoslikni rivojlanitarish, mustaqil bo'lish, o'z hohishlarini idora qila olish, ehtirom tuyg'usiga egalik; 2) oila boshlig'iga xos sifatlar: o'z uyini mehrmuhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: kasbiga mehr qo'yish, sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, ijodkorlik, milliy qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlari: Vatanga sodiq bo'lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faoliik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo'lish.

Inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo'lishida tabiat, madaniyat, ijtimoiy hayot, siyosat, iqtisodiyot, tsivilizatsiya, bilih asosiy o'rinn tutadi. Inson murakkab va ko'p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanganadi. "Echki, quyon, bo'ri shunday hayot kechirishadiki, ular qorinlarini to'yg'azishi, urchishlari, oilalarini boqishlari kerak. Ularning shunday qilayotganlarini ko'rsam, men qat'yan ishonamanki, ular baxtiyor va ularning hayoti oqilona. Xo'sh, inson nima qilmog'i kerak? U ham xuddi jonivorlar qilgan ishlami qilib hayot kechirmog'i kerak, faqat farq shundaki, bu ishlarni inson yolg'iz o'zi qilsa, u muqarrar tarzda halok bo'ladi, u faqat o'zi uchun emas, hamma uchun qilmog'i zarur. U hamma uchun bu ishlarni qilayotganini ko'rsam, men qat'yan ishonamanki, u baxtiyor va uning hayoti oqilona", - deb yozgan edi Lev Tolstoy.

<sup>1</sup> Falsafa asoslari.- T: "O'zbekiston", 2005.- 279-bet.

Darhaqiqat, insonning hayvondan farqlanadigan jihatni uning ongida, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, inson o'zining ma'naviy olami va manfaati bilan ajralib turadi. Dunyoning hayoti kimningdir irodasi bilan sodir bo'ladi — mana shu dunyoning hayoti va bizning hayotimiz orqali kimirid o'zining allaqanday ishini ro'yobga chiqaradi. Bu iordaning ma'nosini anglashga umidvor bo'lmoq uchun dastavval zimmadagi yumushlarni bajarmoq kerak, ya'ni, jamiyat bizdan istayotgan ishlarini qilmog'imiz kerak, shundagina inson erkinligi va manfaatlarining ustuvorligi jamiyatda o'z ifodasini topadi.

Inson omilining yuzaga chiqishida uning erkinligi va manfaatlari katta rol o'ynaydi. CHunki, inson hayotga, yon-atrofida bo'layotgan voqealarga befarq bo'la olmaydi. U faqat boylik orttirish uchun yasharnaydi, odamlarning tashvishi, dardiga sherik bo'ladi, ular uchun kuyinadi. Tom ma'nodagi inson omili mana shunday onlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'naviyati yuksak, ma'naviyati boy odam o'zligi, haqiqiy qiyofasi mana shunday onlarda ko'zga tashlanadi. Inson erkinligi, huquqi va manfaatlarining ustuvorligi, uning chinakam inson ekanini bildiradi. Zero, ma'naviyat, odob-axloq, ibratli qadriyatlar, olijanob fazilatlar ilk bor oilada, keyin jamiyatda shakllanadi. Muqaddas kitoblarda uqtirilganki, ma'naviy poklik avvalo ona suti orqali farzandga o'tadi.

SHarq mutafakkirlari, jumladan, Abu Nasr Forobiy qarashlarida ham inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi. YA'ni, insonning barcha olijanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni — baxtli bo'lish va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatdi. Beruniy va Ibn Sino esa insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligi g'oyasini ilgari surganlar. Abu Homid G'azzoliy qarashlariga ko'ra, insonning ustunligi uning aqlida emas, balki, qalbida ekanligini ko'rsatadi. Aql imkoniyatlari cheklangan tasavvuf ta'limotida komil inson asosiy g'oyalardan biri edi. Bu komillik, asosan, ma'naviy barkamollik, ruhiy yuksalish, jismoniy orzu-istiklarni idora qila bilishda namoyon bo'lishini uqtirganlar.

SHarq falsafasida inson to'g'risidagi qarashlar islom dini g'oyalari, sharqona tafakkur va turmush-tarzi bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan edi. Zero, SHarq mutafakkirlari insonga, inson omiliga umumfalsifiy muammolaming bir qismi sifatida qarardilar.

Bundan farqli o'laroq, G'arb falsafasida insonga, asosan, biologik mavjudot, tabiatdagi evolyutsion o'zgarishlarning mahsuli deb qaraldi. CHunonchi, rus tabiatshunosi V.A.Vernadskiyning ta'limotiga ko'ra, inson aqli buyuk geologik omil sifatida tabiatdagi taraqqiyotni tezlashtirgan, butun hayotning taqdidi insonning aql-zakovati va axloqiga bog'liqidir.

E.Fromimga ko'ra, *inson soj va saminiy muhabbatni butun er yuzi xalqlari o'rtasida tinchlik, totuvlik, hamkorlik munosabatlarni qaror toptirishning muhim omilidir*. Nitsshega ko'ra, *falsafaning markazi insondir*. Inson nurga intilib yashaydi. Bu erda nur erkinlik timsoli sifatida kelayapti.

Bugun yurtimizda yashayotgan har bir odam mamlakatimizda olib borilayotgan va ko'zda tutilayotgan barcha islohotlar, aynan uning manfaatlari, uning oilasi va farzandlari uchun, mana shu yurtning farovonligi va taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotganini aniq-ravshan anglab etishi nihoyatda muhim ahamiyat kast etadi. Buning uchun jamiyatimizning har bir a'zosi o'z ustida ishlashi, huquqiy madaniyat, huquqiy ongini yuksaltirishi, kerak bo'lsa, siyosiy faollik va fuqarolik mas'uliyatini oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalardan biridir. CHunki, ongi, tafakkuri e'tiqodi mustahkam bo'lgan, o'zining mustaqil fikri bilan yashayotgan odamni chalg'itib ham, kimlardir xohlagan tomonga og'dirib ham bo'lmaydi. Bu erda shuni ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari tomonidan o'rta ga tashlangan "yangi uy qurmay turib, eksisini buzmang" va "islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun", degan qoida va tamoyillar o'zining o'tkir ahamiyati va dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi. Zero, mazkur g'oyalarda inson erkinligi va uning manfaatlari qisqa va lo'nda ifodalab berilgan.

O'tgan davr mobaynida yurtimiz erishgan marralar, natijalar, ya'ni, yalpi ichki mahsulotning hajmining, aholi real ish haqi va daromadlarining yuksak o'sish sur'atlari iqtisodiyotimizdag'i tub tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishdagi o'zlashtirilgan mutlaqo yangi, raqobatbardosh mahsulotlarning jahon bozoriga olib chiqilayotgani, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoyalash sohalaridagi qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarning barchasi inson uchun, uning manfaatlari uchun xizmat etishi shubhasiz.

Inson erkinligi, uning manfaatlari haqida so'z yuritganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, baribir ma'naviy boylik moddiy boylikdan ustuvor bo'lib, hamma zamonlarda ham inson omilining asosiy mezoni bo'lib qolaveradi. Inson erkinligi va manfaatlarining ustuvorligi haqida gap ketganda, yana shuni ham ta'kidlash kerakki, individ va ijtimoiy guruuhlar faoliyatining asosiy sabablaridan biri – bu manfat masalasidir. Biz yaxshi bilamizki, manfaat faoliyatni keltirib chivaradi va uning yo'nalishlarini, vositalarini, shakllarini va maqsadini ham belgilab beradi. Manfaat shaxs va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etishini buyuk faylasuflar – Demokrit, Platon, Aristote kabi mutafakkirlar e'tirof etishgan. CHunonchi, bu haqda SHarqning ulug' mutafakkirlari – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino singari faylasuflar siyosat, axloq va huquq negizida ham manfaat yotishini ta'kidlaganlar. Xo'sh, manfaatga qanday ilmiy ta'rif berilgan?

**Manfaat** – individ va ijtimoiy guruuhlar faoliyatining asosiy sababi<sup>1</sup>.

Har qanday davlatning buyukligi, kuchu qudrati, shonu shavkat, avvalo, uning xalqi, shu xalq orasidagi fidoyiyu jonkuyar, elparvaru yurtparvar, donishu oqil farzandlari bilan belgilanadi. Inson omilining eng yuksak ko'rinishiga bir misol – buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning ilmiy tafakkuri shu darajada keng ko'lamli va teranki, uning asarlarini ilm ummonidagi dengizga qiyoslasa bo'ladi.

<sup>1</sup> Falsafa. Entsiklopedik lug'at.-T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2010.- 174-bet.

Ul zot o'zining "Osor ul-boqiya" – "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini 27 yoshida yozgan. YOsh olim bundan boshqa asar yaratmaganida ham jahon tarixi zarvaraqlarida yirik qomusiy olim sifatida oltin harflar bilan abadiyga yozilib qolur edi. CHunki, mazkur asar chindan-da, tarixiy o'tmishimizga, ajdodlarimiz tarixiga, umuman, davlatchilik, xususan, milliy davlatchiligidan tarixiga doir har tomonlama keng qamrovli, teran va mantiqan asoslangan fikr-mushohadalarga juda boy muhim va nodir manbalardan biridir.

CHunonchi, insонning tarixdagи roli va o'mи haqida so'z yuritganda, ko'z oldimizda buyuk bobomiz Amir Temur siyосosi gavdalaniди. Zero, ul zot amalga oshirgan ishlar, u davlatchilik bo'ladimi, u armiya qurilishi yoki yuzlab xalqlarning taqdirdagi ulug' o'zgarishlar yasagan yurishlari bo'ladimi, bularning barchasining ijodkori shubhasiz insон ekanini ta'kidlash shart. Bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaraganda ham O'zbekiston davlatining qurilishi, uning jahon hamjamiyatida tutgan mavqeining nechog'liq mustahkamlanishida I.Karimovning roli beqiyos ekanini doimo esda tutishimiz zarurdir. Bularning barchasi insон omiliga bog'liq bo'lган buyuk jarayonlardir.

Epikur insон haqida, insон omili haqida so'z yuritar ekan, jurnladan shunday yozadi: "donolik yoshu qariga birdek yarashadi. Donishmandlikni izlashda yoshning ahamiyati yo'q. Axir, ko'ngilni sog'lom tutishning erta-kechi bo'lmaydi-ku! Hayotni o'rganish, falsafani anglashning vaqtı hali etib kelmadi yoki o'tib ketdi, deyish baxtiyorlikni boy berish yo uni kechiktirish bilan barobar. SHu sababli, yoshu qari donishmandlikni izlamog'i darkor. YOsh bo'la turib ham dono bo'lish mumkin. Biz shuurimizga baxtiyorlik olib keladigan ish bilan mashg'ul bo'lib, xotirjarnlikka erishamiz". Darhaqiqat, Insонning o'zini o'rab turgan dunyo haqida bilganlari, aslida, dengizdan tomchi. Lekin ilmda ham ilm bor. Olimki, olam mavjudligi va harakatlanishi qonuniyatlarini bilsa va bilganlarini odamiyod turmushiga ozmi-ko'pmi tatbiq etsa, demak, uning bilimi har doim, har qaerda asqotadi, ardoqlanadi. Hazrat Rumiy aytganidek, insон o'zidan, ya'ni,kim, insondan, uning mohiyatidan uzoq, hayotga aloqasi bo'lmagan "ilm" bilan shug'ullansa, uning umri suvg'a oqizilgan, zoe ketgan hisoblanadi. Dunyobexabarlik alal-oqibatda insонни ham, millatni ham boshi berk ko'chaga olib kiradi. Dunyobexabarlik esa, ana o'sha ko'chaning, avvalo, keng va ravon, qolaversa, hamisha, harvaqt ochiq, serqatnov bo'lishini ta'min etadi. Agar bunga yana nekbin ruh, kelajakka, hayotga ishtiyoq hissi qo'shilsa, nur ustiga nur.

**3-masala.** Lug'atlarda "komil" so'zi – to'liq, etuk, mukammal ma'nolarini, "barkamol" esa etuklikka erishgan, mukammal, kamol topgan, bekamu-ko'st ma'nolarini berishi aytildi.

Komil insон g'oyasi asrlar davomida xalqlar, dinlarda, ertak va afsonalarda, dostonlarda, milliy qadriyatlarda, rivoyatu hikoyatlarda qayta-qayta turli obrazlarda o'z aksini topib kelayapti. Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Motrudiy, Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy asarlarida, milliy tarbiyamizda bosh g'oya bo'lib keldi. Me'moriy obidalarning peshtoqlaridagi yozuvlarda, haykal, devoriy suratlarda ham ajdodlarimizning g'oyalari bitilgan.

“Komil inson” g’oyasining turli shakl va tasvirlari bisyor. SHu bois ham qadim Turon zaminini – dunyoga komil inson g’oyasini bergan ma’naviy tsivilizatsiya markazlaridan biri, desa bo’ladi. Bu haqiqat milliy tarbiyamizning tub negizlaridan kelayotir. Bunga er ustidagi obidalar ham, er ostidagi arxeologik dalillar ham guvohlik bermoqda. Ularda bobolarimizning barmoq izlari – muhrlari qolgan. Ma’naviy mero simizdagi komil inson kiyofasi – komillikka intilish tuyg’usini uygotadi. Insondagi barkamollik mezonlari u yoki bu tarixiy shaxs, buyuk allomalar, mutsakkirlar faoliyatini, ularning aqliy, axloqiy jihatlarini bilish orqali o’rganuvchining dunyokarashi, ongida yaxlit holda o’z aksini topadi. Bunday mezonlar ilmiy-amaliy ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi.

O’zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida komil insonlariga xos bo’lgan, inson omili yaqqol ko’zga tashlanadigan 200 dan ortiq fazilatlar bayon qilingan.

- yuksak salohiyatlari, ma’naviy uyg’oq, or-nomusli, uyat va andishali, sharmu hayoli, iboli va iffatlari, sobitqadam, shijoatli, diniy qadriyatlarini biluvchi, savob ishlarni ko’p qiladigan, tariximiz, madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur biluvchi, Vataniga sodiq, milliy g’ururlu, yuksak ma’naviyatlari, yangicha fikrlovchi, Amir Temur bobomizning shijoat, azmu qaror va o’ktamligiga ega, fidoyi, yuksak huquqiy madaniyatli, jahon tarixi va madaniyatni yutuqlarini chuqur o’rgangan, mard, tashabbuskor, el-yurt tashvishini zimmasiga oladigan, daxldor, iymonli-e’tiqodli, o’z haq-huquqini bilib, himoya qila oluvchi, mustaqilligimizni ko’z qorachig’iday himoyalovchi, saxiy, o’z mustaqil fikriga ega, mehr-oqibatlari, g’oyaviy va mafkuraviy ta’sirlarga qarshi tura oladigan, o’tganlarni xotirlab, tiriklarni qadrlovchi, mustaqillik yillarda erishgan yutuqlarimizni davom ettirishga qodir, bilimli va iste’dodli, mehnatsevar, tadbirdor va yangilikni tez ilg’aydigan, g’ayrat-shijoatli, irodali, qat’iyatli, sabot-matonatli, jasur, faol, zamonaivy, yuksak texnologiyalarni o’zlashtirgan, sog’lom turmush tarziga intiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topgan, ogoh, hushyor, munosib daromad topuvchi, yuqqori malakali, mas’uliyatlari, etuk mutaxassis.

Bugun yurtdoshlarimizda yon-atrofda, umuman dunyoda bo’layotgan barcha o’zgarishlarga daxldorlik hissi, ijtimoiy va fuqarolik faolligi o’sib borayapti. Dunyoning qay burchagida nima bo’lmasin, unga nisbatan xalqimizning o’z qarashi va munosabati mavjud. Zero, kechagi tarixni bilish, undan to’g’ri xulosha chiqarish, Vatan taqdiriga, xalqimiz tarixiga daxldor bo’lish, bugun hayotga ilk qadam qo’yayotgan yoshlarni ongiga o’tganlar xotirasi nechog’liq aziz va muqaddas ekanini singdirish va eng muhim, ajdodlardan ibrat olib yashash ruhida ularni voyaga etkazish g’oyat muhim ahamiyatga egadir. Mana shu muqaddas tuproq – meniki, bu tabarruk zaminda ota-bobolarimning xoki poklari yotibdi, agar shu musaffo osmon, mana shu yorug’ hayot uchun, ona Vatanim uchun men kurashmasam, men jonirmi fido qilmasam, kim kurashadi, deb yashaydigan o’g’il-qizlarimni ko’rsam, ular haqida eshitsam, menda xuddiki qanot paydo bo’lgandek bo’ladi. Nega deganda, ayni shu xususiyat va fazilatlarini men inson omili deb bilaman. Agarki, inson shunday fikrlasa, shunday e’tiqod bilan yashasa, aytinlar

bunday odamni sindirib, yo'lidan qaytarib bo'ladimi? Meni eshitganfar o'ziga shu savolni berib, yana o'ziga o'zi javob bersin. O'yaymanki, barchasining javobi ijobjiy bo'ladi. Bunday xalqni to'xtatib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi YUrtboshimiz.

Inson falsafasiga ko'ra, Komil inson kim? U qanday bo'lishi kerak? Juhonning eng rivojlangan davlatlari yuksalish arafasida bu savolga tez-tez murojaat qilganini ko'rsatadi. Javob topib, yoshlarni ertangi kunning yuksak talablariga puxta tayyorlab kirib borishgan. CHunki, bu raqobatli dunyoda ertanig talablari yangicha, murakkab, qiyinroq bo'lgan.

O'zbekiston bilan hamkorlik yo'lini tutishga intilayotgan davlatlar soni yildan yilga ortib bormoqda. SHulardan biri – Koreyada yuksalish arafasida "tabiiy resurslar cheklangan, ijodga esa chegara yo'q" degan shior ko'tarilgan ekan. Bu – yuksak intellekt inson fazilatlarining gultojiga aylantirishni anglatar edi. Bu mamlakat shunga amal qildi va tom ma'noda "Osiyo yo'lbarsi"ga aylandi. Bularning zamrida ham inson omili yotibdi.

Inson omiliga amaliy, pragmatik yondashgan davlatlar tezda nazariy qoidalardan bugungi va ertangi kun uchun "foydalar" chiqarib oldi. Eksperimental pedagogika rivojlandi. Tarbiyaning nazariy tushunchalarini ko'rindigan narsalarga – obrazlarga, o'ta zamonaviy texnologiyalarga aylantirishdi. Hal qiluvchi kuchni oshirib olib, boshqalardan o'tib ketishdi. O'sha sinalgan fazilatlar yangilari bilan boyitilib, shakllantirilmoqda.

Bugun biz o'sib kelayotgan yoshlarmizning etuk shaxsiga xos fazilatlar sifatida rostgo'ylik, maqsadda sobitqadamlik, to'g'rilik, puxtalik va shaxsiy mas'uliyatga ustuvorlikka katta ahamiyat bermoqdamiz. Eng muhimi, yoshlarmizda Prezidentimiz uqtirganidek, jasurlik, fidoyilik, barqarorlik, qat'iylik, tirishqoqlik, hamandardlik, bag'rikenglik singari 50 dan ortiq asosiy fazilatlar shakllantirilmoqda. Aynan mana shu fazilatlar inson omilining mahsuli hisoblanadi. Zero, yoshlarda haqiqatparvarlik, boshqalarga hurmat, jamiyat oldida burchga sodiqlik, odamlarga g'amxo'rlik, madaniy merosiga hurmatni shakllantirish, demokratik erkin jamiyat fuqarolari bo'lish, bag'rikenglik fazilatlarini singdirish, axloqan va ma'nani kuchli shaxslar qilib etishtirish vazifalari yuklanmoqda. SHuning uchun mas'uliyatli, g'ururli, o'zgalarni hurmat qiluvchi, boshqalar bilan hamkorlikka tayyor, turli vayronkor g'oyalarga qarshi turuvchi, o'z yurtiga sadoqat va muhabbat ruhidagi tarbiyalash g'oyalari bilan uyg'un rivojlantirilgan demokratik jamiyat kishisi fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Tinchlik va insoniylik ideallariga amal qiluvchi millatni shakllantirish, ya'ni, shaxs sifatlarini to'liq rivojlantirish; tinchlikparvar davlat va jamiyat quruvchilarini tarbiyalash, haqiqatparvarlik va adolatlilik; shaxsiy erkinlik; mehnatsevarlik; mas'uliyatlichkeit; mustaqil fikrlilik; o'zgalar bilan hamkorlik, mustaqil fikrga egalik; an'anaviylik bilan zamonaviylikni anglash; xalqaro hamkorlikka tayyorlik; kundalik turmush malakalariga egalik; ruhan va jismonan kuchlilik; o'zini baxtli va boshqalar bilan uyg'un qila olish fazilatları shakllantirilmoqda. Bularning barchasida inson omili va uning manfaatlari mujassam.

4-masala. Ikki daryo oralig'ida joylashgan muqaddas zamin – O'zbekistonning tinch-osoyishta, obod va farovon turmush kechirishida, kerak bo'lса jahonga ochiq yuz bilan boqishida ijodkor va buniyodkor xalqimizning yutuqlari ko'z oldimizga keladi. Biz yaxshi bilamizki, hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi mezoni bu erda yashayotgan xalqning salomatligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning saviyasi bilan belgilangan. Ta'kidlash zarurki, bugun yurtimiz mazkur sohalarda dunyoda etakchi o'rnlarga chiqmoqda. O'zbekiston bu yutuqlarga nimaning hisobidan erishayapti, degan savol atrofida yangidan-yangi fikrlar bildirilayapti, bir qator tadqiqotlar olib borilayapti. Jahan tajribasidan ma'lumki, jamiyatdagi har bir yangilik, o'zgarishga siyosatchilar, tahlilchilar o'z fikrlarini, qarashlarini, munosabatlarini bildiradi, xulosalarini chiqaradi. Islom Karimov ushbu yutuqlarning asosiy mezoni – inson ornilida ekanini uqtirardi.

Darhaqiqat, jamiyatimiz o'zgarayapti, hayotimiz o'zgarayapti. Bu o'zgarishlar shunday shiddat bilan kechayaptiki, odamlar ongidagi va qalbidagi na'naviy o'zgarishlar, albatta, ijobiydir. Yurtimiz istiqolga erishganiga 25 yil so'idi. Xalqimizning dunyoqarashi 1990 yillardan boshlab keskin farq qiladi. Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, "Bunday xalqni, o'ziga, o'z kuchiga ishonib, qat'iyat bilan oldinga borayotgan, ertangi kunini o'ziga yaqqol tasavvur etib, yangi-yangi marralarmi egallash sari katta azmu shijoat bilan harakat qilayotgan xalqni hech qachon o'z yo'lidan qaytarib bo'lmaydi. Bunday xalq o'z maqsad-muddaolariga albatta etadi".

Olimlarning aniqlashicha, hozirgi SHO'rchi tumanida qadimiy Kushon imperiyasining poytaxti bo'lganligi aytildi. Tadqiqotchi, Dalvarzin-tepada 1972 yil 25 sentyabr kuni arxeologlar salkam 36 kilo oltin javohir to'ldirilgan ko'za topilganini va Moskvaga olib ketilganini yozgan. E'tiborimizni oltindan qimmatroq bir tasviriy hujjat o'ziga tortdi. Bu - ibodatxona devoriga bundan 2000 yil oldin chizilgan surat edi. Unda 3 yoshli go'dak, 12 yoshli o'smir va ularning o'tasida turgan murabbiy tasvirlangan. Murabbiy go'dakni qo'ltig'idan ko'tarib, elkasiga o'tqazgan. Go'dak oq kiyimda. Uning tirsaklari uchishga chog'langan sur'ut qanoqlarini eslatadi. Murabbiyning ko'zlarini ishonch, qat'iyatga to'la. Oldinga, yuqorida tikilgan. Murabbiyning o'ng tomonida guldor do'ppi(!) kiyigan o'smir bola. Go'dakning ham, o'smirning ham nigohi ustoz tikilgan nuqtada. Oldinda, yuqorida. Surat I asr arafasida chizilgan. Kushon imperiyasi eramizning I-III asrlarida (demak, surat chizilgan davrdan keyin) gullab yashnagan.

O'zingizga ma'lum, ibodatxona, saroy, madrasalar devorlariga bo'larbo'lmas suratlar chizilavermaydi. Chizilganlarida esa davlatni, xalqni birlashtiruvchi, safarbar qiluvchi ustuvor g'oyalar tasvirlanadi. Demak, surat o'sha davming bir ustuvor g'oyasini ifodalayotir. Uch avlodni uning atrofida birlashtirayotir. Vaqt evrildi - 1000 yil o'tdi. SHarqda dunyosida Renessans ro'y berdi. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy "... biz etisholmagan narsalarga ularni (yosh avlodni) etishtirsak, degan umiddamiz", - deb yozdi.

Zamonlar o'tdi. Biz bugun yana o'zimizning mustaqil davlatimizga egamiz. YOsh avlod bizzdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart, degan g'oya bugun amalda. Aynan mana shu g'oya bugun xalqimizning ongi va tafakkuridagi ma'naviy o'zgarishlarni ifodalaydi.

YUksak texnologiyalar global rivojlanayotgan XXI intellektual boylik etakchilik qiladi. SHuning uchun bugun o'sib kelayotgan yosh avlodga O'zbekiston qo'yayotgan talablar bir tomonidan yuksak rivojlangan davlatlar bilan hamohang ekanligi, ikkinchi tomonidan, ma'naviyat, intellekt ustuvorligi bilan ajralib turadi. YA'ni, farzandlarimiz ongi va tafakkuri kuchli, zamon talablariga mos tayyorlik, yuksak ma'naviyat, axloqiy sog'lomlik, jismoniy chiniqqanlik, mustaqillik g'oyalariga cheksiz sadoqat, Vatani va xalqiga sodiq, milliy o'zligimizga yot g'oya, qarashlarga murosasizlikni mujassam etishni taqozo etmoqda. Bu fazilatlarning birortasi sust bo'lsa, uyg'unlik buziladi. "Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongi yashaydigan kornil insonlar etib voyaga etkazish — ta'lif-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim", - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov.

Xulosa o'mida shuni aytish kerakki, yurtimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahondagi obro'-e'tibori birinchi navbatda, yosh avlodning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib, hayotga kirib borishiga bog'liq. Bunday o'tkir haqiqatni hamisha yodda tutishimiz va shunga mos ravishda ish yuritishimiz shart.

Dunyoda hech bir millat yoki xalq yo'qdirki, uning birlashtiruvchi, umumlashtiruvchi g'oyasi va mafkurasi bo'limasa. Biz buning isbotini uzoq o'tmishdan boshlab hozirgi kungacha ko'rishimiz mumkin. Har bir millat, xalqning o'ziga muvofig keladigan, millatning manfaatlarini o'zida aks ettiradigan va umumlashtiradigan biron bir g'oyasi yoki mafkurasi bo'lishi muqarrar, chunki odamlar o'z hayoti davomida nimagadir ishonishi, suyanishi kerak.

**Mafkura** – arabcha "nuqtai nazarlar" va "e'tiqodlar tizimi" ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, u – jamiyatdag'i muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar tizimini ifoda etadi.

Mafkura ijtimoiy borliqning, ya'ni keng ma'noda jamiyat hayotining **ma'naviy-siyosiy in'ikosidir**, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglashib, bir butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning arning faoliyatida nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

Odatda har bir davlat, jamiyat o'zi bajarayotgan tarixiy vazifani asoslovchi va barcha ijtimoiy sinflar, tabaqalar, millatlar, elatlar va diniy e'tiqodlar vakillarini shu vazifa atrofida birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi umummafkuraga ega. SHu bilan bir qatorda, umum davlat mafkurasi talablari va qoidalari doirasida jamiyatdag'i, mamlakatdag'i ijtimoiy sinflar, tabaqalar, millatlar va elatlar, diniy e'tiqod vakillari o'z mafkulalarini ishlab chiqishlari mumkin va zarur. CHunki bunday ish umum davlat, umum milliy mafkurani yanada yangilashtirishga, boyitishga xizmat qiladi, uning har bir fuqaroga etib borishini ta'minlaydi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvি butun tarixiy taraqqiyot natijalaridan kelib chiqqan ob'ektiv va qonuniy jarayon bo'ldi. Mustaqillikni qo'lga kiritish tufayli mamlakatimiz butun ishlab chiqarish va ilrniy-tehnika imkoniyatlardan, tabiyi xom ashyo mahsulotlaridan o'z manfaatlari, maqsadlari yo'lida foydalarish, ularga to'liq egalik qilish, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy qadriyatlarni va butun tariximizni tiklash, yanada rivojlanishiring hamda umumxalq mulkiga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatga teng huquqli sub'ekt sifatida kirib borishi davlat rivojlanishining aniq yo'naliishini belgilashga, ichki va tashqi siyosat tamoyillarini ishlab chiqishga ko'p jihatdan bog'liq. Bu jarayonning kechishi tabiy bo'lishi hamda bizning milliy an'analarimizga zid kelmasligi lozim.

Davlatimiz o'zi uchun ma'qul deb topgan yo'li, o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot modeli, sobiq siyosiy tuzumni rekonstruktsiyalash yoki yangi davrga moslashtirishdan mutlaqo farq qiladi. Endilikda masala sobiq ijtimoiy-siyosiy tizimdan butunlay voz kechish, sifat hamda printsipial jihatdan yangi bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni shakllanirishdan iborat bo'lishi lozim. Bunday amaliy qadamlardan bittasi bir yoqlama, yagona partiyaviy dogmatizm, kommunistik mafkuradan to'liq xalos bo'lisch va milliy istiqlol mafkurasini yaratishdir.

Ko'p yillar mobaynida mafkura jamiyat ustqurmasining muayyan qismi bo'lib, iqtisodiy bazis asosida shakllansa-da, undan birmuncha mustaqil va ijtimoiy borliqning ijtimoiy ongdagi in'ikosi, deb hisoblangan. Ammo tarixiy jarayon mafkuraning ham bunyodkor, ham vayronkor kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkinligini isbotlaydi. Buning bir necha sabablari bor, albatta.

Sobiq Ittifoq davrida sotsializmga o'tgan qator mamlakatlarda tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi markscha ta'limot ob'ektiv reallikni aks ettirishdagi yagona to'g'ri g'oya vazifasini o'tagan. Marksizm olamning turli-tumanligini e'tirof qilgan bo'lsa-da, jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti haqidagi boshqa kontseptsiya va qarashlarni butunlay rad etgan. SHuning uchun ham dogmatik sotsialistik g'oyalari jahondagi boshqa davlatlarning g'oyalari va qarashlariga doimiy ravishda zid bo'lib kelgan hamda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgandi. Mazkur g'oya o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga moslasha olmaganligi tufayli so'nishga majbur bo'ldi. Nazarimizda, bunga ma'lum ma'noda quyidagilar ham sababchi bo'ldi:

- aksariyat mehnatkash xalq ommasi uchun jozibador bo'lib ko'ringan "tenglik", "birlik", "xalqaro do'stlik" kabi shiorlar lozung darajasida qolib ketganligi. Aslida, porloq kelajak haqidagi turli ko'rinishdagi maftunkor ta'limotlar, qarashlar targ'ibot-tashviqot darajasidan chiqib keta olmasdi va ular hech qachon amaliyotda o'z ifodasini topolmasdi harn;

- kommunistik mafkura butun xalq ommasini ma'lum bir qolipda ushlab turganligi, odamlarning o'z imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyish etishi uchun kerakli imkoniyatlardan yaratib berolmaganligi;

- kommunistik g'oyaning o'zi bikikligida qolib ketganligi, uning jahon madaniyati, umuminsoniy qadriyatlardan yiroqlashgani, aholining axborot olishga

doir tabiiy intilish va manfaatlарining cheklab qо'ylganligi. Mavjud g'oyaga qarshi bo'lgan va unga to'g'ri kelmaydigan har qanday qarashning zararli deb e'lon qilinganligi;

- hukmronlik vazifasini o'tagan mazkur g'oya jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy o'zgarishlariga mos keladigan faol kuchga aylana olmaganligi.

Uzoq tarixiy davr mobaynida o'lkamizda ochiq e'tirof etilgan kommunistik g'oya bilan bir qatorda pinxona, yashirinch, ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan "milliy mafkura" ham yashab kelgan. Bu mafkura islam ta'llimotining insonparvar va adolatli g'oyalarida o'z ifodasini topgandi. Mahalliy aholining aksariyat qismi islam g'oyalarini muqaddas deb hisoblardi. Ular uchun bu ta'llimot o'z hayoti, tafakkuri va yashash tarzini belgilab beruvchi omil edi. Nazarimizda, aynan shu tufayli sobiq Ittifoqning barham topishi, u bilan birga jamiyat mafkuraviy ustqurmasining vayron bo'lishi, bizning jamiyatimizda sezilarli ma'naviy va ijtimoiy talofsatsiz o'tgan.

Bugungi kunda jamiyatshunos olimlar, siyosatchilar manlikatimizning o'tgan yo'lini qayta ko'rib chiqish, uni inqirozga yuz tutishiga olib borgan omillar, hozirgi kunda ayrim yoshlarimizning madaniyati va saviyasi tushib ketayotganligining sabablarini aniqlash ustida bosh qotirmoqdalar. Albatta, mazkur jarayonlarni faqat sotsialistik mafkuraga bog'lash ham noto'g'ridir, chunki u ijtimoiy hayotning turli jabhalarida insonga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ham o'tkazgandi.

Hozirgi kunda jamiyatni mafkuradan butunlay xolis etish haqida gap ketayotgani yo'q. Zamonaviy falsafiy adabiyotda mafkura, uning jamiyatda tutgan o'mi, davlat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida turli-tuman, ba'zan bir-biriga butunlay zid keladigan fikrlar ham mavjud. Asrimizning 60- yillarda davlatlarni mafkuradan xalos etishga asoslangan nazariyalar oqimi vujudga kelgandi. Unga ko'ra, davlat har qanday davlat mafkurasidan butunlay xoli bo'lishi kerak emish. SHuningdek, davlat taraqqiyoti va kelajagi uchun mafkura suvdek va havodek zarur, deb hisoblaydigan nazariyalar ham keng tarqalgandi<sup>1</sup>.

Tarixdan ma'lumki, hech qanday davlat va jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi. O'zbekiston ham bundan istisno emas. O'lkamizda bu jarayonlar o'ziga xos tarzda amalga oshirilmoqda. Bugun biz sobiq Ittifoqda yo'l qо'ylgan kamchiliklarni birin-ketin bartaraf etishimiz muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo, har qanday g'oya, mafkuraning yakka xokimligiga barham berishimiz, ularning jamiyatning turli jabhalariga (iqtisod, ishlab chiqarish, huquq va qonunchilik) to'g'ridan-to'g'ri, o'rinsiz kirib borishiga yo'l qо'ymaslik muhim vazifalardan biridir.

Sotsialistik mafkura ishchi sinfining mafkurasi, deb e'lon qilingan bo'lsa-da, u mazkur sinfining dunyoqarashiga aylana olmadi va partiya, davlat apparatiga

<sup>1</sup> Tulenova G. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariysi va amaliyoti" kursidan ma'ruzalar matni.- T.: TATU. 2014

xizmat qiladigan, ta'sirchan vosita vazifasini o'tadi, xolos. Mamlakatimizda deideologizatsiya jarayonlarining qiyin kechishini bizning nafaqat davlat boshqaruv mashinasini butunlay o'zgartirishimiz, balki ijtimoiy ongning jamoa tafakkurlash usulidan shaxsiy-individual usuliga o'tish zarurati bilan oqlash mumkin. Aynan ana shu - o'tish jarayoni, eng murakkab va og'ir kechadigan davrdir.

O'zbekiston polietnik davlat bo'lib, uning tarkibida turli millat va elat vakillari istiqomat qiladilar. Ularning manfaatlarini himoya qilish, jamiyatning har bir a'zosini millati, irqi, diniy qarashlaridan qat'i nazar birlashtirish va qudratli davlat qurishga yo'naltirish uchun baribir jipslashtiruvchi va faollashtiruvchi biron bir g'oya bo'lishi kerak. Mazkur g'oya jamiyatning o'zagini tashkil qilib, sinfiylik va partiyaviylikdan to'liq xalos bo'lishi lozim. Jamiyatni, millatni yakdil qiluvchi, uning uzoq kelajagini, istiqbolini aniqlab beruvchi, oldinga qarab harakatlantiruvchi, rag'batlantiruvchi va safarbar etuvchi kuch - bu ilg'or milliy g'oya va mafkuradir<sup>1</sup>.

Bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan boshqasiga o'tish davrida jamiyat hayotining hamma sohalarida, binobarin, g'oyaviy sohada ham bir qator muammolami hal qilishga to'g'ri kelishi tarixiy qonuniyatdir. O'zbekiston o'z suverenitetini qo'lga kiritgach, xalqning manfaatiga va ehtiyojiga javob bermaydigan kommunistik mafkuradan voz kechdi. Ma'lumki, odamning butun umri davomida zo'rlab tiqishtirilgan har qanday g'oya, aqida yoki mafkura qarshilikka uchraydi. Tabiiyki, jamiyatda yangi g'oya, ilg'or fikr, progressiv mafkurani shakllantirish ehtiyoji tug'iladi. Basharti bu zarurat tushunilmasa yoki inkor etilsa, mafkuraviy bo'shilq paydo bo'lib, u muqarrar ravishda xalqqa yot g'oyalari bilan to'ldirilishi mumkin<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda mustaqillikni qo'lga kiritishning boshlang'ich bosqichlarida milliy ongning sezilarli darajada o'sib borishi kuzatilgan. Bu esa islam dinining tiklanishiha va jamiyat doirasida ommaviy mavqega ko'tarilishiha olib keldi. Jamiyat a'zolari muqaddas dinimizning insonparvar, adolatparvar, mehr-muruvvat g'oyalari tiklash va yanada rivojlantirish, ana shu g'oyalari asosida yoshlami tarbiyalashga harakat qildilar. Albatta, sobiq tizimning vayron bo'lishi, mamlakatdagi vaziyatning keskinlashuvi, millatlararo tinchlik va osoyishtalikni saqlash, ziddiyatlar va konflikt vaziyatlarning oldini olish kabi jarayonlar bilan birlgilikda islam aqidalari jamiyatda barqarorlikni saqlash, aholi madaniy darajasining keskin tushib ketishining oldini olishda ham umumlashtiruvchi, ham ma'naviy-axloqiy birlashtiruvchi g'oya vazifasini o'tagan. Islam obro'sining o'sib borishi tufayli u nafaqat sotsialistik mafkurani siqib chiqarishga, balki ijtimoiy ongning noan'anaviy sohalarida ham o'z mavqeini mustahkamlashga erishdi.

<sup>1</sup> Qarang: Achiliev A.S. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar.-T.: "O'zbekiston". 2004.

<sup>2</sup> Qarang: Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. -T.: "Akademika", 2002.

Ammo jarayonlarning bunday kechishi islom dini jamiyatda asosiy g'oya, islom mafkurasi esa jamiyatda monopolistik mavqega ega bo'ldi, degan xulosalarga olib kelmasligi kerak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'n ikkinchi moddasida davlatimizda "ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'matilishi mumkin emas", - deb belgilangan<sup>1</sup>.

Jamiyatimiz rivojlanishi mazkur bosqichining tahlili shuni ko'rsatadi, o'tish jarayonida deideologizatsiya ko'pgina umumnazariy va umumetodologik aqidalarning yo'qolib ketishi hamda yangi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlар tizimining barpo etiishi bilan tavsiflanadi.

Ana shu tufayli *istiqlolga erishganimizdan keyin milliy istiqlol mafkurasini yaratish zarurati yuzaga keldi. Bu zaruriyat quyidagilar bilan belgilanadi:*

- xalq ormmasini davlat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy suverenitetini ta'minlash maqsadiga safarbar etish;

- turli millat, elat, ijtimoiy guruhlar, sinflami davlat manfaatlarini himoya etishga safarbar qilish;

- huquqiy davlat fuqarolik jamiyatni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining strategik yo'nalishlarini belgilab berish;

- milliy qadriyatlar asosida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash kerakligini e'tirof etish.

Hozirgi kunda milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik asosi va manbalari, uning xalqni-xalq, millatni-millat, yurtni-yurt qilishdagi, komil insonlarni tayyorlash va tarbiyalashdagi ahamiyati singari kontseptual masalalar ko'pgina olimlar, faylasuflar tarixchilar tomonidan tahlil qilinib, o'zining ilmiy-nazariy ifodasini topmoqda.

Demak, "g'oya" va "mafcura" tushunchalari bir-biriga yaqin, ammo bir xil ma'noli tushunchalar emas, ularni sinonim sifatida ishlatalish ham noto'g'ri. G'oya – u yoki bu ijtimoiy hodisa, jarayoni ifodalasa, mafcura – g'oyalari tizimini ifodalaydi. **Mafcura** – jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlari o'zida aks ettiruvchi, uning umumiyligi ma'naviy hayat darajasini ifodalovchi g'oyalari tizimidir. U jamiyatdagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, axloqiy qarashlar, kechinmalarda namoyon bo'ladi. Mafcura g'oyalari tizimidan iborat bo'lib, g'oya esa uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mafkuraning ahamiyati shundan iboratki, u jamiyatimizning rivojlanishi, yuqoriga tomon harakat qilishini osonlashtiradi, millatni, barcha fuqarolarni umumiyligi yo'lida birlashtiradi. Milliy mafcura butun O'zbekiston xalqining

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2014.-5-bet.

ruhini, his-tuyg'usini, milliy g'urur va iftixorini, kuch-qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan buyuk g'oyaviy kuchdir.

Mustaqillikning taqdiri, O'zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda, odamlarga, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy etuklik darajasiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olishlariga bevosita bog'liq. Jamiyat taraqqiyotini, mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni masifikasiz tasavvur etish mumkin emas.

Insonning, har bir yoshning faoliyati uning ilg'or masifikuraga qat'iy amal va e'tiqod qilishiga bog'liq. Jamiyat manfaati va milliy istiqlol yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etishga tayyor turgan etuk insonlar, yoshlar, fidoyilar bo'lmasa, O'zbekistonni dunyodagi eng qudratlari, ilg'or davlatga aylantirish mumkin emas. Mustaqil O'zbekistonning eng yaqin hamda uzoq kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ana shu vazifalarni masifikuraviy ishlarni jondantirmsandan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Masfkura kishilarda, har bir yoshda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g'uruming o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, u xalqimiz va millatimizning kuch-qudrati hamda imkoniyatlariga, g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun va yaxlitligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik munosabatlariga qarshi murosasiz kurash olib borishga keng jamoatchilikni da'vat etadi.

Masfkura milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikning kuchayishiga ko'mak beradi. U etuk milliy ong, milliy g'urur, milliy qadriyatlar, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usi zaminida shakllanadigan vatanparvarlikni ham o'z ichiga oladi. YOshlarda ona zaminga bo'lgan muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanni sevish, yuksak darajada e'zozlash tuyg'usi kuchayib borsa, har bir inson o'z Vatani tarixini, milliy qadriyatlarini, o'z xalqining tili, madaniyati, milliy urf-odatlarini mukammal bilsa, milliy manfaatlarini, millat taqdiri va istiqbolini chuqur anglab etgan bo'lsa, jamiyatimiz shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi<sup>1</sup>.

Milliy masfkura respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash, O'zbekistonni kelajakda buyuk davlatga aylantirish, inson haq-huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni, demokratiyani to'la qaror toptirish, millatimiz va mamlakatimiz istiqboli muammolarini hal etishni birinchi o'ringa qo'yish yo'lida aniq maqsadlarga qaratilgan, ilmiy asoslangan xilma-xil bilimlar va xulosalarining muayyan tizimidir.

Milliy masfkura xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi va uni o'zida ifoda etadi. Milliy istiqlol masfkurasi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Ular masfkuramizning tamal toshini tashkil etadi. Milliy, umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy, badiiy, falsafiy, diniy, huquqiy qarashlar va g'oyalar

<sup>1</sup> Tulenova G. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursidan ma'ruzalar matni.- T.: TATU, 2014

mafkuramizning insonparvar mohiyatini yanada to'ldiradi va boyitadi, zaminni mustahkamlaydi, ta'sirchanligini oshiradi, amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Milliy mafkurani yaratishda xalqimizning hozirgi va kelajakdag'i tub manfaatlarini, istiqlolimizning rivojlanish qonunlarini nazarda tutish fan qonunlariga, ilmiy nazariyaga tubdan zid bo'lgan sub'ektivizm va volyuntarizmga qarama-qarshi ish tutish demakdir.

Islom Karimov O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan oq, sobiq totalitar mafkuradan tezroq voz kechish, mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, yangicha ong va yangicha tafakkurni shakllantrish ahamiyatiga keng jamoatchilik diqqatlarini qaratdi, mazkur siyosiy g'oyaning mohiyatini belgiladi, jamiyatning barcha siyosiy-mafkuraviy muassasalari faoliyatini aynan shu g'oya ijrosiga safarbar etdi. Uning asarlarida milliy mafkuraning hayotimizdag'i o'mi, asosiy tamoyillari, uning hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilganining sabablari, xususiyatlari, mafkuraviy tahdidlarning jamiyat tinchligi va barqarorligiga solayotgan xavfi, ularning oldini olish choralarini tahlil etilgan hamda nazariy asoslangan.

Milliy istiqlol mafkurasi nazariy, metodologik hamda siyosiy aspektlarda ob'ektiv reallikning butunlay yangi, tarixiy amaliyatda uchramagan hodisasiadir. Milliy mafkura ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga bab-baravar ta'sirini o'tkazadi, jarayonlarni g'oyaviy-ma'naviy ta'minlaydi, jamiyat sog'lom kuchlарini oliv maqsad sari safarbar etadi, uyuşhtiradi, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiradi.

"Mafkura bo'lmasa,- deb yozgan edi I.A.Karimov,- odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha erda begona mafkura hukmonlik qilishi ham tayin. Buning isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas".

Milliy istiqlol mafkurasining muhim tarbiyaviy jihat - uning ta'sirchanligida. Eng muhimi, biz shuni tushunib etishimiz kerakki, milliy istiqlol g'oyasi sun'iy majburlashdan yiroq bo'lishi kerak, u har qanday konflikt va konfrontatsiyaning oldini olishi, eng muhimi, jamiyat a'zolarining milliy mansubligidan kat'i nazar ularni birlashtirishga xizmat qilishi kerak. Mafkura-muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlarning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalilar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

So'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligi o'sib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada ularda shakllanayotgan ijtimoiy va mafkuraviy tushuncha va g'oyalarning ahamiyati kattadir.

Milliy istiqlol mafkurasi mamlakatimiz ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalarida ro'y berayotgan jarayonlarni ifodalaydi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin//Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz.7-Jild.-T.: "O'zbekiston", 1999.-84-bet.

“O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yulidagi bosh g’oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayat barpo etishdan iboratdir. Bu g’oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no – mazmunini belgilaydi, har bir inson uchun muqaddas bo’lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o’zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol maskurasing asosiy g’oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasidan kelib chiqadi va o’zining ma’no – mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi”.<sup>1</sup>

Mafkura – inson ongiga, uning qalbiga yo’l ochib, dunyoqarashiga ta’sir etuvchi qudratli g’oyaviy kuchdir. SHuning uchun ham, hozirgi vaqtida jahon miqyosida turlicha maqsad – manfaatlarni ifoda etuvchi har xil eski qarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalarining pinhona va oshkora o’zaro kurashlari, tortishuvlari har qachongidan ham ko’ra shiddatli tus olmoqda. Mafkuriy kurashlar va tortishuvlardan ko’zda tutilgan “asosiy maqsad – inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg’ulariga ta’sir o’tkazish, uni o’z dunyoqarashiga bo’ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur quilligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko’ra dahsatlidir”.<sup>2</sup>

YUqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

**Birinchidan**, milliy mafkuramizni targ’ib qilish, omma ongiga singdirishda shoirlar, yozuvchilar, olimlar, tarixchilar, faylasuflar zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklatiladi. Ziyolilar o’z asarlari orqali odamlarning ongiga, his-tuyg’ulariga ta’sir etib, hayotimizdagi kamchiliklar, nuqsonlarni bartaraf etishga, yangi inson dunyoqarashini, uning ma’naviy hamda axloqiy qarashlarini shakllantirishga ko’maklashadi.

Bugungi kunda xalqimizning ijtimoiy ongini shakllantirishga, ayniqsa, publisistika, badiiy adabiyot o’zining sezilarli ta’sirini ko’rsatayapti. SHu boisdan ham u xalqimizning noyob ma’naviy qadriyatlaridan hisoblanmish halollik, poklik, imon-e’tiqod, rahm-shafqat, muruvvat kabilarni odamlar qalbiga chuqur singdirishni o’z oldiga asosiy maqsad qilib olgan. Badiiy adabiyot esa, xalqning ruhini ko’tarishda, porloq istiqbol uchun kurashga chorlashda o’zining munosib hissasini qo’shishi muhim ahamiyatga ega.

**Ikkinchidan**, milliy mafkuramiz g’oyalarini omma va, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish va amalga oshirishning eng muhim hamda zaruriy shartlaridan bin – xalqimizning tarixini chuqur va mukammal, xolisona o’rganishni yo’lga qo’yish, kerakli shart-sharoitlar yaratishdir.

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: “O’zbekiston”, 2000.-32-33 – betlar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkuriy xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin//Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz.7-jild.-T.: “O’zbekiston”.1999.-85-bet.

**Uchinchidan**, milliy mafkuramizning muhim xususiyatlarından biri shuki, u ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiribgina qolmay, siyosiy boshqaruv tizimining faoliyatini ham o'zida ifodalaydi. SHuning uchun ham, milliy mafkuramizni hayotga tatbiq etishda siyosiy bilimlarni omma o'rtaida keng yoyish, targ'ib-tashviq etish, shak-shubhasiz, katta ahamiyatga ega. Siyosiy bilimlar qanchalik mukammal bo'lsa, xalqning ongi shunchalik o'sadi, faolligi oshadi. Siyosiy madaniyati, milliy ongi, vatanparvarlik tuyg'usi o'sgan, o'zini-o'zi anglab etgan xalq va millat o'zining istiqboli bilan bog'liq bo'lgan masalalarga hech qachon befarq qaramaydi.

**To'rtinchidan**, hozirgi kunda yoshlarda milliy qadriyatlarimizning barcha yaxshi tomonlarini tiklash va yanada rivojlantirish, ularga tariximiz, madaniyatimiz, ma'nnaviyatimiz hamda dunyoviy fanlardan chuqur bilim berishda va milliy mafkuramizdagi asosiy g'oyalarni singdirishda umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar, o'rta maxsus bilim yurtlari hamda oliy ta'lim alohida o'rin tutadi. Milliy istiqlol mafkurasini yaratishda ulug' ajodolarimizning ilmiy meroslari, falsafiy ta'limotlari asosiy manbalardan bo'lib xizmat qiladilar.

**Beshinchidan**, milliy g'oya, milliy mafkuramizdagi eng muhim qoidalar va g'oyalarning hayotga joriy etilib, katta ijtimoiy kuchga aylanishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun zarur bo'lgan ma'nnaviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bularning zamirida oilada, ta'lim muassasalarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida yosh avlodga beriladigan ta'lim-tarbiya yotadi.

#### **Taqrorlash uchun savollar:**

1.O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning « YUksak ma'nnaviyat – engilmas kuch» asarida ma'nnaviyatni anglash va shakllantirish mezonlari.

2.Mustaqillik yillarda eshlarning ma'nnaviyati, ong-mafkurasidagi o'zgarishlar.

3. Islom Karimovning « Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiysi» da demokratik bozor islohotlarini va iqtisodietni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish masalalari.

4.O'zbekistonda fikrlar va mafkuralar plyuralizmi hamda demokratik duneqarash tamoyillarining shakllanishi haqida nimalar bilasiz?

## VIII-MAVZU: O'ZBEKISTONNING JA HON HAMJAMIYATIGA IJTIMOIY-IQTISODIY INTEGRATSİYALASHUVI VA UNING ISTIQBOLLARI

**Reja:**

1. Milliy manfaatlar va O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
- 2.O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya-lashuvidagi imkoniyatlar va istiqbollar.
3. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va global muammolarni hal qilishda O'zbekiston ishtiroki.

**I-masala.** Davlat mustaqilligiga erishish, BMTga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirish O'zbekistonga o'zining tashqi siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirish, jahon hamjamiyatiga kirishning o'z yo'llarini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlarning yo'nalichlari va ustuvorligini belgilash imkonini berdi.

Tashqi siyosat avvalo, milliy manfaatlarga asoslanib ichki siyosat bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Jumladan, O'zbekistonning milliy manfaatlariiga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatini amalga oshirish – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir. Aynan ana shunga asoslanib hamkorlik va tashqi aloqalar o'rnatish tashqi siyosatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Tashqi siyosat ham ma'lum tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq quyidagi asosiy tamoyillar O'zbekistonning tashqi siyosatiga, uni amalga oshirish yo'llarini belgilashga negiz sisfatida ko'rsatilgan<sup>1</sup>.

**Birinchisi.** O'zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo'lgani holda o'zaro manfaatlarni har tomonlarna hisobga olish.

**Ikkinchisi.** Respublika odamlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo'yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun kurashadi.

Inson huquqlari to'g'risidagi, hujum qilmaslik haqidagi, nizoli masalalarni hal etishda kuch ishlatishdan va kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish to'g'risidagi Xalqaro hujjalarni tan oladi va ularga og'ishmay rioxaya qiladi.

**Uchinchisi.** Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalarini asosida quriladi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli. – T.: "O'zbekiston", 1992.- 24-40-betlar

**To'rtinchisi.** Mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi siyosatda ochiq oydinlik tamoyilini ro'yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'matishga intiladi.

**Beshinchisi.** O'zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi.

**Oltinchisi.** O'zbekiston to'la ishonch tamoyillari asosida ham ikk tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'matish va rivojlantirish uchun, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun haraka qiladi.

O'zbekiston o'zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda yuqorida aytib o'tilgan tamoyillarga qat'iy rioya qilib, ulami boyitib va kengaytiril borib, tashqi siyosiy hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'naliishlarin qat'iyat va izchillik bilan turmushga tatbiq etib kelmoqda.

O'zbekistonning g'oyat xilma-xil davlat, tarixiy, iqtisodiy, madaniy, milliy va diniy an'analari, manfaatlari diplomatiyamizning ustuvor yo'naliishlarini tanlal olishga ta'sir o'tkazmoqda. I.Karimov asarlarda quyidagi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish tashqi siyosatimizning ustuvor vazifalari sifatida belgilandi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtaida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi bir qancha SHartnomalarning tuzilganligi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi munosabatlarni yanada rivojlantirishda qurdlari omi bo'lib xizmat qiladi, har ikkala mustaqil davlat xalqlarining tub manfaatlariga mo'keladi.

Mintaqamizdagagi qo'shni respublikalar bilan do'stona, qardoshlil munosabatlarini mustahkamlash, ular bilan qalin ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish ilmiy va madaniy hamkorlikn kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining g'oyat muhim ustuvor yo'naliish hisoblanadi. Hamkorlikka intilish shu mintaqaga mamlakatlariga tarixan xosdir. Bun umumiy chegaralargina emas, avvalo, milliy madaniyatlarining, til, urf-odatlar va an'analarning yaqinligi belgilab bergan.

**Mazkur respublikalarning iqtisodiyoti o'zaro chambarchas bog'langan va bir-biriga ta'sir o'tkazib turgan bo'lib, bab-baravar mushkul ahvolda qolgar xo'jalik aloqalarini saqlab qolish va mustahkamlash zarurligi yaxlit energetika transport, irrigatsiya tarmoqlaridan, suv va gaz ta'minoti tizimidan birgalikda foydalanish shart-sharoitidan ham kelib chiqadi.**

Orol bo'yidagi ekologiya falokati oqibatlarini bartaraf etish, Orol dengizini qutqarish bo'yicha birgalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mintaqalararoq hamkorlik doirasida alohida ahamiyatga ega. Mintaqaning samarali hamkorlig chegaradosh mamlakatlar, avvalo, musulmon SHarqi mamlakatlari bilan qo'shma

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston". 1992.- 32-38-betlar

Ibyihalarni birmuncha muvaffaqiyatli ravishda ro'yobga chiqarishga ham ko'maklashadi.

Qardosh mamlakatlar bilan hamkorlikni yuqori davlat darajasida mustahkamlash respublikaning haqiqatan ham teng sherikchilik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida jahon xo'jalik aloqalari tizimiga kirishiga imkon beradi. Birinchi navbatda, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar bilan tashqi aloqalarni o'rnatishtigini intilishimiz xuddi shu bilan belgilanadi.

Arab mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatish O'zbekiston xalqi madaniy va diniy merosdan bahramand bo'lisl, savdo-sotiq, turizmni rivojlantirish, kadrlarni o'qitish imkonini beradi.

O'zbekistonning Osiyodagi Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlar bilan ham munosabatlari samarali rivojlanib bormoqda. Savdo va iqtisodiy sohalardagi bitimlar imzolandi. Zarur resurslari, xalq iste'moli mollarini etkazib berishdan tortib, mehmonxonalar qurish, sog'liqni saqlash, dori-darmonlar ishlab chiqarish, noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish sohasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilishgacha keng ko'lmandagi sohalar va tarmoqlarda jiddiy o'zaro manfaatlarning mavjudligi shu munosabatlarni chuqurlashtirishga ko'maklashadi. Jumladan, Xitoy bilan keyingi yillarda energiya resurslari (ayniqsa gaz) ishlab chiqarish va eksport qilish borasidagi hamkorlik, mintaqaga gazini Xitoyga etkazib beradigan quvur yo'llarini barpo etilganligi (2009) Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston hamkorlikda yiliga 100 mln km<sup>3</sup> dan ortiq gaz etkazib berilayotganligini alohida qayd etish mumkin. YOKI Xitoyning respublikamizga 15 mlrd AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritishi to'g'risidagi kelishuv ikki tomonlarga hamkorlikni jadal sur'atlar bilan rivojlanayotganini ko'satadi.

Janubi-SHarqiy Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatlarni yo'lga qo'yish - O'zbekiston tashqi siyosatini kuchaytirishning muhim yo'nalishitidir. Ularning iqtisodiyotni yangilash tajribasi, ana shu davlatlarning sarmoyalalarini ham texnikaviy qishloq xo'jalik ekinlarini qayta ishlashga, ham sanoatning ilm-fanga asoslangan tarmoqlariga jalb etish respublikamiz uchun kattagina ahamiyatga molikdir.

O'zbekiston tashqi siyosatining ko'p tomonlamligi va ochiqligi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan mustahkam o'zaro foydali munosabatlarni o'rnatishtiga qaratilgan yondashuvlarni belgilab beradi. Hozirgi kunda Amerika Qo'shma SHtatları, Germaniya, Ispaniya, Frantsiya, Italiya va boshqa etakchi davlatlar bilan teng huquqli o'zaro hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlar ochildi. G'arb bilan hamkorlik qilish zamонавиу texnologiyalar, investitsiyalarni sanoatning etakchi tarmoqlariga jalb qilish, tabiiy xom ashyodan har tomonlarga foydalanish yo'lini ochadi. Etuk mutaxassislar, ayniqsa bank va boshqaruv sohasida mutaxassislar tayyorlashda, axborot tarmoqlarini yo'lga qo'yishda, jahonning etakchi birjalarini bilan aloqalar o'rnatishtida, xorijiy qonunchilik tajribasini o'rganishda ko'maklashish muhimdir.

**2-masala.** O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalashuvidagi tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar muhim rol o'yaydi.

**O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan mustaqillikni dastlabki yillardanoq tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda ustuvor vazifalar va yo'nalishlar belgilab berildi:**

-respublikaning eksport imkoniyatlarini yanada mustahkamlash va rivojlantrish, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish hamda importning o'mini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarini jadal rivojlantrish. Fursati bilan eksport tarkibini xom ashyo resurslaridan O'zbekiston uchun qulayroq shakkarga: qishloq xo'jaligining qayta ishlangan tayyor mahsulotlarini, engil sanoat va ko'p bilim talab qiladigan tarmoqlar buyumlarini eksport qilishi tomon chuqur qayta o'zgartirishni amalga oshirish kerak bo'ladi. Tarkibiy qayta qurish, aholi hayot ta'minotining kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarini hal etish uchun respublikaning valyutaga bo'lgan katta ehtiyojini hisobga olgan holda dastlabki paytlarda paxta, tola, pilla, rangli metallar, kaprolaktam, karbamid va boshqa mahsulotlar asosiy eksport resurslari sifatida saqlanib qoladi;

-tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish bo'yicha aniq maqsadni ko'zlagan siyosat yuritish, xorijiy sheriklar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'matilishida katta erkinlik berish, o'z mahsulotlarini chet elda sotish, tovarlarni eksport va import qilishda imtiyoziroq tartibnijoriy etish;

-imtiyozli boshqaruv va soliq tartibini vujudga keltirish yo'lli bilan eksport ishlab chiqarish sohasida korxonalarning investitsiya va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish;

-xorijiy investitsiyalarning asosan to'g'ridan-to'g'ri kapital sarmoyalar ko'rinishida respublika iqtisodiyotiga keng jaib qilinishi uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa zarur sharoitlami yaratish, qo'shma korxonalar tashkil etilishiga ko'maklashish, shuningdek investorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

-xorijiy kreditlardan, eksport qilishdan olingan valyuta mablag'laridan chet eldan hayot uchun muhim oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar hamda qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi, xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi korxonalarning texnika bilan qayta jihozlash uchun texnologik asbob-uskunalar sotib olishda birinchi navbatda foydalaniш;

-tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvechi qonunlami yaratish. Chet el investitsiyalari, eksport va import uchun soliqlar to'g'risidagi qonunlarga amaliyot taqozo etgan tuzatishlar o'z vaqtida kiritildi. respublikaning valyuta ishlarini tartibga solish to'g'risidagi, garov haqidagi qonunlarning, Bojxona kodeksi va boshqa huquqiy hujjalarning loyihalari tayyorlandi;

-diplomatika ishi uchun, shuningdek, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida, bank tizimida va boshqa yangi tashkil etilayotgan tuzilmalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, Talabalar va mutaxassislarini chet

ellardagi etakchi o'quv va ilmiy markazlarida, xorijiy firmalar, banklar va kompaniyalarda o'qitishni hamda malaka oshirishlarini tashkil etishni kengaytirish;

-tashqi iqtisodiy faoliyat tarmoqlari majmuini ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalarini, tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga javob beradigan transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlarini vujudga keltirish. CHet ellarda o'z savdo va axborot vakolatxonalarini ochish;

-o'zimizning patent-litsenziya ishlari tizimini yo'lga qo'yish, respublika fuqarolari va yuridik shaxslarining ma'naviy mulkini himoya qilish uchun xalqaro bitimlarga qo'shilish. Mahsulotni standartlash va sertifikatsiyalash xalqaro tizimiga izchillik bilan o'tishni tashkil qilish.

Ana shu yo'naliishlarni ro'yobga chiqarish O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga keng ko'lamma uyg'unlashtirish uchun iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish imkonini bermoqda.

O'zbekiston Markaziy Evroosiyoning eng muhim yo'llari chorrahasida bo'lishini tarixning o'zi belgilab qo'yan. Bu esa «Buyuk Ipak yo'li» qabilidagi Evroosiyo iqtisodiy va madaniy ko'prigini barpo etishni respublika tashqi siyosatining strategik istiqboli sifatida olg'a surish imkonini beradi.

YUqoridagi vazifalarga amal qilish orqali bugungi kunda iqtisodiy sohada quyidagi yutuqlar qo'lga kiritilganligini qayd etish mumkin.

1.YAIM tarkibida Sanoatni ulushi 24,2% (2000 yilga nisbatan 10%ga oshgan).

2.YAIM tarkibida kichik biznesni ulushi 58,8% (2000 yilga nisbatan 24,8%ga oshgan).

3.Kichik biznes sub'ektilarni umumiyligi soni 190 000taga etgan.

4.Eksport hajmi yiliga o'ratcha 10% o'smoqda.

Prezidentimiz O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallashi uchun qulay shart-sharoitlar haqida to'xtalib quyidagilarni qayd etadi:

Ma'lumki, O'zbekiston jug'rofiy-siyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay ahvolda. YA'ni, u Markaziy Osiyo mintaqasining transport, kuchli avtonom energetika va suv tizimlari markazida joylashgan.

*Ikkinci* jihat shuki, O'zbekiston aholi soni jihatidan, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo'shnilaridan ma'lum darajada ustun turadi.

*Uchinchi* tarafdan, O'zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Bizda qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral-xom ashyo resurslari bor. Respublika oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlashga, texnika ekinlarining eng qimmatli turlarini, paxta tolasi etishtirish va eksport qilishga, shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva-sabzavot mahsulotlarini chiqarishga hamda ularni qayta ishlangan holda etkazib berishga qodir.

*To'rtinchidan*, davlatimiz nafaqat o'zini-o'zi ta'minlaydigan, balki, chetga chiqarishga Neft, Neft mahsulotlari, gaz va urmuman, iqtisodiyotning asosi bo'l mish tarmoqlarga ega. O'zbekistonda sanoatning eng zamonaviy tarmoqlari mayjud. Deylik, bizda mikroradioelektronika kabi murakkab sohani rivojlantirish imkonli bor.

*Beshinchidan*, O'zbekistonning insoniyat tsivilizatsiyasida salmoqli o'mi bor. Yurtimiz ma'naviy meros bilan boy, u nafaqat mintaqada, balki, dunyoda ham turli ma'naviy va siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir o'tkazib kelgan.

SHu jihatlami hisobga olsak, O'zbekiston o'zining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha jahondagi madaniy, ilmiy, texnologiya va iqtisodiy yuksaklikka erishib, bemalol *Markaziy Osiyoda integratsiya markaziga aylanishi mumkin. Albatta, bu yo'lda qator qiyinchiliklar ham mayjud:*

*Birinchidan*, agar jug'rofiy-strategik tarafdan olib qarasak, Markaziy Osiyoda kommunikatsiyalar nomaqbul rivoj topgani va uning tarmoqlari ancha buzilganini ko'ramiz.

*Ikkinchidan*, Markaziy Osiyoda suv resurslari cheklangan va Orol ekoliya falokati ta'siri sezildi.

*Uchinchidan*, mintaqada xavfsizlik tizimi yo'lga qo'yilmagan. Bu erda atrofdagi kuchli davlatlar va siyosiy kuchlar markazlarining bir-biriga mos kelmaydigan ta'sir etish istaklari borligini ham hisobga olmasdan bo'lmaydi.

*To'rtinchidan*, musulmon dunyosidagi ba'zi kuchli mamlakatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari ham ayni bizning mintaqamizda o'zaror duch kelishini nazardan soqit etolmaymiz.

Qolaversa, atrofimizda turli etnik, iqtisodiy va boshqa qiyin muammolar ichida qolgan "uchinchi dunyo" davlatlari mayjud. Beqarorlik va xavf-xatarning bugungi kunda ikki o'chog'i - Afg'oniston bilan Tojikiston davlatlari ham shu mintaqada.

I.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida xavfsizlikka tahdid soluvchi quyidagi xatarlarni tahlil qilib bergen:

1. Mintaqaviy mojarolar.
2. **Diniy ekstremizm va fundamentalizm.**
3. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik.
4. Etnik va millatlararo ziddiyatlar.
5. Korruptsiya va uyushgan jinoyatchilik.
6. Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari.
7. Ekologik muammolar.

I.Karimov mintaqada barqarorlik va milliy xavfsizlik kafolatlaring shart-sharoitlarini aniqlash va ta'minlash g'oyat muhimligi haqida to'xtalib quyidagilarga ustuvorlik berishni qayd etgan edi:

**Birinchi.** O'zbekiston jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida o'z o'mini topishi lozim. Buning uchun respublikaning dunyo hamjamiyatiga kirish sur'atlarini tezlashtirish, turli xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari,

birinchi galda, BMT va Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ishlardida faol ishtirok etishini ta'minlash zarur.

Xalqaro tashkilotlar iqtisodiyotimizni qayta qurishga ko'maklashadigan eng samarali vositadir. Ular kredit olish, xorijiy sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri jaib etish, respublikaning jahon bozorida olg'a siljishiga bebafo yordam ko'rsatishi mumkin.

Asosiyisi, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki milliy xavfsizligimiz, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash garovidir<sup>1</sup>.

O'zbekistonning Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tuzilmalaridagi ishtirokini kengaytirish zarur. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda bu tashkilot imkoniyatlardan, uning SHimoliy Atlantika hamkorlik kengashi, Evropa Ittifoqi, Evropa Kengashi, NATO va boshqa tashkilotlar bilan aloqalaridan keng foydalanish zarur<sup>2</sup>.

Qo'shilmaslik harakati, Islom konferentsiyasi tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish zarur.

**Ikkinci.** Milliy xavfsizlikka erishishda davlatlararo bitimlar tizimini barpo etish muhim yo'naliш hisoblanadi. O'zbekiston qanchalik ko'p mamlakat bilan do'stona, amaliy muloqot va hamkorlik munosabatlarini o'rnatса, uning xavfsizligi shunchalik ko'p kafolatlanadi.

Respublika rahbariyati, mustaqillikning dastlabki oylerida birinchi bo'lib Turkiyaga rasmiy tashrif buyurdi. Keyinchalik rasmiy delegatsiyalarimiz Germaniya, Frantsiya, Avstriya, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Xindiston, Saudiya Arabistoni, Misr, Indoneziya, Malayziya, Eron, Koreya, Yaponiya kabi Evropa va Osiyo qit'asining bir qancha boshqa mamlakatlariga safar qildi. Iqtisodiyot, ilm-fan va madaniyat kabi sohalarda hamkorlik qilish bo'yicha shartnomva va hujjatlar imzolandi. Yangi mustaqil davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama aloqalar rivojlandi.

**Uchinchchi.** Imzolangan davlatlararo bitimlarga so'zsiz amal qilish - xavfsizlik kafolati va shartidir.

Biz bu sohada ta'nalarga sabab bo'ladigan ish qilmasligimiz, tanqidga nishon bo'imasligimiz lozim. Xuiddi ana shu holdagini biz bilan hamkorlik

<sup>1</sup> BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi 1993 yil fevralida ish boshlagan edi. 1994 yil yanvariga kelib, vakolatxona BMTning Taraqqiyot dasturi, Qochoqlar ishi bo'yicha vakolatli oly kornissari, Bolalar jamg'armasi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha dastur, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashishi jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarini o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. SHunday qilib, BMT bilan hamkorlik qilish rejalarini amalga oshib bormoqda. Bu hamkorlik iqtisodiyot, ijtimoiy soha, soQliqni saqlash, madaniyatni tiklash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa sohalarni ham qamrab olmoqda

<sup>2</sup> Respublikamiz Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Osiyodagi tayanchi bo'la oldi. U mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikni, ehtimol utilayotgan mojarolarning oldini oluvchi diplomatiyanı ta'minlashda, ziddiyatlarni bartaraf etishda Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va BMT hamjihat ish yuritadigan maydonga aylanmoqda.

qilayotgan davlatlardan zimmalariga olgan majburiyatlarini ijro etishni talab qilishimiz mumkin bo'ladi.

Imzolangan hujjalarga so'zsiz roya qilish inson huquqlari, kam sonli millatlar huquqlari, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, tinch-totuv yashash tamoyillari singari sohalarda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**To'rtinchi.** Tashqi siyosatni mafkuradan to'la xoli etish xavfsizlikni ta'minlashning muhim kafolatidir. O'zbekiston shu paytgacha dunyoning barcha mamlakatlari, qit'alari va mintaqalari bilan o'z munosabatlarini, bu mamlakatlarning ustqurmasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, faqat xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurib keldi va bundan keyin ham shu yo'lidan boradi.

G'oyaviy muxoliflik o'tmishta davlatlararo munosabatlarga soya solib, davlatlarning bir-biriga qarshi ikki guruhga bo'linishiga sabab bo'ldi. Dunyoni halokat yoqasiga olib keldi. Bunday kelishmovchiliklar bugun ham davlatlararo ixtiloflarni kuch ishlatalish yo'li bilan hal qilishga, begunoh odamlarning qurban bo'lishiga, butun-butun xalqlarning fojjasiga sabab bo'layotir.

Davlatlararo munosabatlar sohasida yagona g'oya amal qilishi lozim. Bu g'oyaning ma'nosi shuki, birqalikda tinch hayot kechirish, hamkorlikka intilish, egamen davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, turli nuqtai nazar va fikrlarga bardoshli bo'lish tamoyillarini o'zida aks ettirgan qonunlar ustuvorlik kasb etishi darkor.

**Beshinchi.** O'zbekiston Qo'shilmaslik harakatiga a'zo bo'lgani sababli hech qaysi blokka qo'shilmaydi. Biz buni milliy xavfsizlikning muhim kafolati deb bilamiz. SHu bilan birqalikda, harbiy bloklar bilan hamkorligimiz tinchlik ishiga, mamlakatlar va xalqlarning xavfsizligi maqsadlariga, demakki, O'zbekistonning milliy xavfsizligi mustahkamla-nishiga xizmat qilsa, biz hamisha mulogotga tayyormiz. SHu o'rinda O'zbekiston 1994 yilning iyulida NATOning kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan "Tinchlik yo'lida hamkorlik" loyihasini imzolaganini eslash o'rnlidir.

**Oltinchi.** O'zbekistonning MDH tarkibida kollektiv tizimdag'i ishtiroki mintaqada barqarorlik va tinchlikning muhim kafolatidir.

**Bizning davrimizda faqat kollektiv xavfsizlik bo'lishi mumkin.** Xavfsizlikni bu tarzda tushunish nafaqaq har bir alohida davlatning imkoniyatlari cheklangani, qolaversa ma'naviy-siyosiy tusdagi mulohazalarga ham bog'liq. Davlatlarning imkoniyatlari va sa'y-harakatlarini xavfsizlikni ta'minlash yo'lida birlashtirish muhim ahamiyatga ega. U, birinchidan, kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etuvchilar o'rtasida keskinlik yo'qligidan dalolat bersa, ikkinchidan, ulaming birlashishiga intilishlarini namoyish etadi.

SHu jihatdan respublikamiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda boshqa nufuzli dalatlararo tashkilotlar homiyligida barpo etilayotgan kollektiv xavfsizlik tizimiga faol qo'shilishi zarur.

**Ettinchi.** YAqin qo'shnilarimiz - Markaziy Osyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir.

Xalqlarimiz tarixi, madaniyati, an'analarini, diniy e'tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtaсidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning asosiy poydevori hisoblanadi.

**Sakkizinchি.** O'zbekiston Qurolli Kuchlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi va shu kabi huquqiy xujjalalar davlatimiz xavfsizligining muhim kafolatidir.

Biz davlatlarning tinch-totuv yashash, xalqaro masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik, tahdid qilmaslik tamoyilini tashqi siyosatimizga asos qilib olganimiz.

SHu bilan birga, Vatanimiz mudofaa qudratining asosi - respublika iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash darkor. So'nggi paytlarda O'zbekistonda Qurolli Kuchlar uchun eng zarur va yuksak malakali zabitlar tayyorlashga mo'ljallangan bir qancha harbiy o'quv yurtlari tashkil etildi. Armiyani texnik jihatdan jihozlashni mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rildi. Bundan keyin ham harbiy salohiyatni ta'minlash uchun zarur mablag' ajratish davom etaveradi. Bizning harbiy doktrinamiz mudofaa va xavfning oldini olish harakteriga ega.

**To'qqizinchি.** Hozirgi dunyoda davlat barqarorligini ta'minlash jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy va axloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanadi. Davlat mustahkamligi va qudrati uning jahon jamoatchiligi oldidagi ma'naviy-axloqiy qiyofasi va nufuzi bilan ham aniqlanadi. Ayni shu bois xalqimizning, millatimizning ma'naviy jihatdan uyg'onishi mustaqilligimiz, milliy xavfsizligimiz garovidir. Ushbu muhim ishda biz SHarqning buyuk ma'naviy ta'limotidan, xalqlarni tinch hayot kechi rishga, do'stlik va hamkorlikka, o'zaro jipslik va sabr-toqatga chaqiruvchi islam falsafasidan keng va oqilonqa foydalanishimiz lozim<sup>1</sup>.

*I. Karimov mamlakatimiz xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashning asosiy kuchi yoshlar ekanligini qayd etib va quyidagilarni ta'kidlagan edi.*

Davlatimiz xavfsizligini ta'min etishning asosi - mamlakatimiz yoshlari. YOshlar - bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, savob ishlarimizning davomchilaridir. Hammamiz ham bu dunyoda farzandlari-mizni deb, ularning baxt-saodati, iqboli deb yashaymiz va mehnat qilamiz. Nafaqat xavfsizligimiz, shu bilan birga milliy uyg'onish g'oyasining amalga oshishi, davlatimizning kelajakda barqaror bo'lishi ham yoshlarimiz qanday shakllanishiga bevosita bog'liq.

Farzandlarimiz bizdan afzalroq, bizdan o'tkirroq, bizdan pokroq, savob ishlarni bizdan ham ko'proq qiladigan bo'lislchlari lozim. Ular jahon umumbashariy yutuqlarini egallashi, tariximizni, madaniyatimizni, buyuk ajodolarimiz qoldirg'en merosni chuqur bilmog'i kerak. Bizning asosiy kuch-qudratimiz va kelajagimiz ana shunda. Bugun zo'r umidlar bilan qurayotgan yangi jamiyatimizning mazmun-mohiyati ham aslida ana shundadir<sup>2</sup>.

**3-masala.** Globallashuv sharoitida yosh mustaqil davlatlarning xavfsiz va barqaror taraqqiy etishi uchun jahon miqiyosida paydo bo'lgan yangi salbiy

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari hamda mansaatlari – eng oliy qadriyat. –T.: "O'zbekiston", 2005.-11-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari v taraqqiyot kafolatlari - T: "O'zbekiston", 1997.- 24-bet.

ta'sirlarni bartaraf qilish, ularga nisbatan mustahkam ichki immunitetni shakllantirib, mustahkamlab borish tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etnoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Hozirgi davrda, xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlari to'qnashayotgan murakkab bir sharoitda faqat o'z fikri, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lган xalq va jamiyat engilmas kuchga aylanib, o'z kelajagini o'z qo'li va aql-zakovati bilan qurishga qodir bo'ladi"<sup>1</sup>.

Mustaqillik yilarda tashqi siyosatda erishgan yutuqlarimizdan asosiyisi yurtimizda, mintaqada va dunyoda tinchlikni saqlash bu boradagi muammolarni bartaraf etishda o'ziga xos tinchliksevar pozitsiyada bo'lish hisoblanadi.

Jum'ladan Afg'oniston muammosini hal qilishda mamlakatimizning tashabbusi va uni dunyo e'tirof etgani ligini qayd etish lozim.

Afg'oniston mojarosi – faqat bu mamlakat yoki uning qo'shnilarining muammosi emas. Mojar oqibatlari mintaqaviy va global xavfsizlikka bevosita va g'oyat kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda Afg'oniston muammosini hal qilish yo'llarini topishda O'zbekiston alohida o'rinn tutmoqda. So'nngi o'n yil davomida mamlakatimiz xalqaro hamjamiatning Afg'oniston muammosini hal qilish borasidagi sa'y-harakatlarida etakchi o'rnlardan birini egallab kelmoqda.

**"6+2" (1997-2001) va yangi "6+3" muloqot guruhini shakllantirish g'oyasi.** "6+2" muloqot guruh (1997-2001) BMT kotibiyyati binosida 1997 yili O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan tashkil topdi. Bu guruh Afg'onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan edi.

-Bu guruhga Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lган 6 ta davlat, Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston hamda AQSH va Rossiya davlatlari kirgan edi. Uning birinchi uchrashuvi 1997 yil 16 oktyabrda Nyu-Yorkda bo'ldi.

Islom Karimov 30 yildan buyon hozirgacha Afg'onistonda davom etib kelayotgan mojarosini hal etishda o'z echimini kutib turgan quyidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etish lozimligiga e'tiborni qaratgan edi:

- 1) oddiy xalqning ehtiyojlarini qondirish;
- 2) aholining lsh bilan bandligini ta'minlash;
- 3) hokimiyatning vertikal boshqaruvi va nufuzini mustah-kam�ash;
- 4) afg'on xalqining xalqaro kaolitsiya kuchlariga nisbatan ishonchini qozonish yo'lini ko'rish;
- 5) xalqaro hamjamiat imkoniyatlari hisobidan yordam va ko'mak ajratish;
- 6) afg'on xalqining diniy, milliy, madaniy qadriyat va urf-odatlarini hurmat qilish;

Bugungi kunda Mustaqil O'zbekistonni jahondagi 180 dan ortiq davlat tan olgan, davlatimiz dunyodagi 130 ga yaqin mamlakat bilan diplomatik

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng olyi qadriyat. – T.: "O'zbekiston", 2005, 11-bet.

munesabatlar o'rnatgan. Yurtimizda 88 ta chet davlat vakolatxonalar ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot, 13 ta nohukumat tashkilot ishlab turibdi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O'zbekiston elchixonalari va moliya tashkilotlari teng huquqli asosda faoliyat yuritmoqda. Hozirgi vaqtida chet ellarda mamlakatimizning 48 ta diplomatik vakolatxonasi bor. O'zbekistonda esa 86 ta elchixona va savdo vakolatxonalar akreditatsiya qilingan.

Biz boshimizdan kechira yotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'yemoqda. SHu sababli O'zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tahidlar, o'z echimini kutayotgan eng muhim muammoli masalalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

**Birinchidan**, geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi xalqaro aloqalarda o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlariga putur etishiga, qarama-qarshilik va nosog'lom raqobat kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

**Ikkinchidan**, jahon iqtisodiy inqirozi, dunyo bozorlaridagi beqarorlik, energiya resurslari narxlarining pasayishi deyarli barcha davatlarning iqtisodiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tabiiy resurslar uchun kurash qator davatlarda harbiy-siyosiy ahvolning keskinlashuviga olib kelmoqda. Ayrim mamlakatlarni xom ashyo bazasi va sifatsiz mahsulotlar bozoriga aylantirishiga intilayotgan kuchlar ham yo'q emas.

**Uchinchidan**, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va ba'zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa jinoyatchilik, odam savdosи, terrorchilik, ekstremizm, narkotrafik kabi illatlarning hamda o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda.

**To'rtinchidan**, axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng q'llanishi, davlat boshqarvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, o'z navbatida, axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etmoqda.

**Beshinchidan**, korruptsiya, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik kabi illatlar davlat hokimiyatini obro'sizlantirib, iqtisodiyotning o'sishi va tadbirkorlik - rivojiga jiddiy to'siq bo'lmoqda.

**Oltinchidan**, "ommmaviy madaniyat" balosi ko'plab yoshlarni o'z domiga tortib, millat va yurt uchun butunlay begona bo'lgan salbiy ta'sirlar kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Davrimizning da'vati sifatida paydo bo'lgan "**O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak?**" degan teran ma'noli so'zlarni biz hamisha yodimizda saqlashimiz lozim.

**Bizning eng asosiy yutug'imiz** — ko'p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni engishga qodirligi, ularning zamonaviy - dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligining yuksalib borayotgani, atrofimizdag'i voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir.

Markaziy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda murakkab vaziyat yuza kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotg' bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo'lish, mamlakatimizning mudof qobi liyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamla xavfsizlik va barqarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning ei muhim sharti va kafolati ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarini tinch-totuv hayot kechirayotgani — istiqol davrida erishgan eng muhi yutuqlarimizdan biridir, desam, o'yaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilas Millatlararo totuvlikni ta'minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 137 milliy madaniy markazning o'rni beqiyos.

Aynan shu nuqtai nazaridan kelgusida ham **millatlararo totuvlik va hamjihatlik mustahkamlash** O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan b bo'lib qoladi.

YUrtimizda hukm surayotgan diniy bag'rikenglik muhiti tufay mamlakatimizda 2 ming 200 dan ortiq turli diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda

Turli din vakillari o'tasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlari rivojlantirish, qaysi din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barc fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash bundan buyon ham eng muhi vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.<sup>1</sup>

#### **Taqrorlash uchun savollar:**

- 1.O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalashuvidanagi imkoniyatlar va istiqbollari haqida nimalar aytma olasiz?
- 2.Integratsiya tushunchasi, uni harakatlantiruvchi motivlar (ehtiyojlar, manfaatlar) va mexanizmlar ( iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy) haqida aytib bering
- 3.Integratsiyalashuvning ma'naviy-ahloqiy va siyosiy-mafkuraviy asoslarini ta'minlash zaruriyatni nirma bilan asoslanadi?
- 4.O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning integratsiya jarayoni harnda uning yaqin va uzoqqa mo'ljalangan strategiyasi nimadan iborat?

<sup>1</sup> Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir O'zbekiston Respublikasi Prezidentligigan nomzod SH.Mirziyoevning Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VII s'ezdidagi ma'ruzasi// "Xalq so'zi", 2016 y 2 noyabr.

## **IX-MAVZU: IJTIMOIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA TINCHLIKNI TA'MINLASHNING G'OYAVIY- KONTSEPTUAL ASOSLARI**

**Reja:**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalarning zaruriyatini.
2. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolini belgilovchi kontseptsiyalarni.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy istiqbo lni belgilovchi kontseptsiyalarni amaliga shahrimiyati.

**1-masala.** Taraqqiyotning asosiy talablaridan biri bu jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hisoblanadi. Yurtimizning uzoq va yaqin o'tmishi ham buni asoslaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik quyidagilar bilan belgilanadi.

**Birinchidan,** o'zining porloq kelajagiga ega bo'lishni xohlagan har qanday davlat yoxud jamiyat, avvalo ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik haqida va uni targ'ib qiluvchi g'oya va kontseptsiyalarni yaratishi va shunga tayanishi zarurligi bilan bog'liq;

O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday degari edi: "davlat tizimi, uni bosh qarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim. YA'ni, oldin davlat qurilishi va undan keyin mafkura paydo bo'lishi o'zi g'ayri tabiiy g'ol. Buni yaxshi anglab olishimiz lozim. YA'ni, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi"<sup>1</sup>. Demak, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan g'oya va kontseptsiyaga ega bo'lgagan va unga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'llini yo'qotib qo'yishi muqarrar.

**Ikkinchidan,** ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalar O'zbekiston xalqining asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi sifatida shuning uchun ham zarurki, u bizning oliy maqsadimiz – ozod va obod jamiyatni, erkin va farovon g'ayotni barpo etishga qaratilgan. SHu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalar ilmiy va hayotiy bo'lishi bilan birga mamlakatimiz xalqining asosiy maqsad va muddaolari hamda manfaatlарини ifodalashi kerak.

**Uchinchidan,** ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalar O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda, bugungi hayotning eng dolzarb muammolari, uning strategik maqsadlari bilan dialektik bog'lanishida bo'lishi talab etiladi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-Jild. – T.: "O'zbekiston", 2000.- 464-465-betlar.

To'rtinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalarning zarurligi yana bir muhim holat bilan ya'ni, bugun bizning tarixiy o'zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik bozor munosabatlariiga asoslangan demokratik tuzumga o'tish sharoitida yashayotgalligimizdan kelib chiqmoqda. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday xulosaga kelgan edi: "Bu o'tish davri o'ziga xos, juda katta g'ov va to'siqlarga duch kelishi, qattiq kurashilar orqali kechishi barchamiz uchun ayon bo'lmos'h i darkor. Xalqimiz va jamiyatimizni mana shu davrda yangi ufqlar sari boshlash, da'vat qilishda maqsadlarimiz aniq bo'lishi kerak".<sup>1</sup>

Demak, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalar milliy rivojlanish g'oyasining o'zagi bo'lgan - tanlagan taraqqiyot yo'llimizning to'g'ri adolatli va haqoniy ekanligiga, u ana shu zaminda istiqomat qiladi gan har bir insonning hayotiy manfaatlariiga mos tushishiga keng ommani ishontirish orqali ularni bunyodkorlik ishlariiga safarbar etish uchun xizmat qiladi.

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalarning o'mini boshqa hech qanday omil bosa olmaydi. SHuning uchun ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, raqsd va vazifalarini ta'minlashning ma'naviy jihatlarini mustaxkamlash ham, bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Buning yorqin ifodasini I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi (2004 yil 29 aprel) "Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamj ihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq" nomli nutqida hamda Oliy Majlisning mamlakatimiz fuqarolariga murojaatnomasida ko'rish mumkin: "Bugun bashariyat o'ziga xos va ziddiyatlari bir davrda yasharnoqda. Bir tomonidan ilm-fan va texnika, yuksak texnologiyalar taraqqiy etib, insonparvarlik g'oyalari, demokratik qadriyatlar, o'zaro hamkorlik dunyo bo'ylab qaror topib bormoqda. Ayni vaqtida er yuzining turli mintaqalarida qurolli mojarolar ro'y berayotgan, xalqaro terrorizmning yangi-yangi xurujlari oqibatida ming-minglab odamlarning hayotdan ko'z yumayotgani ham shu zamoning ochiq haqiqatidir".

Mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlarining izchilligi va bosqichma-bosqichligi, biz tanlagan tadrijiy taraqqiyot yo'li, biz uchun nomaqbub bo'lgan, "shok terapiyasi", deb atalagan islohotlarni asossiz ravishda tezlashtirishning turli shakllaridan voz kechilganligi, mamlakatimizning tarixiy, milliy va an'anaviy o'ziga xos xususiyatlarini har tom onlama hisobga olinganligini alohida qayd etish lozim.

Mustaqillikni dastlab yillarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan islohot chiqilgan bir qator kontseptsiyalar muhim ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, "Yangi uy qurmay turib, eskiisini buzmang", "islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun", degan

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-Jild. – T.: "O'zbekiston", 2000.- 464-465-betlar.

qoida va tamoyillar o'zining o'tkir ahamiyati va dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi.

"...Biz tanlab olgan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekani siyosiy va iqtisodiy tizimini demokratlashtirish, umuman, mamlakatimiz hayotidagi tub o'zgarishlar, O'zbekistonning istiqlol yillardagi jadal rivojlanishi misolida o'zining amaliy tasdig'ini topmoqda"<sup>1</sup>.

O'tgan davr mobaynida biz erishgan marralar haqda to'xtalib, hech shubhasiz, ko'pchilikning hayrati va havasini uyg'otadigan natijalar, ya'ni, yalpi ichki mahsulotimiz hajmining, aholi real ish haqi va daromadlarining yuksak o'sish sur'atlarini, iqtisodiyotimizdagi tub tarkibiy o'zgarishlar va mamlakatimizda ishlab chiqarish o'zlashtirilgan mutlaqo yangi, raqobatbardosh mahsulotlarning jahon bozoriga chiqarilayotganini; yurtimiz qiyofasini butunlay o'zgartirayotgan inshootlar va ishlab chiqarish korxonalarini, ijtimoiy obektlar va turarjoy binolarini barpo etish bo'yicha keng miqyosdagi buniyodkorlik ishlarini; ta'lif-tarbiya, sog'lijni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida qo'lga kiritayotgan ulkan yutuqlarimizni yorqin misollarda ko'rish va anglash qiyin emas.

Ana shunday beqiyos o'zgarishlarning amaliy, hayotiy natijasi sifatida yurtimizda bolalar va onalar o'limi keskin qisqargani, aholining o'ttacha umr ko'rish darajasi hozirgi kunda sobiq SSSR hududidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga – 73 yoshga, ayollarimiz o'ttasida esa 75 yoshga etgani avvalambor shu yurda yashayotgan odamlarni befarq qoldirmaydi.

O'zbekiston dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida so'nggi 5 yil mobaynida yalpi ichki mahsulotning o'ttacha 8,5 foizga teng bo'lgan yillik o'sishini ta'minlab kelayotgani eng katta yutuqlarimizdan biridir.

"O'tgan yillar davomida, - deb ta'kidlagan edi Islom Karimov O'zbekistonimiz, yurtimizni yangilash va modernizatsiya qilish yo'lida biz qo'lga kiritgan va dunyo tan olayotgan mana shunday yutuq va marralar, hech shubhasiz, barchamizga, butun xalqimizga faxru g'urur bag'ishlashi tabiiydir.

...Biz mamlakatimida barqaror rivojlanadigan erkin iqtisodiyotga asoslangan ochiq huquqiy demokratik davlat qurish va inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda eng oliy qadriyat bo'lgan, jahonda hurmat-e'tibor qozongan jamiyatni shakllantirishga qaratilagn uzoq va mashaqqatli yo'lining faqat bir qismini bosib o'tganimiz o'zimizga yaxshi tasavvur etishi <sup>2</sup>zarur".<sup>2</sup>

2-masala. Biz XXI asrda, intellektual qadriyatlar ustuvor bo'lgan asrda, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olayotgan va jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan asrda yashamoqdamiz. SHu nuqtai nazardan islohotlarni izchilligi va davomiyligini ta'minlashda yangi kontseptsiyalarga ehtiyoj seziladi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-Jild.- T: "O'zbekiston", 2011.- 4-5-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 47-bet.

Mustaqil taraqqiyot yillarda Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy iqtisodi barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bir qancha kontseptsiyalar ilgari surildi. An shundaylardan biri Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan va 2010 yil noyab oyida Oliy Majlisimiz – Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan Mamlakatimizd demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatir rivojlantirish kontseptsiyasi mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonimiz yaqin va uzo istiqbolda o'z oldiga qo'yayotgan yuksak maqsadlarga erishishning amali strategiyasi sifatida xizmat qilishini alohida ta'kidlash lozim.<sup>2</sup>

Ushbu kontseptsiya davlat va jamiyat qurilishi sohasida; sud-huquq tizimida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida; saylov qonunchiligin yanada demokratlashtirish; fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirish v rivojlantirish, mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari va bozo infratuzilmasining samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish sohasidag o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha Kontseptsiyada oltita yo'nalishdagi islohotlar o'z ifodasini topgan.

### I.Davlat hokimiysi va boshqaruvni demokratlashtirish

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiysi va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhin bir maqsadga, ya'ni, hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy printsini hayotgizchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatla muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonuri chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlami ko'rishga qaratilgan edi. Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatining boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarining vazifalarini o'zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo'jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita raialshuvini keskin qisqartishga katta e'tibor berildi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalamining bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miyosiga o'tkazish O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahallatizi mini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiysi tashkil etilishining asosiy tamoyillari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimin:

<sup>2</sup> Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-Jild.- T: "O'zbekiston", 2011.- 51-69- betlar.

shakllantirish, qonun ijodkorlarining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumda vat va hududiy manfaatlarini mutan osibligiga erishishdan iborat edi.

SHundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini yangi tahrirda o'zgartirish taklif qilindi<sup>1</sup>:

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalgal oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinnbosarları, vazirlar, davlat qo'mitalarining

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tiltilgan boshqa vazifalarini bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardi. Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi. Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasasi qonun bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarida eng ko'p deputatlik o'mini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinnlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiylar tomonidan taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlichä O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiyl sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'tasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiyl sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchszilik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchszilik votumi tegishlichä O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiyl sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi. Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqrizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi".

raislardidan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun xujjalariга muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilayotgan ushbu o'zgartishlarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ularga ko'ra, Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlashning yanada demokratik tamoyillarini ifodalaydigan yangi tartibi o'matildi. SHuningdek, Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartishlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonsizlik votumini bildirish huquqi berildi. Ayni vaqtida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarildi.

Taklif etilgan yana bir muhim o'zgartish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96-moddasiga taalluqlidir.

Mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko'ra o'z vazifasini bajara olmaydigan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda uni vazifasini senat raisi olib borishi qayd etildi.

## **II.Sud-huquq tizimini isloh etish.**

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdag'i eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu – qonun ustuvorligini mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir.

Aynan shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillardidan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilgan. Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki, inson va fuqaro huquq va erkinliklarni ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilni izchil amalga oshirish maqsadida "Sudlar to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa, o'z navbatida, sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini bergenini alohida ta'kidlash lozim.

Ayni paytda Sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, Sudyalarning akolatini to'xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish urutuvni qo'zg'atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu orada muhim qadam bo'ldi.

Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, xususan, ud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug'ullanish vazifasi maxsus organ - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd tish lozim.

SHU qatorida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus akolatli tuzilma - Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va ioliyaviy ta'minlash departamenti tashkil etildi. Bu esa sudlarning ularga xos o'lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo'lishi va butun diqqat-e'tiborini o'zlarining asosiy burchi bo'l mish odil sudlovni amalga oshirish uchun qaratish nkonini berdi.

Umumiy yurisdistsiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari o'yicha sudlar tashkil etildi. Bu, o'z navbatida, ularning jinoyat va fuqarolik shlarini malakali asosda ko'rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to'la va har omonlama himoya qilish bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat ilmoqda.

Fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda tuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada tengaytirishni ta'minlash bo'yicha katta ko'lamdag'i chora-tadbirlar amalga shirildi.

SHuningdek, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001 yildan boshlab arashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko'rsatmoqda. YAreshuv institutining talabiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lмагan jinoiylar qilmishni sodir tigan shaxs jabrlanuvchiga etkazilgan zararni to'liq qoplab bergen taqdirda, jinoiylar avobgarlikka tortilmaydi.

Mazkur institutining samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va echiromillik kabi ko'p asrlik an'analariga mosligi uning izchilik bilan kengayib oshishiga asos bo'li. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan'.

Bu boradagi vazifalarni samarali hal qilish maqsadida quyidagi tashkiliy-huquqiy choralarini amalga oshirish taklif etildi.

**Birinchi.** 2000 yilda qabul qilingan "Normativ huquqiy hujjatni o'g'risidagi" Qonunni yangi tahririni qabul qilish.

**Ikkinci.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat prosesual kodeksining 29 va 31 noddalariga o'zgartirish taklif qilindi. YA'ni, faqat sud'yani sanktsiyasi asosida

---

YAreshuv institutining joriy etilishi natijasida o'tgan davr mobaynida 100 ming nafarga yaqin uqaro jinoiylar javobgarlikdan ozod etildi.

sudga qadar lavozimidan chetlashtirish yoki boshqa majburlov choralarini qo'shish nazarda tutildi.

Uchinchi. Tezkor qidiruvni samaradorligini ta'minlaydigan "Tezkor qidiruv faoliti to'g'risida"gi qonunni qabul qilish taklif etildi.

## II.Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.

Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida, ayniqsa, oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

"Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

SHu boisdan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi qayd etildi:

Birinchi. "Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" Qonun qabul qilish zarur. Bu, o'z navbatida, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi ma'suliyatini ham ko'p jihatdan kuchaytiradi.

Ushbu qonun davlat hokimiyyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berishi, aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo'lib borishini ta'minlashi lozim.

Ikkinci. Demokratlashtirish jarayonlarida ahamiyati tobora ortib borayotgan axborot kommunikatsiyalari sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan "Teleradioeshittirishlar to'g'risida" qonun qabul qilish haqida taklif kiritildi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtida ushbu sohadagi faoliyat ommaviy axborot vositalari, radiochastota spektri, telekommunikatsiyalar, axborotlashtirish to'g'risidagi qonunlarning muayyan muddalari bilan tartibga solib kelinmoqda.

SHu bilan birga, teleradioeshittirishlar sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradioeshittirishlarning yangi shakl va turlarining paydo bo'lishi teleradio dasturlarni tayyorlash va uzatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tizimli va keng ko'lamli ravishda tartibga solinadigan yaxlit qonuniy kuchga kiritish zaruratini tug'dirdi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish, teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televiedenie kabi ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish,

Eleindustriyaning istiqbolli yangi tarmoqlarini tashkil qilish uchun zarur taroitlarni yaratish imkonini beradi.

Bu qonun milliy teleradioeshittirishlar tizimi faoliyatini huquqiy tartibga olish mexanizmlarini va moliyalashtirish manbalarining belgilab berishga, radiochastotalami olish uchun o'tkaziladigan tanlovlarning demokratik va shkoraligini ta'minlash, teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining ionopollashuviga yo'l qo'ymaslik uchun sharoit yaratish va boshqa bir qator nuammolarni echishni nazarda tutadi.

**Uchinchi.** Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash mualliflik huquqlari va intelektual mulkni ishonchli himoya ilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga ozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bevosita bog'liqidir.

Ushbu vazifani amalgal oshirish uchun "**Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida**", "**Ommaviy axborot vositalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida**" gi qonunlarni abul qilish taklif etildi. Bu qonunlar axborot bozori ishtiroychilari faoliyati amaradorligini kuchaytirish va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, o'shimcha iqtisodiy preferentsiyalar yaratish va milliy axborot makonini izchil ivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni malga oshirishni anzarda tutadi.

**To'rtinchi.** Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruvenmlar faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash, hokimiyat va jamoatchilik o'rtaida mustahkam aloqa o'matish borasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida "**Ommaviy axborot vositalari to'g'risida**", "**Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida**"gi va boshqa bir qator qonun hujjalriga tegishli i'zgartish va o'shimchalar kiritish taklif etildi.

SHu bilan birga, siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim hamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozimligi payd etildi.

### **III. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligin ta'minlash va saylov jonunchiligin rivojlantirish.**

Saylovlar demokratik jamiyatning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. "Saylovlar, - deb ta'kidlagan Islom Karimov – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z cohish-irodasini erkin ifoda etishning, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroyining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi hamiyatga ega masaladir".

Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini hakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-Jild.- T: "O'zbekiston", 2011.- 94-bet

SHu munosabat bilan quyidagi qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish maqsadga muvofiqligi qayd etildi.

**Birinchi.** “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi Qonunning 27-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to’g’risida”gi Qonunning 25-moddasiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish taklif etiladi.

Bu, avvalambor partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo’lib borayotgani bilan izohlanadi. SHuning uchun saylov qonunchiligidagi saylov kompaniyasining ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlilikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga keng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutildi.

**Ikkinchi.** “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi Qonunning 27-moddasiga saylovoldi tashviqotini nafaqat saylov kuni, balki, ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin ham olib borish mumkin emasligi to’g’risidagi normani kiritish tavsija etildi.

**Uchinchi.** “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi Qonunning 41-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to’g’risida”gi Qonunning 38-moddasiga qo’shimchalar kiritish taklif etildi. Ma’lumki, joylardagi uchastka komissiyalari aksariyat hollarda qonunchilikda yanada aniq belgilab qo’yishni talab etadigan turli vaziyat va muammoli holatlarga duch keladi. Ulardan bari **muddatidan oldin ovoz berish tartib qoidasi bilan bog’liq muammodir**. SHuning uchun ham zikr etilgan qo’shimchalarining kiritilishi fuqarolarning saylov huquqlari amalga oshirilishini, ularning o’z xohish-irodasini erkin bildirishini, uchastka komissiyalari faoliyatini oshkoralingini ta’minalash va saylov qonunchiligi buzilishi mumkin bo’lgan holatlarga yo’l qo’ymaslik borasida navbatdagi qadam bo’ldi.

**To’rtinchi.** “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to’g’risida”gi qonunlarga “ovozi berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so’rovlarini natijalarini, saylov natijalari prognozlarini va o’tkazilayotgan saylov bilan bog’liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e’lon qilish), shuningdek, ularni umumiyligi foydalananishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog’iga) joylashtirish ta’qiqlanadi” degan normani kiritish maqsadga muvofiq hisoblandi. Ushbu normaning yuqorida ko’rsatilgan qonunlarga kiritilishi saylovchilar huquqlarining yanada ta’sirchan himoya qilinishi, muayyan nomzodga g’arazli munosabatda bo’lish, bu borada saylov qonunchiligi buzilishining oldini olish imkonini berdi.

**Beshinchi.** O’zbekiston Ekologik harakatidan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ochiqligi va oshkoralingini ta’minalash maqsadida “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to’g’risida”gi Qonunning 6-moddasiga O’zbekiston Ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo’yicha konferentsiyalarida

kuzatuvchilarning ishtirok etish huquqini belgilab beradigan qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiqligi qayd etildi.

YUqorida bayon etilgan qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish mamlakatimizda saylov erkinligi huquqi tamoyilining to'liq joriy etilishi va saylov tizimining yanada demokratlashu vigiga xizmat qiladi.

#### V.Fuqarolik jamiyatini institutlarini shikllantirish va rivojlantirish.

Bugungi kunda mamlakat imizda jamiyat hayotining turli sohalarida 6000 dan ziyod nodavlat, notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko'rsatkich 2000 yilga qaraganda 2,5 barobar ko'pdir. Fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatoriga "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitası, "Sog'lom avlod uchun", "Nuroniy" jamg'armalari, "Ijod" fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin.

Bu vazifani hal qilishda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tavsiya qilindi. SHu bilan birga, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif qilindi.

#### VI.Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya'ni, 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tibor markazlashtirilgan ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

SHu borada qabul qilingan o'ta muhim qonun va normativ xujjatlar qatorida Fuqarolik, Er, Soliq va Bojxona Kodekslari, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "CHet ellik investitsiyalari to'g'risida", "CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi qonunlarni qayd etish mumkin.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Xususiy korxona to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar, yanga tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiy hisobda 400 ziyod qonun xujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki, amalga

Oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizm qilmoqda.

**SHu bilan birga, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eziyatmonaviy bozor normalariga muvoysiqligini baholash iqtisodiyot boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatdi.**

Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasi mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'l kiritilgan yoki yaratgan o'z mulkining dahlsizligiga aslo shubha qilmasligi ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, **davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyasidadir**. SHuning uchun ham tadbirkorlar o'z biznesi bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, maxsul hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilish foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Ayni shu maqsadda bozor iqtisodiyotini negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asos kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan "Xususiy mulkni himoya qilish mulkdorlar huquqlarini kafolatlari to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish qabul qilish zarurligi qayd etildi.

Ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliy bank tizimi o'zining barqaror va ishonchli ekanini isbotladi. SHu bilan birga, tizimning yanada mustahkamlanishi **xususiy banklar va xususiy mulklasoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmala mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishni qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xusus kapitalni jalg qilish bilan ham bog'liq**.

SHu munosabat bilan "Aktsiadorlik jamiyatları va aktsiadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni tanqidiy qayta ko'rib, yan tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgila lozimligi qayd etildi. Ushbu qonundagi aktsiyadorlik jamiyatlarini Kuzatuvchilar kengashlari, komissiyalarining roli va ahamiyatini oshirish monotor ya'ni, qo'lida aktsiyasi kam bo'lgan aktsiyadorlarning kafolatlari ko'proq ta'minlash, barcha aktsiyadorlarni va investorlarning aktsiyador kompaniyalari faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutildi.

Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala – mamlakatimiz iqtisodiyotini kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushi yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish masalasi tuchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning yalpi ichki maxsulotida kichik biznesning ulushi foizdan ortib borayotganiga qaramasdan afsuski, bu soha real iqtisodiyotimiz avvalambor, sanoatda etakchi o'rinni egallay olmayapti. Ushbu vazifani hal eti

uchun “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunning yangi tahririni tayyorlash zarurligi qayd etildi. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil qilish yo'llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko'proq erkinliklar berishni ko'zda tutish lozimligi ko'rsatildi.

Bozor munosabatlarining asosi bo'lgan raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi qonun xujjalari katta rol o'yнaydi. Ammo amaldagi “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida”gi Qonun bugungi kunda eskirdi va zamон talablariga javob bermay qoldi. SHuni e'tiborga olgan holda, “Raqobat to'g'risida”gi yangi qonunni ishlab chiqishimiz va qabul qilishimiz zarurligi qayd etildi.

Mamlakatimiz strategik muhim tarmoqlari va korxonalarida aktsiyalarning nazorat paketi, ta'bir joiz bo'sa, “oltin” aktsiyalarni davlat ixtiyorida saqlab qolgan holda, iqtisodiyoning eng muhim etakchi tarmoqlariga xususiy investorlarni jalg qilish va ulardan nodavlat sektor ulushini yanada kengaytirish zarur. Bunda bo'lajak investorlarning barcha toifalariga xususiylashtirish jarayonlarida teng sharoit yaratishni ta'minlash, ularda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, xususiylashtirish bitimlarining ochiqligi va oshkoraligini ko'zda tutish lozim.

SHundan kelib chiqqan holda, bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – iste'mol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e'tibor berishdir.

**YUqoridagi qayd etilgan ustuvorr vazifalar asosida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi qayd etildi:**

- davlat hokimiysi va boshqaruvini demokratlashtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ya'ni, hokimiyatni tashkil qiladigan prezident – davlat boshligi, qonunchilik va ijro hokimiysi o'rtasida muvozanat va barqarorlik yanada mustahkamlash, sud tizimining mustaqilligi va liberallashuvini kuchaytirish bo'yicha islohotlarni davom ettirish;

- axborot sohasida fuqarolar va inson huquqlarining kafolatlarini, saylov erkinligini ta'minlash va saylov erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini takomillashtirish;

- demokratik qadriyatlari va insonlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishining, mamlakatimizda fuqarolik jamiatini shakllantirish-ning amalda muhim omiliga aylanishi zarur bo'lgan fuqarolik institutlarini, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xususan, mahallaning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash;

- faqat keng miqyosli iqtisodiy islohot va o'zgarishlarni biz tanlagan, o'zini amalda to'la oqlagan taraqqiyot modeliga hamohang ravishda davom ettirish

iqtisodiyotimizning barqarorligi va zarur rivojlanish sur'atlarini, hayotimiz sifatini oshirish, dunyo hamjamiyatida munosib o'rinn egallash imkonini beradi<sup>1</sup>.

O'z-o'zidan ravshanki, bunday murakkab va ulkan vazifalarni amalgaloshirish uchun ancha vaqt, balki, yillar talab qilinadi. "Eng asosiy vazifamiz, – deb ta'kidlagan I.Karimov, – mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratlashtirish bo'yicha boshlangan islohotlarni chuqurlashtirish va kengaytirish biz oldimizga qo'yan qo'yan yuksak taraqqiyot marralariga erishish bo'yicha Kontseptsiyada belgilab berilgan aniq maqsadga qaratilgan yo'l-yo'riq va ko'sratmalarini amalgaloshirishni Kompleks dasturini, boshqacha aytganda, shu yo'nalihsidagi Strategiyani ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etishdan iboratdir. Bu haqida gapirar ekanmiz faoliyatimiz negiziga qo'yildigan ushbusatosiy tamoyillarga e'tibor qaratish zarur ekanligini qayd etgan edi"<sup>2</sup>.

**Birinchi.** Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha biz tanlab olgan yo'lning mantiqiy va qonuniy davomi bo'lishini nazarda tutgan xolda ularning uzviyligi, bosqichma-bosqichligi va izchilligini, boshqacha aytganda, tadrijiyligini saqlash shart.

**Ikkinci.** Kontseptsiyada taklif etilayotgan islohot yo'nalihsilar o'zaro uzviy bog'liq ekani va bir-birini taqazo etishini o'zimiz uchun aniq va ravshan anglab olishimiz darkor. SHu ma'noda, lo'nda qilib aytgan, davlat va jamiyat quriliishini izchil asosda demokratlashtirmasdan, mustaqil sud tizimini ta'minlamasdan turib, bozor islohotlarini amalgaloshirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga erishib bo'lmaydi. Bunday talab so'z va axborot erkinligi saylov erkinligini ta'minlash va saylov tizimini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish, eng muhimmi, fuqarolarimizning siyosiy ongi ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish masalalariga ham birdek daxlordir.

**Uchinchi.** Islohotlarimizning ma'no-mazmuni har bir fikrlaydigan inson uchun ochiq va tushunarli bo'lgan, ular shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir fuqaro, har bir insonning amaliy ishiga aylangan taqdirdinga mamlakatimizni yanada isloh etish va modernizatsiya qilishning muvaffaqiyatini ta'minlashimiz mumkin.

**3- masala** YUqorida qayd etilgan ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolni belgilovchi kontseptsiyalarni amaliy ahamiyati bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy sohada erishgan yutuqlarimiz asosida izohlash mumkin. Keyingi yillarda YAIM o'sishi o'rtacha 8%dan oshmoqda. Jumladan, o'tgan yili mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotli 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. 2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoni shaxslar

<sup>1</sup> Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-Jild.- T: "O'zbekiston", 2011.- 63-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba, 67-bet.

uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti ya'ipi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi.

**Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni so'zsiz davom ettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nali shiga aylanishi zarur.**

YA'ipi ichki mahsulot hajmi 2015 yilning sentyabr oylariga nisbatan 7,8 foiz, sanoat hajmi 7,2 foiz, qishloq xo'jaligi hajmi 6,4 foiz, chakana savdo aylanmasi 14,2 foiz o'sdi.

YUqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi, davlat byudjetining ya'ipi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsiti va 2,2 foizni tashkil qilgan inflaytsiya darajasining pastligini ifoda etgan makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash orqali erishildi.

Sanoatni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirishga oid faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar hajmining 9,4 foizga va pudrat-qurilish ishlaringin 15 foizga o'sishi imkonini berdi.

Joriy yil boshidan buyon 2016-2020 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi doirasida 9 mingta yangi servis ob'ekti tashkil etilgani shu yilning to'qqiz oyida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 12,4 foiz va ya'ipi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar ulushini 2015 yilning shu davridagi 51,2 foizdan 51,7 foizgacha oshirish imkonini berdi.

Ana shu vazifalarni amalga oshirishda 2016 yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o'ta muhim o'rinn tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarning eng muhim vositasini bo'lib xizmat qiladi.

2016 yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihasini belgilangan muddatlarda so'zsiz ishga tushirishni ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish lozim.

Birinchi navbatda, Toshkent – Samarcand – Buxoro tezyurar temiryo'l qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlarni yakuniga etkazish, Tollimarjon issiqlik elektr stantsiyasida har biri 450 megavatt quvvatga ega bo'lgan ikkita bug'-gaz turbinasi, Angren issiqlik elektr stantsiyasida 150 megavatt quvvatga ega bo'lgan energiya bloki, Muborak gazni qayta ishlash zavodida 6 milliard kub metr gaz ishlab chiqaradigan uchta olting'uрут tozalash bloki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 70 ming tonna mis eritish quvvatiga ega bo'lgan yangi pech

qurilishini tugallash ko'zda tutilmogda. SHuningdek, Jizzax viloyatidagi tsemen zavodining quvvatini 1 million tonnagacha portlandsement ishlab chiqarish darajasida kengaytirish, "Jeneral motors – O'zbekiston" aktsiyadorlik jamiyatidagi yangi "Aveo" (T-250) engil avtomobili ishlab chiqarishni yo'lga qo'yisl rejalashtirilmogda.

2016 yilda qishloq joylarda 1 million 800 ming kvadrat metrdan ziyo hajridagi 13 mingta uy-joy barpo etish, uzunligi 900 kilometr ichimlik suvi, gaz va elektr tarmoqlari, 325 kilometr yo'l qurish mo'ljallanmoqda.

2016 yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million dolla qiyamatidagi investitsiyalar yo'naltirish, ularning o'sish sur'atini 109,3 foizg etkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard dollardan ortig'in xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi, bu 2015 yilga nisbatan 20,8 foiz ko'pdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'mi tobor mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgai ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina o'tgan yilning o'zida yurtimizd 26 mingdan ziyod kichik biznes sub'ehti ish boshladi, ushbu sektorda faoliya ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni yil oxiriga kelib 190 mingtaga etdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 foiz ayni shu sohada ishlab chiqarilmogda. Vaholanki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 3 foizdan iborat edi.

Ana shu raqamlardan ko'rinish turibdiki, kichik biznes shaklan kichil bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilar ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobor katta rol o'yynamoqda.

**2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturining asosiy qoida va yo'nalishlarini so'zsiz bajarish bo'yicha boshlangan ishlarni 2016 yilda ham davom ettirish eng muhim vazifamizdir.**

Bu borada O'zbekiston milliy avtomagistrallini modernizatsiya qilish ishlarni yakuniga etkazish masalasi diqqatimiz markazida bo'lishi zarur. Buning uchun joriy yilda qariyb 513 kilometr avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish lozim.

Temir yo'l transporti sohasida temir yo'llar tarmog'ini yanada rivojlantirish. Samarqand – Buxoro temir yo'l uchastkasining elektrlashtirishini ta'minlash. Qarshi – Termiz uchastkasini elektrlashtirish ishlarni davom ettirish hal qiluvchi yo'nalishga aylanadi. Qamchiq dovoni orqali o'tadigan 19 kilometrlik tunnell qurilishini yakuniga etkazish va Angren – Pop yo'nalishi bo'yicha temir yo'qatnovini yo'lga qo'yish, hech shubhasisiz, joriy yilning muhim voqeasi bo'ladi. Bu yo'lning ishga tushirilishi Farg'ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o'rtasida temir yo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish imkonini yaratadi.

**Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqur lashtirish, er va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016 yil va yaqin istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning printsiplial muhim yo'nalishidir.**

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fenner va dehqonlarimizning fidokorona məhnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil etishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, selektsiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshqoli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlарini joriy qilish, zamонави agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi.

Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 tsentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 tsentnemi tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir.

SHu bilan birga, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva etishtirildi.

Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishslash, etishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga etkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin o'shib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzlusiz ta'minlash, ushbu mahsulotlami eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda<sup>1</sup>.

**Ijtimoiy sohani rivojlan tirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi.**

2016 yilda ijtimoiy sohaga Davlat byudjeti jami harajatlarining 59,1 foizi yoki o'tgan yilga nisbatan ko'proq mablag' ajratiladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga davlat byudjeti harajatlarining 33,7 foizi, sog'liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo'naltiriladi. Ta'lim-tarbiya sohasini ta'minlash va rivojlantirish sarf-harajatlari o'tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog'liqni saqlash tizimida 16 foizga ko'payadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-Jild.- T: "O'zbekiston", 2011.- 63-bet.

Mamlakatimiz oly o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Joriy yilda 13 ta oly ta'lif muassasasi, jumladan, Qoraqalpog'iston, Buxoro va Samarqand davlat universitetlari, Farg'on politexnika institutidagi qurilish va rekonstruktsiya ishlariiga 355 milliard so'm ajratish ko'zda tutilmoxda. SHuningdek, Toshkent davlat stomatologiya instituti bino lari, Toshkent shahridagi Inha universiteti va Singapur menejmentni rivoj lantirish instituti filiallarining yangi o'quv korpuslari quriladi.

Aholi bandligini ta'minlash masalasi ham eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 2016 yilda 990 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish mo'ljallanmoqda, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik, xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirish hisobidan 660 mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi. 2016 yilda oly o'quv yurtlari, litsey va kollejlarning 510 mingdan ortiq bitiruvchilarini ish bilan ta'm inlashimiz darkor<sup>1</sup>.

Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarни qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sub'ektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Aynan ana shu sohalarda hali foydalanimagan ulkan imkoniyat va salohiyat ko'p. Eksportga mahsulot chiqaradigan sanoat korxonalaridan farqli ravishda kichik biznes sub'ektlari va fermerlar o'z mahsulotlarini eksport qilishdan olgan valyuta tushumlarining 50 foizini banklarga sotish majburiyatidan ozod qilingani va u larning eksportga mahsulot etkazib berishdan, avvalo, o'zlarining manfaatdor bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor.

Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamонавиј axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, "Elektron hukumat" tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdag'i interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmasligimiz zarur.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// "Xalq so'zi", 2016 yil 16 yanvar.

SHuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga to'g'ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2020 yilda bu ko'rsatkich 9 foizdan oshadi.

So'nggi yillarda jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi muttasil o'sib bormoqda, ayni vaqtida nooziq-ovqat mahsulotlarni xarid qilish va xizmatlar uchun to'lanadigan sarf-xarajatlar miqdori ham sezilarli ravishda ko'paymoqda. Masalan, mustaqillik yillarda go'sht iste'moli – 1,4-marta, sut – 1,3 barobar, sabzavot va poliz mahsulotlari – 2,6-marta, kartoshka – 2 barobar, mevalar iste'moli 6,4 karra oshdi.

YUqoridagi ko'rsatkichlar ham ko'rsatmoqdaki, ilgari surilgan g'oya va kontseptsiyalar real hayotda o'z sarmarasini berayotganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasini 2016 yilning to'qqiz oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq

**I. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.**

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan Vazirlar Mahkamasining shu yil 15 yanvarda bo'lib o'tgan majlisida belgilab berilgan 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari izchil amalga oshirilishi va puxta o'ylangan makroiqtisodiy harnda faol tarkibiy siyosatning davom ettirilishi joriy yilning to'qqiz oyida mamlakatimizda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini berdi.

YAlpi ichki mahsulot hajmi 2015 yilning shu davriga nisbatan 7,8 foiz, sanoat hajmi 7,2 foiz, qishloq xo'jaligi hajmi 6,4 foiz, chakana savdo aylanmasi 14,2 foiz o'sdi.

YUqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi, davlat byudjetining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsiti va 2,2 foizni tashkil qilgan inflyatsiya darajasining pastligini ifoda etgan makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash orqali erishildi.

Sanoatni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirishga oid faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar hajmining 9,4 foizga va pudrat-qurilish ishlarining 15 foizga o'sishi imkonini berdi.

Joriy yil boshidan buyon 2016-2020 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi doirasida 9 mingta yangi servis ob'ekti tashkil etilgani shu yilning to'qqiz oyida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 12,4 foiz va yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar ulusini 2015 yilning shu davridagi 51,2 foizdan 51,7 foizgacha oshirish imkonini berdi.

**2016 yilning to'qqiz oyida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari(2015 yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida)**

Ko'rsatkichlar	O'sish sur'atlari
YA Ipi ichki mahsulot	107,8
Sanoat	107,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	106,4
Jami xizmatlar	112,4
CHakana savdo aylanmasi	114,2
O'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi	109,4

2016 yilning to'qqiz oyida sanoat mahsulotlari ko'payishining asosiy qismi qayta ishlash sanoati tarmoqlari tomonidan ta'minlandi. Sanoat mahsulotlaridagi ularning ulushi 2015 yilning shu davridagi 78,2 foizdan 79,7 foizga oshdi.

Xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida tovar ishlab chiqaradigan tarmoqlarda sanoat mahsulotlarining yuqori o'sish sur'atlari erishildi. Xususan, to'qimachilik buyumlari, kiyim va charm mahsulotlari ishlab chiqarish 114,8 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari 113,7 foiz, farmatsevtika mahsulot va preparatlari 123,7 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari 134,1 foiz, qurilish materiallari ishlab chiqarish 112,9 foizga oshdi.

Ishlab chiqarishni rag'batlantirish va tayyor iste'mol tovarlari turini kengaytirish maqsadida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning texnologik uskunalar xarid qilishi hamda aylanma kapitalini ko'paytirishi uchun tijorat banklari 4,4 trillion so'mlik kredit mablag'lari ajratdi. Tayyor tikuvchilik-trikotaj mahsulotlarining 57 yangi turi va 141 modelini, 80 dan ziyod turdag'i yangi dori preparatlari ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

2015-2019 yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining 50 dan ortiq yangi turi, jumladan, neft-gaz-kimyo uskunalar, konveyer uskunalarining ehtiyoj qismlari, avtomobillar spidometri, elektr pechlar, SUV to'playdigan elektr isitgichlar, sport trenajyorlari, bolalar velosipedi va samokatlari hamda boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

2016 yilning to'qqiz oyida Mahalliylashtirish dasturi doirasida qiymati 4091,7 milliard so'mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'sish 2015 yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobomi, import o'mini bosish sanjaradorligi 1,3 milliard dollarni tashkil qildi.

Moliya-bank tizimi barqarorligini ta'minlashga doir kompleks choratadirlarni amalga oshirish jarayonida shu yilning to'qqiz oyida banklar umumiyligi 22,8 foiz, ularning aktivlari 25,5 foiz, banklardagi depozitlar 27,5 foiz ko'paydi. Natijada tijorat banklari mablag'lari hisobidan iqtisodiyotga kredit ajratish hajmi 25,7 foiz o'sdi. Bunda ajratilgan bank kreditlari umumiyligi hajmining

yarib 80 foizini investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar tashkil qildi.

Joriy yil boshidan buyon Investitsiya dasturi doirasida umumiyligi 3,7 milliard dollarlik 100 yirik ishlab chiqarish ob'ekti ishga tushirildi. Jumladan, «Jizzax viloyatidagi tsement zavodini kengaytirish», «JM O'zbekiston» aktsiyadorlik jamiyatida «T-250» rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Talimarjon IESda 450 MVT quvvatli ikkita bug'-gaz turbinasi qurish», «Angren IESda ko'mir kukunidan foydalananishga mo'ljallangan 150 MVT quvvatli energiya bloki qurish», «Indorama Qo'qon tekstil» xorijiy korxonasida yigiruv korxonasi tashkil etish (IV-bosqich), «Sirdaryo viloyatidagi «Guliston Med Texnika» qo'shma korxonasida steril shpritslar ishlab chiqarish» va boshqa loyihibular shular jumlasidadir.

Bundan tashqari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida hisobot davrida qariyb 22 ming loyiha, jumladan, sanoat sohasida 3195 korxonada yangi quvvatlarni ishga tushirish, 162 korxonada yangi faoliyat turlarini yo'lga qo'yish, 264 korxonani modernizatsiya qilish va 653 korxonaning ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishni o'z ichiga olgan 4274 loyiha amalga oshirildi.

Ushbu loyihibularni **amalga** oshirishda joriy yil boshidan buyon 2,65 milliard dollarlik xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2 foizni tashkil qildi. Bu mablag'larning 1,8 milliard dollardan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalaridir. Natijada o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiyligi hajmidan xorijiy sarmoyalar ulushi 21,1 foizdan 22,3 foizga etdi.

Sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihibar, shuningdek, 2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturning hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini o'rtacha 9,4 foiz kamaytirishga erishildi.

**II. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini** tubdan oshirish, eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, eksportda fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishtirotkini har tomonlarma rag'batlantirish

Jahon iqtisodiyotida inqiroz holatlari hamon saqlanib turgan va jahon bozoridagi narxlar eksport salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir sharoitda yurtimiz eksportchilarining tashqi bozordagi o'rnnini saqlash maqsadida xorijga mahsulot etkazib berish hajmini ko'paytirish, eksport qilinadigan mahsulotlar turi va geografiyasini diversifikatsiya qilish, eksport faoliyatiga yangi korxonalarni jalb etish ishlari davom ettirildi.

Joriy yil boshidan buyon yana 835 korxona eksport faoliyatiga jalb etildi, 246 turdagagi yangi mahsulot eksporti yo'lga qo'yildi. Mahalliy mahsulotlarni chetga etkazish geografiyasi 52 ta yangi bozorga ko'paydi. Xususan, Birlashgan Arab

Amirliklari, Livan, Iordaniya, Iraq, Gana, Senegal, Kot-d'Ivuar, Somali, Nigeriya engil avtomobillar, Yaponiya, XXR, AQSH, Isroilga vinomateriallar va vino-aroq mahsulotlari, Polsha, XXR, Turkiya, Janubiy Koreya, Latviya, Afg'onistonga kimyo mahsulotlari, SHvetsiya, Ruminiya, Bolgariya, Turkiyaga mineral o'g'itlar, Belarus, Ozarbayjon, Polsha va Janubiy Koreyaga sport poyabzallari, charm buyumlar va boshqa mahsulotlar eksport qilindi.

Buning samarasida shu yilning to'qqiz oyи yakunlariga ko'ra, tovar va xizmatlar eksport hajmi 2015 yilning shu davriga nisbatan 1,4 foiz o'sdi. Polietilen, trikotaj polotno, ip gazlama, farmatsevtika preparatlari va tibbiyot buyumlari, molibden, volfram mahsulotlari, ammosos, kalsiyashtirilgan soda, yuk avtomobilari va yuqori qo'shimcha qiymatga ega boshqa mahsulotlarni eksport qilish hajmi oshdi.

Mamlakatimizda etishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalgalashirilgani, jumladan, "O'zagroeksport" ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasi tashkil etilgani natijasida joriy yil to'qqiz oyida 543 ming tonnadan ziyod yoki 2015 yilning shu davriga nisbatan 40,4 foiz ko'p ho'l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilindi.

### **III. Muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish**

Joriy yilning to'qqiz oyida 2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturini amalgalashirish faol davom ettirildi.

Jumladan, yangi Angren – Pop elektrorashtirilgan temir yo'l liniyasini qurish va Pop – Qo'qon – Andijon uchastkasini elektrorashtirish ishlari nihoyasiga etkazildi. Samarqand – Buxoro yo'naliishi bo'yicha yuqori tezlikda harakatlanadigan yo'lovchi elektr poezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi. 98 kilometrlik temir yo'l uchastkalari qayta tiklandi, 300 kilometrdan ziyod avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilindi, uzunligi 1000 kilometrdan ortiq xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shahar, qishloq aholi punktlari, tuman markazlari va shahar posyolklari ko'chalari joriy ta'mirlandi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi havo kemalari parkini yangilash» loyihasini amalgalashirish doirasida milliy aviakompaniyamiz parki dastlabki «Boeing 787-800 Dreamliner» samolyoti bilan to'ldirildi.

2013-2020 yillarda telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturining amalgalashirish doirasida joriy yil boshidan buyon zamonaviy texnologiyalardan foydalanan imkonini beruvchi 1756 kilometrdan ziyod keng polosali optik-tolali tarmoqlar barpo etildi va zaxiraga olindi. Davlat axborot resurslari soni 318 taga etkazildi, davlat organlari axborot tizimlari 485 tadan oshdi, 290 turdag'i interfaol xizmatlar joriy etildi. SHu yilning to'qqiz oyida YAgona portal orqali 802 mingdan ziyod xizmatlar ko'rsatildi va o'sish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 barobarni tashkil qildi.

#### **IV. Xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va ularning manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ishtiroki ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish**

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada kamaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida joriy yil to'qqiz oyida qiymati 313,6 milliard so'mlik investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan 373 davlat aktivi xususiy mulkdorlarga sotildi. SHundan 96 davlat aktivi qiymati 294,5 milliard so'm va 27,2 million dollarlik investitsiya majburiyatini olish va 7,4 mingdan ortiq yangi ish o'mi yaratish sharti bilan investorlarga «nol» qiymatda sotildi.

45 aktsiyadorlik jamiyatida xorijiy investorlarga nizom jamg'armasining 15 va undan ko'p hajmdagi davlat ulushlari sotildi. Buning samarasida nizom jamg'armasida davlat ulushiga ega aktsiyadorlik jamiyatlar soni o'tgan yilning shu davridagi 302 tadan 183 taga tushdi.

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari dasturi amalga oshirilishi doirasida joriy yilning to'qqiz oyida qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza tashkil etish hamda uni takomillashtirish ishlari davom ettirildi.

Xususan, tovarlarni (ishlar, xizmatlar) elektron tijorat shaklida sotishni tartibga soladigan Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari tasdiqlandi. Qurilishning barcha bosqichlarida tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari doirasida yagona qoida va talablar belgilandi, bino va inshootlar tashqi ko'rinishini o'zgartirish, ob'ektlarni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilishga, shuningdek, turar joylarni noturar joylar toifasiga o'tkazishga ruxsat berish talablari joriy etildi. Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va choralarini kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulknini har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartish, huquqbazarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbazarliklarga yo'l qo'yimaslik davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilangani bu boradagi ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida joriy yil to'qqiz oyida kichik biznes sub'ektlariga 12,6 trillion so'mlik kreditlar ajratildi va o'sish 2015 yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobarni tashkil qildi. Jumladan, qiymati 2,7 trillion so'mlik mikrokreditlar ajratildi, xalqaro moliya institutlarining 185,7 million dollar miqdoridagi kredit liniyalari o'zlashtirildi.

Joriy yilning to'qqiz oyida «E-ijro» idoralalararo elektron hamkorlik tizimini faol joriy etish asosida tadbirkorlik sub'ektlariga «YAgona darcha» markazlari orqali 75 mingdan ziyod davlat xizmatlari ko'rsatildi.

Xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar va xomashyo bozorlaridan foydalanishi kengaytirilishi tufayli Respublika tovar-xomashyo birjasida davlat xaridları bo'yicha o'z tovar va xizmatlarini etkazib beruvchi sifatida ro'yxatga olingan kichik biznes sub'ektlari soni 12,7 foizga ko'paydi va 41 mingdan ortiq sub'ektni yoki davlat xaridları ishtirokhchilari umumiy sonining 97,6 foizini tashkil qildi.

Kichik biznes korxonalari o'z mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarishga yordam berish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida Mahsulotlar eksportiga ko'maklashish byurosi tomonidan joriy yil boshidan buyon 1,1 mingdan ziyod korxonaga maslahat xizmati ko'rsatildi, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlash, akkreditatsiya, mahsulot eksporti, xalqaro va davlatlararo talablarni joriy etish bo'yicha 40 dan ortiq xalqaro shartnoma tuzildi.

Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yanada rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar shu yilning to'qqiz oyida 23,6 mingdan ortiq yangi kichik biznes sub'ekti tashkil etish imkonini berdi. Natijada yalpi ichki mahsulotda kichik biznes ulushi 54,6 foiz (2015 yilning to'qqiz oyida bu ko'rsatkich 53,6 foiz bo'lgan), sanoatda 43,8 foiz (38,7 foiz), investitsiyalarda 38,3 foiz (33,5 foiz), chakana savdo aylanmasida 89,9 foiz (87,3 foiz) va bandlikda 77,8 foiz (77,5 foiz) oshdi.

#### **V. Qishloq xo'jaligida islohotlar va tarkibiy o'zgarishiarni yanada chuqurlashtirish, er va suv resurslaridan samarali foydalanish**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi va samaradorligini yanada oshirish, meva-sabzavot mahsulotlari etishtirish uchun ekin maydonlarini kengaytirishga qaratilgan 2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish va rivojlanadirish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 foizga oshirish imkonini berdi.

2016 yilning to'qqiz oyida paxta maydonlarini 30,5 ming gektarga qisqartirish va bo'shagan erlarga ichki hamda tashqi bozorda talab yuqori bo'lgan meva-sabzavotlar ekish hisobidan ekin maydonlari tuzilmasi optimallashtirildi. Bundan tashqari, 8,2 ming gektar maydonda yangi intensiv bog'lar, 5,2 ming gektarda tokzorlar tashkil etildi. 6 ming gektar maydondag'i bog'lar va 3,5 ming gektardagi tokzor qayta tiklandi. 532 gektar maydonda 9,9 mingta zamонави issiqxona barpo etildi. Qishloq xo'jaligi erlarining unumdorligini yanada oshirish maqsadida 2013-2017 yillarda sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish davlat dasturini amalga oshirish doirasida shu yilning to'qqiz oyida uzunligi 734,6 kilometrlik kollektor, 229 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 846 ta quduq, 50 ta gidrotexnik inshoot va 7 nasos stantsiyasi barpo etildi va rekonstruktsiya qilindi.

2016-2020 yillarda meva-sabzavotlami saqlash bo'yicha moddiy-texnik bazani mustahkamlash va rivojlantirish chora-tadbirlarini amalgga oshirish doirasida «O'zbekoziqovqatzaxira» uyushmasining hududiy kompaniyalari, fermer xo'jaliklari va boshqa korxonalar tomonidan 64,6 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun 164 yangi sovutish kamerasi tashkil etildi.

SHu yilning o'tgan davrida murakkab ob-havo sharoitlariga qaramasdan amalgga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mo'l qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirildi va yig'ib olindi. Jumladan, 2,3 million tonna kartoshka, 8,2 million tonna sabzavot, 1,5 million tonna poliz mahsulotlari, 1,2 million tonnadan ortiq uzum, 2 million tonna meva va rezavorlar tayyorlandi.

Joriy yil boshidan buyon chorvachilik sektori salohiyatini yanada oshirish maqsadida tijorat banklarining qiymati 380 milliard so'mdan ziyod kreditlari hisobidan qoramol boqish, parrandachilik, asalarichilik xo'jaliklarini rivojlantirish va baliq etishtirishni ko'paytirish bo'yicha 5,2 mingta loyiha amalgga oshirildi.

Natijada shu yilning 1 oktyabr holatiga ko'ra, qoramollar umumiy soni 11,6 million boshga (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,4 foiz) etdi, to'qqiz oy davomida 1,6 million tonna go'sht (106,6 foiz), 6,9 million tonna sut (106,9 foiz), 4,5 milliard donadan ortiq tuxum (110,8 foiz) va boshqa mahsulotlar tayyorlandi.

#### **VI. Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi hayot darajasi va sifatini yanada yuksaltirish, «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturini amalgga oshirish**

Ta'lim va tibbiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilashga oid chora-tadbirlarni amalgga oshirish doirasida ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish hamda rekonstruktsiya qilish, ularni zarur inventarlar bilan jihozlash uchun yil boshidan buyon qiymati 919,5 milliard so'mlik kapital qo'yilma o'zlashtirildi.

Budjetedan tashqari Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan oliy ta'lim muassasalarini ob'ektlarini qurish hamda rekonstruktsiya qilish uchun 201,3 milliard so'm o'zlashtirildi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan sport inshootlari qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha qiymati 285,5 milliard so'mlik ishlar bajarildi.

Umuman, joriy yil boshidan buyon 86,3 ming o'quvchiga mo'ljallangan 236 umumta'lim maktabi, 1,1 ming o'quvchiga mo'ljallangan 2 akademik litsey, 2,3 ming o'quvchiga mo'ljallangan 21 kasb-hunar kolleji, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun 550 o'rinci 4 yotoqxona, 24 tibbiyot muassasasi, 15 musiqa va san'at maktabi, 232 bolalar sporti inshooti va boshqa ob'ektlar barpo etildi.

Aholi turmush sifatini yanada yaxshilash maqsadida hisobot davrida yangi qishloq massivlarida zamонави loyihalар asosida 12 mingdan ortiq yakka tartibdagi shinam uylar foydalanishga topshirildi.

Barpo etilayotgan qishloq uy-joy massivlarida 453 kilometrlik suv ta'minoti tarmog'i, 256 kilometrlik gaz, 323 kilometrlik elektr tarmoqlari tortildi, 283 transformator nimstansiyasi o'rnatildi.

Umuman olganda, joriy yil boshidan buyon mamlakatimizda 10,1 million kvadrat metr, jumladan, qishloq joylarda 7,6 million kvadrat metr uy-joylar, 1,6

ming kilometrdan ziyod, xususan, qishloq joylarda 1,3 ming kilometr suv ta'minoti tarmoqlari buniyod etildi.

Aholi daromadlari, hayot darajasi va sifatini muttasil oshirishni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi joriy yil boshidan buyon o'rtacha oylik ish haqini 12,6 foiz oshirish imkonini berdi. SHu yilning 1 oktyabridan byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori yana 15 foizga ko'paydi.

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturini hayotga tatbiq etish doirasida 2016 yilning to'qqiz oyida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, mustahkam, sog'lom va ahil oilani shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyyati organlari va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish ishlari amalga oshirildi. Bu ishlarni moliyalashtirish uchun barcha manbalar hisobidan 6,8 trilliondan ortiq so'm va 150 million dollar yo'naltirildi.

Joriy yil boshidan buyon oila qurayotgan yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, bolalarni 12 ta boshqariladigan infektsiyaga qarshi profilaktik emlash, homilador ayollarni skrining tekshiruvidan o'tkazish, ularni polivitamin bilan bepul ta'minlashga doir faol ishlar olib borildi.

2016 yilning to'qqiz oyida O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari mamlakatimizni isloh etish, modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida ishlab chiqilgan va islohotlarni amalga oshirishning besh mashhur tamoyiliga asoslangan strategiyani maqsadli harnda tizimli amalga oshirish samarasida global iqtisodiy rivojlanish sur'atlari susaygani va jahon bozorida kon'yunktura yomonlashuviga qaramay, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik hamda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanayotganidan dalolat beradi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqilligimizning 25 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaatida ta'kidlaganidek, «Biz erishayotgan ulkan marra va natijalar ko'zlagan maqsadlarimizning faqat ma'lum bir qismini tashkil etadi». SHu bois joriy va kelgusi yillarda demokratik yangilanish bo'yicha boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, xususiy mulk ulushini oshirish va uning ustuvorligini ta'minlash, **mamlaketimizda aholining tadbirkorlik daromadini** muttasil ko'paytirish uchun zarur sharoitlar yaratish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash iqtisodiy siyosatning eng muhim vazifasidir.<sup>1</sup>

### **Taqrorlash uchun savollar:**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oya va kontseptsiyalarning zaruriyatini asoslang.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasini 2016 yilning to'qqiz oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida // "Xalq so'zi", 2016 yil 21 oktyabr

2. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolini belgilovchi qanday kontseptsiyalarni bilasiz?

3. Prezident Islom Karimovning milliy mafaaatlarga asoslangan tashqi va ichki siesatida mamlakat mustaqilligini asras **h** va xavfsizligini ta'minlash kontseptsiyasining mohiyati nimadan iborat?

4. Mintakaviy xavfsizlik arxitekturasi yaratishda O'zbekistonning roli nimadan iborat?

## X-MAVZU: GLOBAL IJTIMOIY-IQTISODIY O'ZGARISHLAR VA MILLIY G'OYA GA EHTIYOJ ISTIQBOLLARI

**Reja:**

1. Inqroz tushunchasi, uning global ko'rinishdagi mohiyati.

2. Jahon moliyavyj inqrozi global inqrozinning tarkibi qismi. O'zbekiston sharoitida uni barqaror etishning yo'llari va choralar.

3. Global inqrozlar sharoitida milliy g'oya ga ehtiyojning oshib borishi.

**1-masala.** Inqroz (arab orqa ga ketish, pasayish, tugash, oxir bo'lish, bitim) – ma'lum bir voqelikning tabiat va jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlariga zid kelib qolishi, muayyan talablarga javob bera olmasligi tufayli yuz beradigan tanglik holatini anglatadigan tushuncha<sup>1</sup>.

Inqrozlar turli sohalarda, jumladan, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy, global, mamlakatlararo, mintaqalararo va boshqalarda yuzaga kelishi mumkin.

Keltirilgan shakklardagi inqrozlar (globaldan tashqari) insoniyat, mamlakatlar, mintaqalar, millatlar hayotida turli darajada bo'lib o'tgan. Hayratli tomoni shundaki, insoniyatning intellektual salohiyati oshib borgan sari ular qamrovi jihatidan kegayib borgan va shiddatli ravishda namoyon bo'lib kelgan.

XXI asrga kelib barcha sohalarni o'ziga qamrab oluvchi Global inqrozinning vujudga kelganligi insoniyatda xavotir uyg'otmoqda. CHunki, Global inqroz oxiroqibatda insoniyat boshiga tuzatib bo'lmaydigan fojialarni keltirib chiqarish xavfni yuzaga keltirmoqda. Bugun dunyo xalqlari quyi dagi global inqrozlar davrida yashamoqda.

"TSivilizatsiya global inqirozi o'zi kabi global sohaviy inqirozlarni keltirib chiqardi. Masalan, rasmiy **tibbiyot inqirozini** olaylik. Uning kamida uch sababini ko'rsatish mumkin.

**Birinchi sabab** shundaki, rasmiy (ilmiy) tibbiyot hamisha kasallikning o'zini emas, balki, uning oqibatlarini davolash bilan shug'ullanib keldi. Zero, u kasallikni inson jismoniy vujudi bilan bog'liq, deb hisoblab, bu vujudning sohibi, egasi, bosaqruruvchisi **bo'lgan ruhni, qalbni** (g'oyaviylikni) inkor etib keldi. Vaholanki, qadimgi mutafakkirlar (masalan, Platon, Gippo krat kabi) kasallik ildizini

<sup>1</sup> Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati.- T., 2009, 223-bet.

bemorning ruhiyatida, deb ko'rsatganlar. Bu rasmiy tibbiyot inqirozining ma'navi asosini tashkil etadi.

Ikkinchisabab tibbiyot inson vujudiga bir butun, yaxlit yondashmayd balki, ayrim a'zolari bir-biri bilan murakkab bog'liqligini hisobga olmasda davolash bilan shug'ullanib kelganidadir. Buning natijasida u inson organizminin bir (yoki bir necha) a'zosini davolar ekan, boshqa a'zolari holatini nazardan soq qiladi. Natijada nazardan soqit bo'lgan a'zolarning ham kasallanishiga olib kelad. Hozirgi davr kishisida immunitetning yalpi zaiflashganida, qolaversa, irlisyat har buzilayotganida uchinchisababni ko'rish mumkin.

Immunitet buzilishi esa, rasmiy tibbiyotga bog'liq bo'limgan sabab bo'lit tibbiyot unga qarshi tura olmayapti. Zero, bu sabab texnika va texnologiy yutuqlarini chuqurroq, o'ylamay-netmay amaliyotga keng qo'lla kelinayotganidadir. YA'ni, bu yutuqlar nafaqat inson yashab kelgan iqlir ritmlarining buzilishi va tibbiy muhitdag'i zarali o'zgarishlarga – er, suv, havonin iflosanishiga, kislotali yomg'irlar yog'i shiga, gullagan bog'u rog'larning qurishig va h.k. – bir so'z bilan aytganda, ekologik inqiroz, balki, inson organizmi himoy quvvatining ham sezilarli susayib borishiga ham olib keldi. SHularning hammas endilikda tibbiyotning boshi berk ko'chaga kirib qolishiga, ya'ni, inqirozg uchrashiga olib keldi.

Ekologik inqiroz esa jamiyat va tabiat (biosfera) orasidagi muvozanatning buzilishi, ya'ni, ona zaminmiz tabiatini bundan buyon kishilik jamiyatining o'ziga nisbatan nooqilona munosabatini, bebosliklarini, tajovuzlarini ortiq ko'tara olma qolishi oqibatidir.

Aslida zamonaviy tibbiyot inqirozining o'zi ham xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'layotgan antropologik inqirozning qismlaridan biridir. Antropologil inqiroz xillari "orasida eng asosiysi, - deb ko'rsatadi taniqli rus faylasufi, akademik V.S.Stepin, - insoniyat evolyutsiyasining millionlab yillar mobaynida shakllangani genofondi poydevorida sodir bo'layotgan kuchli o'zgarishlar bo'lib, ikkinch sababi, atrof muhitning bevosita ta'siri (kimyoviy va radioaktiv ta'sirlar iflosanish) bo'lsa, ikkinchisi (turli kasalliklarni tug'diruvchi mikrob va virusla tufayli kelib chiqadigan) bilvosita ta'sirladir. Vaholanki, kishilik jamiyat genofondining saqlanishiga xizmat qiluvchi tabiiy omillar (ya'ni, tabiiy tanlanish faoliyatining aniq chegaralari bor. Masalan, tanlanish vazifasini bajaradigan urushlarda asosan sog'lom, nasl qoldira oladigan odamlar qirilib kelgan. Katta tezlik bilan o'zgarib borayotgan nobarqaror ijtimoiy vaziyatlar va barcha sohalardan sodir bo'layotgan raqobotlar ichida kechayotgan hozirgi ijtimoiy hayot esa o'stresslari bilan antropologik inqirozni kuchaytirmoqda.

Boshqa tomonidan qaraganda, tabiat bilan jamiyat orasidagi muvozana buzilishining ham kamida ikkita asosiy sababi bor. Birinchidan, iqtisodiy iste'molchilikka asoslangan texnogen tsivilizatsiyaning tabiatga nisbatan zo'ravonligi bo'lsa, ikkinchisi, Erda ba'zi mamlakatlarda aholi sonining juda ortil ketishi, ba'zi mamlakatlarda esa, aksincha juda kamayib ketishi bilan bog'liq demografik inqirozdir.

Birinchi sabab natijasida, endilikda tabiat nafaqat jiddiy zarar ko'rdi, balki, uning insonga kerak bo'lgan ne'matlari zaharlandi, asosiy quvvat zahiralari, tabiiy resurslar tamom bo'la boshladi. Bu esa, **resurslar inqiroziga** olib keldi. Mazkur inqiroz esa, o'z navbatida, tabiat resurslaridan foydalanan etikasining yo'qligi va umuman olganda, na fan va na uning amaliyotga qo'llanish shakllari **bo'lgan** texnika va texnologiyada axloqiy mezonlarning butkul e'tibordan chetlatilishi bilan va davlat tuzilmalarida shunga muvofiq tashkilotlar juda kech shakllangani, har bir yangi ilmiy va texnik-texnologik kashfiyotlarning amaliyotga tadbiqi oqibatlari tegishli nazorat ostida bo'lmayani, bunday tashkilotlar endilikda bor bo'lsa, hamki, hamon korruptsiya va poraxo'rlik qaror topgan muhitda samara bermayotgani kabi sabablar bilan bog'liq.

Iqtisodiy, **moliaviy inqirozlar** va ular bilan uzviy bog'liq bo'lgan turli ijtimoiy guruh va qatlamlar orasidagi nizolaming keskinlashuvini ayrim xalqlar o'rtasidagi qon to'kilishlarning oldini olib bo'lmayotgan siyosiy **inqirozlarga** olib kelmoqda. Hatto keyingilarining keskinligi ekologik krizisnikidan kam bo'lmayapti. CHunki, bularning o'zi ham keng miqyosli va chuqr **ijtimoiy inqirozni** keltirib chiqargani ham tabiiy.

Manzara postsovet davri kishisida javobgarlik, mas'uliyat hissi mutlaqo qolmaganidan, uning hakalak otgan nafsin jilovlaydigan tizgin ham yo'qolib bitayozganidan, bunday sharoitda kim nima xohlasa shuni qila boshlaganidan, bir so'z bilan aytganda, odamlar **ahloqiy inqirozni** ham boshdan kechirayotganlardan dalolat beradi. Vaholanki, mazkur ahvol faqat Sobiq Ittifoq davri moddiyunchi ma'naviyatning, ya'ni, moddiy ehtiyojlarni qondirishni birinchi o'ringa qo'yib kelgan dunyoqarash maskurasining sarqitlarining natijasi emas, balki, ko'p darajada postsovet fuqarolarining **informatsion ochiq jamiyat** sharoitiga kirib kelgani, ayniqsa, eng yangi informatsion texnologiyalardan taralayotgan umumjahon ma'naviy illatlarining ma'naviy bo'shiqliqa kirib kelayotgani oqibati hamdir. Zero, bu texnologiyalardan taralayotgan axborotning juda katta qismi hozirgi G'arb ma'naviy inqirozinini o'zida gavdalantirayotgan insoniy **qadriyatlar inqirozining** va undan kelib chiqayotgan sub'ektiv inqirozlarning mahsulidir. SHu ma'noda G'arbdan boshlangan ma'naviy "kasallik hamma yoqqa taralib ketmoqda", deyish mumkin.

YUqorida sanab o'tilgan inqirozlar orasida oila inqirozi alohida diqqatga sazovor. Inqirozning bu shakli global emas, balki, lokal harakterga ega bo'lib, asosan rus faylasuflari ishlarida muhokama etilmoqda. Ularning oila muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida Rossiyada bugungi kunda bu muammo nafaqat echilishi, balki, adekvat tarzda tushunilishi qiyin bo'lgan, oqibatini tasavvur etib bo'lmaydigan keng ko'lamli fojaga – oilaning parchalanib ketishiga, ya'ni, oila inqirozi muammosiga duch kelinganini ko'rsatmoqda. Oilaning parchalanishi esa, bu "jamiat to'liq ma'naviy tanazzulga uchrayotganini, bu esa oxir-oqibatda Rossiyaning o'zini ham mayjudligi bo'lishi uchun jiddiy xavf tug'dirayotganini ko'rsatadi".

Barcha postsovets mamlakatlaridagi kabi bizda ham yangi jamiyat qurishday murakkab jarayon “o’ta murakkab sharoitda – mustabid sho’ro tuzumi barboq bo’lgan va yangicha ijtimoiy munosabatlар qoror topayotgan keskin bi vaziyatda”, tashqi mafkuraviy tahdidilar, global inqirozlar va informatsion ochiqliq sharoitida kechayotganini hisobga olishni taqazo etadi. Zero, buning uchur jamriyatda, avvalo, global ma’naviy inqirozni jilovlaidigan kuchli madaniya shakllanishi kerak. Lekin bu oson kechadigan jarayon emas, balki, juda kuchli siyosiy hushyorlik va irodani, bilish va amaliy faoliyatning noananaviy usullarini noyob iste’dod va imkoniyatlarni safarbar etishni taqazo etadigan jarayondir.

Hozirgi davrda jahon miqyosida yosh avlodni, ya’ni, bo’lajak olimlarni rahbar hodimlarni, kasb-hunar egalarini etishtirish ishida ham inqiroz hukm surayotganini, ya’ni, ta’lim-tarbiya inqirozi sodir bo’layotganini ham qayd etish joiz. Bularning hammasi globallashuv jarayoni haqida optimistik xulosa chiqaril bo’lmasligini ko’rsatmoqda.

Bugun insoniyat o’z boshidan kechirayotgan global inqirozlardan qutilish o’miga, uning yanada chuqurlashuvi sharoitida yasharnoqda. Bu inqirozlarining yuzaaga kelishiga insoniyatning o’zi bиринчи navbatda sabab bo’lmoqda. CHunki uning ehtiyojlarining oshib borayotganligi va ayni paytda uni jilovlash o’miga unga erishish yo’lidagi intilishning kuchayganligi turli sohalarda inqirozlarining yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Insoniyat ularning og’ir oqibatlarga olit kelishini bugun anglab etmasa, ertaga kech bo’lishi mumkin.

YUzaga kelgan *inqirozlarni bartaraf etish va insonlarning barqaror hayot kechirishi uchun, fikrimizcha:*

- a) insoniyat bu inqirozlarining mazmun, mohiyatini, oldi olinmasa og’ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bugun anglab etishi;
- b) bu inqirozlarining harakterli xususiyati shundaki, ular eng avvalo iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan mamlakatlarda yuzaaga kelayotganligidadir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, iqtisodiy farovonlik hali yuksak taraqqiyotni bildirmas ekan, buning uchun insonni botiniy salohiyatini ham rivojlantirish zarur bo’lar ekan. YA’ni, ma’naviy qashshoqlashuv oxir oqibatda iqtisodiy inqirozlarini yuzaga keltirishi ham muqarrardir;

v) yuzaga kelgan global inqirozlarni butun insoniyat birgalikda hal etishi mumkinligini va buning uchun o’z manfaatlarni umuminsoniy manfaatlar bilan uyg’unlashtira bilishi darkor. Bunda yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlar etakchilik qilishini bugungi o’ta murakkablashib borayotgan vaziyat va sharoit taqozo qilmoqda.

SHuni alohida ta’kidlash lozimi, global inqirozlarining oshib borishi sharoitida mamlakatimiz yoshlari, o’zлари tanlagan soha bo’yicha chuqr bilimga ega bo’lishlari va barqaror taraqqiyotimiz uchun fidoyilik ko’rsatishlari lozim bo’ladi. Global inqirozlar mamlakatimizning himoyalananish imkoniyatini mustahkamlashda muhim omil bo’ladi.

**2-masala.** Bu masalani Prezidentimizning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar” asarida

ilgari surilgan quyidagi g'oyalarni o'rganish zarur bo'ladi: "Bugungi kunning eng dolzarb muammosi — bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida. Bu inqiroz Amerika Qo'shma SHtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalaming likvidlik, ya'ni, to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va akpiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Hozirgi vaqtda bir qator etakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariiga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi **xulosa** larga kelmoqda.

**Birinchidan,** moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faoliyat ko'laming cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmning kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariiga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

**Ikkinchidan,** avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarni ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo'kdigini ham tasdiqladi.

**Uchinchidan,** moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'larni va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. YA'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuv'i va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijasida — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq.

**To'rtinchidan,** jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarni engillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

2008 yil noyabr oyida Vashingtonda, jahon yalpi mahsulotining 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida bo'lib O'tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko'lami tobora kengayib borayotganini tasdiqladi.

Ushbu sammitda bo'lib o'tgan muhokamalar shuni ko'rsatdiki, bugun jahon moliyaviy inqirozining oldini olish haqida so'z borayotgani yo'q, balki, undan qanday qilib chiqish yo'llari izlanmoqda, xolos. YA'ni, bu masalada vaziyat shu darajaga etdiki, endi **avvalgi** marralarga qaytish haqida so'z yuritishga asos yo'q.

Muhokamalarda inqirozni keltirib chiqargan sabablar tahlili bo'yicha sammit ishtirokchilarining yagona yondashuvga ega emasligi, shu bois ushbu global moliyaviy inqirozning jiddiy va uzoq davom etadigan oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan umumiy va samarali dastur ishlab chiqish haqida gapirishga hali erta ekanai ayon bo'ldi.

SHu bilan birga, mazkur sammitning bo'lib o'tgani, unda jahon moliya inqirozi bilan bog'liq muammolar va vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinganining o'zi umid uyg'otadigan ijobji hol ekanai shubhasiz.

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'rildigan zararning darajasi va ko'lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'likligini isbotlash qiyin emas.

O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali **biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarmizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo, "shok terapiysi"** deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik.

**Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayoni da tadrijiy yondashuvni, "Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzrnang" degan hayotiy **tamoyilga** tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llini tanladik.**

Eng muhimmi, parokandalik va boshboshdoklik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida **mas'uliyatni o'z zimmasisiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik.**

Mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi.

SHu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoklarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zaxiralalar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mayjud ekanini ta'kidlash jozi.

Hech kimga sir emaski, bugun keng ko'lamda tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri — bu banklar likvidligi, ya'ni, to'lov qobiliyatining zaifligi bilan bog'liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag'larining etishmasligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda esa birgina tijorat banklarining aktivlari miqdori, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq shakllangan zaxiralarni hisobga olgan holda, 13 trillion 360 milliard

so'mdan oshadi. Bu aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning jalg qilingan depozitlari hajmidan taxminan 2,4 barobar ko'p demakdir.

Bank aktivlari hajmining sezilarli darajada oshganini hisobga olib, bugungi kunda respublikamizda aholining banklardagi barcha depozitlarini davlat tomonidan yuz foiz kafolatlash ta'minlanmoqda.

Bu borada 2006 yilda tashkil etilgan "Mikrokreditbank"ning faoliyati xususida alohida to'xtalish joiz. Mamlakatimiz hududlarida 78 ta filiali va 270 dan ziyod minibanki faoliyat ko'rsatayotgan mazkur bank kichik biznes va xususiy tadbirdorlik tarmog'ini kreditlar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2007-2008 yillar davomida ushbu bank aktivlari miqdori 3,5 barobar, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni kreditlash hajmi 4 barobarga oshdi va bu maqsadlarga 150 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Prezident farmoni asosida "Mikrokredit-bank" ustav jarng'armasini 72 milliard so'mga oshirish va uning hajmini 150 milliard so'mga etkazish haqida qaror qabul qilindi.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotarning reytinglarida o'zining ijobilif ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki "Biznes yuritish" reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

SHuni alohida qayd etish kerakki, "yangi biznesni qo'llab-quvvatlash" deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. Kichik biznes sub'ektlariga kredit berish ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

Jahon bankingin ma'rzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirdorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Ana shu yo'nalishdagagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga etgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i — shunga e'tibor bering — mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isbotidir.

Yana bir masala — tashqi qarz va uni uzish muammolari bilan bog'liq. *Ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasi* dagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zuif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo'ygan.

O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha ja'l etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda.

Qarzni o'z vaqtida qaytara olishga qat'iy ishonchimiz va kafolatimiz bo'lmas paytlarda muayyan loyihalarni kreditlash bo'yicha ayrim takliflardan voz kechishga majbur bo'lindi.

Tijorat banklarimizning tashqi majburiyatlar bo'yicha to'lovlarining holati va hajmi masalasi bo'yicha so'z yuritganda hech qanday xavotirga o'r'in yo'q. Bu ham respublikamiz bank tizimi jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalanganini ko'rsatadi.

O'zbekiston o'zining ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor ekamini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini ja'l etish bo'yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganini amalda isbotlamoqda.

2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar ja'l etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir. Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.

Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asosiz tarzda o'sishining oldini olishga doir choratadbirlar ham izchillik bilan amalgalashmoqda. Bu esa el-yurtimizning farovonligini yuksaltirish, aholining harid qobiliyatini oshirishni ko'zda tutadigan eng muhim ustuvor maqsadlarimizga to'la mos keladi.

Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkin, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi.

Barchamiz bir haqiqatni anglab etishimiz lozim — **O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi**. Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqlarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan etakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalgalashmoqda, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. SHu bois, global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariiga ta'sir etayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, Neft mahsulotlari, mineral

o'g'itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, ko'jalik yurituvchi sub'ektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi.

SHubha yo'q, jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Avvalombor, keyingi davr mobaynida mamlakatimizning iqtisodiya va moliyaviy salohiyatining puxta poydevorini, moliya-bank tizimining ishonchli boshqaruv mexanizmlarini o'z vaqtida shakllantirib va mustahkamlab oлganimiz bunga kafolat va asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

Mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini, bugungi va ertangi kutiладigan ta'sirini hisobga oлgan holda, qat'iy, har tomonlama o'ylangan keng ko'lamli loyihibar bugun amalgalashmoqda.

Albatta, mamlakatimizda bunday chora-tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni engish, hech shubhasiz, ko'p jihatdan hammamizdan avvalo mas'uliyatimizni teran his qilishni, barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi<sup>1</sup>.

**3-masala.** Juhon moliyaviy iqtisodiy inqirozi dunyoning bir qator mamlakatlarida sodir bo'ldi. Ular bora-bora barcha mamlakatlarga o'zining ta'sirini o'tkazdi. Bugungi kunga kelib bu inqirozlar sekinlik bilan hal etilish tomonqa qarab bormoqda. Eng asosiysi, mamlakatimizda bu inqirozlar deyarlik sezilmadi. Bunda respublikada ishlab chiqilgan chora-tadbirlar katta aharniyatga ega bo'ldi.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda katta yutuqlarga erishmoqda. Bu yutuqlarni 2015 yil misoldida ko'rishimiz mumkin. Prezidentimiz o'zining Mamlakatimizni 2015 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturing eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida qilgan ma'rurasida quy'idagilarni ta'kidladi:

Biz bugun 2015 yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

2015 yilda amalgalashmoqda oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferentsiyalar yo'lini oshib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va toriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlari va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobjiy ta'sirini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yillari va choralar - T.: "O'zbekiston", 2009. -3-13 beellar

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'lди.

Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lган Jahon iqtisodiy forumi reytingi giga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha **dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgadi**.

Bundan tashqari, 2015 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida **Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lган 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi**.

O'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tizimining jami kapitali 2014 yilga nisbatan 23,3 foiz ko'payib, 7 trillion 800 milliard so'mga etdi. So'nggi 5 yilda mazkur ko'rsatkich 2,4 barobar o'sdi. Bank tizimi kapitalining etarilik darajasi qariyb 24 foizni tashkil qildi. Bu umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko'rsatkichlardan 2 marta ko'pdir.

Jahon miqyosida savdo-sotiq ishlarining o'sish sur'ati sezilarli darajada sustlashgani, eksport qilinadigan eng muhim tovarlarga nisbatan tashqi talabning kamayishi va narxlarning pasayishiga qaramasdan, **biz tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldoga erishdik**. Bu esa davlatimizning oltin-valyuta zaxirasi oshirish imkonini berdi.

Davlat qarzi darajasining pastligi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 18,5 foizdan oshmagani ham mamlakatimizda erishilgan ijobiy natijalar va makroqitsodiy barqarorlik mustahkamlanayotganidan **dalolat beradi**. O'ta og'ir va murakkab vaziyatda qo'lga kiritilgan bunday yutuq va marralar avvalo chuqur va atroflichcha o'ylangan siyosatning natijasi bo'lib, ularning zamirida mehnatkash, mard va matonatli xalqimizning qahramonona mehnati mujassam ekanini ko'rish mumkin.

Davlat aktivlarini xususiyashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo'yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Masalan, 506 ta mulk kompleksi tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan "nol" qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. Bu borada ana shu investorlar qariyb 1 trillion so'm va 40 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish, shuningdek, 22 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish majburiyatini olganini qayd etish lozim.

SHu bilan birga, 245 ta kam rentabelli va faoliyat ko'rsatmayotgan tashkilot to'liq tugatildi. Xususiyashtirish dasturida ko'zda tutilgan, foydalanimayotgan va

qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki ob'ekti buzilib, buning natijasida 120 hektar hajmidagi er maydoni bo'shadi. Bu erlarning qariyb 80 hektari ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish ob'ektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi.

Davlat mulki shaklidagi yana 319 ta ana shunday ob'ekt inventarizatsiya qilinib, xususiy mulk shakliga o'tkazish uchun savdoga qo'yildi va o'tgan yili ularning 102 tasi yangi mulkdorlarga sotildi. Bundan tashqari, 378 ta aktsiyadorlik jamiyatining davlat ulushi baholandi va chet elliq strategik investorlarga sotish uchun ochiq savdoga qo'yildi.

Izchil rivojlanayotgan va muvaffaqiyatlari faoliyat yuritayotgan "Navoiyazot", "Farg'onaaazot", "Urganch ekskavator", "Qizilqumtsegment", "Jizzax akkumulyator zavodi" aktsiyadorlik jamiyatlari kabi korxonalar, "A loqabank", "Turonbank" singari banklar, "O'zagrosug'urta" kompaniyasi va boshqa muassasalardagi davlatga tegishli aktsiyalar ham savdoga qo'yildi. SHu tariqa 52 ta aktsiyadorlik jamiyatidagi savdoga qo'yilgan davlat ulushi xususiy mulkdorlarga sotildi. Jumladan, "Qo'qon yog'-moy zavodi" aktsiyadorlik jamiyatining davlatga tegishli aktsiyalar 2 million 500 ming dollarga sotildi<sup>1</sup>.

YUqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston jahonda bugungi kungacha davom etayotgan iqtisodiy-moliyaviy inqirozi sharoitida barcha sohalar bo'yicha barqaror rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlari negizida milliy g'oya nazariyasi turganligini alohida ta'kidlash lozim. Milliy g'oyaning mamlakatimizda yashayotgan barcha insonlar millati, diniy e'tiqodi, yashash joyi va jinsidan qat'iy nazar jamiyatimizning barchalari manfaatlariga xizmat qilib kelmoqda. SHuning uchun ham uni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Milliy g'oya taraqqiyotimizga xizmat qiladigan vazifalar belgilangancha, ular jahonda kechayotgan global inqirozlardan O'zbekistonning talofatlar ko'rmasdan o'tishida amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

*Global inqirozlar sharoitida milliy g'oya rolining ortib borishi quyidagilar bilan bog'liq:*

**Birinchidan**, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash va demokratik jamiyatni qurish vazifalarini talabalar ongiga etkazish hamda ularning bu jarayonda faol ishtrok qilishiga erishish bilan;

**Ikkinchidan**, mamlakatimiz yoshlarini barkamol inson qilib tarbiyalash vazifalarini milliy g'oya o'zining ifodasini topganligi hamda ularni real amaliyotga aylantirish bilan;

**Uchinchidan**, jahonda siyosiy jarayonlarning avj olayotgan sharoitida, ayniqsa ayrim taraqqiy topgan mamlakatlarning ayrim mintaqalar va mamlakatlarga «

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// "Xalq so'zi", 2016 yil 16 yanvar.

demokratiya» ni ko'chirish bahonasida vujudga kelayotgan beqarorlik, fuqarolar urushlarini va boshqa salbiy xolatlarning maqsadlarini, hamda ular natijasi o'laroq begunoh insonlarning qurbon bo'layotganligini talabalarga etkazish va ularning ongida siyosiy ogohlilik, Vatanimizda barqaror taraqqiyot uchun fidoiylik ruhiyatini shakllantirish vazifalari bilan;

To'rtinchidan, dunyoda xokimiyatni qo'lga kiritish uchun kurashayotgan turli siyosiy kuchlar, ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm va boshqa siyosiy oqimlarning maqsadalarini yoshlarmiz ongiga etkazish, ular ongi va qalbida bunday yozuv kuchlarga qarshi tura oladigan g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish;

Beshinchidan, dunyoda ketayotgan global inqirozning yanada chuqurlashayotgani, bunday sharoitda mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, uning yoshlarni bu jarayon bilan yaqindan tanishtirish, ularning mamlakatimizda bu salbiy jarayonlar yuzaga kelmasligi uchun yuksak darajadagi vatanparvar va yaratuvchilik yo'lida fidoiylik ko'rsatish ruhiyatini shakllantirish kabi o'ta murakkab vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Milliy g'oya ularни amalga oshirishda nazariy asos bo'ladi.

Ayni paytda "milliy g'oya" fanining predmetini tashkil qilgan quyidagi keng qamrovli vazifalarni o'z ichiga jamlagani ham, uning jamiyatimizda rolining ortib borishiga olib kelmoqda:

1.Hozirgi davrning g'oyaviy-mafkuraviy manzarasi qanday? Unda qaysi mafkulalar ustuvor bo'lmoqda, degan masalalarning mohiyatini tushunish nihoyatda muhim. CHunki, hozirgi davr-g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlardan ham xafliroq bo'lib borayotgan shafqatsiz davtdir.

2.Tajavuzkor millatchilik va shovinism, neofishizm va neokommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkulalari dunyodagi tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotga rahna solishga harakat qilmoqda. Ushbu mavzuni o'rgatish, mazmun-mohiyatini bilib olish katta ahamiyatga ega.

3.Jahon taraqqiyotining muhim xususiyatlaridan biri keng miyosli integratsiya va globallashuv jarayonlarni har tamonlama o'rganish, ayniqsa uning ijobiy va salbiy jihatlarini bilish ham hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

4.Hozirgi davrda jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar keskin tus olib bormoqda. Buning boisi davr o'zgardi. Endi harbiy zo'ravonlik jahon jamoatchiligi tomonidan qoralanmoqda. Zamonaviy, yalpi-qirg'in qurollari boshqa davatlarda ham mayjud. Bu holat kimning g'oyasi kuchli, mafkurasi hayotiy bo'lsa, o'sha g'alaba qilishimi ko'rsatmoqda. YA'ni, odamlarning ongini egallash uchun kurash mavzuni yanada chuqurroq o'rganishi taqazo qiladi.

5.Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlarga alohida ahamiyat berish lozim. CHunki, bu mintaqa o'zining iqtisodiy salohiyati, qulay geostrategik mavqeい bilan jahondagi ko'pgina kuchlarning diqqatini tortib kelmoqda. ular bu mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, davlatlararo hamdo'stlik, milltlararo totuvlikni zaiflashtirish, turli

keskinlik nuqtalarini yuzaga keltirish uchun mafkuraviy xurujlar uyuştirmoqda. “Milliy istiqlol g’oyasi” predmeti doirasida ushu mavzuni o’rganish, bilish muhim ahamiyatga egadir.

6.O’zbekistonning mustaqil rivojlanishi, taraqqiyotning o’zbek modeli, uning mohiyati, mazmuni, ana shu jarayonda yuzaga kelgan “g’oyaviy bo’shliq” tushunchasi, uni to’ldirish zarurati masalalarini o’rganish ham ushu fan doirasiga kiradi.

7.Jamiyat taraqqiyoti xususan, mustaqil O’zbekiston taraqqiyoti ham inson omilisiz amalga oshmaydi. Ana shu ma’noda kishilarimiz ruhiyati, tafakkuri, maqsadini, e’tiqodi va falsafasini-ya’ni,ki dunyoqarashini o’zgartirish muhim ahamiyatga ega. Milliy mafkura esa ana shu jarayonga yo’naltirilgan.

8.Har qanday g’oya va mafkura o’z zamini, tarixiy ildizlari falsafiy asoslariga ega bo’ladi. Milliy istiqlol g’oyasi va mafkurasi ham bundan mustasno emas. Bu fan o’rganadigan masalalar qatoriga milliy istiqlol g’oyasining tarixiy ildizlari, falsafiy asoslari, ilmiy negizlari ham kiradi.

9.YUqoridagilardan tashqari bu fan doirasida milliy istiqlol g’oyasining o’zagini tashkil etadigan quyidagi asosiy g’oyalar: Vatan ravnaqi; Yurt tinchligi; Xalq farovonligi; Komil inson; ijtimoiy hamkorlik; millatlararo totuvlik; dinlararo bag’rikengilik, tolerantlik masalalari ham o’rganiladi.

10.Milliy g’oyani xalqimiz, xususan, yoshlar ongiga singdirishning yo’llari, usullari va vositalari masalalarini o’rganish ham muhim mavzu sanaladi.

SHunday qilib, global ijtimoiy-inqirozlar sharoitida milliy g’oya rolining ortib borayotganligi mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, barkamol insonni tarbiyalash va yoshlarimiz ongida siyosiy ogohlilikni shakllantirish hamda mamlakatimiz manfaatlari yo’lida fidoiylik ko’rsatish ruhiyatini mustahkamlash vazifalari bilan bog’liqdir.

Bu vazifalarni bajarish avvalo, O’zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasiga yozgan so’z boshida belgilab berilgan quyidagi asosiy maqsad bilan uzviy bog’liq: “Xalqni buyuk kelajak va ulug’vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat’iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma’suliyat sezib yashashga chorlash, ajdolarimiz bebafo merosi, milliy qadriyat va an’analaramizga munosib bo’lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlami tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariiga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish-milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir”.

Ana shu bosh maqsad bu to’g’ridagi o’quv fanining ham asosiy vazifalarini belgilaydi. Avvalo, bu fanning asosiy vazifasi xalqimiz, har bir fuqaro, jumladan, yoshlarimiz ongida yangi dunyoqarashni shakllantirishga qaratilganligini aytish joiz. Bu vazifani bajarish esa, mamlakatimiz rivojlanishidagi strategik maqsadlarni g’oyaviy jihaddan chuqur o’zlashtirish bilan bog’liq.

### **Taqrorlash uchun savollar:**

- 1.O'zbekistonda globallashuv jarayoni salbiy oqibatlarini bartaraf qilishda milliy g'oyaning roli nimadan iborat?
- 2.Global muammolar echimida g'oyaviy-mafkuraviy murosa (konsensus) va bag'rikenglikning ahamiyatining asoslab bering.
- 3.Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy integratsiyaning tarixiy zaruriyati va yo'nalishlari.
- 4.O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Ona yurtimiz bahtu-iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir” nomli asarining tarixiy ahamiyati nimadan iborat?
- 5.Dunyoning global mafkuraviy manzarasi shakllanishida milliy g'oyaning o'rnnini asoslang.

## XULOSA

Jamiyat rivojlanishida va yuksalishida ma'naviy-g'oyaviy taraqqiyotning ahamiyati beqiyosdir va u, eng avvalo, fuqarolarning dunyoqarashi, ongi, tafakkuri, saviyasi, madaniyati, ma'naviyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Jamiyatimiz yangilanish jarayonlarini boshidan kechirayotgan hozirgi paytda har bir yoshning aqliy salohiyati, intellektual qobiliyati, tafakkurlash madaniyatini yuksaltirish va yanada rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur vazifani bajarishda yosh avlodimizni sharqona axloq-odob me'yorlari, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarmiz asosida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyatni shakllantirish kerak. Ma'naviyatning shakllanishi qonuniy, dialektik jarayon bo'lib, jamiyat ma'naviy-g'oyaviy rivojlanishining zaruriy shartidir.

Inson kamolotining yuksalishi hayotimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy va boshqa sohalarida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarning qonuniy oqibatidir. Bundan yaqqol ko'rinish turibdiki, inson kamolotining rivojlanishi va yuksalishi kishilarning bunyodkorlik faoliyati, ularning aql-zakovati, fidokorona mehnati bilan bevosita bog'liqdir.

Respublikamiz buyuk davlat sari sobitqadamlik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi paytda odamlarning tafakkuri va hayotga bo'lgan munosabati o'zgarmoqda. O'tmish qoliplaridan voz kechgan jamiyatimiz a'zolari hayotdagi o'z o'rmini yangicha tasavvur etmoqda, o'z kuchiga ishonchi ortib borinoqda. Kishilarimiz ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlamoqda. Bu yillar davomida biz erishgan eng katta va eng muhim yutuq – bu aholi faolligining oshayotgani, hayotimizni isloh etish va yangilash zarurligiga, mamlakatimizning kelajagiga bo'lgan qat'iy ishonchidir.

O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'rif etgan ma'naviy barkamol, etuk kishilarga O'zbekistonning bugungi va kelajakdagi hayotini ta'minlaydi. Mustaqillik o'zining keng va salmoqli insoniy tayanchiga ega bo'limas ekan, u mustahkamlanmaydi ham, rivojlanmaydi ham. Jamiyatimizning insoniy tayanchini alohida kishilar yoki ularning mexanik yig'indisi emas, balki o'z maqsadlarini, o'z manfaatlarini chuqur anglagan, ularni davlat va davr talablari bilan uyg'unlashtira oladigan turli ijtimoiy tabaqalar, guruqlar, sinflar tashkil etadi.

Mamlakatimizda turli xil mulkchilik shakllarining qaror topishi jarayonida ijtimoiy tabaqalanishning o'sishi kuchaymoqda. Ammo bunday tabaqalanish jamiyatni mafkuraviy yoki siyosiy jihatdan bo'lib yubormasligi kerak. Buning uchun *birinchidan*, umummilliy manfaatlarga xizmat qiluvchi g'oya zarur, *ikkinchidan* esa, fikrlar va qarashlar rang-barangligi jamiyat uchun qarama-qarshiliklar manbaiga emas, balki muammolar echimini topish manbaiga, yangi tashabbuslar, ilg'or g'oyalar, umuman jamiyat yangilanishining ma'naviy manbaiga aylanishi lozim. Buning uchun mafkuraviy plyuralizm huquqiy jihatdan mustahkamlanib, jamiyatda odat tusiga kirishi, keng ma'noda jamiyat tafakkurining uslubiga aylanishi lozim.

Ma'naviy-g'oyaviy taraqqiyot jamiyatdagi milliy munosabatlarni rivojlantirishda, mamlakatimizda barqarorlik, tinchlikni saqlab, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda millat va elatlar o'rtaсидаги do'stlikni kuchaytirish, ularning hamkorligini mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi. YOshlarimizda milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'ururning o'sishi demokratik o'zgarishlarning qonuniyat oqibatidir. Bu qonuniyatning izchillik bilan amalga oshirilishida davlatimiz tomonidan turli millat vakillarining milliy manfaatlarini himoya qilish va milliy munosabatlarni oqilona hal qilish siyosati alohida o'rın tutadi.

Mustaqillikning taqdiri, O'zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda, odamlarga, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy etuklik darajasiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olishlariga bevosita bog'liq. Jamiyat taraqqiyotini, mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni mafkurasiz tasavvur etish mumkin emas.

Insonning, har bir yoshning faoliyati uning ilg'or mafkuraga qat'iy amal va e'tiqod qilishiga bog'liq. Jamiyat manfaati va milliy istiqlol yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etishga tayyor turgan etuk insonlar, yoshlar, fidoyilar bo'lmasa, O'zbekistonni dunyodagi eng qudratlari, ilg'or davlatga aylantirish mumkin emas. Mustaqil O'zbekistonning eng yaqin hamda uzoq kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ana shu vazifalarni mafkuraviy ishlarni jonlantirmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Mafkura kishilarda, har bir yoshda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g'uruning o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, u xalqimiz va millatimizning kuch-qudrati hamda imkoniyatlariga, g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun va yaxlitligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik munosabatlariga qarshi murosasiz kurash olib borishga keng jamoatchilikni da'vat etadi.

Mafkura milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikning kuchayishiga ko'mak beradi. U etuk milliy ong, milliy g'urur, milliy qadriyatlar, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usi zaminida shakllanadigan vatanparvarlikni ham o'z ichiga oladi. **YOshlarda ona zaminga bo'lgan muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa**, Vatanni sevish, yuksak darajada e'zozlash tuyg'usi kuchayib borsa, har bir inson o'z Vatani tarixini, milliy qadriyatlarini, o'z xalqining tili, madaniyati, milliy urf-odatlarini mukammal bilsa, milliy manfaatlarini, millat taqdiri va istiqbolini chuqur anglab etgan bo'lsa, jamiyatimiz shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi.

Milliy mafkura respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash, O'zbekistonni kelajakda buyuk davlatga aylantirish, inson haq-huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni, demokratiyani to'la qaror toptirish, millatimiz va mamlakatimiz istiqboli muammolarini hal etishni birinchi o'ringa qo'yish yo'lida aniq maqsadlarga qaratilgan, ilmiy asoslangan xilma-xil bilimlar va xulosalarining muayyan tizimidir.

Milliy mafkura xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi va uni o'zida ifoda etadi. Milliy istiqlol mafkurasi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlariga

asoslanadi. Ular mafkuramizning tamal toshini tashkil etadi. Milliy, umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy, badiiy, falsafiy, diniy, huquqiy qarashlar va g'oyalar nafkuramizning insonparvar mohiyatini yanada to'ldiradi va boyitadi, zaminni nustahkamlaydi, ta'sirchanligini oshiradi, amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Bugungi kunda jamiyatdagi iqtisodiy o'sish bilan bozor islohotlarining adallahishi o'rtaida ijobji muvozanat shakllanayotganligi kuzatilmogda. Ta'lim olish va ish bilan ta'minlanish imkoniyati yoshlarning sog'lom turmush tarziga, nuquqbazarlik sonining kamayishiga olib kelishi tabiiydir. SHuning uchun ham oshlar holatini yanada yaxshilash, jamiyatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonida ularga yangi avlod, muhim insoniy resurs hamda islohotlarni amalga oshirishda kattalarning faol hamkor sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Adabiyotlar:**

### **Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston” 2014.
- 2.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi//Barkamol avlod – O'zbekisto taraqqiyotining poydevori. –T.: “SHarq”, 1998.
- 3.Respublika “Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tuzus to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 23 aprelda Farmoni. Internet sayti// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim-tarbiya va kadr tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazis to'g'risida”gi Farmoni. 1997 yil 6 oktyabr// Barkamol avlod – O'zbekisto taraqqiyotining poydevori. –T.: “SHarq”, 1998.
- 5.“Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanad takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida”. O'zbekisto Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 sentyabrdagi Farmoni// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 6.“Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashini qo'llab-quvvatlas to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3 oktyabrdagi Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 7.“Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 avgustdagagi Farmoni// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 8.“YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalas mam'lakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhi sharti” mavzuidagi xalqaro konferentsiyaning yakuniy hujjati – rezolyutsiyasi “Ma'rifat”, 2012 yil 22 fevral.
- 9.“Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojanishini ta'minlashga, xususi mulkni har tomonlama ximoya qilishga va ishbilarmonlik muxitini sifat jihatida yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekisto Respublikasi Prezidentining Farmoni// Xalq so'zi, 2016 yil 6 oktyabr.
10. “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq v erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirla to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni// Xalq so'zi, 201 yil 22 oktyabr.
11. “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kenqaytirishga do qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentinin Farmoni// Xalq so'zi, 2016 yil 28 oktyabr.

## Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.— T.: "O'zbekiston", 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li.— T.: "O'zbekiston", 1992.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: "O'zbekiston", 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T.: "O'zbekiston", 1995.
5. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: "O'zbekiston" 1997.
6. Karimov I.A. Xotira chirog'i o'chmaydi. – Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7 – Jild. – T. : "O'zbekiston", 1999.
7. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. 7-Jild. –T.: "O'zbekiston", 1999.
8. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q/ Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-Jild.— T.: "O'zbekiston", 1999.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: "O'zbekiston", 1999.
10. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 8 –Jild. –T.: "O'zbekiston", 2000.
11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-Jild. –T.: "O'zbekiston", 2000.
12. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. O'zbek xalqi hech qachon hech kimnga qaram bo'lmaydi. 13-Jild.-T.: "O'zbekiston", 2005
13. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch.—T.: "Ma'naviyat", 2008.
14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choraları. – T.: "O'zbekiston", 2009.
15. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi.—T.: "O'zbekiston", 2010.
16. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-Jild. – T.: "O'zbekiston", 2011.
17. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.—T.: "O'zbekiston", 2011.
18. Karimov I.A. Inson xotirasi – boqiy, qadr-qimmati – ulug'// "Xalq so'zi", 2012 yil 10 may.
19. Karimov I.A. Bosqı maqsadimiz – keng ko'lamlı islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: "O'zbekiston", 2013.

20. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lid xizmat qilish – eng olyi saodatdir. – T.: “O'zbekiston”, 2015

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mam'lakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilg mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarig bag'i shlangan Vazirlar Mahkamasing majlisidagi ma'ruzasi// “Xalq so'zi”, 2016 yil 16 yanvar.

22. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch v osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafo latidir/O'zbekiston Respublikasi Prezidentiigigan nomzod SH.Mirziyoevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratil partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi// “Xalq so'zi”, 2016 yil 2 noyabr.

#### **Adabiyotlar:**

1. Barkamol avlod orzusi. - T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 2000.
2. Bugungi dunyoning maskuraviy manzarasi. -T.: “Ijod dunyosi”, 2002
3. Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan. (ilmiy–ommabop risola). - T.: “O'qituvchi”, 2011.
4. Diniy ekstremizm va fundamentalizm: tarixi, moxiyati, bugungi xavfi – T.: “G'ofur G'ulom”, 1999.
5. Juraev T., Akobirov S. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik. -T. “Akademiya”, 2007.
6. Islomov Z. M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratil taraqqiyot sari. – T.: “O'zbekiston”, 2005.
7. Levitin L., Donald S. Karlayl. Islom Karimov – yangi O'zbekiston Prezidenti. -T.: “O'zbekiston”, 1996.
8. Milliy istiqlol g'oyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lin bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: “Akademiya”, 2005.
9. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalari lug'ati.-T. “Akademiya”, 2007.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T. O'zbekiston, 2001.
11. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamala (qisqacha izohli tajribaviy lug'at). -T.: “Yangi asr avlod”, 2002.
12. Milliy g'oya nazariy manbalar. Xrestomatiya.-T.:“Akademiya”, 2007.
13. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati.-T.: «Akademiya», 2007
14. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikengilik – taraqqiyot omili. -T. “Fan va texnologialar”, 2003.
15. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. T.: “O'zbekiston”, 2007

16. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'nnaviy negizlari.-T.: "Universitet", 2001.
17. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at.-T.: "SHarq", 2006.
18. Nazarov Q.N. G'oyalar falsafasi.-T.: "Akademiya", 2011.
19. Nizom F. Y Angelanish an'anasi. -T.: "Ma'naviyat", 1998
20. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.: "SHarq", 2001.
21. Otamuratov S. Globalashuv va milliy ma'nnaviy xavfsizlik.-T.: "O'zbekiston", 2013.
22. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi.-T.: "Akademiya", 2005.
23. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar.-T.: "Yangi asr avlod", 2001.
24. Ochildev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar.-T.: O'zbekiston, 2004.
25. Tog'aev SH. Milliy g'oyaning davlat va jamiyat qurilishiga doir mazmunini yoritish masalasi. -T.: TAQI, 2007.
26. Raxmonov R., Fayziev F. YOshlar dunyokarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira.- T.: "O'zbekiston", 2008.
27. Siyosiy partiylar mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida.-T.: "G'afur G'ulom", 2009.
28. Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish — davr talabi. - T.: "Mehnat", 2000.
29. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova K. Falsafa.-T.: "Fan va texnologiyalar", 2016.
30. Tulenov J., Tulenova G. Istiqlol va millatlararo munosabatlar taraqqiyoti.-T.: "Aloqachi", 2006.
31. Tulenova G. Barkamol yosh avlod – istiqlol tayanchi.-T.: "Fan va texnologiyalar", 2005.
32. Tulenova G. Ma'nnaviy etuklikdan ijtimoiy faoliyk sari.- T.: "Aloqachi", 2008
33. Tulenova G. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar . O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kursidan ma'ruzalar matni.- T.: TATU,2014
34. Tulenova G. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanidan atamalar izohli lug'ati.- T.: TATU,2016.
35. To'raev B., Ramatov J. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. -T.: "Ijod dunyosi", 2002.
36. To'raev SH. Demokratik jarayonlar va milliy g'oya.-T.: "Ma'naviyat", 2008.
37. Хантингтон С. Неуправляемость демократии? Демократия 90-х// "Глобальные проблемы переходного периода" специальный выпуск, 1993.
38. O'zbekiston: siyosiy islohotlar strategiyasi, erishilgan natijalar va istiqboli. -T.: "Akademiya", 2010.

40.O'zbekistonda ma'naviyat sohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishgan natijalar va istiqboli (S.Otamuratov va boshq.)- T.: "Akademiya", 2011.

41.O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va maskuraviy jarayonlar. – T.: "Ijod dunyosi", 2002.

42.O'zbekistonning yangi tarixi. 3-Jild. // Tuzuvchilar: N. Jo'raev, T. Fayzullaev/.-T.: "SHarq", 2000.

#### **Elektron manbalar:**

1. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz).
2. [www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz).
3. [www.literature.uz](http://www.literature.uz).
4. [www.Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).
5. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
6. [www.press.uz](http://www.press.uz)
7. <http://istiqlol.samdu.uz/uzc/article/48#nt2>
8. <http://istiqlol.samdu.uz/uzc/article/74>

## MUNDARIJA:

KIRISH.....	2
1-Mavzu: "Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	4
2-Mavzu: O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning milliy g'oya nazariyasi va amaliyoti bilan uyg'unligi.....	15
3-Mavzu: O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va taraqqiyot yo'lining belgilab olinishi.....	30
4-Mavzu: O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos yo'li. Taraqqiyotning "O'zbek modeli".....	46
5-Mavzu: Ijtimoiy-siyosiy sohaning g'oyaviy asoslарини o'zgarishi va rivojlanish strategiyasi.....	66
6-Mavzu: Ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri va kadrlar tayyorlashning milliy modeli.....	82
7-Mavzu: Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda inson omili, erkinligi va manfaatlarning ustuvori ligi.....	92
8-Mavzu: O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalashuv'i va uning istiqboli... ..	110
9-Mavzu: Ijtimoiy-iqtisodiy barcharorlik va tinchlikni ta'minlashning g'oyaviy-konseptual asoslari.....	122
10-Mavzu: Global ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va milliy g'oyaga ehtiyoj istiqbollari.....	148
XULOSA.....	162
ADABIYOTLAR.....	165

“Milliyg’oya: O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodi  
rivojlanish strategiyasi“ kursidan ma’ruzalar matr  
(o’quv-uslubiy qo’llanma)

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) “Gumanitar fanlar  
kafedrasи (2016 yil 5 oktyabr, 9 – son bayyonnornasi) dag  
TATU AKTS KT fakulteti ilmiy-uslubiy Kengash  
(2016 yil 8 noyabr, 3- son bayyonnornasi)dagи yig’ilishlarida  
TATU ilmiy-uslubiy Kengashi (2016 yil 17 noyabr  
3 (94) - son bayyonnornasi)daq  
yig’ilishlarida muhokama etilib, bosishga tavsiya etild

**Tuzuvchi:** f.f.d., professor Tulenova G.J.,  
katta o’qituvchi Yunusov L.E.

**Muharrir:** f.f.n., dotsent Sagdullaeva D.SH

Bichimi 60x84 1/16. Bosma tabog’i 10.75  
Adadi 30. Buyurtma № 4.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
“Muxarriilik nashr” bo’limida chop etildi.  
Toshkent sh. Amir Temur ko’chasi 108-uy.



